

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT KIMYO TEXNOLOGIYALAR INSTITUTI

X. MIRZAKULOV, I. SHAMSHIDINOV,  
Z. TO'RAYEV

# MURAKKAB O'G'ITLAR ISHLAB CHIQARISH NAZARIYASI VA TEXNOLOGIK HISOBLARI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim  
vazirligi muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan  
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*



Toshkent  
«IQTISOD-MOLIYA»  
2013

**UO'K: 63(075)**

**KBK: 35.32**

**M-74**

- Taqrizchilar:**
- Sh.S. Namazov tex.f.d., prof.;
  - M.X. Aripova tex.f.d., prof.

Mirzakulov X.

**M-74 Murakkab o'g'itlar ishlab chiqarish nazariyasi va texnologik hisoblari.** X. Mirzakulov, I. Shamshidinov, Z. To'rayev O'quv qo'llanma / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent kimyo texnologiyalar instituti. T.: «IQTISOD-MOLIYA», 284 bet.

Ushbu o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining 5A320404 – Mineral o'g'itlar kimyoviy texnologiyasi mutaxassisligi talabalari uchun mo'ljallangan. Undan shuningdek, 5A320401 – Noorganik moddalar kimyoviy texnologiyasi, 5A111001 – Kasb ta'limi (5320400-Kimyoviy texnologiya) magistratura mutaxassislari hamda mutaxassisligi yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlarga muvofiq keladigan bakalavriat bosqichi talabalari, kasb-hunar kolleji o'qituvchilari, mineral o'g'itlar va noorganik moddalar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi muhandis-texnik xodimlar ham o'z faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

O'quv qo'llanma 6 bobdan iborat bo'lib, undagi ma'lumotlar tegishli magistratura mutaxassisligi o'quv rejasi va fan dasturi asosida yozilgan, unda murakkab o'g'itlar ishlab chiqarish usullarining respublikamizda va xorijiy mamlakatlarda qo'llanilayotgan texnologiyalari, shuningdek, mualliflar tomonidan yaratilgan va sanoat miqyosida sinovdan o'tkazilgan yangi texnologiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar hamda ularga tegishli bo'lgan texnologik hisoblar batafsil bayon etilgan. Murakkab o'g'itlar texnologiyasining umumiy ilmiy asoslari ishlab chiqarish usullari bilan uyg'unlashgan holda ko'rsatib o'tilgan.

**UO'K: 63(075)**

**KBK: 35.32ya73**

ISBN 978-9943-13-454-6

© «IQTISOD-MOLIYA», 2013  
© Mirzakulov X.CH., Shamshidinov I.T.,  
To'rayev Z., 2013

## SO'ZBOSHI

Mamlakatimiz xalq xo'jaligini mineral xomashyoga bo'lgan talabini amalda to'la ta'minlashga imkoniyati bo'lgan qudratli xomashyo bazasiga ega. O'zbekiston hududida tabiiy gaz, neft, ko'mir, oltingugurt, rangli metallar rudasi va boshqa xomashyolar bo'lganligi uchun mamlakatimizda yirik kimyo sanoatlari mavjud. Prezidentimiz I.A.Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari asarida ko'rsatib o'tilganidek: «O'zbekiston o'z yerosti boyliklari bilan haqli ravishda faxrlanadi – bu yerda, mashhur Mendeleyev davriy sistemasining deyarli barcha elementlari topilgan... Bir qator foydali qazilmalar, chunonchi, oltin, uran, mis, tabiiy gaz, volfram, kaliy tuzlari, fosforitlar, kaolinlar bo'yicha O'zbekiston tasdiqlangan zaxiralar va istiqbolli rudalar jihatdan MDHdagina emas, balki butun dunyoda ham yetakchi o'rinni egallaydi ... Ishlab chiqarish va sotsial infrastruktura, malakali kadrlar, tog'-kon mutaxassislari tayyorlaydigan oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari tizimi mavjud...».

Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ishlab chiqarish korxonalarini uchun malakali va yuksak salohiyatli kadrlar tayyorlashda «Murakkab o'g'itlar ishlab chiqarish nazariyasi va texnologik hisoblari» fanining maqsadi talabada murakkab o'g'itlar ishlab chiqarishda xomashyo va boshqa ikkilamchi materiallardan samarali foydalanish, sanoatning mineral xomashyo bazasini rivojlantirish, boshlang'ich xomashyo tannarxini pasaytirish va sifatini oshirish orqali ishlab chiqarish iqtisodiyotini ko'tarish hamda atrof-muhit muhofazasini yaxshilash kabi muhandislik, shuningdek prezidentimiz asarlarida keltirilgan O'zbekiston Respublikasining barqarorligini ta'minlashda va tarraqqiyotini kafolatlashda muhim o'rin tutadigan sanoat xomashyolari turlari va ularning zaxiralari, qayta ishslash usullarini chuqr o'rganish, zamonaviy ishlab chiqarish

texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq eta olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Qo'yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda zamonaviy texnika va texnologiyalarni ishlatish, yosh avlod ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish maqsadida jahon standartlari darajasidagi fan va texnika hamda ilg'or tajriba va texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlaridan boxabar bo'lgan, raqobatbardosh, o'z sohasining ham ilmiy, ham amaliy bilgan muhandis kadrlarni tayyorlashda 5A320401 – Noorganik moddalar kim-yoviy texnologiyasi hamda 5A320404 – Mineral o'g'itlar kimyoviy texnologiyasi mutaxassisliklari «Mutaxassislik fanlari» blokining asosiy fanlaridan biri bo'lgan «Murakkab o'g'itlar ishlab chiqarish nazariyasi va texnologik hisoblari» fanini chuqur o'rghanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu o'quv qo'llanma magistratura mutaxassisligida o'qitiladigan «Murakkab o'g'itlar ishlab chiqarish nazariyasi va texnologik hisoblari» fanining amaldagi dasturlari asosida tayyorlandi.

O'quv qo'llanmadagi materiallar Respublikamizning murakkab o'g'itlar ishlab chiqarish sanoati korxonalarining istiqbolli yo'nalishlarini hisobga olgan holda yoritilgan bo'lib, unda murakkab o'g'itlar ishlab chiqarish usullarining respublikamizda, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida va chet ellarda qo'llanilayotgan texnologiyalar, shuningdek, mualliflar tomonidan yaratilgan, sanoat miyisosida sinovdan o't-kazilgan yangi texnologiyalar to'g'risida bayon etilgan hamda tegishli hisoblash usullari keltirilgan. Har bir bob oxirida mavzularga tegishli bo'lgan nazorat uchun savollar keltirilgan. Ulardan talabalarning «Murakkab o'g'itlar ishlab chiqarish nazariyasi va texnologik hisoblari» fani bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilishda foydalanish mumkin.

## KIRISH

Agrosanoat kompleksini jadallashtirish omillaridan biri – qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan mineral o'g'itlardan samarali foydalanishdir. Bunda ishlab chiqarilayotgan mineral o'g'itlar assortimentini kengaytirish, xomashyo zaxiralaridan samarali foydalanish orqali mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy tejamkor va ekologik samarador texnologiyalarini yaratish hamda sanoatga tatbiq etish muhim o'rinn tutadi.

Respublikamizda bir nechta mineral o'g'itlar sanoat korxonalari mavjud bo'lib, ularda azotli, fosforli va kaliyli oddiy o'g'itlar hamda azot-fosforli, azot-kaliyli va azot-fosfokaliyli murakkab o'g'itlar ishlab chiqarilmoqda. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy mahsuloti paxta va dondir, bunda yiliga paxtadan 3 mln t va bug'doydan 7,5 mln t hosil olinmoqda. Ma'lumki, har bir tonna paxta hosili olish uchun yiliga tuproqdan 45 kg azot, 15 kg P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> va 45 kg K<sub>2</sub>O, har bir tonna bug'doy uchun esa 35 kg azot, 10 kg P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>, 24 kg K<sub>2</sub>O o'zlashtiriladi. Bu esa qishloq xo'jalik mahsulotlari (paxta va don) yetishtirishda ekin maydonlaridan yiliga 310 ming tonna azot (N hisobida), 115 ming tonna fosfor (P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> hisobida) va 255 ming tonna kaliy (K<sub>2</sub>O hisobida) ozuqa elementlarini o'zlashtiradi. Bundan tashqari, 2012-yilda 9 mln t meva-sabzavot, 2 mln t kartoshka yetishtirilgan va shu bilan birga boshqa turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlari ham tuproqdan o'zi bilan katta miqdordagi ozuqa elementlarini olib chiqadi.

Fosfor, azot va kaliy o'simlik uchun eng zarur ozuqa moddalardir. O'simlik bu elementlarni tuproqdan oladi. Tuproqda bu moddalarning miqdori yildan-yilga kamayib, tuproqning unumдорligi pasayib boradi va bu ekinning hosildorligiga salbiy ta'sir etadi. Tuproqning unumдорligi oshishi uchun yer yetarli darajada o'g'itlanishi kerak. O'zbekiston paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti ma'lumotlariga ko'ra, mineral o'g'itlarsiz paxtadan 12 s/ga hosil olish

mumkinligi, hosildorlikni 30-35 s/ga yetkazish uchun tuproqqa gektariga 225 kg azot, 150 kg fosfor, 100 kg kaliy ozuqa elementlari solish hamda agrotexnik qoidalarga to‘g‘ri amal qilish lozimligi aniqlangan.

D.I. Mendeleyev davriy jadvalidagi 40 dan ortiq kimyoviy elementlar o‘simliklarning normal holatda o’sishi va rivojlanishi uchun zarur. Jumladan, azot, fosfor, kaliy, kalsiy, oltingugurt va magniy o‘simliklarning asosiy ozuqa moddalari tarkibiga kiradi. Tuproq unumdorligini oshirishda va undan olinadigan hosildorlikni ko‘tarishda qo’llaniladigan barcha mineral o‘g‘itlar ichida fosforli o‘g‘itlar yetakchi rol o‘ynaydi. Fosforli o‘g‘itlarga bo‘lgan talabni qondirish fosfat xomashyolarini qazib olish va qayta ishlash korxonalarining quvvatini oshirish asosida amalga oshiriladi. Ishlab turgan korxona uskuna va qurilmalaridan foydalaniб, qisqa muddatda mahalliy xomashyo manbalarini qayta ishlash orqali o‘g‘itlar olish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaroriga binoan respublika qishloq xo‘jaligining fosforli o‘g‘itlarga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlash maqsadida Qizilqum fosforit kombinati tashkil etildi. 1998-yil 29-maydan boshlab quvvati yiliga 300 ming tonna bo‘lgan fosforit uni ishlab chiqarila boshlangi. 2001-yil 21-avgustdan esa yiliga tarkibida 27-28 %  $P_2O_5$  bo‘lgan 400 ming tonna termokonsentrat, 2005-yildan boshlab esa qo‘srimcha ravishda 200 ming tonna tarkibida 18-21 %  $P_2O_5$  bo‘lgan yuvib quritilgan fosforit konsentrati va 200 ming tonna tarkibida 16-19 %  $P_2O_5$  bo‘lgan boyitilmagan fosforit xomashyosi yetkazib berilmoqda. Ulardan yuqori sifatli azot-fosforli o‘g‘itlar – ammosos, suprefos va boshqa turdagи murakkab o‘g‘itlar ishlab chiqarilmoqda.

Hozirgi paytda Respublikamizdagи «Maksam-Chirchiq» OAJda ammiakli selitra, karbamid, karbamid-ammiakli selitra (KAS) eritmalar, ammiak, nitrat kislota, kaliy sulfat va boshqalar, «Farg‘onaazot» OAJda ammiakli selitra, karbamid, KAS eritmalar, NPK, ammiak, nitrat kislota va boshqalar, «Ammofos-Maksam» OAJda ammosos, superfos va boshqalar, «Samarqandkimyo» OAJda nitrofos va boshqalar, «Qo‘qon superfosfat zavodi» YOAJda ammoniyashgan oddiy

superfosfat, Navoiy «Elektrokimyosanoat» YOAJda oddiy superfosfat, «Dehqonobod kaliyli o‘g‘itlar zavodi» korxonasida kaliy xlorid mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda.

Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida fosforit, toshko‘mir, glaukonit, bentonit, gips va boshqa xomashyo zaxiralarini joylashgan. Guliob fosforitlarining 100 %  $P_2O_5$  hisobidagi zaxirasi 551 mln tonnani tashkil etadi. U tarkibi jihatidan ma’lum fosforitlardan keskin farq qilib, unda 4-14 %  $P_2O_5$ , oz miqdorda magniy, fтор, oltingugurt va mikroelementlar ham mavjuddir. Hozirgi kunda Guliob fosforiti va Qizilqum fosforit kombinatida tarkibida 12-16 % va 16-19 %  $P_2O_5$  bo‘lgan fosfat xomashyosini qayta ishslash orqali oddiy va murakkab o‘g‘itlar olishning samarador usullari bo‘limganligi sababli mazkur fosforitlardan amalda foydalanish yo‘lga qo‘yilmagan.

Murakkab o‘g‘itlarga shunday kompleks (ya’ni bir necha ozuqa elementi bo‘lgan) o‘g‘itlar kiradiki, bunda barcha zarrachalar (kristallar va donachalar) deyarli bir xil kimyoviy tarkibga ega bo‘lishi kerak. Bunday o‘g‘itlarga tarkibida bir necha ozuqa elementi bo‘lgan bitta tuz, masalan  $KNO_3$ ,  $(NH_4)_2HPO_4$  va boshqalar, tarkibiga ikkita ( $N+P$ ,  $N+K$ ,  $P+K$ ) yoki uchta ( $N+P+K$ ) ozuqa elementi kiruvchi ikki yoki undan ortiq tuzlar kompozitsiyasi kiradi. Bunday kompozitsiyalar nitrat, fosfat va sulfat kislotalarning ammiak, tabiiy fosfatlar, kaliy, ammoniy va boshqalarning tuzlari bilan o‘zaro ta’sirlashuvidan olinadi.

## I bob. MURAKKAB O'G'ITLARNING XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI

---

---

### 1-§. Murakkab o'g'itlarning klassifikatsiyasi

O'simliklarning me'yorida o'sishi va rivojlanishi uchun ular yetarli miqdordagi ozuqa moddalari bilan ta'minlanishi lozim.

Asosiy ozuqa moddalariga azot, fosfor, kaliy, kalsiy, magniy, oltingugurt va temir kiradi. Bu elementlarning o'simliklardagi hissasi yuzdan bir ulushdan bir necha foizgachani tashkil etadi va ular makroelementlar nomi bilan yuritiladi. Bundan tashqari, o'simliklarga, bor, molibden, mis, marganes, rux va boshqa shular kabi bir qator o'simlik va tuproqda mingdan bir ulush foizda bo'ladigan moddalar zarurdir, ular mikroelementlar deyiladi.

O'simliklarning hayotiy faoliyatida uglerod, kislorod va vodoroddan keyin azot fosfor va kaliy ham muhim ahamiyatga ega. Bunday elementlar tutgan o'simliklarning ozuqa mahsulotlari qishloq xo'jaligida asosiy mineral o'g'itlar nomi bilan yuritiladi.

O'simliklar uglerod, kislorod va vodorodning asosiy miqdorini havo va suvdan oladi, boshqa elementlarni tuproq eritmasidan o'zlashtiradi. Buning natijasida tuproqdan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan birgalikda katta miqdordagi ozuqa elementlari chiqib ketadi. Dunyo masshtabida taxminan 1 mldr tonna donli ekinlar mahsuloti bilan yiliga 33 mln tonna N, 12 mln tonna  $P_2O_5$ , 25 mln tonna  $K_2O$  yo'qotilishi hisoblab topilgan. Bundan tashqari, tuproqning yuvilishi, denitrifikatsiya jarayonida erkin azotning hosil bo'lishi va fosforli o'g'itlarning retrogradatsiyasi hisobidan ham muntazam ravishda ozuqa elementlarining tuproqdagagi zaxirasi kamayib boradi (1.1-1.3-jadvallar).

Agar yo‘qotilgan ozuqa moddalari o‘mi tegishli miqdordagi o‘g‘it solish yo‘li bilan muntazam to‘ldirib borilmasa, tuproq unumdorligi keskin kamayadi va hosidorlik darajasi tusib ketadi. Shuning uchun tuproqning yuqori va doimiy unumdorligini ta’minlash shartlaridan biri uni muntazam ravishda kerakli hajmdagi va assortimentdagи mineral o‘g‘itlar bilan oziqlantirilishi lozimdir.

*1.1-jadval*

**Tuproqdan hosildorlik bilan chiqib ketadigan ta’sir etuvchi moddalar (kg/ga hisobida)**

Ozuqa elementlari	Hosildorlik		
	Qishki bug‘doy 30 s/ga	Shakar lavlagi 270 s/ga	Jo‘xori ko‘k poyasi 600 s/ga
N	112	166	150
P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	39	42	70
K <sub>2</sub> O	77	157	200

*1.2-jadval*

**Tuproqqa azot, fosfor va kaliy solish hisobiga hosildorlikning oshirilishi**

O‘simalik va mahsulot turi	Ishlatilgan 1 tonna o‘g‘it hisobiga (N, P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> , K <sub>2</sub> O) hosildorlikning o‘sishi, tonna		
	N	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	K <sub>2</sub> O
Paxta	10-14	5-6	2
Shakar lavlagi	120-160	50-55	40-50
Bug‘doy	12-15	7-8	3-4

*1.3-jadval*

**O‘g‘it qo‘llash hisobiga hosildorlikning o‘zgarishi (s/ga hisobida)**

Mahsulot turi	O‘g‘itsiz	O‘g‘it bilan
Paxta	8-9	27-30
Bug‘doy	7-8	20-40
Shakarqamish	100-120	200-500

Hosildorlikni oshirishdagi omillarni baholashda: AQSH da 50 % gacha, Fransiyada 50-70 % gacha qo‘shimcha hosil olish

o'g'itlar hissasiga to'g'ri keladi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, hosildorlikning oshirishdagi o'g'itlarning ulushi MDH mamlakatlarining qoratuproqli mintaqalarida 40-50 % ga, noqoratuproqli mintaqalarida 60-75 % ga Markaziy Osiyoda, xususan, O'zbekiston Respublikasi hududidagi unumdor tuproqlarda 50-60 % ga to'g'ri keladi.

**O'g'itlar klassifikatsiyasi.** O'g'itlar kelib chiqishiga ko'ra, noorganik – mineral, organik, organo-mineral va bakterial turlariga klassifikatsiyalanadi. Ular qattiq, suyuq va suspenziyali holatda bo'lishi mumkin.

*Mineral o'g'itlar (yoki sun'iy o'g'itlar).* Ular sanoat – ishlab chiqarish yo'li bilan noorganik xomashyolarni kimyoviy yoki mexanik qayta ishlash (masalan, agrokimyoviy rudalar – fosforitlar, kaliyli tuzlar, dolomitlar va hokazolarni maydalash) orqali tayyorlanadigan noorganik mahsulotlardan hosil qilinadi. Xomashyo sifatida xizmat qiladigan havo azotidan yoki tarkibida o'simliklar uchun ozuqa bo'ladigan moddalar tutgan ayrim kimyoviy ishlab chiqarish korxonalarining oraliq mahsulotlaridan olingan moddalar ham mineral o'g'itlar qatoriga kiradi. Masalan, ammoniy sulfat – kokslash pechi gazlari yoki kaprolaktam ishlab chiqarishning oraliq mahsulotlaridan olinadi. Fosfor tutgan rudalardan metallarni suyuqlantirib olinishida fosforli o'g'itlar sifatida qo'llaniladigan tomasshlak yoki martenli asosiy dashqollar olinadi. Xomashyoni kimyoviy qayta ishlash natijasida olinadigan mineral o'g'itlar ta'sir etuvchi moddalarning yuqori konsentratsiyaliligi bilan ajralib turadi.

Ta'sir etuvchi modda bo'yicha mineral o'g'itlar: azotli, fosforli, kaliyli va mikroelementli (borli, molibdenli va b.) turlarga bo'linadi.

*Organik o'g'itlar.* Ulardagi elementlar o'simlik va hayvonlardan olinadigan chiqindi moddalar tarkibida bo'ladi. Bunday o'g'itlarga birinchi navbatda go'ng, shuningdek o'simlik va hayvonlardan kelib chiqadigan chiqindilar (torf, kunjara, baliq va parranda chiqindisi, suyak uni, aholi chiqindisi va turli oziq-ovqat mahsulotlari chiqindilari) ni qayta ishlash natijasida olinadigan mahsulotlar ham kiradi, bunga yashil o'g'itlarni ham kiritish mumkin.

Organo-mineral o'g'itlar tarkibida organik va mineral moddalar bo'ladi, bunday o'g'itlar torf, ko'mir va boshqalar kabi organik moddalarni ammiak yoki fosfat kislota bilan qayta ishlash orqali olinadi. Ularni shuningdek go'ng yoki torfnii fosforli o'g'itlar bilan aralashtirish yo'li bilan ham olinadi.

*Bakterial o'g'itlar* – tuproqdagi va o'g'itlardagi havo azoti yoki minerallashgan organik moddalar bilan oziqlanuvchi mikroorganizmlar tutgan preparatlar kiradi. Bunday o'g'itlar qatoriga azotobakterin, tuproq nitragini kiradi.

Mineral o'g'itlar agrokimyoviy ta'siri bo'yicha to'g'rito'g'ri ishlatiladigan, bivilsosita foydalilanadigan va o'simliklar o'sishini boshqaruvchi preparatlar turlariga bo'linadi.

*To'g'ridan to'g'ri ishlatiladigan o'g'itlar* o'simliklarning bevosita oziqlanishiga mo'ljallangan. Ular tarkibida o'simliklar hayoti uchun muhim bo'lgan elementlar: azot, fosfor, kaliy, magniy, oltingugurt, temir, shuningdek, mikroelementlar (bor, molibden, mis, rux, kobalt) tutadi. *To'g'ridan to'g'ri ishlatiladigan o'g'itlar*, o'z navbatida, oddiy (bir yoqlama) va kompleks (ko'p yoqlama) o'g'itlarga bo'linadi.

*Oddiy o'g'itlar* tarkibida o'simliklarni oziqlantiruvchi elementlar: azot, fosfor, kaliy, magniy, bor va boshqalardan bittasi bo'ladi. Ular ham o'z navbatida azotli, fosforli, kaliyli, mikroelementli o'g'itlar turlariga bo'linadi.

*Azotli o'g'itlar* suvda yaxshi eriydi, ular azot birikmalarining ammiakli, ammoniyli, amidli va bu shaklning turli hosilalari (ammiak-nitratli, ammiak-amidli va h.o.) shakllari bilan farqlanadi. Bundan tashqari, yuvilmaydigan va suvda qiyin eriydigan azotli o'g'itlar, masalan karbamid-formaldegidli, izobutilendikarbamid, oksamid va boshqalar ham ishlatiladi.

*Fosforli o'g'itlar.* Eruvchanligi va o'simliklarga o'zlashishi jihatdan fosforli o'g'itlar uchta guruhga bo'linadi:

1) suvda eruvchan, ulardag'i fosforli birikmalarining asosiy qismi suvda eriydi, shu sababli o'simliklarga oson o'zlashadi, bunday o'g'itlar tarkibiga superfosfat, qo'shaloq superfosfatlar, shuningdek, murakkab o'g'itlar – ammofos, nitroammofos, nitroammonfoska, nitrofoska, karboammofoska va boshqalar kiradi;

2) sitratli eruvchan, ularga tarkibida limon kislota ammoniyli tuzining ammiakli eritmasi (ammoniy sitrat) da eriydigan fosfor birikmalar tutgan o'g'itlar kiradi (ammoniy sitrat eritmasining muhiti tuproq eritmasi muhitiga yaqin bo'lganligi uchun bunday o'g'itlarni o'simliklar tomonidan yaxshi o'zlashtiriladi), sitratli eruvchan o'g'itlarga presipitat (dikalsiyfosfat) kabi o'g'itlar kiradi;

3) limonli eruvchan, bunday o'g'itlar suvda va ammoniy sitrat eritmasida erimaydi, ammo limon kislotasining 2 % li eritmasida eriydi, ularga ftorsizlangan fosfatlar, tomasshlak, qisman fosforit uni (mayda fraksiyasi) kiradi; kam eruvchanligiga qaramay, bunday o'g'itlar kislotali tuproqlarda yaxshi samara beradi, bunday o'g'itlardagi fosfor birikmalar sekinlik bilan (hattoki yillab) tuproq eritmasiga o'tadi va o'simliklarga o'zlashadi, shuning uchun ular *sekin ta'sir etuvchi o'g'itlar* deb ham ataladi.

*Kaliyli o'g'itlar* konsentrangan (kaliy xlorid, kaliy sulfat, kalimagneziya va boshqa) va yetilmagan tuzlar (silvinit, kainit) turlariga bo'linadi. Suvda erimaydigan minerallar (nefelin, dala shpati) to'g'ridan to'g'ri o'g'it sifatida foydalanimaydi, ular kaliyli o'g'itlar olish uchun xomashyo vazifasini o'taydi. Masalan, nefelindan kaliy sulfat olinadi.

*Mikroo'g'itlar* – kam me'yorda (gektariga gramm va kilogrammlarda) qo'llaniladigan o'g'itlar hisoblanadi. Tarkibida mikroelementlar tutgan – borat kislota, mis(II)-sulfat, ammoniy molibdat va boshqa texnik tuzlar ishlatiladi. Kolchedan kuyundisi, marganesli quyqum (shlam), cho'ktirilgan magniy borat va boshqa mikroelementli chiqqindilar suvda erimaydi. Ular suvda eriydigan holatga qayta ishlanadi yoki to'g'ridan to'g'ri o'g'it sifatida ishlatiladi. Qishloq xo'jaligida ham suvda eriydigan, ham suvda erimaydigan mikroo'g'itlar ishlatiladi.

*Kompleks o'g'itlar* – tarkibida kamida ikkita ozuqa elementini tutgan o'g'itlar hisoblanadi. Ikkilamchi kompleks o'g'itlar (masalan, azot-fosforli, azot-kaliyli, fosfor-kaliyli) va uchlamlchi kompleks o'g'itlar (masalan, azot-fosfor-kaliyli) turlarga bo'linadi. Uchlamlchi o'g'itlar to'la tarkibli o'g'itlar deyiladi. Kompleks o'g'itlar tarkibida, shuningdek, mikroele-

mentlar, pestitsid va o'stiruvchi moddalar qo'shimchalari bo'lishi mumkin.

Kompleks o'g'itlar ularni ishlab chiqarish xususiyatiga ko'ra guruhanadi:

– *aralash o'g'itlar* turli kukunsimon yoki donadorlangan tayyor o'g'itlarni mexanik usulda aralashtirish yo'li bilan olinadi;

– *murakkab-aralash donadorlangan o'g'itlar* aralashtirish jarayonida kukunsimon tayyor o'g'itlarni suyuq reagentlar (ammiakli suv, fosfat yoki sulfat kislota va boshqalar) qo'shish bilan aralashtirilish orqali olinadi;

– *murakkab o'g'itlar* yagona texnologik jarayonda xomashyoni qayta ishlash orqali olinadi.

Ta'sir etuvchi moddalarning konsentratsiyasi bo'yicha o'g'itlar shartli ravishda quyi konsentratsiyali (oddiy), tarkibida 20-25 % gacha, konsentrlangan – 30-38 %, yuqori konsentratsiyali – 60 % dan ko'p va ultra konsentrlangan – 100 % ta'sir etuvchi komponentli turlarga bo'linadi.

*Bilvosita foydalaniladigan o'g'itlar* – o'g'itlardan foydalanish sharoitini yaxshilash maqsadida tuproqqa kimyoviy, fizik va mikrobiologik ta'sir etish uchun qo'llaniladi, masalan, tuproq kislotaliligini neytrallash uchun maydalangan ohaktosh, dolomit yoki so'ndirilgan ohak qo'llaniladi, sho'rxok tuproqlar melioratsiyasi uchun gips ishlatiladi, shu bilan bir vaqtda u kalsiy manbai hisoblanadi, tuproq kislotaliligini (fosforli o'g'it bilan solinadigan fosfor birikmalarining eruvchanligini oshirish maqsadida) oshirish uchun natriy bisulfit ishlatiladi.

O'g'itlar fiziologik kislotali, fiziologik ishqoriy va fiziologik neytral turlariga bo'linadi. *Fiziologik kislotali o'g'itlarga* o'simliklar asosan kationlarni o'zlashtiradigan o'g'itlar kiradi, anionlar esa tuproq eritmasini kislotaliligini oshiradi, masalan, ammoniy sulfat, ammoniy nitrat, kaliiy xlorid, kaliiy sulfat va boshqalar. Fiziologik kislotali o'g'itlarga ammoniyli azotli o'g'itlar, shuningdek karbamid ham kirishi mumkin. Nitrifikatsiyalovchi bakteriyalar ta'sirida ammiak nitrat kislota gacha oksidlanishi natijasida tuproq kislotaliligi ortadi.

Fiziologik ishqoriy o'g'itlarga anioni o'simliklarga assimilyatsiyalanadigan o'g'itlar kiradi, ulardagi kation esa tuproq muhitini ishqorlashtirgan holda to'planadi.

Masalan, bunday o'g'itlarga natriy, kaliy va kalsiy nitratlari kiradi.

### **Mineral o'g'itlarning assortimenti va asosiy tarkibi.**

Mineral o'g'itlar assortimenti barcha turdag'i o'g'itlar: azotli, fosforli, kaliyli, mikroog'itlar, kompleks o'g'itlar, ohakli va boshqa materiallarni qamrab oladi. O'g'itlarning muhim sifat ko'rsatkichi ulardagi o'simliklar uchun zarur bo'lgan – ta'sir etuvchi moddalar miqdori hisoblanadi. Asosiy ta'sir etuvchi moddalar azot, fosfor va kaliy birikmalari hisoblanadi. Hozirgi paytda o'g'itdag'i ularning miqdori elementar azot (N), fosfor (V)-oksid – fosfat angidrid ( $P_2O_5$ ) va kaliy oksid ( $K_2O$ ) hisobida o'lchanadi. Davlat standartlari (DAST) yoki texnik shartlar (TSH) asosida mineral o'g'itlardagi bir yoki bir necha ta'sir etuvchi moddalarning minimal miqdori belgilab berilgan.

Shu bilan bir qatorda ushbu standartlarda o'g'itdag'i namlik va o'g'itlar tarkibidagi o'simliklarga zararli, shuningdek fizik-kimyoiy va mexanik xossalari ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir etuvchi qo'shimchalar miqdori chegaralanadi. Namlikning ortishi o'g'itning yopishqoqligini oshiradi va birbutun massa holatida qotib qoladi. Bundan tashqari, namlik o'g'it tarkibidagi ozuqa moddalar miqdorini kamaytiruvchi ballast hisoblanadi.

1.4-jadvalda mineral o'g'itlar asosiy turlarining assortimetini keltirilgan.

*Azotli o'g'itlar* qattiq va suyuq holatda ishlab chiqariladi. Qattiq azotli o'g'itlar orasida eng konsentrangan o'g'it – tarkibida 45-46 % N tutgan karbamid, undan keyin tarkibida 33,6-34,6 % N tutgan ammiakli selitra hisoblanadi. Kam konsentratsiyali o'g'it – tarkibida 20-21 % N tutgan ammoniy sulfat nisbatan ko'p miqdorda ishlab chiqariladi.

Suyuq azotli o'g'itlar orasida eng konsentrangan o'g'it – tarkibida 82 % N bo'lgan suvsiz ammiak hisoblanadi. Kam konsentratsiyali ammiakatlar va azotli eritmalar tarkibida 30-36 % N va ammiakli suv tarkibida 20-21 % N bo'ladi. Hozirgi vaqtida keng tarqalgan suyuq azotli o'g'itlar bu KAS eritmalarini

bo'lib, u ammiakli selitra va karbamid eritmasi aralashmasidan iborat, tarkibida 28-32 % N bo'ladi.

#### 1.4-jadval

### Qishloq xo'jaligida ishlataladigan kompleks o'g'itlar va ular tarkibiga qo'yiladigan standart talablar

Kompleks o'g'itlar	O'g'itlar tarkibi, %					
	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> (umum.)	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> (o'zl.)	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> (s.e.)	N	K <sub>2</sub> O	H <sub>2</sub> O
1	2	3	4	5	6	7
<b>Ammofos</b>						
A markali: oliy sifat kategoriyali birinchi sifat kategoriyali	–	≥52	≥48	12±1	–	≤1,0
	–	50±1	≥46	12±1	–	≤1,0
B markali: oliy sifat kategoriyali birinchi sifat kategoriyali	–	≥44	≥36	11±1	–	≤1,0
	–	42±1	≥34	11±1	–	≤1,0
<b>Diammoniyfosfat</b>	46-47	–	–	≥18	–	≤1,5
<b>Nitroammofos</b>						
A markali	≥23	–	≥22	≥23	–	≤1,5
B markali	≥24	–	≥23	≥16	–	≤1,5
V markali	≥20	–	≥19	≥25	–	≤1,5
<b>Nitrodiammofos</b>	≥30	–	≥27	≥23	–	≤1,3
<b>Nitroammofoska:</b>						
A markali	17-18	–	15	17-18	17-18	≤0,8
B markali	19-20	–	16	13-14	19-20	≤0,8
<b>Azot-fosfor-kaliyli kompleks o'g'it:</b>						
16-16-16 markali	–	16-17	≥12	16-17	16-17	≤1,5
10-20-20 markali	–	20-21	≥16	10-11	20-21	≤1,5
<b>Donadorlangan murakkab-aralash o'g'it</b>	10-11	–	≥6	10-11	10-11	≤1,5
<b>Azofos va azofoska:</b>						
1:1:0 markali	≥21	–	≥14	≥23	–	≤1,0
2:1:0 markali	≥13	–	≥10	≥20	–	≤1,0
1:1:1 markali	≥16	–	≥12	≥16	≥16	≤1,0
2:1:1 markali	≥11	–	≥6	≥21	≥11	≤1,0
<b>Nitrofos</b>						
Tenglashtirilgan markali	–	22±1	≥18	22±1	–	≤1,5
A markali	–	17±1	≥7	23±1	–	≤1,5
B markali	–	14±1	≥6	24±1	–	≤1,5
<b>Nitrofoska</b>	–	≥10	≥5,5	≥11	≥11	≤1,5
<b>Diammofoska:</b>						
9-25-25 markali	25-26	–	–	9-10	25-26	≤1,3

<b>10-30-20 markali</b>	<b>30-31</b>	<b>–</b>	<b>–</b>	<b>10-11</b>	<b>20-21</b>	<b>≤1,0</b>
<b>Ammofosfat:</b>						
A markali	45-46	–	≥31	6-7	–	≤1,0
B markali	38-39	–	≥26	4-5	–	≤1,5
<b>Murakkab-polimerli</b>						
<b>o'g'it:</b>	–	≥21	–	≥21	–	≤5
A markali	–	≥17	–	≥23	–	≤5
<b>B markali</b>						
<b>Murakkab-aratash</b>						
<b>o'g'it fosforit kukuni bilan</b>	<b>10-11</b>	<b>–</b>	<b>≥6</b>	<b>10-11</b>	<b>10-11</b>	<b>≤1,5</b>
<b>Poliammofos</b>	<b>46±1</b>	<b>44±1</b>	<b>30</b>	<b>9±1</b>	<b>–</b>	<b>≤1,0</b>
<b>Kapsulalangan nitroammonioska:</b>						
A markali	16-17	–	≥15	16-17	16-17	≤0,8
B markali	19-20	–	≥18	13-14	19-20	≤0,8

Barcha azotli o'g'itlar, ular tarkibidagi azotning shakliga qarab, beshta: ammiakli, ammoniyli, nitratli, ammoniylinitratli, amidli guruhlarga bo'linadi.

*Fosforli o'g'itlar* suvda eriydigan va suvda erimaydigan shakllarda ishlab chiqariladi. Suvda eruvchan fosforli o'g'itlarga apatit va fosforitdan olinadigan oddiy superfosfatlar (muvofig ravishda 20-21 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>·z<sub>l</sub>) va 14-15 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>·z<sub>l</sub>) va qo'shaloq superfosfatlar (ishlatiladigan xomashyo va fosfat kislotaga muvofig ravishda 40-50 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>·z<sub>l</sub>) kiradi.

Qiyin eriydigan o'g'it – fosforit unining anchagina miqdori to'g'ridan to'g'ri o'g'it sifatida ishlatiladi. Bunday fosforit uni yuqori darajada maydalangan bo'ladi va undagi P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> miqdori katta chegarada o'zgarishi mumkin. Suvda erimaydigan o'g'it sifatida o'g'itli presipitat ham ishlab chiqariladi. Hozirgi paytda suvda erimaydigan o'g'itlar qatorida ftorsizlangan fosfatlar, tomasshlak, marten dashqollari ham ishlatilmoxda.

*Kompleks o'g'itlar.* Ularga tarkibida ikkita va uchta ozuqa elementi bo'lgan murakkab o'g'itlar (ammofos, diammofos, superammofos, nitroammofoska, nitrofoska va boshqalar), murakkab-aratash va aratash o'g'itlar, shuningdek suyuq kompleks o'g'itlar kiradi. Qishloq xo'jaligida ishlatiladigan kompleks o'g'itlar va ular tarkibiga qo'yiladigan standart

talablar 1.4-jadvalda keltirilgan. Mikroo'g'itlar, ohakli materiallar, gips va gipsli materiallar, hayvonlar uchun ozuqali kimyoviy vositalar assortimenti, shuningdek, barcha turdag'i o'g'itlarning agrokimyoviy xossalari mineral o'g'itlar ishlab chiqarish texnologiyasi va ularning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'lumotnomma adabiyotlarida batafsil keltirilgan.

## **2-§. Murakkab o'g'itlar texnologiyasining fizik-kimyoviy asoslari**

O'g'itlar xossalarini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlariga: gigroskopikligi, yopishuvchanligi, donadorlanish (fraksiyal) tarkibi, zarrachalarning o'rtacha o'lchami, donachalar mustahkamligi, tabiiy qiyalanish burchagi, nam tortuvchanligi, haqiqiy va to'kma zichligi, aralashmalarning bir jinsiligi va qatlamlı tarqalishi (segretsiyasi), elanishi, tuzli tarkibi, kristall tuzilishi, eruvchanligi, bug' bosimi, termodinamik tavsifi kiradi.

*Gigroskopiklik.* Gigroskopiklik moddaning havodan namlikni yutish xususiyati bilan tavsiflanadi. Gigroskopiklikni keng tarqalgan baholashda – % bilan ifodalangan gigroskopiklik nuqtasi aniqlanadi. Suvda eruvchan tuzlar uchun gigroskopiklik nuqtasi ( $h$ ) tuzning to'yingan eritmasi ustidagi suv bug'ining parsial bosimini xuddi shu haroratdagi bug' bilan to'yintirilgan havodagi suvning bug' bosimiga nisbati orqali aniqlanadi:

$$h = (P_a / P) \cdot 100$$

Gigroskopiklik nuqtasi moddaning namlik yutmaydigan va yo'qotmaydigan nisbiy namligiga muvofiq keladi. Cheklangan me'yorda namlik tutgan o'g'itning gigroskopiklik nuqtasi havoning yillik o'rtacha nisbiy namligidan katta bo'lmaydi.

Moddalarning gigroskopikligini baholash uchun gigroskopiklik koefitsiyenti ( $K_{gigr.}$ ) ishlataladi. Gigroskopiklik koefitsiyenti namunaning kritik (maksimal) namligiga to'g'ri proporsionaldir:

$$K_{gigr.} = K_1 \cdot W_m,$$

bu yerda:  $W_m$  – namunaning kritik (maksimal) namligi;  
 $K_1$  – tajriba yo'li bilan aniqlanadigan kinetik konstanta.

Havoning nisbiy namligi  $\varphi_{nis.} = 81\%$  bo‘lganda gigroskopiklik koeffitsiyentiga bog‘liq holdagi gigroskopiklik shkalasi 1.5-jadvalda keltirilgan.

*1.5-jadval*

**Moddaning gigroskopiklik shkalasi**

$K_{gigr.}$ mmol/(g·s)	1 va undan kichik	1-3	3-5	5-10
Sifat bahosi	amalda gigroskopik emas	oz darajada gigroskopik	gigroskopik	kuchli gigroskopik

Gigroskopiklik shkalasi va ko‘rsatkichlari turli hududlarda qisman farq qiladi.

*Yopishqoqlik.* Yopishqoqlik – ma’lum tashqi sharoitda dispers materialning turli darajadagi kattalik va mustahkamlikka ega bo‘lgan aglomeratlarni hosil qilish xossasidir. Yopishqoqlik aniq standart sharoitda tekshirib olingan aglomeratlarning mustahkamligi bilan tavsiflanadi.

Suvda eruvchan mineral o‘g‘itlarni donadorlanish, tarkibidagi namligini kamaytirish, donachalar mustahkamligini oshirish, mahsulotni omborga joylashtirish yoki qoplashdan oldin sovitish, uni konditsionirlash, saqlashda saqlash sharoitini ta’minlaydigan germetiklikni ta’minalash natijasida uning yopishqoqligini kamaytirilishi mumkin.

*Elanishi.* Elanish – bu o‘g‘itni solishda tuproqda bir tekisda taqsimlanishi uchun mashinalarning ta’minlovchi va tashlovchi qurilmalaridan o‘g‘itning tushishini belgilaydigan xususiyatdir. Tashlovchi qurilmalarda o‘g‘itlarning bir tekisda taqsimlanishi sepiuvchanligi (harakatchanligi) orqali aniqlanadi. Zamonaviy mashinalar bilan o‘g‘itlarni solishda ularning bir tekisda taqsimlanishi o‘g‘itlarning donadorlik (fraksiyal) tarkibiga bog‘liq bo‘ladi.

*Donachalarning mustahkamligi.* Donachalarning mustahkamligi o‘g‘itlarni tashish, saqlash va tuproqqa solishdagi donadorlik darajasining saqlanishidir. U namlikka, kristallarning joylashish o‘lchami, shakli va zichligiga, boshqa yuzalarga ishqalanish tabiatiga va hokazolarga bog‘liqdir. Donachalarning mustahkamligi dinamik mustahkamlik  $R_d$ , ishqalanishga mustahkamligi  $R_i$  va statik mustahkamlik  $R_s$  bilan tavsiflanadi.

Dinamik mustahkamlik ma'lum balandlikdan tashlanganda donachalarning maydalanish soni bilan, donachalarning ishqalanishga mustahkamligi – ishqalanishi tekshirilganda hosil bo'ladigan kukun ulushi bilan tavsiflanadi. Statiq mustahkamligi ularni bir tekislik bo'yicha qisishdagi mustahkamlik chegarasi bilan tavsiflanadi.

*Tabiiy og'ish (qiyalik) burchagi.* Sepiluvchi materialning to'kilishi natijasida to'plamning gorizontal yuza bilan hosil qiladigan burchagi tabiiy og'ish burchagi deyiladi.

*Namlik sig'imi.* Namlik sig'imiining chegarasi o'g'itning ekish agregatlaridan bir tekisda tushishini ta'minlannishdagi maksimal namlik bilan tavsiflanadi. O'g'itlarning sorbsiyali namlik sig'imi o'g'itning belgilangan namlik va haroratdagi havodan yutadigan maksimal namligi bilan aniqlanadi. «Buferli» namlik sig'imi o'g'itning yoyilish xususiyatini yomonlashtirmagan holda standart o'g'itga qo'shiladigan namlik orqali aniqlanadi.

*To'kma (uyma) zichlik.* To'kma zichlik – sochiluvchan moddaning hajm birligidagi massasidir, birligi  $t/m^3$  bilan aniqlanadi.  $U$  – modda zichligi, zarrachalar o'lchami, fraksiyali tarkibi, namligi va yotqizilgan qatlamlar bosimining funksiyasi hisoblanadi. Massa birligidagi hajm ( $Y$ ) – to'kma zichlikning teskari qiymatidir:

$$Y = 1:X$$

Vertikal devorli bunker va siloslar uchun moddaning o'rtacha massasi ( $X$ ) quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$X = \frac{a+b}{2}$$

Taxminan kesik piramida shaklidagi o'g'it to'plami uchun esa:

$$X = \frac{3f(b-a)+2d(2a+b)}{6d}$$

tenglama bilan hisoblanadi. Bu yerda:  $a$  – erkin to'kilgan mahsulotning to'kma zichligi;  $b$  – ostki qatlarning to'kma zichligi;  $F$  – kesik piramida ostki qatlamining yuzasi;  $f$  – kesik piramida ustki asosining yuzasi:

$$d=f+F+\sqrt{Ff}.$$

Mineral o‘g‘itlarning fizik-kimyoviy, mexanik va termodynamik xossalari bilan mineral o‘g‘itlar texnologiyasi bo‘yicha ma’lumotnomalaridan foydalangan holda batafsil tanishish mumkin.

### **3-§. Murakkab o‘g‘itlar xomashyo bazasining rivojlanishi**

**Fosfatli minerallar.** Tabiatda 120 dan ortiq turdagি fosfatli minerallar uchraydi. Apatit guruhidagi minerallar, ulardan eng asosiysi – ftorapatit  $\text{Ca}_5\text{F}(\text{PO}_4)_3$  eng keng tarqalgan va sanoat ahamiyatiga ega bo‘lgan mineral hisoblanadi.

Apatitning fosfatli guruhlariga yoki apatitlarga  $\text{Ca}_{10}\text{R}_2(\text{PO}_4)_6$  umumiy formulaga ega bo‘lgan 42 zarrachadan iborat bo‘lgan elementar kristall yacheykali minerallar kiradi (bu yerda R – ftor, xlor yoki gidroksil).

Apatitdagи kalsiyning bir qismi Ba, Mg, Mn, Fe, shuningdek, uch valentli nodir elementlarning ishqoriy metallar bilan birgalikdagi atomlari bilan almashgan holatda bo‘ladi. Apatitning kristall panjarasida kalsiyga nisbatan katta atom massaga ega bo‘lgan kationlarning kirishi mineraldagi  $\text{P}_2\text{O}_5$  miqdorining, masalan, ftorapatitdagiga  $\text{Ca}_5\text{F}(\text{PO}_4)_3$  nisbatan kamayishiga olib keladi. Masalan, mineralda o‘rtacha 2,7 %  $\text{SrO}$  va 1,5 % nodir elementlar oksidlarining yig‘indisi bo‘lsa (nodir elementlarning o‘rtacha atom massasi 160), undagi  $\text{P}_2\text{O}_5$  miqdori toza apatitdagи 42,2 % o‘rniga 40,7 % bo‘ladi.

Boshqa apatit minerallari – ftorning o‘rnini OH yoki xlor olishi yoxud fosfor o‘rnini uglerod olishi natijasida hosil bo‘lgan mahsulotlar sifatida qaralishi mumkin. Shunday minerallar ham borki, unda ularda fosforning bir qismi kremniy va oltingugurt bilan almashgan bo‘ladi.

**Fizik xossalari.** Fosfatli minerallarning fizik xossasi kristall panjarada hosil bo‘luvchi ionlar zaryadining kattaligi va ular tuzilishining ixchamligi bilan aniqlanadi. Ftorapatit o‘zining tuzilishiga ko‘ra, ikki molekula  $\text{Ca}_5(\text{PO}_4)_3\text{F}$  dan iborat fazoviy guruhga egadir. Bunday tuzilish ftorapatit molekulasining termodynamik mustahkamligi bilan izohlanadi. Ftorapatit kristall panjarasining energiyasi – 5300 kkal/molga tengdir,

ftorapatit kristallarining solishtirma sirt energiyasi – 1520 erg/sm<sup>2</sup> (NaCl uchun 160 erg/sm<sup>2</sup>) ni tashkil etadi.

Ftorapatit fazoviy tuzilishining bunday ifodalanishi ftoning asosiy valentlikdan tashqari qo'shimcha valentlikni ham namoyon etishini ko'rsatadi. Shunday qilib, ftorapatitni markaziy atomi fton bo'lgan ichki kompleks tuz deb qaralishi mumkin. Apatitning turli izomorf ko'rinishlari geksagonal singoniyali kristallari bor. Ftorapatit yashil, sarg'ish-yashil rangda, qisman ko'k, pushti yoki safsar ranglar aralashgan yarim shaffof donachalar hosil qiladi. U 1660°C haroratda (xlorapatit esa 1530°C haroratda) suyuqlanadi. Apatitning zichligi 3,41-3,68 g/sm<sup>3</sup> oralig'ida bo'ladi, qattiqligi esa Moos darajasi bo'yicha 5 ga tengdir. Apatit suvda va 2 % li limon kislota eritmasida amalda erimaydi, mineral kislotalarda parchalanadi. 3 mm o'lchamli yirik donachalar shaklidagi karbonatli ko'rinishlari – kurskit, frankolit va karbonatapatisit 3 % li HCl eritmasida 1 soat mobaynida deyarli to'la eriydi.

Ftorapatitni suv bug'i ishtirokida 1400-1550°C haroratgacha qizdirilganda gidroksilapatitga, u esa tetrakalsiyfosfat  $4\text{CaO}\cdot\text{P}_2\text{O}_5$  (limon kislotada eriydi) va trikalsiyfosfat  $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$  ga aylanadi. Trikalsiyfosfat ikki xil allotropik shaklda mavjud bo'ladi:  $\alpha$ -modifikatsiya yuqori haroratda barqaror, 1700°C da suyuqlanadi, limon kislotada eriydi;  $\beta$ -modifikatsiya past haroratda barqaror, limon kislotada erimaydi.  $\alpha$ -modifikatsiya 1100°C gacha sovutilganda  $\beta$ -modifikatsiyaga o'tadi.  $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$  ni tez sovutilganda past (15-20°C) haroratda ham stabil holatdagi  $\alpha$ -modifikatsiya shakli saqlanib qoladi.

**Tabiatda hosil bo'lishi va tarqalishi.** Apatitlar yer qobig'ida ko'p tarqalgan, ularning yer qobig'idagi miqdori fosfatlar umumiyl massasining 95 % ni tashkil etadi. Apatitlar ichidan ftorapatit eng ko'p tarqalgandir, gidroksilapatit kam va xlorapatit esa yanada kam uchraydi. Apatit otilib chiqadigan lavalar tarkibiga kiradi, ammo konsentrangan shaklda nisbatan kam uchraydi.

Kalsiy fosfatlari kelib chiqishiga ko'ra: magmatik va qoldiqqli turlarga bo'linadi. Magmatik yoki sof apatitli jinslar erigan magmaning to'g'ridan to'g'ri sovushi natijasida yoki

magmatik suyuqlanmaning kristallanish jarayonida ayrim tomirlar (pegmatitli tomirlar) ko'rinishida bo'ladi, yoxud issiq suv eritmalaridan ajralib chiqish yo'li bilan (gidrotermal) hosil bo'ladi, yoxud magmaning to'g'ridan to'g'ri ohaktoshlar bilan o'zaro ta'siridan (kontaktlidir) hosil bo'ladi.

Apatitli jinslar hosil bo'lish sharoitiga muvofiq holda donachali yirik kristalli tuzilishga ega bo'ladi va polidispers emasligi va mikroyoriqlarning yo'qligi bilan tavsiflanadi. Ularning donachalari bilan birgalikda yoki ularga yo'ldosh bo'lgan boshqa turdag'i magmatik nefelin ( $(Na,K)AlSiO_4 \cdot nSiO_2$ ) piroksenlar (masalan, egirin  $NaFe(SiO_3)_2$ ), titanomagnetit  $Fe_3O_4 \cdot FeTiO_3 \cdot TiO_2$ , ilmenit  $FeTiO_3$ , sfen  $CaTiSiO_5$ , dala shpati, slyuda, evdialit va boshqa minerallar ham bo'ladi. Gidroksilapatit tabiatda keng tarqalgan bo'lsada, ammo yirik to'planish hosil qilmaydi. U inson va hayvon suyagi (tishi) ning (oz miqdorda kalsit va organik moddalar aralashgan) asosiy massasini tashkil qiladi. Fosforit konini bir necha ming yillar davomida hosil bo'lishi natijasida uning tarkibida turli hayvonlar suyaklari va qoldiqlari mavjudligi aniqlangan. Suyakning parchalanishi natijasida organik moddalar yo'qoladi va atrof-muhitdan fторни yutishi natijasida frankolit yoki kurskit, shuningdek fторapatit hosil bo'ladi.

Qoldiqli kalsiy fosfatlarga fosforitlar kiradi. Ular fosfatli jinslarning yemirilishi, daryolarning dengizga oqizib olib chiqishi, boshqa jinslar bilan ta'sirlashishi natijasida va tarqoq cho'kindilar holatida ham, yirik to'planish hosil qilish bilan ham hosil bo'ladi. Barcha cho'kindili kalsiy fosfatlarining ma'lum miqdori – chig'anoq va suyaklarning yer qobig'inining ko'p joylarida geologik va kimyoviy jarayonlar ta'siri natijasida to'plangan (organik kelib chiqqan) fosfor hissasiga to'g'ri keladi.

Hosil bo'lish sharoitiga bog'liq holatda va cho'kindili kalsiy fosfatlarining tuzilishiga ko'ra fosforitli to'planish uchta asosiy: organogen, donador toshsimon va qatlamlı turlarga bo'linadi. Organogen (chig'anoqli) to'planish fosfatli chig'anoq va suyaklardan, qatlamlı va donador toshsimon fosforitlar esa organizmlarning bevosita ishtirokida kimyoviy yo'l bilan hosil bo'ladi. Donador toshsimon fosforitlarga

fosfatli jinslarning murakkab ikkilamchi o'zgarishi natijasida hosil bo'ladigan ikkilamchi (cho'kindili) fosforitlar ham kiradi.

Fosforitli rudalar tarkibida, asosiy fosfatli moddalardan tashqari, ko'p miqdordagi boshqa minerallar: glaukonit ( $R_2O+RO$ ) $R_2O_3\cdot 4SiO_2\cdot 2H_2O$  (bu yerda:  $R_2O$  –  $Na_2O$  va  $K_2O$ ,  $RO$  –  $MgO$ ,  $CaO$  va  $FeO$ ,  $R_2O_3$  –  $Fe_2O_3$  va  $Al_2O_3$ ), limonit  $2Fe(OH)_6\cdot Fe_2O_3$ , kalsit  $CaCO_3$ , dolomit  $CaCO_3\cdot MgCO_3$ , kaolin  $H_2Al_2Si_2O_8\cdot H_2O$ , pirit  $FeS_2$ , dala shpatlari, kvarts, granit va boshqalar, shuningdek, oz miqdordagi organik moddalar ham bo'ladi.

**Fosfatli xomashyolarni boyitish.** Fosfatli rudalardan tarkibida fosfor tutgan minerallarni va qo'shimcha jinslarni maksimal darajada ajratish uchun ular ham birlamchi qayta ishlanadi (masalan, elanadi va yuviladi), ham asosiy flotatsiyalashda – ikkilamchi boyitiladi.

Donador toshsimon rudalarda turli miqdordagi fosfatli moddalar tutgan turlicha kattalikdagi donachalar tuproq, qum kabi qo'shimcha jinslar bilan aralashgan holda bo'ladi. Tuproq va qum singari qo'shimcha mayda jinslar elash yoki yuvish orqali ajratiladi. Bunda oz miqdordagi fosfatli moddalar tutgan 0,5 mm dan mayda zarrachalar ajratiladi. Qolgan material tarkibida 22-25 % gacha  $P_2O_5$  bo'ladi. Ko'p hollarda qoldiq sinflar bo'yicha ajratiladi va fosfat miqdori eng ko'p bo'lgan mahsulotning u yoki bu (masalan, +10 yoki –25+1 mm li sinfdagi) fraksiyasi olinadi. Bu rуданинг donadorlik tarkibi yoki ulardagи  $P_2O_5$  va qo'shimchalar miqdori bo'yicha farqlanadigan bir nechta fraksiyalari (konsentratlar) ga bog'-liqidir. Xuddi shunday tarzda chig'anoqli fosforit rudalari birlamchi boyitiladi. Masalan, tarkibida hammasi bo'lib 5-10 %  $P_2O_5$  bo'lgan past navli Maardu rudasini ezish va maydalash – asosiy minerallarning amaliy klassifikatsiyasi, tarkibida 26-27 %  $P_2O_5$ , bo'lgan –0,5 + 0,25 mm li va tarkibida 25-25,5 %  $P_2O_5$ , bo'lgan –0,074 mm li fraksiyalarda fosfatlarning to'planishi bilan sodir bo'ladi.

Apatit-nefelinli ruda va qatlamlı fosforit (masalan, Qoratog') rudasi ham turli darajadagi yiriklikdagi zarrachalarda fosfat minerallarining har xil tarkibda bo'lishi bilan tavsiflanadi.

Apatit-nefelinli rudani tanlab maydalanishi va 1 mm li elakda elanishi natijasida tarkibida 36-37 %  $P_2O_5$  bo'lgan konsentrat olinadi. Ammo bunda  $P_2O_5$ ning konsentratga ajratib olish darajasi 50 % dan oshmaydi.

Birlamchi konsentratlar yoki yuvilgan fosforitlar ishlab chiqarishda yoki flotatsiyalash yo'li bilan ikkilamchi boyitishdan oldin rudani dastlabki ajratishda fosforitli rudalarni birlamchi quruq yoki ho'l boyitiladi. AQSHda tarkibida – 15 %  $P_2O_5$  tutgan Florida fosforit rudalari ho'l elash va gidroseparatsiyalash orqali uchta sinfga ajratiladi. Tarkibida 30-40 %  $P_2O_5$  tutgan – 1,3-1,4 mm o'lchamli zarrachalardan iborat yirik fraksiya va tarkibida 34-35 %  $P_2O_5$  tutgan 0,25-1,3 mm zarrachali o'rta fraksiya mahsulot sifatida olinadi. Qo'shimchalarining asosiy massasi to'plangan 0,25 mm dan kichik bo'lgan mayda fraksiya flotatsiyali boyitiladi va tarkibida 34-35 %  $P_2O_5$  tutgan konsentrat olinadi. Bunda rudadagi 65-70 %gina  $P_2O_5$  mahsulotga ajratib olinadi, qolgan fosfatlarning uchdan bir qismi quyqum va chiqindilar shaklida yo'qotiladi. Yuqori konsentratsiyali Tenessi koni rudalari to'g'ridan to'g'ri boyitilmasdan ishlatiladi, past navli rudalar esa navlarga ajratish va yuvish orqali boyitiladi.

Respublikamizda Qizilqum fosforit konsentratlari va Qozog'iston Respublikasidan olinadigan Qoratog' fosforit konsentratlari ishlatiladi. MDH mamlakatlarida Xibin apatit konsentratlari; Qoratog', Yegorev va Kingisepp flotatsiyali fosforit konsentratlari; Vyatsk, Yegorev, Aktyubinsk, Maardu, Kursk va Bryansk yuvilgan fosforitlari hamda birlamchi fosforit konsentratlari va boshqalar ishlatiladi. Har bir fosforit rudasini boyitish tarkibidagi qo'shimchalar va fosfatlarni ajratib olish darajasiga muvofiq holda o'ziga xos xususiyatga ega.

Yuqori sifatli rudani quruq maydalash yo'li bilan ham, quyi navli ( $P_2O_5$  kam bo'lgan) fosforitli rudani boyitish orqali ham kislotali qayta ishlash uchun fosfatli xomashyo ishlab chiqariladi. Bunda hattoki fosforit tarkibida 23,3 %  $P_2O_5$  va 3,6 %  $MgO$  bo'lganda ham mavjud boyitish usullari orqali tarkibida 27,9 %  $P_2O_5$  va 2,45 %  $MgO$  bo'lgan flotatsiyali konsentrat olinadi. Bundan tashqari, fosforitlarni boyitish –

ma'lum miqdordagi xomashyo yo'qotilishi bilan bog'liq qimmatbaho jarayondir. Flotatsiyali konsentratdagи 1 t P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> ning tannarxi boshlang'ich rudani quruq maydalashdan olinadigan fosforit uniga nisbatan 2,5-3 marta qimmatdir. Flotatsiyalashda boyitiladigan rudadan P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> ning mahsulotga ajralish darajasi 63-65 % ni tashkil etadi, ya'ni boyitish jarayonida 35 % fosfatli modda yo'qotiladi. Boyitish fabrikasining tarkibida 16-18 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> va 4-6 % MgO tutgan chiqindisidan amalda foydalanilmaydi.

Temir rudali fosforitlarni boyitish uchun magnitli separatorlardan foydalaniladi.

Fosforitlarni boyitishda ularga termik ishlov berish usuli ham ishlatiladi. Bunda fosforitlar 400-800°C da aylanuvchi barabanli yoki qaynovchi qatlamlı pechlarda ishlov berilishi natijasida undagi karbonatlar parchalanadi, fosforit zarrachalarining strukturasi qisman o'zgaradi, bu esa ularning keyingi kislotali ishlov berilishida o'z samarasini beradi.

Fosforitlarni kimyoviy boyitishda ko'p miqdordagi kislota sarf bo'lishi, suyultirilgan va tashlab yuboriladigan eritmalar hosil bo'lishi va ma'lum miqdordagi fosfatli moddalarning eritmaga o'tishi hisobiga yo'qotilishi sababli amalda joriy etilmagan. Lekin, fosforitlarni qisman parchalash va flotatsiyali boyitish orqali quyi navli fosforitlarni dastlabki kimyoviy qayta ishlash iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi. Karbonatlarni yo'qotish maqsadida kimyoviy boyitish qo'llanilishi mumkin.

**O'zbekiston fosforitlarining tavsifi.** Markaziy Qizilqum fosforitlari hozirgi kunda respublikadagi fosforli o'g'itlar ishlab chiqaruvchi korxonalarining asosiy xomashyo bazasi hisoblanadi. Donador fosforitning aniqlangan umumiyliz zaxirasi 10 mlrd tonnani tashkil qilib, uning faqatgina 10 %ini ochiq usulda qazib olish mumkin. Qizilqum havzasidagi Jer (Djeroy), Sardor (Sardara), Toshqo'ra (Toshkura) (1.6-jadval), Qoraqt (Karatau), Jetimtog' (Djetimtau) konlari deyarli to'liq o'r ganilgan. Yirik konlardan hisoblangan Jer-Sardor fosforit zaxirasi 240 mln t (47 mln t P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>) ga teng. Ushbu konning 100 metrgacha bo'lgan chuqurlikdagi P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> miqdori 100 mln ton nadan ko'proq ekanligi aniqlangan .

Gorizontlarda joylashgan bir necha fosfatli qatlamlar ichida umumiy qalinligi 1,0-1,3 metr bo'lgan ustki ikkitasi sanoat ahamiyatiga egadir. Ularni o'zaro 8-12 metrli kuchsiz fosfatlashgan mergelli qatlamlari ajratib turadi. Qatlamlardagi fosforit tarkibidagi fosfat angidrid miqdori birinchi qatlamda 16-19 % ni, ikkinchi qatlamda esa 21-23 % ni tashkil qiladi.

### 1.6-jadval

#### Toshqo'ra fosforitlarining kimyoviy tarkibi

Namunalar	Komponentlar, % hisobida								
	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	CaO	MgO	CO <sub>2</sub>	R <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	SO <sub>3</sub>	F	H <sub>2</sub> O	e.q
Boyitilmagan fosforit uni	17,65 18,03	44,57 42,43	1,73 1,68	15,25 15,18	2,53 2,45	4,42 3,11	2,32 2,10	1,15 1,09	7,84 7,35
Minerallashgan fosforit	13,94 12,45	43,78 44,50	2,11 2,03	19,10 18,85	3,26 3,18	2,10 1,95	0,42 0,35	1,17 1,16	11,7 8,61
Fosforit changi	18,54 18,05	45,29 41,20	1,81 1,78	15,00 15,16	2,73 2,66	2,81 0,71	0,81 0,76	0,41 0,38	10,2 7,23
Guliof fosforiti	5,05	17,0	0,70	5,28	2,83	1,02	0,90	2,20	0,59

Fosforit rudasi (undagi 20 % mergel jinslari hisobiga) tarkibidagi fosfat angidridning ulushi o'rtacha 16 % ni tashkil qiladi. Qizilqum fosfat xomashyosi o'zining tarkibi bilan Afrika va Arabiston hududida joylashgan yirik konlardagi (Xuribka, Jembel-Onk, Gafsa, Abu-Tartur) fosforit ma'danlariga juda yaqindir.

Kimyoviy va fizik-kimyoviy tahlil natijalari Qizilqum fosfat xomashyosi asosan ftorkarbonatapatit va kalsit minerallaridan tashkil topganligini ko'rsatdi.

Petrografik ma'lumotlar Sardor koni fosforitlari donador organogenoolit qoldiqlaridan tuzilganligini ko'rsatdi.

Ruda fosfatlashgan donalar va organik qoldiqlar hisoblangan oolitli fosfatlar (70 % ga yaqin), oz miqdorda loysimon qo'shimchalari bo'lgan sementlangan karbonatlar yig'indisidir. Mineralogik tadqiqot natijalari donador fosforitrudalari tarkibi bir-biriga o'xshashligini ko'rsatdi. Jinsni 10 % dan 90 % gacha fosfat minerallari tashkil qiladi. Qolgan qismi kalsit, montmorillonit, gidroslyuda, poligorskite, gidrogetit,

kvars, gips, glaukonit, dala shpatlari, galit minerallaridan iboratdir. Jinslar tarkibida temir qoldiq holatda 12 % gacha bo'lib, asosan gidroksid, kamdan-kam sulfid holida uchraydi. Magniyning asosiy qismi montmorillonitda, oz miqdorda esa dalomit tarkibida bo'ladi. Aluminiy miqdori loysimon moddalar ulushiga bog'liq bo'lib, ko'pi bilan 7,2 % gacha boradi.

Rudaning o'rtacha mineralogik tarkibini (%): frankolit – 56,0, kalsit – 26,5, kvars – 7,5-8,0, gidroslyuda minerallari va dala shpatlari – 4,5, gips – 3-5, getit – 1,0, seolit < 1,0, organik moddalar esa – 0,5 ga yaqin tashkil qiladi.

Fosfat moddasining o'rtacha kimyoviy tarkibini (%):  $P_2O_5$  – 32,10;  $CaO$  – 48,34;  $CO_2$  – 5,0; F – 3,19;  $MgO$  – 0,04;  $Al_2O_3$  – 0,2;  $Fe_2O_3$  – 0,18;  $Na_2O$  – 0,10;  $K_2O$  – 0,05;  $SO_3$  – 0,08;  $SiO_2$  – 0,05 tashkil qiladi. Uning zichligi 2,96-3,20 g/sm<sup>3</sup>, sindirish ko'rsatkichi 1,596-1,621 ga teng. Donador fosforitdag'i fosfat moddasi adabiyotlarda «kurksit» deb nomlanadigan karbonatforapatitga to'g'ri keladi.

Fosforitning boshqa xomashyolardan asosiy farqi ular tarkibida uch xil shaklda karbonat minerallari bo'lishidir. Ular fosforit tarkibida «endo» – va «ekzokalsit» shaklida bo'ladi. Endokalsit – chig'anoqli fosfatlar ichida fosforit zarralari bilan bog'lanishidan saqlanib qolgan dastlabki kalsit qoldig'idir. Ekzokalsit esa kalsitning ikkinchi shakli bo'lib, fosforitlarning sirtida sust bog'langan.

Uchinchi shaklda karbonat ionlari fosfat donalarining tuzilish halqalarida izomorfik holatda bog'langan. Qizilqum fosforitlari yuqori karbonatli hisoblanib, ba'zi namunalarida karbonat angidridning miqdori 27 % gacha boradi. Fosforitlarda frankolit miqdori 20-25 % dan 84-87 % gacha, kalsit esa 5-8 % dan 62-65 % gacha oraliqda o'zgaradi va ular ma'danning 75-80 % dan 93-95 % gachasini tashkil etadi .

**Fosforitlarning fizik-kimyoviy va mexanik xossalari.** Marказиј Qizilqum fosforitlaridan yangi navli fosforli o'g'itlar olishning fizik-kimyoviy asoslarini yaratishda, me'yoriy-texnik hujjatlarni ishlab chiqish va sanoat miqyosida ishlab chiqarishni tashkillashtirishda xomashyo va tayyor mahsulotlarning fizik-kimyoviy va mexanik xossalari haqidagi ma'lumotlar

zarurdir (1,7-jadval). Chunki bu tavsifnomalar xomashyolarni qayta ishlash uchun qurilma va uskunalar o'lchamini to'g'ri hisoblash bilan birga ulardan unumli foydalanishga imkon beradi.

Fosforit zarrachalarining oquvchan sharoitdagи harakat-chanligi uning uyma zichligi orqali ifodalanadi.

U xomashyo saqlanayotgan hajmdagi va shuningdek bunker va siloslardan bo'shatilayotgandagi harakatning asosiy ko'rsatkichlarini hisoblashda zarur bo'ladi.

Asosiy xomashyo bunkerlari va idishlari o'lchovlarini, uni tashuvchi moslama va qurilma quvvatlarini hisoblash uchun uyma zichlik ko'rsatkichi aniqlanadi.

Namligi 1,15 % bo'lgan boyitilmagan fosforit unining uyma zichligi 1,07 g/sm<sup>3</sup> ga teng. Xomashyo tarkibidagi namlikning 2,45 % gacha ortishi uning uyma zichligini 1,13 martaga oshiradi.

Ushbu bog'liqlik past navli fosforit va fosforit changi namunalarda ham nomoyon bo'ladi. Sochiluvchan modda zarrachalari harakati ularning erkin yuzada hosil qilgan tabiiy qiyalik burchagiga bog'liqidir.

Qiyalik burchagi qancha kichik bo'lsa bu uning yuqori sochiluvchanligini ko'rsatadi.

Past sifatli fosforit namunasida esa buning aksi, chunki uning donadorlik tarkibi fosforit changidan keskin farq qiladi.

Qadoqlash qurilmalarini loyihalash va tanlashda fosforit zarrachalarining oquvchanligi katta rol o'ynaydi. Ma'lum miqdordagi xomashyo namunalarini 4 mm diametrga ega bo'lgan voronkadan oqib tushish vaqtি oquvchanlikni ifodalaydi. Tajribalar faqatgina namligi 2,10 % gacha bo'lgan boyitilmagan fosforit uni oquvchan ekanligini ko'rsatadi. Buni quyidagicha izohlash mumkin. Past sifatli fosforitdagи zarrachalar o'lchamining kattaligi hisobiga oquvchanligi oshadi va aksincha chang fraksiyasi zarrachalarining o'ta mayin bo'lishi natijasida ular voronka devorlariga yopishishi hisobiga oquvchanligi kamayadi. Demak, mazkur fosforit namunalaridan o'g'it ishlab chiqarishda ularning har biri uchun alohida-alohida o'ziga xos saqlash, tashish va qadoqlash qurilmalaridan foydalanish kerak.

## 1.7-jadval

### Toshqo‘ra fosforit namunalarining fizik-kimyoviy xossalari

Texnologik ko‘rsatkichlar	Fosforit namunalarini								
	boyitilmagan kukun		minerallashgan			fosforit changi			
Donadorlik, %	$+0,16 \text{ mm} - 30$		$-5 \text{ mm} - +3 \text{ mm} - 10,5$ $-2 \text{ mm} - +1 \text{ mm} - 13,1$ $>1\text{mm} - 60,0$			$-0,3 \text{ mm} - +0,1 \text{ mm} - 13,54$ $>0,1 \text{ mm} - 86,46$			
Namlik, %	1,15	2,10	2,45	1,17	2,24	2,61	0,41	0,89	1,02
Zichlik, g/sm <sup>3</sup>	2,31	2,40	2,43	2,11	2,23	2,38	2,17	2,22	2,30
Uyma zichlik, g/sm <sup>3</sup>	1,07	1,13	1,21	1,35	1,46	1,49	0,61	0,78	0,85
Tabiiy qiyalik burchagi, °C	38	40	42	58	56	60	11	12	14
Oquvchanlik, s	17	20	Oquvchan emas						

Fosforit tarkibida qo’shimchalar: karbonat minerallari, temir va aluminiy oksidlarining katta miqdorda bo‘lishi xomashyoni qayta ishlash texnologiyasini qiyinlashtiradi. Ushbu fosforitlarni qayta ishlashda ko‘p miqdorda ko‘piklar hosil bo‘lishi va uni karbonsizlantirish uchun katta miqdorda kislota sarflanishi xomashyoning salbiy tomoni hisoblanadi.

Fosforitlarni murakkab o‘g‘itlar ishlab chiqarishga jalb qilish uchun albatta tarkibidagi kalsit miqdorini kamaytirish hisobiga uni boyitish lozim. Qizilqum fosforitlaridan yuqori sifatli azot-fosforli murakkab o‘g‘itlar ishlab chiqarish maqsadida hozirgi kunda xomashyoni turli usullar yordamida boyitish texnologiyalari yaratilmoqda. Fosforit rudasini flotatsiya usuli yordamida boyitish samarasiz hisoblanadi, chunki unda kalsit va fторapatit zikh bog‘langan bo‘ladi. Bu esa rudani maydalangandan keyin ham flotatsiya usuli bilan ajratishda noqulayliklarni keltirib chiqaradi.

Yuqori karbonatli fosforitlarni boyitishning yana boshqa usullaridan biri ularga suyultirilgan mineral kislotalar va nitrat kislotaning nordon tuz eritmalari bilan kimyoviy ishlov berishdir. I.K. Irgashev va S.X. Madaliyevalar Jer va Sardor fosforit namunalarini fosfatlarning nitrat kislotasi bilan qayta ishlashda chiqindi hisoblangan magniy va kalsiy nitratli nitrat

kislotaning quyidagi tarkibli 12 % Ca(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub>, 10 % Mg(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> 4,06 % HNO<sub>3</sub> eritmasi yordamida kimyoviy boyitish maqsadga muvofiqligini ko'rsatganlar. Bu sharoitda xomashyodagi uglerod(IV)-oksidning ajralish darajasi 63-65 % ni, P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> ning suyuq fazaga o'tishi esa 0,14-0,78 % ni tashkil qiladi. Fosforitlar 3-9 % li sulfat kislota eritmasi bilan boyitilganda esa karbonat angidridni kerakli darajada gaz fazasiga o'tkazishga erishilmagan, chunki bu sharoitda xomashyodagi P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> ning 18,34 % qismi eritmaga o'tadi. Kimyoviy boyitish usullarining asosiy kamchiligi fosforitlardagi karbonat angidridni 100 % gacha gaz holatiga o'tkazish mumkin emasligi va ko'p miqdorda hosil bo'ladigan kuchsiz eritmalarni utilizatsiya qilish (takroriy qayta ishslash) ning murakkabligidir.

Fosforitlarni termik usullar yordamida boyitish ko'pgina ilmiy ishlarda o'rganilgan. Tadqiqotlar asosida quyidagilar aniqlangan:

–fosforitlarning karbonatszlantirish jarayonida karbonat angidridning to'liq gaz fazaga o'tishi haroratning keng oralig'ida boradi va 1100°C da yakunlanadi;

–rudani 850°C da kuydirganda mahsulot tarkibidagi erkin kalsiy oksidining ulushi yuqori bo'ladi;

–yuqori 1000-1500°C haroratda kuydirilganda xomashyodagi murakkab fizik-kimyoviy o'zgarishlar natijasida kalsiy silikati va kalsiytetrafosfatlar hosil bo'ladi;

–1000-1300°C da fosforitdan bog'lovchi qo'shimchalarsiz fosfor ishlab chiqarish uchun mustahkam donador mahsulot hosil bo'ladi;

–xomashyo 1560-1580°C da eriydi, quruq havo oqimiga fтор gazlari ajraladi.

Hozirgi kunda Qizilqum fosforitlari jadal dezintegratsiyalangan va ajratilib, so'ng kuydiriladi. Xomashyoning dezintegratsiyalanishi natijasida uning tarkibidagi cementlangan bo'laklar maydalanadi va mergel birikmalaridan ajratiladi. Shuningdek, kalsit va kvarsning yupqa qatlamlari yo'qotiladi. O'lchami +40 (50) mkm bo'lgan mahsulot esa kuydirishga yuboriladi. Termik boyitish asosida olingan fosforit tarkibida hosil bo'lgan erkin kalsiy oksidini an'anaviy usulda ajratib olish kam samaralidir.

Zarafshon shahridagi Qizilqum fosforit kompleksida ishlab chiqarilayotgan termokonsentrat olish usulining murakkabligi, unda yuqori harorat qo'llanilishi, kuydirilgan mahsulot tarkibida xlor miqdorining ortib ketishi, mahsulot tarkibidagi  $\text{CaO}/\text{P}_2\text{O}_5$  nisbatining katta qiymatda saqlanib qolishi undan olinadigan ammosos o'g'itining tannarxini qimmatlashishiga olib keladi. Bugungi kunda Qizilqum fosforitlaridan termik boyitish jarayonlaridagi muammolarni hal etish uchun arzon va sifatli fosfokonsentratlar olishning samarali usullarini izlab topish lozim. Markaziy Qizilqum fosforitlarini chiqindisiz texnologiya asosida boyitish tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Bu usulda boyitilmagan Qizilqum fosfat namunalari ( $17-18\% \text{ P}_2\text{O}_5$ )  $50-57\%$  li nitrat kislotasi bilan qayta ishlanadi. Kislota miqdori karbonat minerallarini parachalash uchun stexiometrik sarfining  $90-110\%$ ni tashkil etadi.

Boyitish «qattiq fazali» tartibda borishi natijasida barqaror ko'piklar hosil bo'lmaydi. Parchalanish mahsulotlari kalsiy nitrit, loysimon minerallar va qisman parchalangan fosfatlar  $10-15\%$ li aylanma  $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$  eritmasi yordamida yuvilib, ajratib olinadi. Ushbu konsentrangan nitrokalsiyfosfat eritmlari ma'lum usullar yordamida azot-fosfor-kalsiyli murakkab o'g'itga qayta ishlanadi. Fosforitdagi  $\text{P}_2\text{O}_5$  ning  $54-56\%$  qismi fosforit konsentrati tarkibiga o'tishi aniqlangan. Ishlanma mualliflari ushbu konsentratdan yuqori sifatli mono va diammoniyfosfat o'g'itlari ishlab chiqarishni tavsiya etishgan. Yuqorida keltirilgan usulning ma'lum kimyoviy boyitish usullaridan afzalligi shundan iboratki, fosfat konsentrati olish uchun alohida boyitish korxonasini loyihalash va qurish shart emas, konsentratdagi kalsiy moduli ( $\text{CaO}:\text{P}_2\text{O}_5$ ) kichik, xlor miqdori (ikki martaga) kam va uning tannarxi arzonlidigidir.

Hozirgi kunda Qizilqum fosforit kompleksi korxonalarini fosfat xomashyosi bilan to'liq ta'minlash imkoniyatiga ega emas. Respublika qishloq xo'jalagida fosforli o'g'itlarga bo'lgan talabni to'la ta'minlash uchun sanoat ahamiyatiga ega bo'limgan fosforitlardan foydalananib, murakkab o'g'itlar olishning unumli usullarini yaratish zarurdir.


O'zbekiston hududida tarkibidagi asosiy fosfor miqdori ma'lum fosforitlarga nisbatan kam bo'lgan fosfatlarga Gulioib

(Guliob), Auminzatog' (Auminzatau), Cho'qay-To'qay (Chukay-Takay), Xo'jayli (Xodjeyli), Xo'jako'l (Xodjakul), Bolaqara (Balakarakskiy), Bo'qantog' (Bukantauskiy) kabi va boshqa agronomik ruda konlari aniqlangan. Yuqorida qayd etilgan mahalliy past navli xomashyolar kimyoviy tarkibi, tuzilishi va xususiyatlari jihatidan bir-biridan keskin farq qiladi.

Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida joylashgan Guliof fosforiti tarkibidagi fosforli minerallar asosan dallit va diadoxit minerallaridan tashkil topgan. Rudada bu minerallarning umumiy miqdori 31 % ga teng. Zaxiraning miqdori 551 ming tonna P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> ni tashkil qiladi. Donador fosforitlar qora va jigar rang ko'rinishda uchraydi. Undagi fosfat angidridning miqdori 4,13 % dan 22,3 % gacha o'zgaradi. Shuningdek, tarkibidagi oz miqdordagi MgO, CO<sub>2</sub> va F, SO<sub>3</sub> lar gips tarkibida emas, balki diadoxit mineralida bo'ladi.

Ruda tarkibida temir, aluminiy, magniy, kaliy, marganes, nikel, mis, volfram va boshqa mikroelementlar bo'lib, fosforitga qayta ishlov berilganda ular o'g'it tarkibiga o'tadi. Dallit bilan diadoxit minerallarini hosil qilgan qatlamlarni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi. Markaziy qismida ko'p miqdorda dallit uchrasa, sirtida diadoxit, ayrim holatlarda teskari joylashadi. Diadoxit tarkibidagi sulfoguruhlarning fosfat mineralari bilan birikib ketishi fosforitning kislotali parchalash kimyoviy va kinetik jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni tez va oson parchalanishga olib keladi.

Diadoxit, masalan, fosfat kislota bilan parchalanganda erkin holatda sulfat kislota hosil bo'lishi quyidagi reaksiyalar orqali sodir bo'ladi:



Hosil bo'lgan sulfat kislota esa dallitga ta'sir qilib, kalsiy ftorapatitni o'simlik o'zlashtiruvchan holatga o'tkazadi.



Rudaning asosiy mineral tarkibini (o'rtacha %): kvars – 56,5; dala shpati – 0,65; fosforit – 31,1; karbonat – 1,45; loysimon minerallar – 6,3; temir gidroksidi – 3,3, sfen, apatit, turmalin, sirkon, uglerodli moddalar, pirit tashkil qiladi.

Kvars fosforitlarda juda ham notejis tarqalgan bo'ladi.

Dala shpati ortoklaz va mikroklin shaklida fosforit tarkibida 1 % gacha bo'ladi.

Ortoklaz donalarida sirkon, apatit va turmalin uchraydi.

Karbonatli minerallar kuchsiz dolomitlashgan kalsitdan tashkil topgan.

Loysimon minerallar bilan karbonatlar zich bog'lanishi natijasida loysimon sementli karbonatlarni hosil qiladi. Kvars donalarining sirti va yoriqlarida temir gidrooksidi, uglerodli birikmalar bo'ladi.

Montmorillonit va kaolinitga o'xshash loysimon minerallar karbonatlar bilan birga sementli jinslar hosil qiladi. Xomashyodagi karbonatlarga o'xhab, bu minerallar jinsda bir tekis tarqalmagan bo'lib, ba'zi yuzalarda uning miqdori nolgacha kamayib boradi.

Sfen, apatit, turmalin, sirkon alohida ajralgan karbonat – loyli sement ko'rinishida bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, mahalliy fosforitlardan sislati fosforli o'g'it olish uchun albatta yangi usullar ustida ilmiy izlanishlar olib borish zarur.

## Nazorat uchun savollar

1. Nima uchun tuproqqa mineral o'g'itlar solinadi?
2. Makroelement va mikroelementlar deganda nimani tushunasiz?
3. O'simliklar hosildorligini oshirishdagi mineral o'g'itlarning roli qanday?
4. Mineral o'g'itlar qanday turlarga bo'linadi?
5. Organik va bakterial o'g'it deganda nimani tushunasiz?
6. Azotli o'g'itlarga qanday tuzlar kiradi?
7. Fosforli o'g'itlar turlarini aytинг.
8. Kaliyli o'g'itlarga qanday tuzlar kiradi?
9. Mikroo'g'itlar deganda nimani tushunasiz?

10. Kompleks o'g'itlar deganda nimani tushunasiz?
11. To'g'ridan to'g'ri ishlataladigan va bilvosita foy-dalaniladigan o'g'itlar deganda nimani tushunasiz?
12. Azotli o'g'itlar turlarini ayting va misollar keltiring.
13. Kaliyli o'g'itlar turlarini ayting va misollar keltiring.
14. Kompleks o'g'itlar turlarini ayting va misollar keltiring.
15. Aralash o'g'itlar deganda nimani tushunasiz?
16. Gigroskopiklik nima?
17. O'g'itlarning yopishqoqligi nima va uni qanday kamay-tiriladi?
18. Donachalarning mustahkamligi deganda nimani tu-shunasiz?
19. Namlik sig'imi deganda nimani tushunasiz?
20. To'kma zichlik nima?
21. Fosfatli minerallar turlarini ayting.
22. Fosfatli minerallarning fizik xossalari tushuntiring.
23. Fosfatli minerallarning tabiatda hosil bo'lishi va tarqalishini ayting.
24. Fosfatli xomashyolarni boyitish usullarini tushuntiring.
25. O'zbekiston fosforitlarini tavsiflang.
26. Fosforitlarning fizik-kimyoviy va mexanik xossalari tushuntiring.

## **II bob. AZOT-KALIYLI VA FOSFOR-KALIYLI MURAKKAB O'G'ITLAR ISHLAB CHIQARISH NAZARIYASI VA TEXNOLOGIK HISOBLARI**

---

### **1-§. Kaliyli selitra ishlab chiqarish nazariyasi**

**Kaliy nitrat. Xossalari va olinish usullari.** Kaliy nitrat (kaliyli selitra)  $\text{KNO}_3$  – kristall rangsiz kukun bo'lib,  $337^{\circ}\text{C}$  da suyuqlanadi. Texnik mahsulot sarg'ish rangga egadir. Suyuqlanish haroratidan yuqorida  $\text{KNO}_2$  va  $\text{O}_2$  ga parchalanadi.  $20^{\circ}\text{C}$  haroratda 100 g suvda 31,5 g,  $114^{\circ}\text{C}$  da esa – 312 g  $\text{KNO}_3$  eriydi.

Kaliy nitrat – tutunli (qora) porox ishlab chiqarishda, pirotexnikada, oziq-ovqat va shisha sanoatida ishlatiladi. U tarkibida ikkita ozuqa elementi – azot va kaliy (nazariy tarkibi – 13,85 % N va 46,5 %  $\text{K}_2\text{O}$ ) bo'lgan ballastsiz (keraksiz qo'shimchasi bo'lмаган) bebahoh o'g'it hisoblanadi. Bu o'g'itning yana bir muhim xususiyati shundaki, u gigroskopikligi kam va fiziologik ishqoriyidir. Ammo uni asosan sanoatda ishlatiladi, chunki kaliy nitratdagi azot va kaliyning narxi boshqa o'g'itlardagiga nisbatan qimmatdir.


Sanoatda ishlatish uchun bir necha navlardagi kaliy nitrat ishlab chiqariladi. Ular tarkibida 99,9; 99,85 va 99,7 % dan kam bo'lмаган  $\text{KNO}_3$  va shunga muvofiq ravishda 0,08; 0,1 va 0,2 % dan kam bo'lмаган namlik bo'ladi. Shuningdek, ular tarkibidagi xloridli, karbonatli, nitritli va boshqa qo'shimchalar ham me'yoranadi.

Kaliy nitrat oz bo'lsada turli biokimyoviy jarayonlar natijasida yuzaga keladigan tabiiy mineral tarzida ham uchraydi. Shulardan biri hind selitrasи hisoblanadi. Uning asosiy tarkibi kaliy nitratdan iboratdir.

Kaliy gidroksid yoki karbonatda nitrat kislotasini neytrallash yoki azot oksidlarini absorbsiyalash usuli bo'yicha kaliy nitrat olish ishqoriy reagentlarning yetishmasligi va qimmatbaholigi sababli kam qo'llaniladi. Kaliy xlorid va

natriy, ammoniy, kalsiy nitratlardan kaliy nitrat olishning konversiyali usuli sanoatlarda keng tarqalgan. Masalan, KCl va Ca(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> ishlatilganda jarayonni kation almashinuv usuli bilan amalga oshirilishi mumkin. Bunda kationit davriy ravishda kalsiy nitrat eritmasi bilan (KNO<sub>3</sub> eritmasi olishda) va kaliy xlorid eritmasi bilan (kationitning regeneratsiyasida) ishlov berib turiladi. So'ngra kaliy nitrat eritmasi bug'latiladi, sovutiladi, KNO<sub>3</sub> kristallari sentrifugada ajratiladi va quritiladi. Kaliy xlorid va nitrat kislota yoki azot oksidlardan kaliy nitrat olish ham o'ziga xos xususiyatga egadir.


**Kaliy nitrat ishlab chiqarishning konversiyali usuli.** Quyidagi almashinish reaksiyasiga asoslangan usul keng tarqalgandir:



5, 25, 50 va 100°C haroratdagi KCl + NaNO<sub>3</sub> = NaCl + KNO<sub>3</sub> suvli sistemasida eruvchanlik diagrammasi 2.1-rasmida tasvirlangan. Bundan ko'rindaniki, 5-25°C haroratdagi kaliy tuzlarining eruvchanligi natriy tuzlariga nisbatan kam, 100°C da, aksincha, NaCl ning kristallanlanish sohasi keskin ortadi. Agar 100°C da KCl va NaNO<sub>3</sub> larning ekvimolyar aralashmasining eritmasi tayyorlansa, kvadrat diagonallari kesishishiga to'g'ri keladigan *a* nuqta NaCl ning kristallanish sohasida yotadi. Bunday eritmadan 10°C haroratda suv bug'latilganda, eritma to'yinishi natijasida NaCl kristallana boshlaydi va eritma tuzli massasining tarkibi *ab* chiziq bo'yicha o'zgaradi.

*b* nuqtada eritma KCl ga ham to'yinadi. Agar xuddi shu paytda ajraladigan NaCl kristallari ajratilsa va so'ngra eritma, masalan 5°C ga sovutilsa, bunda *b* nuqta KNO<sub>3</sub> ning kristallanish sohasida bo'lib qoladi. Eritma sovutilganda bu tuz ham cho'kmaga tushadi va qolgan eritma tarkibi *bc* chiziq bo'yicha o'zgaradi.

Bunda *a* va *b* nuqtalar orasidagi masofa unchalik katta emas, u holda ekvimolekulyar miqdordagi KCl va NaNO<sub>3</sub> tutgan eritmagan suvni bug'latishda juda oz miqdordagi NaCl cho'kmaga tushadi va eritma tezda KCl bilan ham to'yingan holga keladi.




**2.1-rasm.** 5, 25, 50 va 100°C haroratdagи KCl+NaNO<sub>3</sub> = NaCl+KNO<sub>3</sub> suvli sistemasida eruvchanlik izotermasi.

Bu esa eritmani sovutish KNO<sub>3</sub> unumini kamaytiradi. Ajratib olinadigan NaCl miqdorini oshirish va KNO<sub>3</sub> unumini oshirish uchun, diagrammadan ko‘rinadiki, boshlang‘ich eritmaga ortiqcha NaNO<sub>3</sub> qo‘sish lozimdir. Agar NaCl ajratib olinishi tugallanishiga eritma uchta tuz – NaCl, KCl va KNO<sub>3</sub> bilan to‘yinsa (ya’ni uning tuzli massasi E<sub>2</sub> nuqta bilan tasvirlangan) eng yuqori unumga erishiladi. Bunda hosil bo‘lgan NaCl kristallarini ajratib olingandan so‘ng, eritmani sovutilishi natijasida KNO<sub>3</sub> ning kristallanishi eng uzun yo‘l E<sub>2d</sub> bo‘yicha sodir bo‘ladi va eng yuqori unumda mahsulot olinishi ta’minlanadi.

KCl va NaNO<sub>3</sub> orasidagi almashinishni ta’minalashning eng samarador va tejamkor usuli bu – o‘zgarmas bosim va o‘zgaruvchan haroratda sistemadan suvni bug‘latish paytida NaCl ning kristallanishi sodir bo‘ladigan siklik jarayonda amalga oshirish hisoblanadi. Bunday optimal siklning tartibi va hisobi izotermik va izobarik diagrammalar kesishuviga yordamida amalga oshirilishi mumkin. KNO<sub>3</sub> kristallanishi 50°C da tugallanadigan optimal sikl uchun misol 2.2-rasmida ko‘rsatilgan. Izotermik kesishuvda *a* nuqta – sovutish jarayonida *ba* kesimda KNO<sub>3</sub> kristallanganidan so‘ng qoladigan eritmani tavsiflaydi. Kristallanish boshlanishida eritmaning


tuzli tarkibiga *b* nuqta muvofiq keladi. Kristallanishdan oldin unga shunday miqdordagi suv qo'shiladiki, u kristallanish oxirida faqat belgilangan haroratdagina ( $50^{\circ}\text{C}$ ) natriy xlorid bilan to'ynishi kerak. *b* eritma qaynayotgan *c* eritmada suvning bug'lanishi va  $\text{NaCl}$  ning kristallanishi natijasida olinadi. Eritma *a* ning  $\text{KCl}$  va  $\text{NaNO}_3$  lar ekvimolyar miqdorlari aralashtirilishidan boshlang'ich eritma *c* bug'latish uchun olinadi.

Shunday qilib, sikl *cab* uchburchagi bo'yicha amalga oshiriladi. Siklning tuzli koefitsiyenti (ya'ni olingan  $\text{KNO}_3$  massasining bug'latilgan suv massasiga nisbati) qanchalik katta bo'lса, bug'latishga shunchalik oz energiya sarflanadi.  $\text{KNO}_3$  kristallanishining oxirgi harorati qanchalik katta bo'lса, eritmani sovutishga shunchalik oz xarajat ketadi.  $50\text{-}25^{\circ}\text{C}$  oralig'ida joylashgan qaynash nuqtasidan kristallantirishning oxirgi haroratigacha chegarasidagi haroratlari sikl eng tejamkor hisoblanadi. Bunda *Bb* chiziqli bug'lanish uchun optimal  $\text{K}^+:\text{NO}_3^-$  nisbati  $0,69\text{-}0,96$  oralig'ida bo'ladi; ular nisbatan yuqori tuzli koefitsiyentlar va kam hajmli aylanma eritmalar bo'lishini ta'minlaydi.



**2.2-rasm.** Izotermik ( $50^{\circ}\text{C}$ ) va izobarik (0,1 MPa) kesishuvli diagrammada  $\text{KCl}+\text{NaNO}_3 = \text{NaCl}+\text{KNO}_3$  konversiyaning optimal sikli.

**Kaliy nitrat ishlab chiqarishning samarador usullari.** Kaliyli selitra turli xil usullarda, shu jumladan almashinish reaksiyasi orqali olinadi:



Bu jarayonning sodir bo'lish sharoitlariga bog'liq ravishda almashinish darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Buni hisoblash uchun odatda grafik usul qo'llaniladi.


2.3, 2.4, 2.5, 2.6 va 2.7-rasmlarda  $\text{KCl} - \text{NH}_4\text{NO}_3 - \text{KNO}_3 - \text{NH}_4\text{Cl}$  sistemasining 0; 20; 40; 60 va 100°C haroratlardagi izotermasi ifoda etilgan.

Izotermalarning har bir maydoni ionlar o'ttasidagi mumkin bo'lgan nisbatlarni o'z ichiga oladi va ular to'q rangdagi chiziqlar bilan ajratilgan bo'lib, to'rtta kristallanish maydoniga bo'lingan.


Bunda har bir maydonda eritma faqatgina bita tuz cho'kmasi bilan muvozanatda bo'ladi. To'qroq chiziqlar bo'ylab eritma bir paytning o'zida ikkita tuz bilan muvozanatda bo'ladi. Ikkita nuqta F va E da esa uchta shunday chiziqlar uchrashadi va bunda eritma uchta tuz bilan muvozanatda bo'ladi.

Ingichka chiziqlar esa bir xil miqdordagi suvgaga ega bo'lgan eritmalarga oid nuqtalarni birlashtiradi.


Bu chiziqlar raqamlari to'yingan eritmada 1 mol tuzlar yig'indisi (jami) ga qancha mol suv to'g'ri kelishini ko'rsatadi.




**2.3-rasm.**  $\text{KCl} - \text{NH}_4\text{NO}_3 - \text{KNO}_3 - \text{NH}_4\text{Cl}$  sistema izotermasi ( $0^\circ\text{C}$ )



**2.4-rasm.**  $\text{KCl} - \text{NH}_4\text{NO}_3 - \text{KNO}_3 - \text{NH}_4\text{Cl}$  sistema izotermasi ( $20^\circ\text{C}$ )




**2.5-rasm.**  $\text{KCl} - \text{NH}_4\text{NO}_3 - \text{KNO}_3 - \text{NH}_4\text{Cl}$  sistema izotermasi ( $40^\circ\text{C}$ )




**2.6-rasm.**  $\text{KCl} - \text{NH}_4\text{NO}_3 - \text{KNO}_3 - \text{NH}_4\text{Cl}$  sistema izoter-masi ( $60^\circ\text{C}$ )

Har bir tuzlar aralashmasi tarkibiga izotermada ma'lum nuqta to'g'ri keladi va izotarma kvadrati tomonlarigacha bo'lgan masofa bilan tavsiflanadi. Bu masofa kvadrat tomonlari uzunligi hissalari (o'lchamlari) bilan o'lchanadi va eritmadagi tuzlar aralashmasi bir moliga to'g'ri keladigan ayni (muvofig) ionning gramm-ionlari sonlarini ifoda etadi.



**2.7-rasm.**  $\text{KCl} - \text{NH}_4\text{NO}_3 - \text{KNO}_3 - \text{NH}_4\text{Cl}$  sistema izotermasi ( $100^\circ\text{C}$ )



**2.8-rasm.**  $\text{KCl} - \text{NH}_4\text{NO}_3 - \text{KNO}_3 - \text{NH}_4\text{Cl}$  sistema politermasi

Masalan,  $40^\circ\text{C}$  haroratdagи izotermada (2.5-rasm) «a» nuqtasi belgilangan. Bu nuqta kvadrat chap tomonidan 0,45

masofada  $\text{KCl}$  ning kristallanish maydonida joylashgan va shuning uchun unga  $0,45$  g-ion  $\text{K}^+$  va  $1-0,45 = 0,55$  g-ion  $\text{NH}_4^+$  muvofiq keladi. Shu bilan birga «a» nuqtasi kvadratning yuqori tomonidan  $0,35$  masofada joylashgan va shuning uchun unga eritmada  $0,35$  g-ion  $\text{NO}_3^-$  va  $0,65$  g-ion  $\text{Cl}^-$  to‘g‘ri keladi.



Eritmada «a» nuqtaga muvofiq bir mol tuzlar miqdoriga olti mol suv to‘g‘ri keladi, deb faraz qilsak, bu holda eritma to‘yinmagan bo‘ladi. Chunki  $40^\circ\text{C}$  bo‘yicha izotermada to‘yingan eritmada  $4,5$  mol suv bo‘lishi kerak edi. Bunday to‘yinmagan eritmani izotermik bug‘latishdan so‘ng  $1$  mol tuzlar miqdoriga  $4,5$  mol suv to‘g‘ri kelgandagina qattiq faza paydo bo‘ladi. Suvni yana bug‘latish natijasida kaliy xlorid cho‘kmaga tushadi va to‘yingan eritma tarkibi «a» nuqtani izoterma kvadrati cho‘qqisi bilan birlashtiruvchi chiziq bo‘ylab o‘zgaradi. Bu esa faqatgina toza holdagi kaliy xloridga muvofiq keladi (so‘ngra bu cho‘qqilar:  $\text{KCl}$  cho‘qqisi,  $\text{NH}_4\text{NO}_3$  cho‘qqisi va hokazo bilan belgilanadi). Kaliy xlorid cho‘kishi bilan kechadigan bug‘lanish eritma tarkibi «b» nuqtaga muvofiq kelguncha davom etadi. Bungacha esa cho‘kmada faqat  $\text{KCl}$  bo‘ladi. Agar shu haroratda bug‘lanish davom etsa, cho‘kmaga birdaniga ikkita tuz:  $\text{KCl}$  va  $\text{NH}_4\text{Cl}$  tushadi. Eritma tarkibi bu tuzlarning birgalikdagi kristallanish chizig‘i bo‘ylab «F» nuqtagacha o‘zgarib boradi.

Suvni bug‘lanishi davom ettirilsa, cho‘kmaga  $\text{NH}_4\text{Cl}$  va  $\text{KNO}_3$  lar tushadi va eritma tarkibi «FE» chizig‘i bo‘ylab o‘zgaradi. «E» nuqtaga muvofiq keladigan tarkibdagi eritma ionlar nisbatlari o‘zgarmagan holda quriguncha bug‘latilishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan sistemalar izotermasi masshtabida  $0$ ;  $20$ ;  $40$ ;  $60$  va  $100^\circ\text{C}$  haroratlardagi sistema politermasi  $2.8$ -rasmda ifodalangan.

**Kaliy xlorid va nitrat kislota yoki azot oksidlaridan kaliy nitrat olish.** Jihozlarning yuqori darajada korroziyalanishi va qo‘srimcha mahsulotlar –  $\text{HCl}$ ,  $\text{Cl}_2$ ,  $\text{NOCl}$  ni tutib qolish va ishlatalishidagi qiyinchiliklar sababli sanoatda kam qo‘llaniladigan bu usulda kamyob ishqor va ko‘p miqdordagi bug‘ talab etiladi.

Kaliy xloridning nitrat kislota yoki azot oksidlari bilan reaksiyasi quyidagi sxemalar bo'yicha boradi:




Nisbatan past haroratda ( $25-60^{\circ}\text{C}$ ) reaksiya (1) chapdan o'ngga boradi. (2) reaksiya qaytar jarayon bo'lib, past haroratda boshlanadi.  $100^{\circ}\text{C}$  haroratda muvozanat deyarli to'la  $\text{NOCl}$  va  $\text{Cl}_2$  tomonga siljiydi.

Nitrozil xlorid  $\text{NOCl}$  va xlorning hosil bo'lishi eritma konsentratsiyasi va haroratning ko'tarilishiga bog'liqdir. 30-40 % li nitrat kislota ishlataliganda va  $60^{\circ}\text{C}$  dan past haroratda azotning nitrozil xlorid tarzida yo'qotilishi unchalik ko'p bo'lmaydi va xlor eritmada  $\text{HCl}$  shaklida to'planadi. Eritma sovutilganda undagi  $\text{KNO}_3$  ning anchagina qismi ajralib chiqadi, qolgan eritma siklga qaytarilishi mumkin. Bunda undan vodorod xloridni haydalishi kerak. Haydalgan bug'ni xlorid kislota tarzida kondensatlanadi.

Reaksiya (1) bo'yicha  $\text{KNO}_3$  olishni organik erituvchilar – butil, izoamil spirtlari va boshqalar muhitida amalga oshirilishi ham mumkin, bunda organik erituvchilar regeneratsiyalab turiladi.

$\text{KCl}$  va nitrat kislotadan  $\text{NOCl}$  hosil qilinmagan holda ham  $\text{KNO}_3$  olish usullari yaratilgan. Masalan, nisbatan ( $100^{\circ}\text{C}$  dan) past haroratda suvli muhitda boradigan quyidagi reaksiya tenglamasi bilan ifodalanuvchi jarayondan foydalanish taklif etilgan:



yoki  $300-700^{\circ}\text{C}$  haroratda kaliy xloridni dastlab ortiqcha miqdordagi fosfat kislota ( $\text{HCl}$  ni haydalishi) bilan parchalash, so'ngra fosfat kislotani jarayonga qaytarish orqali kaliy fosfatni nitratga konversiyalashni amalga oshirish mumkin:



## **2-§. Kaliyli selitra ishlab chiqarish texnologik hisoblari**

### **Kaliyli selitra olishning ikki sxemasida energetik sarflarni grafik usulda hisoblash**

Hisoblash uchun ma'lumotlar:

1. Qayta ishlashga  $100^{\circ}\text{C}$  haroratdagi 64 % li  $\text{NH}_4\text{NO}_3$  eritmasi tushadi.

2. Sistemaga  $20^{\circ}\text{C}$  haroratda  $\text{KCl}$  eritmasi kiritiladi va uning konsentratsiyasi hisoblash orqali aniqlanadi.

3. Reaksiya natijasida amalda qo'shimchalardan holi  $\text{KNO}_3$  hosil bo'ladi, deb faraz qilingan (qoldiq eritma – matochnikda  $\text{KNO}_3$  miqdori ko'proq bo'lgan tuzlar miqdorini hisobga olinmagan).

4.  $\text{KNO}_3$  ni ajratib olingunga qadar eritma  $100^{\circ}\text{C}$  haroratga ega va  $\text{KCl}:\text{NH}_4\text{NO}_3$  mol nisbati = 0,365:0,635 bo'ladi. Undagi suv miqdori hisoblashlar orqali aniqlanadi.

Solishtirish ikki sxemadagi jarayonlarda energetik sarflarga tegishli:

–birinchi sxema: boshlang'ich eritma  $20^{\circ}\text{C}$  haroratgacha sovutiladi. Bunda  $\text{KNO}_3$  cho'kadi va qoldiq eritmadan ajratiladi. Bu eritma  $60^{\circ}\text{C}$  haroratda (izotermik) bug'latiladi va cho'kmaga tushgan  $\text{NH}_4\text{Cl}$  filtrlanadi. Filtrat  $100^{\circ}\text{C}$  haroratgacha qizdiriladi va boshlang'ich eritmalar ( $\text{NH}_4\text{NO}_3$  va  $\text{KCl}$ ) qo'shilgach, yana sovutiladi.

–ikkinci sxema: bunda eritma  $20^{\circ}\text{C}$  gacha emas, balki  $0^{\circ}\text{C}$  haroratgacha sovutiladi. Jarayonning boshqa bosqichlari birinchi sxemaga o'xshash bo'ladi.

#### **Birinchi sxema moddiy hisobi**

2.8-rasmdagi politerma boshlang'ich eritma tarkibiga, ya'ni 0,365 g-ion  $\text{K}^+$ , 0,635 g-ion  $\text{NH}_4^+$ , 0,365 g-ion  $\text{Cl}^-$  va 0,635 g-ion  $\text{NO}_3^-$  larga muvofiq keluvchi «a» nuqtasi qo'yiladi. Bunda «a» nuqta  $20^{\circ}\text{C}$  (va  $0^{\circ}\text{C}$ ) da  $\text{KNO}_3$  ning kristallanish maydonida joylashadi, shuning uchun uni  $\text{KNO}_3$  cho'qqisi bilan to'g'ri chiziq bo'yicha bug'latiladi va  $20^{\circ}\text{C}$  dagi izoterma bilan «b» nuqtada va  $0^{\circ}\text{C}$  izoterma bilan «c» nuqtada kesishguncha davom ettiriladi. «b» nuqtada eritma tarkibi anaqlanadi va  $20^{\circ}\text{C}$  dagi izotermaga (2.4-rasmga qarang) bu

nuqtani ko'chirib, eritmadi suv miqdori topiladi. «a» nuqtaga muvofiq keladigan boshlang'ich eritma sovutilishi natijasida «ab» chiziq bo'ylab  $\text{KNO}_3$  cho'kmaga tushadi va «b» nuqtaga to'g'ri keladigan tarkibda qoldiq eritma qoladi.

Sovutish jarayonining hisobi quyidagi sxemada tasvirlangan:

<i>"a"</i> nuqta	<i>jarayonda</i>	<i>"b"</i> nuqta
$0,365 \text{ K}^+$	<i>cho'kadi</i>	$\text{K}^+ 0,252$
$0,635 \text{ NH}_4^+$		$\text{NH}_4^+ 0,748$
$0,365 \text{ Cl}^-$	<i>Y</i> $\text{KNO}_3$	$\text{Cl}^- 0,430$
$0,635 \text{ NO}_3^-$		$\text{NO}_3^- 0,570$
$X \text{ H}_2\text{O}$		$\text{H}_2\text{O} 4,05$

Bunda «Z» — eritmadi tuzlarning jami miqdori, u boshlang'ich eritmadi jami tuzlar bir moldan hosil bo'ladi, mol/mol hisobida.

Noma'lum kattaliklar X, Y, Z larni aniqlashda tenglamalar sistemasidan foydalanish mumkin. Bunday tenglamalar har bir komponent uchun alohida-alohida tuziladi.  $\text{NH}_4^+$  va  $\text{Cl}^-$  uchun tenglamada bitta noma'lum bo'ladi, boshqa tenglamalarda ikkita noma'lum kattalik bo'ladi. Shuning uchun hisoblashni  $\text{NH}_4^+$  bo'yicha (shuningdek,  $\text{Cl}^-$  ioni bo'yicha) «Z» ni aniqlashdan boshlanadi:

$$0,635 = Z \cdot 0,748, \text{ bundan } Z = \frac{0,635}{0,748} = 0,849.$$

Bu holda «Y» ni  $\text{K}^+$  yoki  $\text{NO}_3^-$  ionlari bo'yicha aniqlanishi mumkin.  $\text{NO}_3^-$  ioni bo'yicha hisoblash:

$$0,635 = Y + Z \cdot 0,570 = Y + 0,849 \cdot 0,570, \text{ bundan}$$

$$Y = 0,635 - 0,484 = 0,151.$$

«X» uchun esa:

$$X = Z \cdot 4,05 = 0,849 \cdot 4,05 = 3,44.$$

Shunday qilib, boshlang'ich eritmada 1 mol tuzlar aralashmasida 3,44 mol  $\text{H}_2\text{O}$  bo'ladi.

Shart bo'yicha  $\text{KNO}_3$  cho'kmasidan ajratilgan qoldiq eritma  $60^\circ\text{C}$  haroratgacha qizdiriladi. Bunda «b» nuqta  $60^\circ\text{C}$  li izotermada  $\text{NH}_4\text{Cl}$  kristallanish maydonida joylashadi. Politermada «b» nuqta  $\text{NH}_4\text{Cl}$  cho'qqisi bilan bog'lanadi va

$\text{NH}_4\text{NO}_3 - \text{KCl}$  kvadratidagi diagonal bilan «d» nuqtada keshishguncha davom ettiriladi. Suvning bug'lanishi natijasida («bd» chiziq bo'yicha) cho'kmaga  $\text{NH}_4\text{Cl}$  tushadi, eritma esa  $60^\circ\text{C}$  dagi izotermada «d» nuqta bilan aniqlanadigan tarkibga ega bo'ladi.

Qoldiq eritmaning izotermik bug'lanish jarayoni quyidagi sxema bilan ifodalanadi:

"b"	nuqtada	bug'lanadi	"d"	nuqtada
$K^+$	0,252	va cho'kadi	$K^+$	0,307
$\text{NH}_4^+$	0,748		$\text{NH}_4^+$	0,693
$\text{Cl}^-$	0,430	$\omega_{\text{H}_2\text{O}} + v_{\text{NH}_4\text{Cl}}$	$\text{Cl}^-$	0,307
$\text{NO}_3^-$	0,570		$\text{NO}_3^-$	0,693
$\text{H}_2\text{O}$	4,05		$\text{H}_2\text{O}$	1,70

Bunda «u» boshlang'ich eritmadijagi jami tuzlarning bir molidan («a» nuqta) bug'latilgan qoldiq eritmada hosil bo'lgan tuzlarning umumiy miqdori, mol/mol hisobida. «u» ni  $\text{K}^+$  yoki  $\text{NO}_3^-$  bo'yicha hisoblash mumkin.

Hisoblashni  $\text{K}^+$  bo'yicha bajarish:

$$0,252 \cdot 0,849 = 0,307 \cdot u, \text{ bundan } u = \frac{0,252 \cdot 0,849}{0,307} = 0,698.$$

Cho'kmaga tushgan  $\text{NH}_4\text{Cl}$  miqdorini  $\text{NH}_4^+$  yoki  $\text{Cl}^-$  bo'yicha hisoblash mumkin. V ni  $\text{NH}_4^+$  bo'yicha hisoblash:

$$0,748 \cdot 0,849 = V + u \cdot 0,698 = V + 0,698 \cdot 0,693, V = 0,151.$$

Bug'langan suv miqdori quyidagi tenglama orqali topadi:

$$4,05 \cdot 0,849 = \omega + u \cdot 1,70 = \omega + 0,698 \cdot 1,70$$

$$\omega = 4,05 \cdot 0,849 - 0,698 \cdot 1,70 = 2,25.$$

«d» nuqtadagi filtrat  $100^\circ\text{C}$  haroratgacha qizdirilganda  $\text{KCl}$  kristallanish maydoniga o'tadi. Ammo undagi suv miqdori to'yingan eritmada  $100^\circ\text{C}$  dagi izotermasi bo'yicha aniqlanadigan miqdoridan (2.6-rasm) ko'proq bo'ladi (1 mol tuz miqdoriga nisbatan 0,95 mol) va shu sabab cho'kma hosil bo'lmaydi. Sistemani «a» nuqtaga qaytarish uchun «d» nuqtadagi qizdirilgan eritmaga  $\text{NH}_4\text{NO}_3$  va  $\text{KCl}$  eritmalari qo'shiladi:

$$\left. \begin{array}{ll} "d" & \text{nuqtada} \\ K^+ & 0,307 \\ NH_4^+ & 0,693 \\ Cl^- & 0,307 \\ NO_3^- & 0,693 \\ H_2O & 1,70 \end{array} \right\} 0,698 + \left. \begin{array}{l} qo'shiladi \\ n_{H_2O} + s_{NH_4NO_3} + q_{KCl} \end{array} \right\} = \left. \begin{array}{ll} "a" & \text{nuqtada} \\ K^+ & 0,365 \\ NH_4^+ & 0,635 \\ Cl^- & 0,365 \\ NO_3^- & 0,635 \\ H_2O & 3,44 \end{array} \right\}$$

Qo'shilgan  $NH_4NO_3$  miqdorini aniqlash uchun  $NH_4^+$  yoki  $NO_3^-$  uchun tenglamalardan foydalanish mumkin. «S» ni  $NH_4^+$  bo'yicha hisoblash:

$$0,693 \cdot 0,698 + S = 0,635, S = 0,635 - 0,693 \cdot 0,698 = 0,151.$$

Xuddi shunday  $KCl$  uchun «g» ni  $Cl^-$  bo'yicha hisoblash:

$$0,307 \cdot 0,698 + g = 0,365, g = 0,365 - 0,307 \cdot 0,698 = 0,151.$$

$$\text{Suv uchun: } 1,70 \cdot 0,698 + n = 3,44, n = 3,44 - 1,70 \cdot 0,698 = 2,25.$$

$NH_4NO_3$  va  $KCl$  eritmalari o'rtasida suvning taqsimlanishining hisobi quyida keltirilgan.

Energetik sarflarni hisoblash uchun mol va g-ionlarda ifodalangan moddalar massalarini kilogrammga o'tkaziladi. Hisobni 1000 kg kaliyli selitra olish uchun bajariladi.

«a» nuqtaga muvofiq keladigan eritmadan 0,151 mol  $KNO_3$  hosil bo'ladi, ya'ni 1000 kg olish uchun «a» nuqtadagi eritma massasiga teng  $\frac{1000 \cdot 1000}{0,151 \cdot 101,108} = 65500$  kg yuklamani qayta ishslashga to'g'ri keladi:

$$65500 \cdot 39,100 \cdot 0,365 \cdot 10^{-3} = 934,8 \text{ kg } K^+$$

$$65500 \cdot 18,040 \cdot 0,635 \cdot 10^{-3} = 750,3 \text{ kg } NH_4^+$$

$$65500 \cdot 35,457 \cdot 0,365 \cdot 10^{-3} = 847,7 \text{ kg } Cl^-$$

$$65500 \cdot 62,008 \cdot 0,635 \cdot 10^{-3} = 2580,1 \text{ kg } NO_3^-$$

$$65500 \cdot 18,016 \cdot 3,44 \cdot 10^{-3} = 4059,4 \text{ kg } H_2O$$

Cho'kmaga tushadigan tuz miqdori:

$$65500 \cdot 101,108 \cdot 0,151 \cdot 10^{-3} = 1000 \text{ kg } KNO_3,$$

bunda 386,7 kg  $K^+$  va 613,3 kg  $NO_3^-$  bor. Qoldiq eritmada:

$934,8 - 386,7 = 548,1$  kg  $K^+$  va  $2580,1 - 613,3 = 1966,8$  kg  $NO_3^-$  qoladi.

Boshqa komponentlar miqdori o'zgarmaydi.

Olingan eritma  $60^\circ C$  haroratda izotermik bug'latiladi. Bunda bug'langan suv miqdori:

$$65500 \cdot 18,016 \cdot 2,25 \cdot 10^{-3} = 2655,1$$
 kg ni tashkil etadi.

Cho'kadigan  $NH_4Cl$  miqdori:  $65500 \cdot 53,497 \cdot 151 \cdot 10^{-3} = 529,1$  kg bo'lib, bunda  $178,4$  kg  $NH_4^+$  va  $350,7$  kg  $Cl^-$  bo'ladi.

Eritmadagi «d» nuqtada:

$$548,1$$
 kg  $K^+$  va  $750,3 - 178,4 = 571,9$  kg  $NH_4^+$ ,

$$847,7 - 350,7 = 497,0$$
 kg  $Cl^-$ ,

$1966,8$  kg  $NO_3^-$  va  $4059,4 - 2655,1 = 1404,3$  kg suv qoladi. Bunda eritmaga boshlang'ich eritmani hosil qilish uchun quyidagi moddalarni qo'shish kerak bo'ladi:

a)  $NH_4NO_3$  eritmasida:  $750,3 - 571,9 = 178,4$  kg  $NH_4^+$ ,  $2580,1 - 1966,8 = 613,3$  kg  $NO_3^-$  bo'lishini nazarda tutgan holda, jami  $178,4 + 613,3 = 791,7$  kg  $NH_4NO_3$  beriladi.

Sistemaga  $NH_4NO_3$  ning  $64\%$  li eritmasi berilishi hisobga olinsa,  $791,7$  kg  $NH_4NO_3$  bilan:

$$\frac{791,7 \cdot 36}{64} = 445,3$$
 kg suv beriladi.

b)  $KCl$  eritmasida:  $934,8 - 548,1 = 386,7$  kg  $K^+$  va  $847,7 - 497,0 = 350,7$  kg  $Cl^-$  bo'lishini nazarda tutgan holda, jami  $386,7 + 350,7 = 737,4$  kg  $KCl$  beriladi.

Sistemaga  $NH_4NO_3$  va  $KCl$  bilan tushadigan suv miqdori:  $4059,4 - 1404,3 = 2655,1$  kg, bundan  $445,3$  kg  $NH_4NO_3$  eritmasida bo'lsa, qolgan  $2655,1 - 445,3 = 2209,8$  kg suv  $KCl$  eritmasida bo'ladi.

Demak, beriladigan  $KCl$  eritmasining konsentratsiyasi:

$$\frac{737,4 \cdot 100}{2209,8 + 737,4} = 25,02\%$$
 li bo'ladi.

### 2.1-jadval

#### $KNO_3$ olish bosqichlari bo'yicha moddiy balans

Kirish		Sarf	
komponentlar	massasi, kg	komponentlar	massasi, kg
1	2	3	4
<b>Harorat <math>100^\circ C</math> dan <math>20^\circ C</math> gacha pasayganda va filtrlashda</b>			
Eritma:		Qoldiq eritma:	
$K^+$	934,8	$K^+$	548,1

$\text{NH}_4^+$	750,3	$\text{NH}_4^+$	750,3
$\text{Cl}^-$	847,7	$\text{Cl}^-$	847,7
$\text{NO}_3^-$	2580,1	$\text{NO}_3^-$	1966,8
$\text{H}_2\text{O}$	4059,4	$\text{H}_2\text{O}$	4059,4
<b>Jami:</b>	<b>9172,3</b>	<b>Jami:</b>	<b>8172,3</b>
		Kaliyli selitra tarkibi:	
		$\text{K}^+$	386,7
		$\text{NO}_3^-$	613,3
		<b>Jami:</b>	1000,0
		<b>Hammasi:</b>	<b>9172,3</b>

**Qoldiq eritmani 20°C dan 60°C haroratgacha qizdirish, bug'latish va filtrlash**

<b>Qoldiq eritma:</b>		<b>Filtrat:</b>	
$\text{K}^+$	548,1	$\text{K}^+$	548,1
$\text{NH}_4^+$	750,3	$\text{NH}_4^+$	571,9
$\text{Cl}^-$	847,7	$\text{Cl}^-$	497,0
$\text{NO}_3^-$	1966,8	$\text{NO}_3^-$	1966,8
$\text{H}_2\text{O}$	4059,4	$\text{H}_2\text{O}$	1404,3
<b>Jami:</b>	<b>8172,3</b>	<b>Jami filtrat:</b>	<b>4988,1</b>

1	2	3	4
Ammoniy xlorid tarkibi:			
		$\text{NH}_4^+$	178,4
		$\text{Cl}^-$	350,7
		<b>Jami:</b>	<b>529,1</b>
		Bug':	2655,1
		<b>Hammasi:</b>	<b>8172,3</b>

**Filtratni 100°C haroratgacha qizdirish, ammiakli selitra va kaliy xlorid bilan aralashtirish**

<b>Filtrat:</b>		<b>Sovutishga beriladigan eritma:</b>	
$\text{K}^+$	548,1	$\text{K}^+$	934,8
$\text{NH}_4^+$	571,9	$\text{NH}_4^+$	750,3
$\text{Cl}^-$	497,0	$\text{Cl}^-$	847,7
$\text{NO}_3^-$	1966,8	$\text{NO}_3^-$	2580,1
$\text{H}_2\text{O}$	1404,3	$\text{H}_2\text{O}$	4059,4
<b>Jami filtrat:</b>	<b>4988,1</b>	<b>Jami:</b>	<b>9172,3</b>
Ammiakli selitra eritmasi:			
$\text{NH}_4^+$	178,4		
$\text{NO}_3^-$	613,3		
<b>Jami <math>\text{NH}_4\text{NO}_3</math></b>	<b>791,7</b>		
$\text{H}_2\text{O}$	445,3		
<b>Jami <math>\text{NH}_4\text{NO}_3</math> eritmasi:</b>	<b>1237,0</b>		
<b>Kaliy xlorid eritmasi:</b>			
$\text{K}^+$	386,7		

$\text{Cl}^-$	350,7		
<b>Jami KCl:</b>	<b>737,4</b>		
$\text{H}_2\text{O}$	2209,8		
<b>Jami KCl eritmasi:</b>	<b>2947,2</b>		
<b>Hammasi:</b>	<b>9172,3</b>		

## Birinchi sxema energetik hisobi

Energetik hisoblarda quyidagi shartlarga amal qilinadi:

1. Kristallanish issiqliklari hisobga olinmaydi.
2. Eritma issiqlik sig‘imi suvning eritmadiagi miqdori issiqlik sig‘imiga teng deb olinadi.
3. Eritmani  $100^\circ\text{C}$  dan  $20^\circ\text{C}$  haroratgacha sovutishda deyarli energiya talab etilmaydi. Chunki, issiqliknin tashqi muhitga berish yoki suv bilan sovutish orqali amalga oshirish mumkin. Bunga juda oz energiya sarf bo‘ladi.

Bunday cheklanishlarni nazarda tutgan holda birinchi sxemada energiya sarfi quyidagicha aniqlanadi.

Qizdirishga beriladigan qoldiq eritmada 4059,4 kg suv bo‘ladi (moddiy balansga qarang). Uning issiqligi:

$$4059,4 \cdot 4,19 \cdot 20 = 340000 \text{ kj}$$

Filtratda  $60^\circ\text{C}$  haroratda 1404,3 kg suv bor va issiqligi:

$$1404,3 \cdot 4,19 \cdot 60 = 353000 \text{ kj}$$

$60^\circ\text{C}$  haroratda 2655,1 kg bug‘ bilan:

$$2655,1 \cdot 2609 = 6930000 \text{ kj issiqlik chiqib ketadi.}$$

Filtrat  $100^\circ\text{C}$  haroratgacha qizdiriladi. Unda issiqlik miqdori:

$$1404,3 \cdot 4,19 \cdot 100 = 588000 \text{ kj}$$

Filtratni  $60^\circ\text{C}$  dan  $100^\circ\text{C}$  gacha qizdirilganda issiqlik sarfi:

$$588000 - 353000 = 235000 \text{ kj bo‘ladi.}$$

Kaliy xlorid eritmasi bilan  $20^\circ\text{C}$  da kirgan issiqlik:

$$2209,8 \cdot 4,19 \cdot 20 = 185000 \text{ kj}$$

Kaliy xlorid eritmasining  $100^\circ\text{C}$  dagi issiqligi:

$$2209,8 \cdot 4,19 \cdot 100 = 926000 \text{ kj}$$

Eritmani qizdirish uchun issiqlik sarfi:

$$926000 - 185000 = 741000 \text{ kj}$$

Birinchi sxema bo‘yicha 1000 kg  $\text{KNO}_3$  olish uchun zarur bo‘lgan foydali issiqlik:

$$6943000 + 235000 + 741000 = 7919000 \text{ kj}$$

Isitish uchun foydali ish koeffitsiyenti (FIK) ni 0,3 deb qabul qilinsa, sarflangan issiqlik 26400000 kj ga yaqin bo'ladi.

### Ikkinchchi sxema moddiy hisobi

Birinchi sxema moddiy hisobida «a» nuqtadan  $\text{KNO}_3$  cho'qqisini bog'lovchi chiziq  $0^\circ\text{C}$  izotermani «c» nuqtada kesib o'tgan edi. «c» nuqtada eritma tarkibi aniqlanadi. «c» nuqtani izoterma  $0^\circ\text{C}$  ga o'tkaziladi (2.3-rasm) va bu eritmadagi suv miqdori topiladi:

"a"	nuqta	jarayonda	"c"	nuqta
$K^+$	0,365	$cho'kadi$	$K^+$	0,190
$NH_4^+$	0,635	$Y \text{ KNO}_3$	$NH_4^+$	0,810
$Cl^-$	0,365		$Cl^-$	0,466
$NO_3^-$	0,635		$NO_3^-$	0,534
$H_2O$	X	+ Z	$H_2O$	4,40

«Z» ni  $Cl^-$  bo'yicha aniqlash:

$$0,365 = Z \cdot 0,466, \quad Z = \frac{0,365}{0,466} = 0,783$$

«Y» ni  $K^+$  bo'yicha aniqlash:

$$0,365 = Y + Z \cdot 0,190 = Y + 0,783 \cdot 0,190, \quad Y = 0,365 - 0,149 = 0,216$$

Suv uchun:

$$X = Z \cdot 4,40 - 0,783 \cdot 4,40 = 3,44 \text{ ga ega bo'linadi.}$$

«c» nuqta  $60^\circ\text{C}$  da  $\text{NH}_4\text{Cl}$  kristallanish maydonida yotadi. «c» nuqta  $\text{NH}_4\text{Cl}$  cho'qqisiga tomon chiziq bilan bog'lanadi va  $\text{NH}_4\text{NO}_3 - \text{KCl}$  diagonali bilan kesishguncha, ya'ni «g» nuqtagacha davom ettiriladi.

«cg» chizig'i bo'yicha suv bug'langanda cho'kmaga  $\text{NH}_4\text{Cl}$  tushadi va  $60^\circ\text{C}$  izotermada «g» nuqtada aniqlanuvchi tarkib-dagi eritma qoladi:

"c"	<i>nuqta</i>		"g"	<i>nuqta</i>
$K^+$	0,190		$K^+$	0,262
$NH_4^+$	0,810		$NH_4^+$	0,738
$Cl^-$	0,466		$Cl^-$	0,262
$NO_3^-$	0,534		$NO_3^-$	0,738
$H_2O$	4,40		$H_2O$	1,45

«u» ni  $NO_3^-$  bo'yicha aniqlash:

$$0,534 \cdot 0,783 = u \cdot 0,738, \quad u = \frac{0,534 \cdot 0,783}{0,738} = 0,567$$

«v» ni  $Cl^-$  bo'yicha hisoblash:

$$0,466 \cdot 0,783 = v + u \cdot 0,262 = v + 0,567 \cdot 0,262,$$

$$v = 0,365 - 0,149 = 0,216$$

Bug'langan suv miqdori:

$$4,40 \cdot 0,783 = w + u \cdot 1,45 = w + 0,567 \cdot 1,45, \quad w = 3,44 - 0,82 = 2,62$$

«g» nuqtadagi filtrat  $100^\circ\text{C}$  gacha qizdiriladi. Bunda tuzlar cho'kmaydi, chunki unda suv miqdori (1,45 mol) to'yingan eritmadagi (0,75 mol) dan ko'proq bo'ladi (2.7-rasm,  $100^\circ\text{C}$  dagi izoterma).

Sistema «a» nuqtaga qaytguncha qizdirilgan eritmaga  $NH_4Cl$  va  $KCl$  eritmasi qo'shiladi:

"g"	<i>nuqta</i>		<i>qo'shiladi</i>		"a"	<i>nuqta</i>
$K^+$	0,262				$K^+$	0,365
$NH_4^+$	0,738				$NH_4^+$	0,635
$Cl^-$	0,262				$Cl^-$	0,365
$NO_3^-$	0,738				$NO_3^-$	0,635
$H_2O$	1,45				$H_2O$	3,44

Qo'shilgan ammoniy nitrat miqdorini aniqlash uchun S ni  $NO_3^-$  bo'yicha hisoblanadi:

$$0,738 \cdot 0,567 + S = 0,635; \quad S = 0,635 - 0,738 \cdot 0,567 = 0,635 - 0,419 = 0,216$$

Shunga o'xshash  $KCl$  uchun g ni  $K^+$  bo'yicha aniqlanadi:

$$0,262 \cdot 0,567 + g = 0,365; \quad g = 0,365 - 0,262 \cdot 0,567 = 0,365 - 0,146 = 0,216$$

Suv uchun:

$$1,45 \cdot 0,567 + n = 3,44; \quad n = 3,445 - 1,45 \cdot 0,567 = 3,44 - 0,82 = 2,62$$

$\text{NH}_4\text{NO}_3$  va  $\text{KCl}$  o'rtaida suvning taqsimlanishi quyida hisoblangan.

Olingen natijalarni 1000 kg  $\text{KNO}_3$  olish hisobida kilogrammlarda qayta hisoblanadi.

«a» nuqtadagi eritmada 0,216 mol  $\text{KNO}_3$  hosil bo'ladi, ya'ni 1000 kg  $\text{KNO}_3$  olish uchun:

$$\frac{1000 \cdot 1000}{0,216 \cdot 101,108} = 45790 \text{ kg/s yuklama berish kerak, bu massa}$$

bo'yicha «a» nuqtadagi eritmaga tengdir.

Bunday massadagi eritmada bo'ladigan ionlar massasi:

$$45790 \cdot 39,100 \cdot 0,365 \cdot 10^{-3} = 653,5 \text{ kg } \text{K}^+$$

$$45790 \cdot 18,040 \cdot 0,635 \cdot 10^{-3} = 524,5 \text{ kg } \text{NH}_4^+$$

$$45790 \cdot 35,457 \cdot 0,365 \cdot 10^{-3} = 592,6 \text{ kg } \text{Cl}^-$$

$$45790 \cdot 62,008 \cdot 0,635 \cdot 10^{-3} = 1803,0 \text{ kg } \text{NO}_3^-$$

$$45790 \cdot 18,016 \cdot 3,44 \cdot 10^{-3} = 2837,8 \text{ kg H}_2\text{O}$$

$$\text{Jami: } 6411,4 \text{ kg}$$

Cho'kmaga tushadi:

$$45790 \cdot 101,108 \cdot 0,216 \cdot 10^{-3} = 1000 \text{ kg } \text{KNO}_3,$$

bunda: 386,7 kg  $\text{K}^+$  va 613,3 kg  $\text{NO}_3^-$  bor. Qoldiq eritmada  $653,5 - 386,7 = 266,8$  kg  $\text{K}^+$  va  $1803,0 - 613,3 = 1189,7$  kg  $\text{NO}_3^-$  qoladi. Boshqa komponentlar miqdori o'zgarmaydi.

Qoldiq eritma  $60^\circ\text{C}$  da bug'latiladi. Bunda bug'langan suv miqdori:

$$45790 \cdot 18,016 \cdot 2,62 \cdot 10^{-3} = 2161,4 \text{ kg.}$$

Cho'kmaga tushadi:

$$45790 \cdot 53,497 \cdot 0,216 \cdot 10^{-3} = 529,1 \text{ kg } \text{NH}_4\text{Cl},$$

uning tarkibida: 178,4 kg  $\text{NH}_4^+$  va 350,7 kg  $\text{Cl}^-$  bor.

«g» nuqtada qoladi:

$$268,8 \text{ kg } \text{K}^+,$$

$$524,5 - 178,4 = 346,1 \text{ kg } \text{NH}_4^+,$$

$$592,6 - 350,7 = 241,9 \text{ kg } \text{Cl}^-,$$

$$1189,7 \text{ kg } \text{NO}_3^-,$$

$$2837,8 - 2161,4 = 676,4 \text{ kg suv.}$$

$\text{NH}_4\text{NO}_3$  eritmasi bilan berilishi kerak:

$$524,5 - 346,1 = 178,4 \text{ kg } \text{NH}_4^+,$$

$$1803 - 1189,7 = 613,3 \text{ kg } \text{NO}_3^-,$$

Jami: 791,7 kg  $\text{NH}_4\text{NO}_3$ .

Ammiakli selitra bilan 445,3 kg suv kiradi.

KCl eritmasida esa:

$$653,5 - 266,8 = 386,7 \text{ kg } \text{K}^+, 592,6 - 241,9 = 350,7 \text{ kg}$$

$\text{Cl}^-$  bor,

Jami: 737,4 kg KCl.

$\text{NH}_4\text{NO}_3$  va KCl bilan kirdigan jami suv miqdori:

$$2837,8 - 676,4 = 2161,4 \text{ kg ni tashkil etadi.}$$

Bundan 445,3 kg suv  $\text{NH}_4\text{NO}_3$  bilan, qolgan: 2161,4 – 445,3 = 1716,1 kg suv esa KCl bilan beriladi. Eritmadagi KCl konentratsiyasi:

$$\frac{737,4 \cdot 100}{737,4 + 1716,1} = 30,06\% \text{ ni tashkil qiladi.}$$

Demak, KCl to‘yingan eritmasining  $20^\circ\text{C}$  haroratdagи konentratsiyasi 25,5 % bo‘lganligi sababli eritmani  $100^\circ\text{C}$  gacha qizdirish va shu haroratda bug‘latish kerak.

Tarkibida 737,4 kg KCl bo‘lgan 25,5 % eritma miqdori:

$$\frac{737,4 \cdot 100}{25,5} = 2891,8 \text{ kg}$$

Eritmada:  $2891,8 - 737,4 = 2154,4 \text{ kg suv bo‘ladi. Bunda } 2154,4 - 1716,1 = 438,3 \text{ kg suvni bug‘latish kerak.}$

## 2.2-jadval

### Ikkinci sxemada $\text{KNO}_3$ olishning bosqichlar bo‘yicha moddiy balansi

Kirish		Chiqish	
komponentlar	kg	komponentlar	kg
<b><math>100^\circ\text{C}</math> dan <math>20^\circ\text{C}</math> gacha sovutish va filtrlash</b>			
Eritma:		Qoldiq eritma:	
$\text{K}^+$	653,5	$\text{K}^+$	266,8
$\text{NH}_4^+$	524,5	$\text{NH}_4^+$	524,5
$\text{Cl}^-$	592,6	$\text{Cl}^-$	592,6
$\text{NO}_3^-$	1803,0	$\text{NO}_3^-$	1189,7
$\text{H}_2\text{O}$	2837,8	$\text{H}_2\text{O}$	2837,8
<b>Jami eritma:</b>	<b>6411,4</b>	<b>Jami qoldiq eritma:</b>	<b>5411,4</b>

1	2	3	4
		Kaliyli selitra tarkibi:	
		K <sup>+</sup>	386,7
		NO <sub>3</sub> <sup>-</sup>	613,3
		Jami KNO <sub>3</sub> :	1000,0
		Hammasi:	6411,4

**Qoldiq eritmani 0°C dan 60°C gacha qizdirish, 60°C da bug'latish va filtrash**

<b>Qoldiq eritma:</b>		Filtrat:	
K <sup>+</sup>	266,8	K <sup>+</sup>	266,8
NH <sub>4</sub> <sup>+</sup>	524,5	NH <sub>4</sub> <sup>+</sup>	346,1
Cl <sup>-</sup>	592,6	Cl <sup>-</sup>	241,9
NO <sub>3</sub> <sup>-</sup>	1189,7	NO <sub>3</sub> <sup>-</sup>	1189,7
H <sub>2</sub> O	2837,8	H <sub>2</sub> O	676,4
<b>Jami qoldiq eritma:</b>	<b>5411,4</b>	<b>Jami filtrat:</b>	<b>2720,9</b>
		Ammoniy xlorid tarkibi:	
		NH <sub>4</sub> <sup>+</sup>	178,4
		Cl <sup>-</sup>	350,7
		Jami NH <sub>4</sub> Cl	529,1
		Bug'	2161,4
		Hammasi	5411,4

**Filtratni 100°C gacha qizdirish va KCl eritmasini bug'latish, filtratni NH<sub>4</sub>NO<sub>3</sub> va KCl eritmalar bilan aralashtirish**

<b>Filtrat:</b>		Sovutishga berilayotgan eritma	
K <sup>+</sup>	266,8	K <sup>+</sup>	653,5
NH <sub>4</sub> <sup>+</sup>	346,1	NH <sub>4</sub> <sup>+</sup>	524,5
Cl <sup>-</sup>	241,9	Cl <sup>-</sup>	592,6
NO <sub>3</sub> <sup>-</sup>	1189,7	NO <sub>3</sub> <sup>-</sup>	1803,0
H <sub>2</sub> O	676,4	H <sub>2</sub> O	2837,8
<b>Jami filtrat:</b>	<b>2720,9</b>	<b>Jami</b>	<b>6411,4</b>
<b>Ammiakli selitra eritmasi:</b>		Bug'	438,3
NH <sub>4</sub> <sup>+</sup>	178,4	Hammasi	6849,7
NO <sub>3</sub> <sup>-</sup>	613,3		
<b>Jami NH<sub>4</sub>NO<sub>3</sub></b>	<b>791,7</b>		
H <sub>2</sub> O	445,3		
<b>Jami NH<sub>4</sub>NO<sub>3</sub> eritmasi</b>	<b>1237,0</b>		
<b>Kaliy xlorid eritmasi:</b>			
K <sup>+</sup>	386,7		
Cl <sup>-</sup>	350,7		
<b>Jami KCl</b>	<b>737,4</b>		
H <sub>2</sub> O	2154,4		
<b>Jami KCl eritmasi</b>	<b>2891,8</b>		
<b>Hammasi</b>	<b>6849,7</b>		

## **Ikkinci sxemaning energetik hisobi**

Yuqorida ta'kidlanganidek, eritmani  $100^{\circ}\text{C}$  dan  $20^{\circ}\text{C}$  gacha sovutish energiya sarfini talab qilmaydi. Eritmani  $20^{\circ}\text{C}$  dan  $0^{\circ}\text{C}$  gacha pasaytirishda undan  $2837,8 \cdot 4,19 \cdot 20 = 238000 \text{ kj}$  issiqlikni ajratib olish kerak.

Sovutish mashinasi foydali ish koefitsiyenti (FIK) ni 0,15 deb qabul qilinadi, ya'ni sovutish uchun:

$$\frac{238000}{0,15} = 1587000 \text{ kj sarflanadi.}$$

Qoldiq eritmani  $0^{\circ}\text{C}$  dan  $20^{\circ}\text{C}$  gacha isitish issiqlik sarflanmasdan sodir bo'ladi deb qabul qilinadi. Qoldiq eritma bilan 238000 kj issiqlik kiradi.  $60^{\circ}\text{C}$  haroratdagi filtratda 676,4 kg suv bo'ladi, uning issiqligi:

$$676,4 \cdot 4,19 \cdot 60 = 170000 \text{ kj ga teng.}$$

2161,4 kg bug' bilan chiqib ketadigan issiqlik:

$$2161,4 \cdot 2609 = 5640000 \text{ kj ni tashkil etadi.}$$

$20^{\circ}\text{C}$  dan  $60^{\circ}\text{C}$  gacha qizdirish va bug'latish uchun:

$$5640000 + 170000 - 238000 = 5572000 \text{ kj issiqlik zarur bo'ladi.}$$

Filtrat  $100^{\circ}\text{C}$  gacha qiziydi. Undagi issiqlik:

$$676,4 \cdot 4,19 \cdot 100 = 283000 \text{ kj ni tashkil qiladi.}$$

Sistemaga kiritish zarur bo'lgan issiqlik:

$$283000 - 170000 = 113000 \text{ kj ga teng.}$$

Kaliy xlorid eritmasi bilan  $20^{\circ}\text{C}$  da kiradigan issiqlik esa:

$$2154 \cdot 4,19 \cdot 20 = 181000 \text{ kj ga teng.}$$

$100^{\circ}\text{C}$  haroratda bug'latilgan kaliy xlorid bilan:

$$1716,1 \cdot 4,19 \cdot 100 = 719000 \text{ kj issiqlik chiqib ketadi.}$$

$100^{\circ}\text{C}$  haroratdagi 438,3 kg suv bug'i bilan:

$$438,3 \cdot 2676 = 1173000 \text{ kj issiqlik chiqib ketadi.}$$

KCl eritmasini qizdirish va bug'latish uchun:

$$1173000 + 719000 - 181000 = 1711000 \text{ kj issiqlik kiritiladi.}$$

Ikkinci sxema bo'yicha zarur bo'lgan jami foydali issiqlik:

$$5572000 + 113000 + 1711000 = 7396000 \text{ kj ni tashkil qiladi.}$$

Qizdiruvchi qurilmaning FIK 0,3 bo'lsa, qizdirish uchun 24653000 kj energiya sarf bo'ladi.

Sovutish va qizdirish uchun sarflanadigan umumiy issiqlik miqdori:

$24653000 = 1587000 = 26240000$  kj ga teng bo‘ladi.

Birinchi va ikkinchi sxemalarni solishtirsak, ikkinchi sxemadagi energiya sarfi:  $26400000 - 26240000 = 160000$  kj, ya’ni 0,6 % ga kam sarf bo‘lishini ko‘rish mumkin.

Boshqacha so‘z bilan aytganda, energiya sarfi foydalanilayotgan sxemaga deyarli bog‘liq emas. Shu sababli birinchi sxemaning afzalligi shundaki, unda KCl ni oldindan bug‘latish vasovutish tizimini tashkil etish zarur emas.


### **3-§. Kaliy orto- va metafosfatlari ishlab chiqarish usullari**

Kaliy orto- va metafosfatlar yuqori konsentratsiyali fosforkaliyli o‘g‘itlar hisoblanadi. Mono-, di- va trikaliyfosfatlar – fosfat kislotaning kaliy gidroksid yoki karbonat bilan neytrallanishi natijasida olinadi, masalan:



Kaliy ishqori va kaliy karbonatning qimmatligi va kam-yobligi sababli bu usul mineral o‘g‘itlar sanoatida qo‘llanilmaydi.

Kaliy xlorid, sulfat kislota va fosforit asosida ham monokaliyfosfat olinishi mumkin. Shunday usullardan birida kaliy xlorid  $200^{\circ}\text{C}$  haroratda ortiqcha miqdordagi konsentrangan sulfat kislota bilan aralashtiriladi – bunda HCl yo‘qotiladi va kaliy gidrosulfatning sulfat kislotadagi suspenziyasi olinadi, unda  $70^{\circ}\text{C}$  haroratda fosforitga ishlov beriladi:



Gips ajratiladi va suv bilan yuviladi, eritma esa 50-60 %  $\text{KH}_2\text{PO}_4$  gacha bug‘latiladi va unga metanol qo‘sib,  $\text{KH}_2\text{PO}_4$  kristallantiriladi. Qolgan eritmadan metanolni uchirish va tarkibida ~54 %  $\text{P}_2\text{O}_5$  bo‘lgan fosfat kislota hosil qilish uchun distillyatsiyalanadi hamda metanol jarayonga qaytariladi. Marokko fosforitini qayta ishlashdagi fosfor va kaliydan foydalanish darajasi mos ravishda 92 va 90-95 % ni tashkil etadi; mahsulot tarkibida: 30 %  $\text{K}_2\text{O}$ ; 46 %  $\text{P}_2\text{O}_5$ ; 0,6 % Al; 0,6 % Fe; 1,5 % F; 3 %  $\text{SO}_4^{2-}$  bo‘ladi.

$\text{KH}_2\text{PO}_4$  ni  $320^{\circ}\text{C}$  da degidratatsiyalash natijasida, tarkibida 57-58 %  $\text{P}_2\text{O}_5$  va  $\sim 38$  %  $\text{K}_2\text{O}$  bo‘lgan kaliy metafosfat ( $\text{KPO}_3$ )<sub>n</sub> olinadi [nazariy jihatdan ( $\text{KPO}_3$ )<sub>n</sub> tarkibida 59,66 %  $\text{P}_2\text{O}_5$  va 39,50 %  $\text{K}_2\text{O}$  bo‘ladi]. Qizdirilgan massani sekin sovutish natijasida suvda erimaydigan shishasimon suyuqlanma olinadi. Tez sovutish natijasida esa hosil qilingan mahsulot tarkibidagi bir qism  $\text{P}_2\text{O}_5$  suvda eruvchan, qolgan qismi esa sitratli eritmada eruvchan bo‘ladi. Kaliy metafosfatning suvda eruvchanligi uning fizik holati (kristall mahsulot – Kurrol tuzi – shishasimon mahsulotga nisbatan kam eruvchi) va tarkibi bilan aniqlanadi. Degidratlanish to‘la bo‘lmasa yoki degidratlanish turli xil qo‘srimchalar (masalan, ishqoriy-yer metallarining xlordlari yoki sulfatlari,  $\text{Fe}_2\text{O}_3$ ) ishtirokida amalga oshirilsa, tarkibida barcha fosfor suvda eruvchan shaklda bo‘lgan mahsulot olinishi mumkin. Kaliy metafosfat yuqori samarador, amalda gigroskopik bo‘lмаган va bir-biriga yopishib qolmaydigan o‘g‘it hisoblanadi. U urug‘lar uchun zaharli emas, uning eritmasini ammoniylashtirish natijasida kaliy va ammoniy fosfatlarining aralashmasi hosil qilinishi mumkin.

Kaliy metafosfat kaliy xlordni fosfat kislota ( $\sim 900^{\circ}\text{C}$ ) yoki fosfor(V)-oksid ( $1000-1050^{\circ}\text{C}$ ) bilan yuqori haroratli parchalash orqali olinishi mumkin. Bu jarayonlar yuqori energiya sig‘imli va korroziyabardosh jihozlar qo‘llanilishi bilan bog‘liqidir.  $60-70^{\circ}\text{C}$  haroratda kaliy xlordni tarkibida 23 %  $\text{P}_2\text{O}_5$  bo‘lgan termik yoki ekstraksion fosfat kislotada parchalash orqali nisbatan arzon usulda kaliy metafosfat ishlab chiqarilishi ham mumkin. Hosil qilingan suspenziya ( $\sim 56$  %  $\text{H}_2\text{O}$ ) quritiladi, so‘ngra esa  $350-370^{\circ}\text{C}$  da qizdiriladi. Sovutilishi natijasida tarkibida 54 %  $\text{P}_2\text{O}_5$  (sitratli eritmada eruvchan shakldagi), 35-39 %  $\text{K}_2\text{O}$  va 0,3 % xlor bo‘lgan mahsulot olinadi. Gaz fazasiga chiqadigan vodorod xlordini tutib qolinishi natijasida 16-18 % li xlord kislota hosil qilinadi, uning ishlatalish sohalarini topish muammolar keltirib chiqarishi mumkin.

Yanada yuqoriroq konsentratsiyali xlord kislota kaliy xlordni bug‘latilgan ( $\sim 50$  %  $\text{P}_2\text{O}_5$ ) ekstraksion fosfat kislotada ikki bosqichli parchalash orqali olinadi. Birinchi bosqichda  $\sim 300^{\circ}\text{C}$  va ikkinchi bosqichda  $700^{\circ}\text{C}$  haroratda suyuqlanma

olinadi, uni sovutish natijasida tarkibida 57 %  $P_2O_5$ , 35 %  $K_2O$  bo'lgan mahsulot olinadi.

### **Nazorat uchun savollar**


1. Kaliy nitratning xossalari va olinish usullarini ayting.
2. Kaliy nitrat ishlab chiqarishning konversiyali usulini tu-shuntiring.
3. Kaliy xlorid va nitrat kislota yoki azot oksidlaridan kaliy nitrat olish usulini tushuntiring.
4. Kaliy orto- va metafosfatlar qanday olinadi?

### **III bob. AZOT-FOSFORLI MURAKKAB O'G'ITLAR ISHLAB CHIQARISH NAZARIYASI VA TEXNOLOGIK HISOBLARI**

---

#### **1-§. Ammosos ishlab chiqarish nazariyasi va texnologik hisoblari**

**Ammoniy fosfatlarning xossalari.** Ammoniy fosfatlari, odatda, fosfat kislota tuzlari – ammoniy digidrofosfat yoki monoammoniyfosfat [MAF]  $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$ , ammoniy gidrofosfat yoki diammoniyfosfat [DAF]  $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4$ , va ammoniy fosfat yoki triammoniyfosfat  $(\text{NH}_4)_3\text{PO}_4$  nomlari bilan yuritiladi. Eng barqaror birikma monoammoniyfosfat hisoblanadi, uni 100-110°C gacha qizdirilganda amalda ammiakning ajralishi kuzatilmaydi. Diammoniyfosfat 70°C haroratdayoq ammiak yo‘qota boshlaydi va monoammoniyfosfatga aylanadi:




100°C da  $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$  ustidagi ammiak bug‘ining bosimi amalda nolga,  $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4$  ustidagi – 1,2 ga,  $(\text{NH}_4)_3\text{PO}_4$  ustidagi esa – 85,7 kPa ga tengdir. 125°C da bu tuzlar ustidagi  $\text{NH}_3$  ning bosimi muvofiq holda 0,008, 4,5 va 157 kPa gacha ortadi. 190,5°C da monoammoniyfosfat ozgina miqdordagi  $\text{NH}_3$  yo‘qotib suyuqlanadi. Bu haroratda uning degidratlanishi sekinlik bilan sodir bo‘lib, ammoniy polifosatlarga aylanadi va bu jarayon haroratning ortishi bilan tezlashadi.

20°C dagi to‘yingan suvli eritmada: 27,2 %  $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$  yoki 40,8 %  $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4$  bo‘ladi, qaynash harorati (109,4°C) da esa 71,8 %  $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$  bo‘ladi.  $\text{NH}_3 - \text{H}_3\text{PO}_4 - \text{H}_2\text{O}$  sistemadagi eruvchanlik 3.1-rasmida tasvirlangan.


25°C dagi  $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 - (\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4 - \text{H}_2\text{O}$  sistemasida eruvchanlik diagrammasidan ko‘rinadiki (3.2-rasm), monoammoniyfosfat konsentratsiyasining ortishi bilan

diammoniyfosfatning eruvchanligi amalda o‘zgarmaydi, diammoniyfosfat konsentratsiyasining ko‘tarilishi bilan esa monoammoniyfosfatning eruvchanligi ortadi va u  $\text{NH}_3:\text{H}_3\text{PO}_4$  molyar nisbati ~1,5 ga teng bo‘lganda maksimumga erishadi.

0,1 M eritmaning pH qiymati:  $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$  uchun – 4,4,  $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4$  uchun – 8,0 va  $(\text{NH}_4)_3\text{PO}_4$  uchun esa – 9,4 ga tengdir.



**3.1-rasm.** 25 va 75°C haroratdagи  $\text{NH}_3 - \text{H}_3\text{PO}_4 - \text{H}_2\text{O}$  sistemadagi eruvchanlik izotermasi.



**3.2-rasm.** 25°C haroratdagи  $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 - (\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4 - \text{H}_2\text{O}$  sistemadagi eruvchanlik izotermasi.

Mono- va diammoniyfosatlarning gigroskopikligi kamdir. 50°C dagi  $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$  ning gigroskopiklik nuqtasi 88 % ga, 15°C da esa – 97 % ga tengdir (texnik mahsulotlarda qo‘shimchalarning ishtirok etishi uning gigroskopikligini oshiradi).

Ammoniy fosfatlari qishloq xo‘jaligida o‘g‘it sifatida keng qo‘llaniladi. Ular yuqori konsentratsiyali ballastsiz o‘g‘itlar hisoblanadi va tarkibida ikkita asosiy ozuqa elementlari – suvda eruvchan shakldagi azot va fosfor tutadi.

Toza monoammoniyfosfatda 12,2 % N va 61,7 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> (jami 73,9 %), diammoniyfosfatda – 21,2 % N va 53,8 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> (75,0 %) bo‘ladi. Diammoniyfosfatda ozuqa moddalarining N:P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> massa nisbati (1:2,5) monoammoniyfosfatdagiga nisbatan (1:5,1) ancha maqbul bo‘ladi.

Ammoniyli-fosfatli o‘g‘itlardan ammosos – oz miqdordagi (~10 %) diammoniyfosfat qo‘sishimchasi bo‘lgan monoammoniyfosfat ko‘p miqdorda ishlab chiqariladi.



Davlat standartlari (DAST 18918-85) talablariga muvofiq, donadorlangan ammosos ikki xil markada: A – apatit konsentratidan va B – fosforitdan olingan ekstraksion fosfat kislotani ammiak bilan neytrallash natijasida ishlab chiqariladi. A markali oliv va 1-sifat kategoriyalari va B markali oliv va 1-sifat kategoriyalari mahsulotlar tarkibida, muvofiq ravishda: 52 va 50±1 % dan kam bo‘lmagan, 44 va 42±1 % dan kam bo‘lmagan P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>o‘zl.; 48, 46, 34 va 32 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>s.e.; 12±1, 12±1, 11±1 va 10±1 % N va 1 % dan ko‘p bo‘lmagan H<sub>2</sub>O bo‘ladi. O‘lchamlari 1-4 mm bo‘lgan donachalarining ulushi oliv navda 95 % dan va birinchi navda 90 % dan kam bo‘lmasligi kerak. Ammososdagi N:P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> nisbati ~1:4 ga tengdir.

Tarkibida diammoniyfosfat va fosfat kislotadan o‘tadigan qo‘sishimchalari bo‘lgan azot bo‘yicha nisbatan konsentrangan o‘g‘it – diammofos ham ishlab chiqariladi. Agar diammofos ishlab chiqarish uchun apatit konsentratidan olingan ekstraksion fosfat kislotasi ishlatsa, bunda mahsulot tarkibida: 48±1 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>o‘zl., 18 % dan kam bo‘lmagan N va 1,5 % dan ko‘p bo‘lmagan H<sub>2</sub>O bo‘ladi. N:P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> nisbati katta bo‘lgan o‘g‘it ishlab chiqarish uchun ammosos va diammofosga azotli o‘g‘itlar – ammoniy nitrat yoki karbamid qo‘siladi.

Termik yoki tozalangan ekstraksion fosfat kislotadan olinadigan diammoniyfosfat hayvonlar ozuqasi uchun ishlataladi. Ammoniy fosfatlari, shuningdek, oziq-ovqat va farmatsevtika sanoatida ham ishlataladi; ular antipirenlar

sifatida va qurilish materiallarining yong'inga bardoshliligini oshirish uchun ishlataladi.

**Ammoniy fosfatlar va ammosos ishlab chiqarishning fizik-kimyoviy xususiyatlari.** Ammoniy fosfatlari ishlab chiqarish uchun ammiak va ortofosfat kislota (ekstraksiyal ham, termik ham) xomashyo hisoblanadi. Fosfat kislotani ammiak bilan neytrallash ko'p miqdordagi issiqlik ajralishi bilan sodir bo'ladi:




3.1-rasmdan ko'rindiki, jarayonni *AB* chiziq bo'yicha amalga oshirish natijasida eng ko'p miqdordagi monoammoniyfosfat olishga erishiladi. Tarkibida 40 %  $\text{H}_3\text{PO}_4$  (~29 %  $\text{P}_2\text{O}_5$ ) bo'lgan ekstraksion fosfat kislotani neytrallashda hattoki  $25^\circ\text{C}$  haroratda ham kristallarning unumi unchalik ko'p bo'lmaydi (*C* nuqtadagi sistema). Konsentrangan fosfat kislotani (75 %  $\text{H}_3\text{PO}_4$  yoki 54 %  $\text{P}_2\text{O}_5$ ) neytrallanishidagi sistemaning tarkibi *D* nuqtaga muvofiq keladi va hosil bo'ladigan qattiq fazaning miqdori  $75^\circ\text{C}$  dan yuqori haroratda ham eng ko'p bo'ladi. Bunga reaksiyaning issiqligi hisobiga bir qism suvning bug'lanishi ham yordam beradi.

Ammosos ishlab chiqarishda qo'shimchalar bilan ifloslangan ekstraksion fosfat kislota ishlatalganligi uchun, uning ammiak bilan  $\text{pH} \geq 3$  gacha neytrallash jarayonida  $\text{RPO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  turidagi temir va aluminiyning o'rta fosfatlari va temiraluminiyammoniyfosfatlari –  $\text{NH}_4(\text{Fe},\text{Al})(\text{HPO}_4)_2 \cdot 0,5\text{H}_2\text{O}$ , dikalsiyfosfat  $\text{CaHPO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ , gips, ftoridli va ftorsilikatli tuzlar, magniyammoniyfosfat  $\text{NH}_4\text{MgPO}_4 \cdot \text{H}_2\text{O}$  ajralib chiqadi, suyuq fazada esa ammoniy sulfat paydo bo'ladi.

Fosfat kislotani ammoniylashtirishda, tarkibida ammoniy fosfatlari, erkin fosfat kislota, suv va cho'kadigan qo'shimchalar bo'lgan kislotali suspenziya hosil bo'ladi. Ammiakning yutilish me'yori bo'yicha suspenziya miqdori va komponentlarning tarkibi hamda haroratning ortishi xuddi uning xossasi – pH qiymati, qattiq fazalar eruvchanligi, qovushqoqligi (oquvchanligi) va boshqalar kabi muntazam o'zgarib turadi.

To'yingan suvli eritma ustidagi ammiakning muvozanatli bosimi  $\text{NH}_3:\text{H}_3\text{PO}_4$  molyar nisbatiga bog'liqdir (3.3-rasm).


Unga esa vodorod ko'rsatkich – pH qiymati bog'liq (3.4-rasm), pH qiymati orqali jarayonni boshqarib turiladi.  $25^{\circ}\text{C}$  da  $\text{NH}_3:\text{H}_3\text{PO}_4$  molyar nisbati 1,45 ga yaqin bo'lgan to'yingan eritma maksimal zichlik va qovushqoqlikka ega bo'ladi. Suspenziya tarkibining o'zgarishi ularning suyuq fazalarining qaynash haroratiga katta ta'sir ko'rsatadi, buni konsentrash va suvsizlantirishning optimal tartib (rejim) larini tanlashda e'tiborga olish lozimdir.



**3.3-rasm.** Ammoniy fosfatlar to'yingan suvli eritmalari ustidagi ammiak bosimining  $\text{NH}_3:\text{H}_3\text{PO}_4$  molyar nisbatiga bog'liqligi.

### Monoammoniyfosfat va diammoniyfosfat ishlab chiqarish.

Termik fosfat kislotadan olinadigan ammoniy fosfatlari yuqori tozalikka ega va asosan, oziq-ovqat, farmatsevtika sanoatlarida va boshqa maqsadlar uchun ishlatiladi. Termik kislotada 77 % dan ortiq  $\text{H}_3\text{PO}_4$  bo'lmaydi. Boshlang'ich kislotaga kristallantirish bosqichida qoladigan eritma aralashtiriladi va uni  $\text{NH}_3:\text{H}_3\text{PO}_4$  molyar nisbati ~1 ga teng bo'lguncha neytrallanadi, hosil bo'lgan monoammoniyfosfat suspenziysi qo'shimcha kristallanishi uchun sovutiladi. So'ngra kristallar filtrlanadi, eritma esa reaktorga qaytariladi.



**3.4-rasm.** 65-75°C haroratdagi ammoniy fosfatlar to‘yingan eritmalari pH qiymatining  $\text{NH}_3:\text{H}_3\text{PO}_4$  molyar nisbatiga bog‘liqligi.

Kristall tarzidagi diammoniyfosfat olish ikki bosqichda o‘tkaziladi, chunki barcha ammiakni birdaniga berilishi hisobiga massa kuchli darajada qiziydi va juda quyuq suspenziya hosil bo‘ladi, bu esa ammiakning yo‘qotilishiga olib keladi. Termik kislota ( $47-48\% \text{ P}_2\text{O}_5$ )  $\text{NH}_3:\text{H}_3\text{PO}_4 \approx 0,7$  nisbatgacha neytrallanadi, suspenziya kristallanish siklidan qaytgan eritma bilan aralashtiriladi va vakuum kristallizatorga yuboriladi, u yerda yetarli darajagacha ammoniyylanadi. Sovutligan suspenziya quyultiriladi, sentrifugada diammoniyfosfat kristallari ajratiladi va to‘g‘ri oqimli barabanli quritgichda quritiladi.


Jarayonni bitta bosqichda ham amalga oshirilishi mumkin. Bunda 75-85 % li termik fosfat kislota va ammiak gazi ichida kristallanish siklidan qaytarilgan eritma bo‘lgan saturatorga muntazam berib turiladi. Reaksiyon massa orqali havo purkalishi natijasida suvning bug‘lanishi hisobiga haroratni 60-70°C da ushlab turiladi. Saturatorda hosil bo‘ladigan diammoniyfosfat kristallari sentrifugaga suspenziya tarzida chiqariladi, unda ajratiladigan eritma saturatorga qaytariladi. Bu jarayonning va saturatorning sxemasi xuddi ammoniy sulfat olishdagi kabi bo‘ladi.

Ekstraksion fosfat kislotani neytrallashda cho‘kmaga ajraladigan qo‘sishchalar tayyor mahsulot tarkibida qoladi, uni ifloslantiradi va asosiy komponentlar miqdorini kamay-

tiradi. Ekstraksion fosfat kislotadan nisbatan toza mahsulot olish uchun neytrallanish jarayonini ikki bosqichda o'tkazish mumkin. Birinchi bosqichda bug'latilmagan kislota pH = 4÷4,5 gacha neytrallanadi, bunda qo'shimchalarining ko'p qismi cho'kmaga ajraladi, so'ngra ularni asosiy eritmadan ajratiladi. Filtrlangan cho'kma 5-6 % namlikkacha quritiladi va u antipiren sifatida ishlatalishi mumkin. Cho'kma tarkibida 5 % NH<sub>3</sub> va 30-35 % o'zlashadigan shakldagi P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> bo'ladi. Agar ekstraksion fosfat kislotada magniy ionlari (masalan, uni Qoratog' yoki Qizilqum fosforitidan olingan) bo'lsa, unda birinchi bosqich neytrallahshdan magniyammoniyfosfat NH<sub>4</sub>MgPO<sub>4</sub> cho'kmaga tushadi, uni ajratib olish va quritish natijasida azotning sitratli eruvchan shakldagi azotli-magniyli o'g'iti sifatida iste'molga chiqarilishi mumkin.

Tarkibida, asosan, monoammoniyfosfat bo'lgan eritma vakuum ostida 34-36 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> bo'lguncha bug'latiladi. Tozalangan va qisman neytrallangan eritmani bug'latish, oldindan fosfat kislotani bug'latilishga nisbatan anchagina sodda va korroziyalanish kam bo'ladi. Chunki fosfat kislotasi bug'latilganda bug'latish jihozlarining qizdirish elementlariga quyqa yopishib qoladi, kuchli kislotali muhitda va yuqori haroratda korroziyalanish tezlashadi. Bug'latilgan tozalangan eritma 18-20°C gacha sovutilib, monoammoniyfosfat olinadi. Cho'kmaga tushgan kristallar sentrifugada ajratiladi va quritiladi. Eritma esa bug'latish sikliga qaytariladi.

Diammoniyfosfat olish uchun bug'latilgan monoammoniy-fosfat eritmasi ikkinchi bosqichda pH ≈ 8 gacha qo'shimcha ammiak bilan to'yintiriladi. Ammiak yo'qotilishining oldini olish uchun to'yintirish 80°C dan past haroratda o'tkaziladi. So'ngra diammoniyfosfat eritmasi kristallantirishga yuboriladi, sentrifugalananadi va ajratilgan diammoniyfosfat quritiladi. Diammoniyfosfatdan ammiakni yo'qotilishini va monoammoniyfosfatga aylanishini oldini olish uchun uni 60°C da quritiladi. Monoammoniyfosfatning quritilishi esa 100-110°C gacha o'tkazilishi mumkin. Sxemasi 3.5-rasmida tasvirlangan qurilmada termik fosfat kislotadan ham, ekstraksion fosfat kislotadan ham mono- yoki diammoniyfosfat ishlab chiqarilishi mumkin.




**3.5-rasm.** Ammoniy ortofosfatlari ishlab chiqarish uchun qurilma sxemasi: 1- birinchi bosqich saturatori; 2-quyultirgich; 3,9-sentrifuga; 4-issiq suv uchun bak; 5-birinchi bosqich cho'kmasi uchun barabanli quritgich; 6-ammoniy fosfat eritmasining yig'gichi; 7-ikkinchi bosqich bug'latish tizimi; 8-mono- yoki diammoniyfosfat uchun kristallizator; 10-ikkinchi bosqich saturatori; 11-kristallanish siklididan qolgan eritma yig'gichi; 12-mono- yoki diammoniyfosfat uchun quritgich.

**Ammofos ishlab chiqarish.** O'g'it sifatida ishlatiladigan ammofos ishlab chiqarishda quyidagi turli ko'rinishdagi texnologik sxemalar qo'llaniladi:

1. Bug'latilmagan (20-30 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>) ekstraksion fosfat kislotani neytrallash va (changlatgichli, barabanli yoki qaynovchi qatlamlili) quritgichda suvsizlantirishga asoslangan sxemalar;
2. Bug'latilmagan (20-30 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>) fosfat kislotani neytrallash, so'ngra ammofos suspenziyasini bug'latish hamda donadorlash va quritishni barabanli donadorlash quritgichlari (BDQ) da amalga oshirishga asoslangan sxemalar;
3. Bug'latish orqali konsentrangan (48-54 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>) ekstraksion fosfat kislotani neytrallashga asoslangan sxemalar qo'llaniladi. Bu holda neytrallanish ikki bosqichda: dastlab reaktorlarda – atmosfera bosimida, so'ngra barabanli ammoniylashtirgich-donadorlagich (AD) da yoki yuqori bosimli bir bosqichda suspenziyani quritishni minorada

changlatish yoki BDQ jihozlarida amalga oshirish orqali o'tkaziladi.

Changlatgichli quritgichlar ishlatalishi orqali ammofos ishlab chiqarish sxemasining bir varianti 3.6-rasmda ko'rsatilgan. Ekstraksion fosfat kislotasi (22-28 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>) 80-115°C haroratda birin-ketin joylashgan bir necha reaktor (saturator) lar 1 da uzlusiz suratda NH<sub>3</sub>:H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub> nisbatini 1,1 dan oshirmagan holda (pH≤5) ammiak bilan neytrallananadi. Bunda harakatchan suspenziya hosil bo'ladi. 100-105°C haroratli uning bir qismi (70-80 % miqdori) oxirgi reaktordan changlatgichli quritgich (5) ga tushadi, u yerga, shuningdek, gazsimon yoki suyuq yoqilg'ini yondirilishidan olingan o'txona gazlari beriladi. Quritgichdan chiquvchi mo'rili gaz harorati 100-115°C bo'ladi va changdan tozalanishi uchun siklon (6) dan o'tadi.



**3.6-rasm.** Changlatgichli quritgichda ammofos ishlab chiqarish sxemasi: 1-reaktor-saturator; 2-suspenziyani yig'gich; 3-markazdan qochma nasos; 4-suspenziya me'yorashtirgichi; 5-changlatgichli quritgich; 6-siklon; 7-ventilyator; 8-absorber; 9-shnek; 10-maydalagich; 11-elevator; 12-bunker; 13-ikki valli aralashtirgich; 14-dumaloqlovchi baraban; 15-barabanli quritgich; 16-ikki xil teshikli elak; 17-sovutgich; 18-transportyor.


Quritilgan (1 % namlikkacha) kukunsimon ammofos uzlusiz ravishda ikki valli shnekli aralashtirgich (13) ga kelib tushadi, u yerga shu bilan bir vaqtida tayyor mahsulotning mayda fraksiyasi va suspenziyaning qolgan (20-30 %) qismi

beriladi. Nam ammosos (10-12 % H<sub>2</sub>O) donachalari aralashtirgichdan donachalarni dumaloqllovchi baraban (14) ga va so'ogra quritish barabani (15) ga yuboriladi. Quritish mo'rili gazlar bilan (350°C da) amalga oshiriladi.

Quritilgan donachalar ajratiladi. 3,2 mm dan yirik donachalar fraksiyasi maydalanadi va yana ajratishga beriladi yoki fosfat kislotada eritiladi va jarayonga (ammoniyalashtirishga) qaytariladi. 1 mm dan mayda fraksiyalar donadorlashga yuboriladi, 1-3,2 mm donachali fraksiya esa tayyor mahsulot sifatida chiqariladi. Apatit va fosforitlar asosidagi mahsulot tarkibida, muvofiq ravishda: 52 va 47 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub><sub>umum.</sub>, 51 va 46 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub><sub>o'zl.</sub>, 50 va 41 % P<sub>2</sub>O<sub>5s.e.</sub>, 12 va 11 % N, 1 % H<sub>2</sub>O, 0 va 4 % MgO, 3,5 va 3 % F bo'ladi.

Ammofos suspenziyasini quritishning ancha takomillashgan usuli – uni quritishni barabanli donadorlash-quritgichi (BDQ) yoki barabanli donadorlash-quritgichli sovutgich (BDQS) jihozlarida amalga oshirish hisoblanadi.


BDQ apparati ichki va tashqi retur (donachalar o'lchami belgilangan talablarga javob bermaydigan zarrachalar) bilan ishlaydi (3.7-rasm). U gorizontal yuzaga nisbatan 1-3° qiyalikda o'rnatilgan 35 m gacha uzunlikdagi, 1 m dan 4,5 m gacha diametrдagi aylanuvchi barabandan iborat bo'lib, temirbeton taglik ustidagi tayanch roliklari (2) ga tayantirilgan. Qisqich roliklari (3) esa barabanning surilishini oldini oladi. Barabanni aylantirish elektrodvigatel (4) da hosil qilingan aylanma harakatning reduktor (5), tishli g'ildiraklar (6) orqali tishli chambarak (14) ga uzatilishi orqali amalga oshiriladi. Barabanning kirish qismida parrakli qabul qiluvchi moslama (13), butun uzunligi bo'yicha esa ko'tarib tashlovchi moslamalar (8) va chiqish qismida ichki returni tagi teshik konus (15) dan suspenziyani sachratish zonasiga uzatish uchun qaytargich shnek (7) o'rnatilgan. Tashqi retur esa quvur (11) dan uzatiladi. Yuklash kamerasi (9) ning oldingi tirkishiga apparatga beriladigan suspenziyani qisilgan havo (0,7-0,8 MPa) bilan sachratish uchun pnevmatik forsunka (10) o'rnatilgan bo'ladi. Bunda suspenziya namligi ~35 % bo'lishi lozim.




3.7-rasm. Barabani donadorlash-quritgichi (BDQ): 1-aylanuvchi baraban korpusi; 2-tayanch rolik; 3-qisqich rolik; 4-elektrodivigateli; 5-reduktor; 6-tishli g'ildiraklar; 7-qaytargich shnek; 8-ko'tarib tashlovchi moslama; 9-yuklash kamerasi; 10-forsunka; 11-tashqi returni uzatish uchun quvur; 12-issiqlik so'rg'ich kirishi uchun ichki quvur; 13-parrakli qabul qiluvchi moslama; 14-tishli chambarak; 15-tagi teshik konus; 16-chiqarish kamerasi.

Issiqlik so'rg'ich yuklash kamerasiga ichki quvur (12) orqali kiradi. Ko'tarib tashlovchi moslamada quritilayotgan donachalarning erkin tushishidan parda hosil qiladi. Bu pardadagi donachalarga changlatilgan suspenziyaning mayda tomchilari yopishadi va uning qurishi natijasida donachalar yiriklashadi. BDQdan chiquvchi gazning harorati 120-125°C bo'ladi. U changdan dastlab siklon (chang tutgich) da, so'ngra esa absorbsion qurilmada yuvish orqali tozalanadi. BDQdan 2-3 % namlik bilan chiqadigan quruq donachalar harorati 100-105°C bo'ladi. BDQ apparatlari bir-biridan tuzilish qismlari bilan farqlanadi va muntazam takomillashtirib borilmoqda. Ularning ayrimlarida donadorlash va quritishdan tashqari sovutish va donachalarga ajratish ham amalga oshiriladi.

Ammofos suspenziyasini oraliq bug'latish sxemasi keng tarqalgandir (3.8-rasm). Boshlang'ich fosfat kislotani oldindan natriy yoki kaliy sulfat, yoki soda bilan qayta ishlash undan anchagina miqdordagi ftroring ftorsilikatlar tarzida yo'qotilishi ta'minlaydi va shu bilan bir vaqtida undagi kalsiyidan tozalanadi va boshqa qo'shimchalar (Fe, Al) miqdori kamaytiriladi. Bu ammofosdagi o'zlashuvchan va suvda eruvchan  $P_2O_5$  konsentratsiyasini oshiradi, chiqindi gazlaridan



3.8 - ream. Ammonofos suspenzivai turg'latich va BDQ liberi da doraderlich erqili ammofos iishi ob eti qazish se enes:  
 1 - TAB jhox; 2 - turg'latuchii jilcelar; 3 - ayantovchi jilcelar; 4 - big 'halqan suspensiva vng' etch; 5 - BDQ jilcer;  
 6 - elevator; 7 - slat; 8 - valtai maydalich; 9 - sonerch; 10 - suvarvelu usaklik aktsiyer; 11 - yashil muroza;  
 12 - yuzq armalukti turg'latich; 13 - osakli disk; 14 - issilik ammashirich




**3.9-rasm.** Tezkor ammoniyalashtiruvchi bug'latgich (TAB).

ftorni ajratib olishni osonlashtiradi, buning uchun ftorsiz-langan fosfat kislota ishlatalishi mumkin.


Fosfat kislota (22-29 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>) gaz holatdagи ammiak bilan pH = 5÷5,5 gacha TAB – tezkor ammoniyalashtiruvchi bug'latgich jihozida neytrallananadi (3.9-rasm). Bu vertikal reaksiyon quvur ( $\varnothing$  0,6 m, N = 6 m) ostidagi Venturi soplosi (ichida gaz yoki suyuqlik tezligi oshadigan o'zgaruvchan kesimli kanal yoki qisqa quvur) dan ammiak va kislota kiritiladi. Reaksiya issiqligi hisobiga massa qaynaydi va yuqoriga harakatlanadi, 1-2 minut ichida separatorga yetib boradi, u yerdan suspenziya aylantiruvchi quvur orqali reaksiyon quvurga qaytariladi. Uning bir qismi separatordan konsentrashga yuboriladi. Separatordan chiqadigan bug'issiqlik almashtirgichda boshlang'ich kislotani isitish orqali kondensatlanadi. Ammofos suspenziyasi (NH<sub>3</sub>:H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub> = 1,1) ko'p qobiqli bug'latish qurilmasida konsentrланади, u yerda undagi suv miqdori 55-56 % dan 18-25 % gacha

kamaytiriladi; 1-qobiq vakuum ostida, 2-qobiq – atmosfera bosimida, 3-qobiq – yuqori bosimda ishlaydi. Yangi hosil qilingan bug' (0,3 MPa) 3- va 4-qobiqqa beriladi, 1- va 2-qobiqlarda esa jarayonda hosil bo'ladigan bug' ishlatiladi. So'ngra 112-115°C haroratli suspenziya BDQ jihozida quritiladi va shu bilan bir vaqtida donadorlanadi. Sovutilgan va elakda ajratilgan mahsulotning zarracha o'lchami 1 mm dan kichik bo'lgan fraksiyasi BDQ jihoziga tashqi retur sifatida qaytariladi. Yirik fraksiya maydalashga yuboriladi, mahsulot fraksiyasi esa 45°C gacha (konteynerlarga yuklashda yoki qog'oz qoplarga joylashtirishda) yoki 55°C gacha (polietilen qoplariga joylashtirishda)sovutiladi. Apatitdan (51 %  $P_2O_{50\cdot zl}$ , 12 % N) va Qoratog' fosforitidan (47 %  $P_2O_{50\cdot zl}$ , 11 % N) 1 t ammofos mahsuloti ishlab chiqarish uchun sarf koeffitsiyentlari muvofiq ravishda, taxminan quyidagicha bo'ladi: ekstraksion fosfat kislota (100 %  $P_2O_5$ ) – 0,54 va 0,5 t;  $NH_3$  – 0,15 va 0,14 t; tabiiy gaz ( $34,8 \text{ MJ/m}^3$ ) –  $28 \text{ m}^3$ ; elektroenergiya – 111 kVt·s; suv –  $22 \text{ m}^3$ ; qisilgan havo –  $60 \text{ m}^3$ .  $P_2O_5$  dan foydalanish darajasi 96 % ni,  $NH_3$  dan esa – 97 % ni tashkil etadi. Ammoniyashtiruvechi donadorlagich (AD) ishlatilgan holdagi sxema bo'yicha ammofos olishda (3.10-rasm) 50-54 %  $P_2O_5$  gacha bug'latilgan ekstraksion fosfat kislotaga chiqindi gazlarini absorbsiyalashdan olinadigan oqavalar qo'shilib (undagi  $P_2O_5$  miqdori 47-48 % gacha kamayadi), aralashtirgichli reaktorlarda ammiak gazi bilan  $NH_3:H_3PO_4 = 0,6 \div 0,7$  molyar nisbatigacha neytrallanadi. 120-125°C harorat va 17-18 % namlikdagi (ammoniyashtirish issiqligi hisobiga reaktorlarda 20-25 % bug'langan) kislotali suspenziya ( $pH \approx 3$ ) AD jihoziga beriladi (3.11-rasm). AD jihozida 85-95°C haroratda massa  $NH_3:H_3PO_4 = 1 \div 1,05$  molyar nisbatigacha qo'shimcha neytrallanadi va mahsulot donadorlanadi, bunda jarayonga berilgan 50 % suv bug'lanadi. AD jihozidan chiqadigan nam (2,5-3,5 %  $H_2O$ ) donachalar to'g'ri oqimli barabani quritgichda (250-350°C haroratdagi) o'txona gazlari bilan donachalar harorati 75-90°C bo'lgan holda quritiladi. So'ngra u elanadi va mahsulot fraksiyasi sovtgichda 75-90°C dan 45-55°C haroratgacha sovutiladi.

Quritish barabanidan ( $105\text{--}115^{\circ}\text{C}$  da) chiqadigan hamda neytrallagich va ammoniyashtiruvchi donadorlagichdan so'rib olinadigan gazlar chang, ammiak va ftordan tozalanadi, hosil bo'ladigan oqavalar reaktor-neytrallagichlarga yuboriladi.



**3.10-rasm.** AD johozi bilan donadorlangan ammofos olish sxemasi:  
1-neytrallagich; 2-ammoniyashtiruvchi donadorlagich (AD);  
3-quritish barabani; 4-siklonlar; 5-elaklar; 6sovutgich; 7,8-absorberlar.



**3.11-rasm.** Ammoniyashtiruvchi donadorlagich (AD): 1-qobiq; 2-so-chiluvchi komponentlarni uzatish tuynugi; 3-ichki devorni tozalash uchun pichoq; 4-ammiak taqsimlagich; 5-o'ram; 6-tayanch va qisqich g'ildiraklar; 7-tayanch halqa; 8-bandaj.

Mahsulot tarkibida fтор miqdorining kam (1 % dan oshmasligi) keltirib o'tilgan jarayonning afzalliklaridan biri hisoblanadi, kuchsiz kislota ishlatalganda esa u 3,5-4 % ni tashkil qiladi.

Bu sxema bo'yicha 1 t ammososga (53 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>, 12 % N): bug'latilgan kislota shaklida 0,588 t P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>; 0,151 t NH<sub>3</sub>; 9 m<sup>3</sup> tabiiy gaz (34,8 MJ/m<sup>3</sup>); 67 kW·s elektr energiyasi talab etiladi.

Apatit konsentratidan olinadigan mahsulot tarkibida taxminan: 55-56,5 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub><sub>sumum</sub>, 54-55 % P<sub>2</sub>O<sub>5o'zl</sub>, 53-54 % P<sub>2</sub>O<sub>5s.e.</sub>, 12-12,5 % N; 0,5-1 % H<sub>2</sub>O bo'ladi.

Keltirilgan sxemalarni mukammallashtirish bo'yicha turli takliflar berilgan. Masalan, kislotani neytrallashni bosim ostida amalga oshirish ko'rsatib o'tiladi. Bunda reaksiya issiqligidan amalda deyarli to'la foydalanishga erishilishi mumkin. Konsentrangan (50-54 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>) ekstraksion fosfat kislota pH = 4:4,5 gacha neytrallanishi 0,3-0,35 MPa bosimda quvurli reaktordan juda qisqa vaqtida o'tishi (~0,1 s) hisobiga amalga oshiriladi. Neytrallash issiqligi hisobiga 180-200°C gacha qizigan suspenziya minoradagi forsunkada changlanadi, u yerda atmosfera bosimi ushlab turiladi, shu bilan bir vaqtida massaning sovutilishi natijasida o'z-o'zidan bug'lanish hisobiga qizigan eritmadan suv tezda yo'qotiladi va kukunsimon ammosos hosil bo'ladi. Uni donadorlash mumkin yoki nitroammosos va boshqa murakkab o'g'itlar olish uchun ishlatisch mumkin.

Qoratog' fosforitidan olingan ekstraksion fosfat kislotani 50-55 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> (va undan yuqori) konsentratsiyagacha bug'latish usullari (NamMPI, prof.Q.G'afurov rahbarligida) yaratilgandan keyin, bu kislotadan eng mukammal usulda (quvurli neytrallash jarayoni orqali) ammosos-Q murakkab o'g'iti ishlab chiqarish texnologiyasi yaratilgan va sanoat sharoitida sinovdan muvaffaqiyatlari o'tkazilgan. Natijada tarkibida 49-51 % P<sub>2</sub>O<sub>5o'zl</sub> va 11 % N tutgan, ftorsizlangan (0,3-0,4 % F li) ekologik toza ammosos-Q o'g'iti olingan (1980 y., Rossiya, Voskresensk shahri).

**Donadorlangan diammofos.** O‘g‘it sifatida ishlatiladigan donadorlangan diammofos apatit konsentrati, Qoratog‘, Qizilqum va Pribaltika fosforitlari asosida hosil qilingan ekstraksion fosfat kislotadan olinadi. Mahsulot tarkibida muvofiq ravishda: 48; 41; 48 %  $P_2O_{50\cdot zl.}$ , 43-45,5; 32; 41 %  $P_2O_{5s.e.}$  va 18; 13,5; 13 % N bo‘ladi.

Uni ishlab chiqarish sxemasi kristall mahsulot olish uchun yuqorida bayon etilganidek (3.6-rasm), ammo ammoniyashning ikkinchi bosqichi saturatorda emas, balki ammoniyashtiruvchi donadorlagichda (AD) amalga oshiriladi. Boshlang‘ich kislota (32-38 %  $P_2O_5$ ) saturatorlarda ammiak bilan  $NH_3:H_3PO_4 = 1,3:1,4$  molyar nisbatigacha neytrallangan bo‘lsa, AD jihozida esa 1,7÷1,8 gacha amalga oshiriladi. Suspenziya AD jihoziga 70-75°C haroratda, retur esa 50°C haroratda beriladi va returning takroriyligi 3-4 martani tashkil qiladi. Materialning ADDan o‘tish davri 6-8 minutni tashkil etadi. Donachalarni quritishda uning haroratini 72-75°C dan (to‘g‘ri yo‘nalishda beriladigan o‘txona gazlarining haroratini 200°C dan) oshirmaslik kerak. Tayyor mahsulot 25-27°C gacha sovutiladi.

**Ammofos ishlab chiqarish texnologik hisoblari. Moddiy balans.** 3.12-rasmida ammoniyashtiruvchi donadorlagich sxemasi bo‘yicha ammofos ishlab chiqarish moddiy balansi keltirilgan. Moddiy balansni tuzishda quyidagi kattaliklar olindi: neytrallagichdagi  $NH_3:H_3PO_4$  nisbati – 0,7; neytrallagich, ammoniyash donadorlagichlardan yo‘qotiladigan umumiylilik namlik (boshlang‘ich fosfat kislotadagi 1 t  $P_2O_5$  hisobiga) – 480 kg; jarayon retur soni – 4.

Baland mo‘rili quvurda hosil bo‘ladigan va absorbsiya tizimiga qaytariladigan kondensat absorbsiya tizimida bug‘lanadigan suv miqdoriga teng deb olinganligi sababli moddiy balans tuzishda e’tiborga olinmadi.

Fosfat kislotaning bir qismi to‘g‘ridan to‘g‘ri neytrallagichga emas, balki absorbsiya tizimiga, u yerdan neytrallagichga yuboriladi, bu moddiy balansda aks ettirilmagan.

Boshlang‘ich fosfat kislota tarkibida 52 %  $P_2O_5$ , 7 % qo‘sishchalar, 21 % suv; ammiak tarkibida esa 99,9 %  $NH_3$

bo'ladi. Neytrallagichga gaz holatidagi ammiak, ammoniy-lashtirgich-donadorlagichga esa suyuq ammiak beriladi.

Tayyor mahsulot tarkibida 52 %  $P_2O_{50\cdot z1}$ , 11 % N, 1 %  $H_2O$  bo'ladi. Ammoniy lashtirgich-donadorlagich qo'llanilgan holda ammofos ishlab chiqarish sxemasi uchun asosiy issiqlik hisoblari neytrallagich va quritish barabanining issiqlik balansini tuzishda bajariladi.

**Neytrallagich issiqlik balansi.** Issiqlik balansini tuzishda (3.1-jadval) reagentlarning boshlang'ich harorati  $25^{\circ}C$  deb qabul qilingan.

Issiqlik balansi tenglamasidan neytrallash jarayonida bug'lanadigan suv miqdori aniqlanadi:  $x = 103$  kg.

**Quritish barabani issiqlik balansi.** Hisobni ammofosni quritishga sarflanadigan mo'rili gaz miqdorini aniqlash uchun bajariladi (3.2-jadval).

Issiqlik balansi tenglamasidan 1 t tayyor mahsulot uchun berilgan ammofosni quritishga sarflanadigan mo'rili gaz miqlori aniqlanadi:  $V = 427,2 \text{ m}^3/\text{t}$ .


Quritish barabanidan chiqadigan mo'rili gaz unumi:  $1,1 \cdot 427,2 + (38:0,804) = 517 \text{ m}^3/\text{t}$  ni tashkil etadi.

### 3.1-jadval

#### Neytrallagich issiqlik balansi

Issiqlik kirimi	kJ	Issiqlik sarfi	kJ
Boshlang'ich fosfat kislota bilan: $1042 \cdot 2,30 \cdot (40-25)$	35949	Ammofos bo'tqasi bilan: $(1219-x) \cdot 2,96 \cdot (120-25)$	$308041-253x$
Gaz holatdagi ammiak bilan: $90 \cdot 2,22 \cdot (50-25)$	4955	Atrof-muhitiga yo'qotiladigan issiqlik: $575030 \cdot 0,05$	28752
Absorbsiya tizimidan suyuqlik bilan: $87 \cdot 4,187 \cdot (45-25)$	5408	Suv bug'i bilan: $2575x$	$2575x$
Kimyoviy reaksiya issiqligi*: $(90:17) \cdot 99850$	528618		
<b>Jami:</b>	<b>575030</b>	<b>Jami:</b>	<b><math>336792+2322x</math></b>

\* Reaksiyaning issiqlik effekti:  $H_3PO_4(s) + NH_3(gaz) = NH_4H_2PO_4(s) + 99850 \text{ kJ/mol}$



**3.12-rasm. Ammofos ishlab chiqarish moddiy balansi.**


**1 t ammosfot uchun quritish barabanining issiqlik balansi**


Issiqlik kirimi	kj	Issiqlik sarfi	kj
Mo‘rili gaz bilan: V·1,319·350	461,6V	Chiqindi gazlari bilan: V·1,315·110	144,6V
Barabanga kiradigan materiallar bilan: 5058·1,256·85	540009	Quritish barabanidan chiqadigan materiallar bilan: 5020·1,214·90	548563
		Bug‘langan suv bilan: 38·2688	102144
		Havoni qizdirishga: 0,1·V·0,31·1,298(110-20)	11,7V
		Atrof-muhitga yo‘qotiladigan: 461,6V·0,1	46,2V
<b>Jami:</b>	<b>540009+461,6V</b>	<b>Jami:</b>	<b>202,5V+650,70</b>
			7

## **2-§. Ammosfot ishlab chiqarish nazariyasi va texnologiyasi**

Ammofosfat texnologik nuqtai nazaridan ammosfot va qo‘shaloq superfosfat orasidagi holatni egallaydi va teng ma’noda ikkala mahsulot texnologiyasini ifodalashda ko‘rib chiqilishi mumkin. Xuddi qo‘shaloq superfosfat olishdagi kabi ammosfot olishda ham fosfat kislotaning kimyoviy energiyasidan qo‘srimcha miqdordagi fosfatli xomashyonи parchalashga sarflanadi va kalsiy fosfatlari hosil qilinadi. Xuddi ammosfot olishdagi kabi ta’sirlashmagan erkin fosfat kislotasi ammiak bilan neytrallanadi va ammoniy fosfatlari hosil qilinadi. Ammosfot sifatiga standart talablar 1.4-jadvalda keltirilgan.


Tabiiy fosfatlar tarkibidagi mineralarning fosfat kislotasi bilan parchalanishi quyidagi asosiy reaksiyalar bo‘yicha sodir bo‘ladi:






Ma'lum xomashyo uchun fosfat kislotaning stexiometrik me'yori – ko'rsatilgan reaksiyalarni va boshlang'ich ekstrak-sion fosfat kislota eritmasidagi neytrallovchi ( $\text{CaO}$ ,  $\text{MgO}$ ,  $\text{R}_2\text{O}_3$ ) va kislotali ( $\text{H}_2\text{SO}_4$ ) qo'shimchalarining bo'lishini e'tiborga olgan holda belgilanadi.

Tabiiy fosfatni fosfat kislotali parchalashdan olinadigan bo'tqa tarkibidagi erkin fosfat kislotani gaz holatidagi ammiak bilan neytrallash jarayonida dastlab monoammoniyfosfat hosil bo'ladi:




Neytrallash issiqligining ajralishi hisobiga massaning harorati  $80-90^\circ\text{C}$  gacha ko'tariladi va buning hisobiga ammofosfat bo'tqasi birmuncha quriydi. Bunda suvda eriydigan  $\text{P}_2\text{O}_5$  miqdori kamaymaydi.

Nisbatan kuchliroq ammoniylashtirish natijasida monokalsiyfosfat dikalsiyfosfatga aylanadi:




Bunday chuqur ammoniylashtirish natijasida ammofosfatdagi suvda eriydigan  $\text{P}_2\text{O}_5$  miqdori anchagina kamayadi, ammo o'zlashadigan  $\text{P}_2\text{O}_5$  miqdori sezilarli o'zgarmaydi. Ammoniylashtirishni yanada davom ettirish  $\text{P}_2\text{O}_5$  retrogradatsiyasiga olib keladi – dikalsiyfosfat o'simliklarga qiyin o'zlashadigan trikalsiyfosfat shakliga aylanadi:



Ammofosfat texnologiyasining qo'shaloq superfosfat texnologiyasidan farqi shundaki, bunda ishlataladigan ikkilamchi fosfat oz miqdorda bo'ladi, ya'ni qo'shaloq superfosfat ishlab chiqarishdagi ikkilamchi fosfat bilan kiradigan umumiyl miqdorining 25 % o'rning ammofosfat ishlab chiqarishda 10-15 %  $\text{P}_2\text{O}_5$  ishlataladi. Ammofosfat ishlab chiqarishda kislota me'yorining haddan yuqori bo'lishi,

hattoki quyi navlardagi fosfatli xomashyolardan olingan EFK ishlatilganda ham ikkilamchi fosfat parchalanish darajasining yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Superfosfatlar samaradorligi bilan solishtirilganda ammofosfat agrokimyoviy samaradorligining yetarli darajada yuqori bo'lishi, ayniqsa quyi navli fosfatli xomashyolar ishlatilishi ammofosfat ishlab chiqarish sanoatini tashkil etish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Bu mahsulot mavjud ammofos ishlab chiqarish qurilmalarini qisman o'zgartirish hisobiga olinishi mumkin. Ammofosfat ishlab chiqarish texnologiyasi umumiy holda quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: ikkilamchi fosfatni fosfat kislota bilan parchalash; olingan bo'tqani ammiak bilan neytrallash ( $\text{pH}$  ko'rsatkichi 3,5 va undan yuqori) yoki kislotali bo'tqa olish ( $\text{pH}$  ko'rsatkichi 2,5 va undan kam); ammoniyangan bo'tqani bug'latish; bo'tqani qo'shimcha ammoniylash (agar lozim bo'lsa); mahsulotni donadorlash va quritish; donachalarни qayta ishlashning standartli bosqichi. Shunday qilib, ammofosfat ishlab chiqarish bosqichlari (fosfatni parchalash qo'shimcha bosqichi e'tiborga olinmaganda) amalda bug'latilmagan fosfat kislotadan ammofos ishlab chiqarish bosqichlariga o'xshaydi. Uni ishlab chiqarishdagi qator texnologik usullar ham (shu jumladan kislotali fosfat bo'tqasini bug'latish mumkinligi) bir xildir. Ammofosfatning aniq texnologiyasi EFK ishlab chiqarish va ikkilamchi fosfat sifatida ishlatiladigan xomashyolar turi bilan belgilanadi. Ammofosfat bo'tqasini ammiak bilan neytrallash fosfatli xomashyo parchalanish darajasini yuqori darajada saqlagan holda amalga oshiriladi. Parchalanish koeffitsiyenti asosan kislota me'yoriga bog'liq bo'ladi. Fosforitlarni undan olingan kislota bilan 250 % li me'yorda parchalanganda parchalanish darajasi  $\approx$ 70 % ni tashkil etadi, parchalanish darajasining bunday ko'rsatkichga apatitdan oliban kislota bilan 210 % li me'yorda fosforitlarni parchalash orqali erishiladi. Ammofosfat texnologiyasi va jarayonning jihozlanishi ko'pincha ammoniylashtirilgan bo'tqa reologik xossalariiga bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida kislotalilik muhitini ko'rchatkichi, xomashyo turi, fazalar nisbati va jarayon haroratiga bog'liqidir. Fosforitlardan ammofosfat ishlab chiqarish blok-sxemasi 3.13-rasmida tasvirlangan.



**3.13-rasm.** Ammofosfat ishlab chiqarish blok-sxemasi

Ammofosfat bo'tqasi qovushqoqlik xossalari kislotali parchalashga beriladigan fosfat miqdorini belgilaydigan omillardan biri hisoblanadi. Ikkilamchi fosfat miqdorini cheklaydigan ikkinchi omil olinadigan o'g'itning agrokimyoviy xossalari hisoblanadi. 3.3-jadvalda parchalashning 2-bosqichiga beriladigan fosfat miqdorlari ko'rsatilgan.

### 3.3-jadval

#### **Parchalashning 2-bosqichiga beriladigan fosfat me'yirlari (mahsulotdagi $P_2O_5$ umumiy miqdoriga nisbatan % hisobida)**

Fosfatni parchalash uchun ishlataladigan kislota		2-bosqichiga beriladigan fosfat	
boshlang'ich xomashyo	konsentratsiyasi, % $P_2O_5$	fosfat turi	me'yori
Apatit	52	Apatit	10-12
Apatit	52	Fosforit flotokonsentrati	15-18
Apatit	29	Fosforit flotokonsentrati	15-18
Fosforit	20	Fosforit	10-12
Fosforit	20	Fosforit	15-18

Belgilangan texnik shartlarga muvofiq, mahsulot tarkibida: 38-39 %  $P_2O_{5\text{sumum}}$ , 20-21 %  $P_2O_{5\text{s.e.}}$ , 4-5 % N va 2 % dan kam suv bo'ladi. 1 t  $P_2O_5$  hisobida ammofosfat ishlab chiqarishdagi fosfat kislota sarfi ammofosdagiga qaraganda kam bo'ladi, chunki ammofosfatdagi bir qism  $P_2O_5$  to'g'ridan to'g'ri fosforit unidan o'tadi.

### **3-§. Ammoniy polifosfatlari ishlab chiqarish usullari va asosiy uskunalarini**

Degidratlangan ammoniy fosfatlari – poli- va metafosfatlarning o'g'it sifatida ishlab chiqarilishi undagi ozuqa elementlarining ammoniy fosfatlaridagiga nisbatan ko'pligi sababli rivojlanib bormoqda. Olinish sharoitiga bog'liq holatda ular tarkibida 53-70 %  $P_2O_5$  va 13-30 %  $NH_3$  bo'ladi hamda ular suyuq va qattiq kompleks o'g'itlar ishlab chiqarishda qo'llanilishi mumkin. Degidratlangan ammoniy fosfatlar odatda orto-  $[(NH_4)_nH_{3-n}PO_4]$ , diorto-  $[(NH_4)_nH_{4-n}P_2O_7]$ ,

tripoli-  $[(\text{NH}_4)_n\text{H}_{5-n}\text{P}_3\text{O}_{10}]$ , meta-  $[(\text{NH}_4\text{PO}_3)_n]$  va boshqa kondensirlangan shakllar ko'rinishida bo'lib, ular amalda to'la o'simliklarga o'zlashadi. Ular o'zining agrokimyoviy samadarligi bo'yicha ammoniy ortofosfatlaridan qolishmaydi. Ammoniy polifosatlari gigroskopikligi kam va yetarlicha barqarordir,  $100^{\circ}\text{C}$  gacha qizdirilganda ulardan ammiak ajralmaydi.

Ammoniy polifosatlari:

1) yuqori haroratda orto- va polifosfat kislotalarni ammoniylashtirish;


2) ammoniy ortofosfatlarini degidratlash;

3)  $\text{P}_2\text{O}_5$  ni ammiak bilan ta'sirlashishi natijasida olinishi mumkin. Masalan, superfosfat kislotasining  $0,3\text{-}0,7 \text{ MPa}$  bosim ostida yuqori haroratli ( $200^{\circ}\text{C}$ ) ammoniylashtirilishidan suyuqlanma hosil qilinadi, u orto-, diorto-, tripoli- va boshqa ammoniy polifosatlardan iborat. Donadorlangan mahsulot tarkibida: 80 % gacha o'zlashadigan N +  $\text{P}_2\text{O}_5$  ( $\sim 60 \% \text{ P}_2\text{O}_5$  va 17-20 % N) bo'ladi. Mahsulot tarkibi ammoniylashtirish bosimiga bog'liqdir. Atmosfera bosimida, tarkibida: 61-64 %  $\text{P}_2\text{O}_5$  va 13-15 %  $\text{NH}_3$  tutgan,  $1 \text{ MPa}$  bosimda esa – 55-57 %  $\text{P}_2\text{O}_5$  va 27-28 %  $\text{NH}_3$  tutgan, ya'ni yaxshi N: $\text{P}_2\text{O}_5$  nisbatiga ega bo'lgan mahsulotlar olinadi. Oldindan  $110\text{-}120^{\circ}\text{C}$  gacha qizdirilgan termik yoki bug'latilgan (51-58 %  $\text{P}_2\text{O}_5$  li) ekstraksion fosfat kislutaning  $180\text{-}210^{\circ}\text{C}$  da qizdiriladigan reaktorlarda ammoniylashtirilishidan ham tarkibida:  $\sim 13 \% \text{ N}$  va 60-63 %  $\text{P}_2\text{O}_5$ , undan absolyut 35-36 % (nisbiy 57-58 %) kondensirlangan shakldagi  $\text{P}_2\text{O}_5$  tutgan ammoniy polifosfat suyuqlanmalari olinishi mumkin. Bu suyuqlanmalar anchagina mustahkam ( $6,7\text{-}9,3 \text{ MPa}$ ) va nisbatan oz gigroskopiklikka ega bo'lgan donachalar hosil qiladi.

Shunga o'xshash mahsulotlar ammoniy ortofosfatlarini yuqori haroratli ( $250\text{-}350^{\circ}\text{C}$ ) degidratatsiyalash orqali ham olinadi. Bunda ularning dissotsiyalanishi natijasida ammiakni yo'qotilishini oldini olish maqsadida jarayon ammiak atmosferasida va yuqori bosimda amalga oshiriladi. Shuningdek qo'shimchalar, masalan ammoniy nitrat qo'shish ham foydadan holi emas.

**Polifosfat kislotalar asosida ammoniy polifosfatlari ishlab chiqarish.** Xomashyo sifatida ekstraksion va termik polifosfat kislotalar ishlatiladi (3.14-rasm).

Ammoniylashtirish jarayonida ajraladigan ammiakni tutib qolish uchun kislota dastlab skrubberga beriladi. Kislotani ammoniylashtirish ikki bosqichda birin-ketin joylashgan (5) va (7) reaktorlarda o'tkaziladi. Haroratni belgilangan darajada ushlab turish uchun reaktor (7) ichkisovutgichda aylanadigan suv bilan sovutiladi. Ammoniyashgan suyuqlanma ikki valli kurakchali donadorlagich (9) ga kelib tushadi, u yerga shuningdek, retur ham kiritiladi. Donador tayyor mahsulot sovutgich (10) da sovutiladi, elanadi va belgilangan o'lchamdag'i mahsulot ajratiladi.



**3.14-rasm.** Polifosfat kislotalari asosida ammoniy polifosfatlari olish sxemasi: 1-polifosfat kislota ombori; 2-nasos; 3-bak; 4-skrubber; 5,7-reaktorlar; 6-ta'minlagich nasos; 8-bunker; 9-donadorlagich; 10-barabanli sovutgich; 11-tegirmon; 12-elak

3.4-jadvalda ishlab chiqarishning maqbul texnologik parametrlari keltirilgan.


Tayyor mahsulot tarkibida: 60-61 %  $P_2O_{5\text{sumum}}$ , 24-29 %  $P_2O_{5\text{orto}}$ , 13-14 % N bo'ladi.  $P_2O_{50\cdot\text{zl}}$  retrogradatsiyasi 1,5 %,  $P_2O_{5\text{s.e}}$  bo'yicha esa 2 % dan oshmaydi.

**Ortofosfat kislota asosida ammoniy polifosfatlari ishlab chiqarish.** Boshlang'ich xomashyo sifatida ortofosfat kislota ishlatilganda kerakli issiqlik boshlang'ich reagentlarni qizdirilishi hisobiga, shuningdek kam energiya yo'qotilishi bilan ishlaydigan tezkor ixcham neytrallash jihozlarida o'tkazilishi hisobiga amalga oshiriladi (3.15-rasm). Shunday jihozlar sifatida tezkor oqimli reaktorlar ishlatiladi (3.16-rasm). 180-220°C haroratdagi neytrallash jarayonida ammoniy polifosfatlarning degidratatsiyasi talab etilgan konversiya darajagacha sodir bo'ladi.


### 3.4-jadval

#### Ammoniy polifosfatlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkich miqdorlari
Kislota konsentratsiyasi, % P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	70
Harorat, °C:	
1-reaktorda	100-115
2-reaktorda	180-200
suyuqlanma donadorlashga kirishda shixta donadorlashdan chiqishda mahsulot sovutilgandan so'ng	180-200 55-60 30-35
Suyuqlanma pH qiymati:	
1-reaktorda	0,8-1,1
2-reaktorda	7,0-7,5
Retur soni	1:7



**3.15-rasm.** Ortofosfat kislota asosida ammoniy polifosfatlari olish sxemasi: 1-birinchi bosqich reaktori; 2- ikkinchi bosqich reaktori; 3-T-simon reaktor; 4-donadorlagich; 5-sovutgich; 6-elak; 7-tegirmon



**3.16-rasm.** Tezkor oqimli reaktor

Ortofosfat kislota qizdiriladi va birinchi bosqich reaktorga beriladi, u yerda ammoniylashtirishda ajraladigan ammiakning ushlab qolinishi sodir bo'ladi. Qisman ammoniylangan kislota T-simon reaktorga yuboriladi, u yerda oldindan qizdirilgan gaz holatdagi ammiak bilan ammoniylashtirishning asosiy jayroni amalga oshiriladi. Suyuqlanma va bug'-gaz aralashmasi ikkinchi bosqich reaktoriga kelib tushadi, u yerda suyuq va gaz fazalar ajratiladi. Chiqindi gazlari birinchi bosqich reaktorda tozalanadi, suyuqlanma esa kurakchali donadorlagichiga beriladi. Donador tayyor mahsulot sovutgichda sovutiladi, maydalaniadi, elanadi va omborga yuboriladi.

Jarayonning texnologik ko'rsatkichlari: kislota konsentratsiyasi 52 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>; kislota harorati 145°C, ammiak harorati 150°C, T-simon reaktordagi harorat 258°C. Mahsulot tarkibida 11,3 % N; 58,6 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub><sub>sumum</sub>, 30,6 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub><sub>orto</sub>- bo'ladi.

Tezkor oqimli reaktorning ishlash prinsipi kislota oqimining gaz holatdagi yuqori tezikdagi (100 m/s) ammiak bilan jadal aralashishiga asoslangan. Jihozning afzalligi – uning soddaligi, ta'sirlashish hajmining kichikligi, issiqlik yo'qotilishining kamligi; kamchiligi – kamera ishchi qismida korroziyalı yemirilishidir.

#### **4-§. Ammoniy sulfatfosfat o'g'iti ishlab chiqarish**

**Ammoniy sulfatfosfat o'g'iti ishlab chiqarish.** Ammoniy sulfatfosfat o'g'iti digidrat usulida olingen ekstraksion fosfat kislotasini ( $P_2O_5=18-20\%$ ) va 98,5 % konsentratsiyali sulfat kislotasini turli xil nisbatda aralashtirish, hosil qilingan

aralashmani ammiak bilan neytrallash, bug'latish, donadorlash va quritish natijasida olinadi.

Ekstraksion fosfat va sulfat kislotalarni aralashtirish jarayonida sulfat kislota miqdori ortishi bilan aralashmaning zichligi va qovushqoqligi ortadi.

Aralashmaning quyuqlashib qolishini oldini olish maqsadida unga ma'lum miqdorda suv qo'shiladi. Suv qo'shmagan holda ekstraksion fosfat kislota va sulfat kislota aralashmasini pH 4,3-4,8 gacha neytrallanganda ammoniy sulfat kristallari hosil bo'lib, qattiq faza cho'kmaga tushadi va aralashma quyuqlashadi, natijada navbatdagi jarayonlar murakkablashadi. Kislotalar aralashmasida bog'lanmagan sulfat kislota miqdori 30 % ga yetgunga qadar aralashma quyuqlashmaydi va texnologik jarayon uchun qulay bo'lgan reologik xossaga ega bo'ladi.

Ammoniy sulfatfosfat ishlab chiqarish texnologiyasi quyidagi asosiy bosqichlardan iboratdir:

- ekstraksion fosfat kislotasi va nordon oqava suv bilan sulfat kislotasini suyultirish va ma'lum nisbatdagi aralashmani tayyorlash;

- aralashmani gaz holatidagi ammiak bilan neytrallash;


- eritmani barabanli donadorlagich-quritgichda donadorlash va quritish.

Ammoniy sulfatfosfat o'g'iti ishlab chiqarishning prinsipial texnologik sxemasi 3.17-rasmida keltirilgan.

Texnologiyada sulfat kislotasini ekstraksion fosfat kislotasi va nordon oqava suvda suyultiriladi hamda gaz holatidagi ammiak bilan neytrallananadi. Suyultirish va aralashmani neytrallash jarayoni bitta uskuna – ekstraktorda olib boriladi. Bu esa o'z navbatida suyultirish va neytrallash jarayonida aralashma haroratinining 100°C dan oshmasligini ta'minlaydi. Haroratni oshishi suvni qo'shimcha bug'lanishiga, aralashma konsentratsiyasining oshishiga va ammoniy sulfat kristallarining hosil bo'lishiga olib keladi.

Bu esa texnologiyada aralashmani tashish, purkash va donadorlash jarayonida qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Maqbul sharoitda aralashma tarkibida 43-50 % suv bo'lib, u barabanli donadorlagich-quritgichga beriladi va tayyor


mahsulot – ammoniy sulfatfosfat o'g'iti olinadi. Ushbu o'g'itlarga qo'yilgan barcha talablar va ularning fizik-kimyoviy ko'rsatgichlari 3.5-jadvalda keltirilgan.



**3.17-rasm.** Ammoniy sulfatfosfat o'g'iti ishlab chiqarishning prinsipial texnologik sxemasi.

Ammoniy sulfatfosfatni tarkibidagi azot va fosforning nisbatlariga qarab 3 xil marka va 6 xil navda ishlab chiqarish texnologiyasi sanoat miqyosida o'zlashtirilgan va TSh 6-12:2006 texnik sharti talablari bo'yicha ishlab chiqarilmoqda. Ammoniy sulfatfosfatni A markasi oliy navi tarkibida 24 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> va 15 % N bo'ladi. Mahsulot donalarining statistik mustahkamligi 56,4 kg/sm<sup>2</sup> yoki 5,6 MPa.

3.18-rasmida esa A navli ammoniy sulfatfosfatini moddiy balansi keltirilgan.




**3.18-rasm.** A navili ammoniy sulfatfosfat o'g'itini olish moddiy balansi

**TSh 6-12:2006 texnik sharti bo'yicha ammoniy sulfatfosfatga  
qo'yilgan talablar va uning fizik-kimyoviy ko'rsatgichlari**

Ko'rsatkichning nomlanishi	A marka me'yori		B marka me'yori		V marka me'yori	
	Oliy nav	1 nav	Oliy nav	1 nav	Oliy nav	1 nav
1. Umumiy fosfatlarning massa ulushi, %	23±1	20±1	17±1	15±1	7±1	4±1
2. Suvda eruvchan fosfatning umumiy fosfatga nisbati, ko'pi bilan, %	50	50	50	50	50	50
3. Umumiy azotning massa ulushi, %	15±1	16±1	17±1	18±1	18±1	19±1
4. Suvning massa ulushi, ko'pi bilan, %	2,0	2,0	2,0	2,0	1,0	1,0
5. Donadorlik tarkibi: O'lchamlar bo'yicha donalar massa ulushi: 1 dan 4 mm gacha, kam emas, % 6 mm dan katta, ko'p emas, %	80 yo'q	80 yo'q	80 yo'q	80 yo'q	80 yo'q	80 yo'q
6. Donalarning statik mustahkamligi, kam emas, MPa (KP <sub>a</sub> /sm <sup>2</sup> )	3,0 (30)	3,0 (30)	3,0 (30)	3,0 (30)	3,0 (30)	3,0 (30)
7. Sochiluvchanlik, %	100	100	100	100	100	100

### 5-§. Suprefos ishlab chiqarish

**Suprefos ishlab chiqarish fizik-kimyoviy asoslari.** Suprefos o'g'iti olish texnologiyasi quyidagi reaksiyaga asoslangan:



Ushbu reaksiya bo'yicha ekstraksion bo'tqa tarkibidan ekstraksion fosfat kislota va fosfogipsni alohida-alohida ajratmasdan, fosfogipsni ammoniy fosfatlari (mono- va diammoniy fosfat tuzlari) yordamida konversiya qilinib dikalsiyfosfat va ammoniy sulfat olishga asoslangan. Bu esa fosfogipsni qayta ishlashning istiqbolli yo'naliishlaridan biridir.

Konversiya jarayonida boradigan reaksiyalarning to'g'ri va teskari yo'naliishlari bo'yicha 25-100°C oralig'ida termodynamik tahlil o'tkazilgan va tasirlashuvni keltirilgan harorat oralig'ida faqat to'g'ri reaksiya bo'yicha borishi mumkinligi

aniqlangan. Gipsni ammoniy fosfat bilan konversiya qilish jarayonini o'rganish uchun  $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot \text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O} \cdot \text{H}_2\text{O}$ ,  $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4 \cdot \text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O} \cdot \text{H}_2\text{O}$  va  $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \cdot (\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4 \cdot \text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O} \cdot \text{H}_2\text{O}$  sistemalari komponentlarning turli xil mollar nisbatida va haroratida hamda ammoniy fosfatni ikki suvli gips bilan suvli sistemalari komponentlarining turli xil mollar nisbatida o'rganilgan.

Nazariy tadqiqotlar natijasi tahlilidan ma'lumki, gipsni yuqori konversiya darajasi (91-94 %) ga pH=4,5 da 70°C harorat va komponentlar nisbatlari  $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 : (\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4 : \text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O} = 1:1:1$  bo'lganda erishilgan. Haroratni oshirish konversiya darajasini kamayishiga, pH ning ortishi esa konversiya darajasini ko'tarilishiga olib keladi. Konversiya jarayoni davomiyligi 60 minut, pH=6-8 va harorat 60-80°C bo'lib, ushbu maqbul sharoitlarda konversiya darajasi 95-99 % ni tashkil etadi. 60°C harorat va pH=8,5 da gips to'liq konversiyalanadi. Olingan azot-fosfor-oltingugurt-kalsiyili o'g'it tarkibida  $\text{P}_2\text{O}_{5\text{sumum}} = 23\%$ ,  $\text{P}_2\text{O}_{5\text{o'zl}} = 21,0\%$ ,  $\text{CaO}_{\text{umum}} = 17,70\%$ ,  $\text{CaO}_{\text{o'zl}} = 17,50\%$ ,  $\text{SO}_{3\text{sumum}} = 26,60\%$ ,  $\text{SO}_{3\text{s.e.}} = 26,50\%$ ,  $\text{N} = 12,80\%$  bo'ladi. Fosfat kislotali gips bo'tqasini pH=8,0 gacha neytrallaganda gipsning konversiya darajasi mahsulotning A navida 99,80 %, B navida 92,40 %, V navida 79,60 % va G navida 86,10 % ni tashkil etadi.

**Suprefos ishlab chiqarish texnologiyasi.** Suprefos ishlab chiqarish texnologiyasi quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

- fosforit xomashyosini sulfat kislotosi va aylanma ekstraksion fosfat kislotosi yordamida digidrat usulida parchalash;


- fosfat kislotali bo'tqani ikki qismga ajratish, uning bir qismini filtrlash hamda ekstraksion fosfat kislotosi va fosfogipsga ajratish;

- bo'tqaning ikkinchi qismini gaz holatidagi ammiak bilan neytrallash va gipsni ammoniy fosfat bilan konversiyalash;

- konversiyalangan bo'tqani barabanli donadorlagich-quritgichda tayyor mahsulotga aylantirish.


Yuvib kuydirilgan fosforit konsentratidan suprefos ishlab chiqarish texnologiyasi 3.19-rasmida keltirilgan.

Dastlab yuvib kuydirilgan fosforit konsentrati ( $P_2O_5=28-30\%$ ,  $CaO=54-56\%$  va  $CO_2=2-4\%$ ) digidrat usulida ekstraktorda sulfat kislota va aylanma ekstraksion fosfat kislotasiga bilan parchalanadi. Keyin bir qism nordon bo'tqa karusel vakuum filtrga yo'naltirilib, fosfogips va ekstraksion fosfat kislotasiga ajratiladi. Ekstraksion fosfat kislotasiga ekstraktorga qaytariladi. Bir qism fosfogipsni bo'tqadan chiqarib yuborilishiga sabab, fosforitni sulfat kislotasiga bilan parchalashda, ya'ni quyidagi reaksiya bo'yicha:




5 mol gipsga 3 mol ekstraksion fosfat kislotasiga yoki ammiak bilan neytrallagandan so'ng 3 mol diammoniyfosfat hosil bo'ladi. Gipsni to'liq konversiya qilish uchun gips va diammoniyfosfatlari 1:1 nisbatda bo'lishi kerak. Shu sababli 2 mol gips sistemadan chiqariladi.

Ikkinchchi qism ekstraksion bo'tqa saturatorga yo'naltiriladi va ammiak bilan  $pH=7,5-8,0$  gacha neytrallanadi. Ammoniylashgan bo'tqa barabanli donadorlagich-quritgichda quritiladi va tayyor mahsulot – suprefos o'g'iti olinadi.



**3.19-rasm.** Markaziy Qizilqumning yuvib kuydirilgan fosforit konsentratidan suprefos o'g'iti ishlab chiqarishning prinsipial texnologik sxemasi.

Markaziy Qizilqumning yuvib quritilgan fosforit konsentratidan suprefos o'g'iti ishlab chiqarishning prinsipial texnologik sxemasi 3.20-rasmida keltirilgan.



**3.20-rasm.** Markaziy Qizilqumni yuvib quritilgan fosforit konsentratidan suprefos o'g'iti ishlab chiqarishning prinsipial texnologik sxemasi.

Dastlab yuvib quritilgan fosforit konsentrati ( $P_2O_5=19-21\%$ ,  $CaO=45-48\%$  va  $CO_2=10-12\%$ ) digidrat usulida sulfat kislota va aylanma ekstraksion fosfat kislota bilan parchalanadi va nordon bo'tqa yuqorida keltirilgan texnologiyadan farqli ravishda to'g'ri saturatorga beriladi. Ekstraktorda fosforitni parchalash jarayonida ekstraksion bo'tqa tarkibidagi fosfogips va ekstraksion fosfat kislotasi nisbatlari  $NH_4H_2PO_4:(NH_4)_2HPO_4:CaSO_4 \cdot 2H_2O = 1:1:1$  bo'lgan maqbul sharoitga keltiriladi. Saturatorda nordon bo'tqa nordon oqava suv bilan maqbul reologik xossaga keltirib olinadi va gaz holatidagi ammiak bilan  $pH=7-8$  gacha neytrallangan. Barabanli donadorlagich-quritgichda neytrallangan bo'tqadan tayyor mahsulot olinadi.


Suprefos o‘g‘iti o‘simlik tomonidan o‘zlashtiriluvchan shakldagi bir necha ozuqa komponentlaridan (azot, fosfor, oltingugurt, kalsiy va magniy tuzlari) tarkib topgan murakkab o‘g‘it bo‘lib, tarkibida o‘rtacha 45 % gacha dikalsiyfosfat, 35 % gacha ammoniy sulfat va 10-15 % mono- va diammoniy-fosfat bo‘ladi. Ushbu murakkab o‘g‘it suprefos nomi bilan TSh 6-12:2006 texnik sharti talablari bo‘yicha 4 xil markada ishlab chiqarilmogda. Suprefos o‘g‘itiga qo‘yilgan barcha talablар va fizik-kimyoviy ko‘rsatgichlar 3.6-jadvalda keltirilgan.

### 3.6- jadval

#### TSh 6-12:2006 texnik shart bo‘yicha suprefos o‘g‘itiga qo‘yilgan talablар va uning fizik-kimyoviy ko‘rsatgichlari

Ko‘rsatkichning nomlanishi	Markalar me’yori			
	A	B	V	G
1. Ozuqa komponentlar miqdori, kam emas, %	75	67	65	60
2. Fosfatlarning umumiy massa ulushi, %	24 ± 1	20 ± 1	22 ± 1	20 ± 1
3. Suvda eruvchan fosfatlarning umumiy fosfatlarga nisbati, ko‘p emas, %	25	25	25	25
4. Azotning umumiy massa ulushi, %	12 ± 1	15 ± 1	8 ± 1	10 ± 1
5. Magniyning massa ulushi, MgO hisobida, kam emas, %	0,5	1,0	2,0	2,0
6. Kalsiyning massa ulushi, CaO hisobida, kam emas, %	14	10	12	10
7. Oltingugurning massa ulushi, SO <sub>3</sub> hisobida, kam emas, %	25	22	23	21
8. Suvning massa ulushi, ko‘p emas, %	2,0	2,0	2,0	2,0
9. 1 % li eritmaning pH qiymati, kam emas, %	5,5	5,5	5,5	5,5
10. Donadorlik tarkibi: O‘lchamlar bo‘yicha donalar massa ulushi: 1 dan 4 mm gacha, kam emas, %				
1 mm dan kichik, ko‘p emas %	90	90	90	90
6 mm dan katta, ko‘p emas %	10	10	10	10
11. Donalarning statik mustahkamligi, kam emas, MPa (KPa/sm <sup>2</sup> )	yo‘q	yo‘q	yo‘q	yo‘q
12. Sochiluvchanlik, %	3,0(30)	3,0(30)	3,0(30)	3,0(30)
	100	100	100	100

Yuvib quritilgan fosforit konsentratidan suprefos o‘g‘itining A markasini ishlab chiqarish moddiy balansi 3.21-rasmida keltirilgan.



**3.21-rasm.** A markali suprefos o'g'iti ishlab chiqarish moddiy balansi.



## 6-§. Nitrokalsiyfosfat ishlab chiqarish

**Nitrokalsiyfosfat ishlab chiqarishning fizik-kimyoviy asoslari.** Nitrokalsiyfosfat fosfatli xomashyoni nitrat kislota bilan parchalash va so'ngra olingan bo'tqani ammiak bilan neytrallash orqali olinadi.

Qizilqum fosforitlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri fosforit tarkibida karbonatlar ( $\text{CaCO}_3$ ) miqdorining ko'pligidir, ya'ni Qizilqum fosforitlari yuqori karbonatli fosforitlar turiga kiradi.



Qizilqum fosforitlari yetarli bo'lмаган me'yordagi nitrat kislota bilan parchalanganda tabiiy fosfat tarkibidagi kalsiy fosfatning o'rta tuzlari nordon tuzlarga aylanadi,  $\text{Ca}^{2+}$  ionlarining bir qismi esa nitrat ionlari bilan bog'lanadi va kalsiy nitrat hosil qiladi.

Parchalanish jarayonida quyidagi asosiy reaksiyalar sodir bo'ladi:



Nitrat kislota yetarlicha me'yorda bo'lмаганligi sababli fosforit parchalanishidan erkin  $\text{H}_3\text{PO}_4$  hosil bo'lmaydi.

Fosfatli xomashyolar, xususan, fosforitlar tarkibidagi kalsiy va magniy karbonatlari nitrat kislotada parchalanganda tegishli nitratlar va karbonat angidrid hosil qiladi:




Ajralib chiqadigan karbonat angidrid boshlang'ich xomashyo tarkibidagi organik moddalar ishtirokida ko'pik hosil qiladi, bu esa texnologik jarayonda ayrim qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi hamda uni bartaraf etish uchun to'g'ri yechim va texnologik o'zgarishlar qilishni talab etadi.

Fosfatli ruda tarkibidagi karbonatli qo'shimchalar – kalsit, dolomit – ularni parchalash jarayonida qo'shimcha miqdorda nitrat kislota sarflashga olib keladi. Kalsit va dolomitlar parchalanganda qo'shimcha miqdorda kalsiy nitrat hosil qiladi, u nitrokalsiyfosfat hajmini oshiradi hamda mahsulot-

dagi  $P_2O_5$  konsentratsiyasini pasaytiradi. Lekin, bu salbiy o'zgarish hisoblanmaydi, chunki kalsiy nitratning o'zi ham azotli o'g'itlar qatoriga kiradi.

Fosfatlar parchalanganda ular tarkibidagi temir va aluminiy suvda amalda erimaydigan va o'simliklarga sekin o'zlashadigan fosfatli tuzlarga aylanadi:



Aluminiy fosfatlari temir fosfatga nisbatan yaxshiroq eriydi va kislotalilik kam bo'lganda qattiq fazaga cho'kadi.

Tabiiy fosfatlar nitrat kislota bilan parchalanganda gaz fazasiga vodorod ftorid ajraladi. Nitrokalsiyfosfat olishda xomashyodagi barcha ftroring 20 % atrofida gaz fazasiga ajralishi kuzatiladi.

Fosforitlarni nitrat kislotali parchalash jarayonlarini shartli ravishda bir qator parallel boradigan reaksiyalarga ajratish mumkin:

–yuqori tezlik bilan boradigan fosfatli xomashyo tarkibidagi karbonatlarning parchalanishi:



fosforit nitrat kislota bilan aralashtirilganda birinchi navbatda karbonatlar kislota bilan ta'sirlashadi;

–fosfatli xomashyoning fosfatli qismining fosfatli tuzlar hosil qilishi bilan parchalanishi;

–nitrokalsiyfosfat bo'tqasi tarkibidagi erkin kislotalilikni neytrallash – ammiak gazi bilan ammoniylashtirish:



### **Nitrokalsiyfosfat ishlab chiqarish texnologiyasi.**

Nitrokalsiyfosfat o'g'iti ishlab chiqarish texnologik jarayonlari quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

–fosfatli xomashyoni qabul qilish, saqlash va tashish;


–nitrat kislotani qabul qilish va saqlash;

–fosforit unini konsentrланмаган nitrat kislotada nitrokalsiyfosfat bo'tqasi olish yo'li bilan parchalash;

–nitrokalsiyfosfat bo'tqasini bug'latish;


–bug'latilgan bo'tqani ammiak gazi bilan neytrallash va neytrallangan bo'tqani donadorlash;

–tayyor mahsulotni quritish;



**3.22-rasm.** Nitrokalsiyofosfat ishlab chiqarish moddiy balansi.

- olingen mahsulotni fraksiyalarga ajratish va yirik fraksiyani maydalash;
- fosfatli xomashyoni parchalashdan hosil bo‘ladigan gazlarni absorbsiyalash;
- donadorlash va quritish jarayonlaridagi gazlarni tozalash;
- santexnik tozalash;
- tayyor mahsulotni qadoqlash va omborga joylashtirish.



**3.23-rasm.** Mahsulot birligi uchun nitrokalsiyfosfat olish balans sxemasi.

**Nitrokalsiyfosfat ishlab chiqarishning moddiy balansi.**  
Nitrokalsiyfosfat ishlab chiqarish jarayonining moddiy balansi va mahsulot birligi uchun balans sxemasi 3.22- va 3.23-rasmlarda ko'rsatilgan.

Nitrat kislotaning past me'yorida fosforit kukunidan nitrokalsiyfosfat o'g'iti olish texnologik tartibi me'yorlari 3.7-jadvalda keltirilgan.

3.7-jadval

**Nitrat kislotaning past me'yorida fosforit kukunidan nitrokalsiyfosfat o'g'iti olish texnologik tartibi me'yorlari**

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	Ko'rsatkichlar
1.	Fosfatli xomashyo sarfi (17 % P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> )	t/t tayyor mahsulot	0,765
2.	Nitrat kislotasi (100 % HNO <sub>3</sub> ) (57 % HNO <sub>3</sub> )	t/t tayyor mahsulot	0,396 0,695
3.	Ammiak (99,6 % NH <sub>3</sub> )	t/t tayyor mahsulot	0,008
4.	Texnik suv	t/t tayyor mahsulot	0,270
5.	Bug'latishga tabiiy gaz	m <sup>3</sup> /t tayyor mahsulot	16
6.	BDQga tabiiy gaz	m <sup>3</sup> /t tayyor mahsulot	24
7.	Nitrokalsiyfosfat bo'tqasi: - harorati - zichligi - pH (ammoniyashgacha) - pH (ammoniyashdan so'ng)	°C g/sm <sup>3</sup> — —	50 1,4-1,5 0,8 3,8-4,2
8.	Reaktor ichidagi vakuum	MPa	0,001- 0,002
9.	Bo'tqani ammoniyashga ammiak	MPa	0,4
10.	Bo'tqa bug'latishga	% namlik	17-40
11.	Bo'tqa bug'latishdan so'ng	% namlik	20
12.	Yoqilg'i gazlari harorati: - BDQga kirishda - BDQdan chiqishda	°C °C	300-350 90-110
13.	BDQni qizdirishga tabiiy gaz	MPa	0,14
14.	Retur qaytarligi	1 massa qism mahsulotga massa qism	1:5
15.	Tayyor mahsulot:		

1. Suvning massa ulushi	%	1,0
2. O'chamli donachalar massa qismi:	%	10
— 1 mm dan kichik, ko'p emas	%	90
— 1-4 mm li, kam emas	%	100
3. Sepilishi	t/m <sup>3</sup>	1,18
4. To'kma (uyma) zichligi		

### Nazorat uchun savollar

1. Ammoniy fosfatlarining xossalari ayting.
2. Ammoniy fosfatlar va ammofos ishlab chiqarishning fizik-kimyoviy xususiyatlarini tushuntiring.
3. Diammoniyfosfat ishlab chiqarish usulini tushuntiring.
4. Monoammoniyfosfat ishlab chiqarish usulini tushuntiring.
5. Sanoatda ammofos qanday texnologik sxemalar asosida ishlab chiqariladi?
6. Changlatgichli quritgichda ammofos ishlab chiqarish sxemasini tushuntiring.
7. Ammofos suspenziyasini bug'latish va donadorlash orqali ammofos ishlab chiqarish sxemasini tushuntiring.
8. Tezkor ammoniylashtiruvchi bug'latgichning tuzilishi va ishslash prinsipini tushuntiring.
9. Ammoniylashtiruvchi donadorlagichning tuzilishi va ishslash prinsipini tushuntiring.
10. Ammoniylashtiruvchi donadorlagich jihozisi bilan donadorlangan ammofos olish sxemasini tushuntiring.
11. Donadorlangan diammofos nima?

## **IV bob. AZOT-FOSFOR-KALIYLI MURAKKAB O'G'ITLAR ISHLAB CHIQARISH NAZARIYASI VA TEXNOLOGIK HISOBLARI**

---

O'g'itdagi ta'sir etuvchi moddalar turi va konsentratsiyasi qanchalik ko'p bo'lsa, ular shunchalik ahamiyatli bo'ladi. Turli ekinlar, tuproqlar, iqlim va boshqa sharoitlar uchun azot, fosfor va kaliyning miqdori va nisbati har xil bo'lgan murakab o'g'itlar talab etiladi. Ular N:P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>:K<sub>2</sub>O massalari nisbati bilan tavsiflanadi, masalan 1:1,5:0,5. Bunda ta'sir etuvchi moddalarning umumiy miqdori tarzida ham ifodalanishi mumkin, masalan N+P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>+K<sub>2</sub>O = 36 %; ayrim hollarda N:P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>:K<sub>2</sub>O ning massa bo'yicha foiz nisbati, masalan 12:18:6 yoki 12-18-6 shaklida ifodalanishi mumkin, bu sonlarning umumiy yig'indisi o'g'itdagи ta'sir etuvchi moddalarning umumiy miqdorini ko'rsatadi.

Uch komponentli 1:1:1; 1:1,5:1; 1:1:0,5; 1:1:1,5; 1:0,67:0,67 va ikki komponentli 1:4:0; 1:1:0; 0:1:1; 0:1:1,5 markali o'g'itlar eng ko'p ishlatiladi.

### **1-§. Nitroammofoska va karboammofoska ishlab chiqarish nazariyasi va texnologik hisoblari**

Oldinroq ta'kidlab o'tilganidek, ammoniy fosfatlari asosida NP-o'g'itlari olinadi, ulardagi N:P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> nisbati 1:2,5 dan 1:4 gacha o'zgaradi. Mahsulot donachalaridagi azot miqdori yuqori bo'lgan o'g'itlar olish maqsadida ammoniy fosfatlariga azot tutgan komponentlar, masalan ammoniy nitrat yoki karbamid qo'shiladi.

**Mahsulot turlari va xossalari.** Agar fosfatli komponent sifatida monoammoniyfosfat ishlatilgan bo'lsa, olingan mahsulot nitroammofos, diammoniyfosfat ishlatilgan bo'lsa nitrodiammofos nomi bilan yuritiladi. Tarikibidagi P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> ning bir qismi kondensirlangan shaklda bo'lsa, nitroammopolifosfatlar nomi bilan ataladi. Tarkibida kaliy tutgan komponentlar

(aniqrog'i kaliy xlorid) kiritilganda turli xillardagi nitroammofoskalar olinadi. Ayrim hollarda esa azot tutgan komponent sifatida karbamid ishlataladi. Bunda olinadigan mahsulot karboammofos (karboammofoska) nomi bilan ataladi. Ammo azotning amidli shakli samaradorligiga qaramasdan bunday sxemalardan keng qo'llanilmaydi.

Bu yerda asosiy e'tibor nitroammofos (nitroammofoska) texnologiyasiga qaratiladi. Nitroammofos va nitroammofoskaning tarkibi 4.1-jadvalda keltirilgan.

#### 4.1-jadval

#### Nitroammofos va nitroammofoskaning tarkibi (apatitdan olingan kislota asosida)


Komponentlar nisbati		Tarkibi, %			
mahsulotda N:P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> :K <sub>2</sub> O	boshlang'ich aralashmada NH <sub>4</sub> NO <sub>3</sub> :NH <sub>4</sub> H <sub>2</sub> PO <sub>4</sub> :KCl	N umum.	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> umum.	K <sub>2</sub> O	Σ
Nitroammofos					
1:0,8:0	65:35:0	27,1	21,6	0	48,7
1:1:0	59:41:0	25,6	25,6	0	51,2
1:1,5:0	45:55:0	22,5	33,8	0	56,3
1:2,2:0	30:70:0	19,0	43,1	0	62,1
Nitroammofoska					
1:0,67:0,67	54:23:23	21,6	14,5	14,5	50,6
1:1:1	42:29:29	18,2	18,2	18,2	54,6
1:1,5:1	34:40:26	16,6	24,9	16,6	58,1
1:1,5:1,5	30:35:35	14,7	22,2	22,2	59,1

NH<sub>4</sub>NO<sub>3</sub>-NH<sub>4</sub>H<sub>2</sub>PO<sub>4</sub>-H<sub>2</sub>O sistemasining eruvchanligi 4.1-rasmda aks ettirilgan. Sistemadagi evtetika 12,5 % (molar) NH<sub>4</sub>H<sub>2</sub>PO<sub>4</sub> va 147,5°C haroratga muvofiq keladi, mazkur fazada NH<sub>4</sub>NO<sub>3</sub> va NH<sub>4</sub>H<sub>2</sub>PO<sub>4</sub> asosidagi qattiq eritma ham bo'ladi.

Nitroammofos suvli eritmasi bug' bosimining haroratga bog'liqligi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$\lg P = \frac{2000}{T}$$

bu yerda: A – eritmadi suv miqdoriga bog'liq holdagi koefitsiyent (4.2-jadval); T – harorat, °K.



**4.1-rasm.**  $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$  –  $\text{NH}_4\text{NO}_3$  –  $\text{H}_2\text{O}$  sistema eruvchanlik diagrammasi ( $F$  – evtetik nuqtalar;  $E_1$ ,  $E_i$  – evtonik nuqtalar)

#### 4.2-jadval

#### Nitroammosos eritmasi ustidagi suv bug'i bosimini aniqlash uchun tenglamadagi A koeffitsiyent qiymatlari

Tuzlar tarkibi, %		Eritmadagi suv miqdori, %					
$\text{NH}_2\text{NO}_3$	$\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$	35	30	20	10	5	2
–	100,0	8,11	–	–	–	–	–
30,0	70,0	8,07	8,06	–	–	–	–
50,0	50,0	8,04	8,02	7,96	7,79	7,56	7,19
58,0	42,0	8,03	8,01	7,92	7,76	7,53	7,03
70,0	30,0	8,01	7,98	7,90	7,68	7,42	7,03
90,0	10,0	7,99	7,96	7,83	7,63	7,31	6,98
100,0	–	8,18	8,17	8,16	8,13	8,09	7,58

$\text{N:P}_2\text{O}_5$  nisbati 1:1 bo'lganda nitroammosos suyuqlanmasining zichligi harorat bilan quyidagicha bog'liq bo'ladi:

$$p = 3938 - 10881 \lg t$$

Nitroammosos suyuqlanmasining qovushqoqligi  $160$ - $180^\circ\text{C}$  harorat inervalida faqatgina toza tuzlar (k.t.) uchun o'rganilgan. Asosiy natijalar 4.3-jadvalda keltirilgan.

Nitroammosos va nitroammososka universal o'g'it bo'lib, u barcha turdag'i o'simliklar uchun ishlataladi. Iste'molchiga yuborishdan oldin nitroammosos va nitroammososkaning

gigroskopikligi va yopishqoqligini kamaytirish uchun konditsionirlanishi zarur bo‘ladi.

#### 4.3-jadval

#### Nitroammos suyuqlanmasining qovushqoqligi (MPa·s)

Harorat, °C	Aralashmadagi N:P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> nisbatasi		
	1:1	1:0,8	1:0,5
180	9,4	9,2	7,7
175	9,5	9,3	7,9
170	9,8	9,6	8,0
165	10,7	10,1	8,3
160	—	10,8	8,3

Bunday o‘g‘itlarning fizik-mexanik xossalari 4.4-jadvalda ifodalangan.

#### 4.4-jadval

#### Nitroammos va nitroammoskaning fizik-mexanik xossalari

N:P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> :K <sub>2</sub> O nisbatasi	Namligi, %	To‘kma zichli- gi, kg/m <sup>3</sup>	Tabiiy og‘ish burcha- gi, grad	Yopish- qoqligi, MPa	Donachalar mustahkamligi, N/donacha	
					1 mm	2 mm
1:1:0	1,48	970	56	0,50	1,1	4,0
1:1,5:2	0,30	1060	60	0,27	—	2,0
1:1:1	0,20	1000	63	0,22	8,2	35,0

Sanoatda 18-18-18 va 23-23-0 navlardagi karbamidli o‘g‘itlar ham ishlab chiqariladi. Karboammofoskaning fizik-mexanik xossalari 4.5-jadvalda ifodalangan bo‘lib, 1:1:1 tarkibli karboammofoskaning fizik-mexanik xossalari talab darajasiga javob bermaydi: gigroskopikligi yuqori, 1 %dan ortiq namlikda yopishib qoladi. Tarkibida ko‘p miqdorda azot tutgan mahsulotlarda yopishqoqlik xususiyati ortib borishi kuzatiladi. Karboammofosni (karboammofoskani) iste’mol-chiga yuborishdan oldin konditsionirlanadi.

**Ishlab chiqarishning fizik-kimyoviy asoslari.** Nitroammos texnologiyasi fosfat va nitrat kislotalar aralashmasini ammiak bilan neytrallash jarayoniga asoslangan. Kislotalar alohida-alohida neytrallanishi va suspenziyalarni aralashtirilishi yoki kislotalarni oldindan aralashtirilishi va neytrallanishi mumkin.


4.5-jadval

## 18-18-18 navdag'i karboammoskaning fizik-mexanik xossalari


Olish sxema turlari	Gigroskopiklik koeffitsienti	Namligi, %	Yopishqoqligi, %	Donachalar mustahkamligi, MPa
Changlatuvchi quritgichli sxema	14,9	0,37 1,11	0 82,0	— —
Baraban-donadorlagich jihozli sxema	4,0	0,58 1,24	0 18,8	3,8 —
Barabanli sxema: tashqi qizdirgichli	6,4	0,58 2,93	0 100	3,6 0,9
ichki qizdirgichli	6,8	0,71 1,1	7,6 16,0	3,6 3,3

Fosfat kislotani ammiak bilan neytrallash ammofos ishlab chiqarish jarayonida bayon etilgan. Nitrat kislotani ammiak bilan neytrallanganda qo'shimcha mahsulotlarsiz amalda ammoniy nitrat hosil bo'ladi. Nitrat kislotani ammiak bilan neytrallashda ajralib chiqadigan issiqlik 4.2-rasmida ifodalangan.

Reaksiya issiqligi eritmada suvni bug'latadi, bu esa ammoniy nitratning yuqori konsentratsiyali eritmasi hosil bo'lishiga olib keladi (4.3-rasm). Agar kislota konsentratsiyasi 58 %  $\text{HNO}_3$  dan ortsa, neytrallizatorda harorat keskin darajada ortadi va bu nitrat kislotaning parchalanishiga olib keladi.



**4.2-rasm.** Nitrat kislotani ammiak bilan neytrallash reaksiyasining issiqlik effekti (101,3 kPa absolyut bosim va 18°C haroratda)



**4.3-rasm.** Reaksiya issiqligidan foydalanilganda olinadigan  $\text{NH}_4\text{NO}_3$  eritmasi konsentratsiyasining reagentlar harorati turlicha bo'lganda nitrat kislota konsentratsiyasiga bog'liqligi (issiqlik yo'qotilishi 3 % atrofida deb olinadi)

Nitroammofos suyuqlanmasiga kaliy xlorid qo'shilganda sistemada almashinish reaksiyasi sodir bo'ladi. Ammoniy nitratning konversiya darajasi boshlang'ich komponentlar nisbatiga bog'liq bo'ladi (4.6-jadval).



Tarkibida karbamid tutgan kompleks o'g'itlar texnologiyasida boshlang'ich fosfat kislota yoki bo'tqaga (kislota neytallanishidan olinadigan) donadorlash bosqichida karbamid qo'shiladi. Birinchi holatda olinadigan mahsulot – karbofos, ikkinchisida olinadigan mahsulot esa – karboammofos deb ataladi.

Mahsulotlar va yarimmahsulotlarning fizik-mexanik xossalari talab darajasida bo'lмаганлиги (yuqori gigroskopikligi) tulayli sanoatda karbofosfatlar ishlab chiqarishni cheklaydi. Karbamidli shakldagi o'g'itlar dunyo miqyosida karboammofos va karboammofoska tarzida yuritiladi.

**NH<sub>4</sub>, K || NO<sub>3</sub>, H<sub>2</sub>PO<sub>4</sub>, Cl sistemadagi muvozanat bo'yicha ma'lumotlar**

Boshlang'ich aralashma tarkibi, %			Mazkur fazalar ning yo'qolish harorati	Ammoniy nitrat konversiya darajasi, %		Oxirgi aralashma tarkibi, %			
NH <sub>4</sub> NO <sub>3</sub>	NH <sub>4</sub> H <sub>2</sub> PO <sub>4</sub>	KCl		maksimal mumkin	tahlil natijasi bo'yicha	NH <sub>4</sub> NO <sub>3</sub>	NH <sub>4</sub> H <sub>2</sub> PO <sub>4</sub>	KCl	KNO <sub>3</sub>
N:P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> = 1,54:1 nisbatda									
58,1	24,9	17,0	176,5	31	30,8	40,2	24,9	12,1	22,8
59,5	25,5	15,0	162,0	27	25,0	43,5	25,5	10,7	20,3
63,0	27,0	10,0	165,0	17	14,0	52,3	27,0	7,2	13,6
65,5	28,5	5,0	166,0	8	9,0	61,1	28,5	3,7	6,7
N:P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> = 1:1 nisbatda									
48,1	34,9	17,0	176,5	38	34,0	29,9	34,9	12,2	23,0
48,7	35,3	16,0	178,0	35	33,0	31,5	35,3	11,5	21,7
N:P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> = 0,44:1 nisbatda									
26,1	60,9	13,0	183,0	53	47,0	12,2	60,9	9,3	17,6
27,0	63,0	10,0	182,8	40	36,0	16,3	63,0	7,2	13,5
28,5	66,5	5,0	186,0	19	16,0	23,1	66,5	3,7	6,7

Ammoniy fosfatlari va karbamid (va kaliy xlorid) asosidagi murakkab o'g'itlar karboammofos (karboammofoska) deb ataladi. Belgilangan tarkibdagi komponentlar aralashtirilganda quyidagi kimyoiy reaksiyalar sodir bo'ladi:




$\text{CO}(\text{NH}_2)_2 \cdot \text{NH}_4\text{Cl}$  qo'shtuzning hosil bo'lishi  $\text{CO}(\text{NH}_2)_2$  –  $\text{NH}_4\text{Cl}$  –  $\text{H}_2\text{O}$  sistemasи eruvchanligini o'rganish orqali aniqlangan va rentgenofazali tahlil natijasida tasdiqlangan. Qo'shtuz mahsulotlarning fizik-mexanik xossalariiga ta'sir ko'rsatadi, ularning yopishqoqligini oshiradi.


Qo'shtuz hosil bo'lish darajasiga boshlang'ich mahsulotlarning kontaktlanish vaqtin, harorat, suv miqdori, maydalanih darajasi ta'sir ko'rsatadi. Haroratning 115°C gacha oshirilishi, shuningdek kontaktlanish vaqtining oshirilishi qo'shtuz hosil bo'lishini kamaytiradi. Namlik 5 % bo'lganda qo'shtuz erishi

va parchalanishi aniqlangan. Sanoat sharoitida olingan karboammofoskaning tuzli tarkibi: 22,6 % KCl; 12,4 %  $\text{KH}_2\text{PO}_4$ ; 21,4 %  $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$ ; 24,3 %  $\text{CO}(\text{NH}_2)_2$ ; 0,9 %  $\text{CO}(\text{NH}_2)_2 \cdot \text{NH}_4\text{Cl}$ ; 3,8 %  $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4$ ; 0,9 %  $\text{H}_2\text{O}$  bo‘ladi. Karboammofos va karboammofoska texnologiyasining fizik-kimyoviy tahlili  $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \rightarrow \text{CO}(\text{NH}_2)_2 \rightarrow \text{H}_2\text{O}$  va  $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \rightarrow \text{CO}(\text{NH}_2)_2 \rightarrow \text{KCl} \rightarrow \text{H}_2\text{O}$  sistemalarini o‘rganishga asoslangan.

Karbamid suvli eritmada o‘z-o‘zidan izomerlanish bilan bir vaqtda gidrolizlanadi:



Karbamid gidrolizi tezlik konstantasi eritma harorati va konsentratsiyasiga, pH muhitiga, boshqa komponentlarning bo‘lishiga bog‘liq bo‘ladi. Eritma suyultirilganda va uning harorati oshirilganda gidroliz tezligi ortadi. Gidroliz tezliginинг pH muhitga bog‘liqligi 4.4-rasmida aks ettirilgan. Fosfat kislota ishtirokida gidroliz tezligi konstantasi 40 martadan ko‘p ortadi. Fosfat kislotali aralashmada  $100^\circ\text{C}$  haroratda karbamidning parchalanish darajasi 25 minutlik kontaktlanish vaqtida 5 % ni tashkil etadi. Monoammoniyfosfat ham suvli eritmada karbamidning parchalanish darajasini oshiradi va o‘simliklar uchun zararli bo‘lgan parchalanish mahsulotlarini hosil qildi. Yuqoridagi komponentlardan farqli o‘laroq kaliy xlorid karbamidning parchalanish darajasini pasaytiradi. Bunda gaz fazasiga faqatgina karbonat angidrid chiqib ketadi, ammiak esa monoammoniyfosfatga bog‘ilanadi.



**4.4-rasm.** Karbamid gidroliz tezligi konstantasining  $100^\circ\text{C}$  haroratdagи boshlang‘ich eritma pH muhitiga bog‘liqligi


**Ishlab chiqarish usullari va parametrlari.** Nitroammofos (nitroammofoska) olishning sanoatdagи usullari bir-biridan keskin farqlanmaydi va ular ikkita turga: suyuqlanmani qayta ishlashga va eritmani qayta ishlashga asoslangan usullarga bo'linadi.

*Suyuqlanmani qayta ishlashga asoslangan usullar.* Suyuqlanmani qayta ishlashga asoslangan usul kislotalar aralashmasini bирgalikda neytrallash, bo'tqani bug'latish va suyuqlanmani donadorlashni o'z ichiga oladi. Suyuqlanmani minorada donadorlash yo'li bilan nitroammofoska olish texnologik sxemasi 4.5-rasmida tasvirlangan.


Ta'minlovchi baklardan 54 %  $P_2O_5$  konsentratsiyali fosfat kislota va 47 % li nitrat kislota neytrallagichga beriladi. Kislotalar aralashmasi gaz holatidagi ammiak bilan neytrallanadi. Bunda eritma pH ko'rsatkichi 2,8-3,2 oralig'iда ushlab turiladi, eritma tarkibida faqat monoammoniyfosfat (31 % atrofida) va ammoniy nitrat (44 % atrofida) bo'ladi.

Neytrallangan va reaksiya issiqligi hisobiga qisman bug'langan 115-120°C haroratdagи 1,55 g/sm<sup>3</sup> zichlikka ega bo'lgan bo'tqa bir korpusli bug'latgich jihoziga kelib tushadi, jihozning qizdirish yuzasi 150 m<sup>2</sup>, bug' bosimi 1,2-1,5 MPa. Tarkibida 40,7 %  $NH_4H_2PO_4$ , 57,5 %  $NH_4NO_3$  va 1,8 %  $H_2O$  bo'lgan bug'latishdan olingan 170°C haroratdagи suyuqlanma donadorlash minorasi yuqori qismiga o'rnatilgan yig'gich bakka beriladi.

Shundan so'ng suyuqlanma o'z-o'zicha oqib 250-300 ayl/min tezlikda aylanadigan donadorlash qurilmasiga tushadi va undan donadorlash minorasiga o'tadi. Minoradan tushayotgan donachalar ventilyator orqali beriladigan (rasmida ko'rsatilmagan) havo oqimi bilansovutiladi. 90°C haroratdagи donachalar minora ostiga tushadi, u yerdan lentali transportyor orqali barabanga uzatiladi, u yerda 40-45°C haroratgacha Sovutiladi. Suyuqlanmadagi namlik 3,6-4,0 % dan ko'p bo'lsa, minora ostiga ko'p miqdorda donadorlanmagan mahsulot tushadi, uning sovushi natijasida massa bir-biriga yopishib qoladi. Tayyor mahsulot fraksiyasi elanadi va barabanda infuzor tuproq bilan (mahsulot massasiga nisbatan 3,5 %) kukunlanadi.



**4.5-rasm.** Suyuqlanmani minorada donadorlash yo'li bilan nitroammofoska olish texnologik sxemasi: 1,8-ta'minlovchi baklar, 2-aratlashtirgich, 3,6-rezervuarlar, 4-neytrallagich, 5-bug'latgich jihoz, 7-nasoslar, 9-donadorlash minorasi, 10-sovutgich baraban, 11-elevator, 12-elak, 13-tegirmon, 14-kukunki material barabani.



**4.6-rasm.** Ammoniyalashtirgich-donadorlagich yordamida nitroammofoska ishlab chiqarish texnologik sxemasi: 1-fosfat kislota nitroammofoska qabul qilish baki; 2-oqimli reaktor; 3-ammoniyalashtirgich-donadorlagich; 4-ammiak qizdirgich; 5-NIF jihizi; 6-bug'latgich; 7-quritish barabani; 8-elak; 9-nazorat elagi; 10-tegirmon; 11-KS sovutgichi; 12-baraban konditsioner; 13-siklon; 14-absorber

Suyuqlanmani donadorlash uchun BDQ turidagi jihozlardan ham foydalanish mumkin, bunda suyuqlanma retur bilan changlatib beriladi.

Suyuqlanmani donadorlashga asoslangan usullarning afzalliklari chiqindi gazlari hajmining kamligi va tashqi retur ishlatalmasligidadir. Jarayonning kamchiligi esa cheklangan markalardagi o'g'it ishlab chiqarilishi, diammoniy tarzidagi o'g'it olib bo'lmasligi va kaliy xlorid kiritishning qiyinligidadir.

**Eritmani qayta ishlashga asoslangan usullar.** Bunday usullarga kislotalarni alohida-alohida neytrallash va so'ngra bo'tqani AD, ikki valli aralashtrigich yoki BDQda qayta ishlash kiradi. Ammoniylashtirgich-donadorlagich yordamida nitroammofoska ishlab chiqarish texnologik sxemasi 4.6-rasmida tasvirlangan. Ammiakli selitranaing olingan suyuqlanmasi ammoniyash-donadorlagichga yuboriladi.

Neytrallagich va konsentratorda hosil bo'ladigan gaz-bug' aralashmasi ammiak va ammoniy nitratdan tozalangach atmosferaga chiqarib yuboriladi. 52-54 %  $P_2O_5$  konsentratsiyali bug'latilgan ekstraksion fosfat kislota ta'minlagichdan oqimli reaktorga tushadi, u yerda gaz holatidagi ammiak bilan  $NH_3:H_3PO_4$  mol nisbati 0,7 ga qadar neytrallanadi. Shu bilan bir vaqtida oqimli reaktorga absorbsiya tizimi oqavalari beriladi, natijada boshlang'ich fosfat kislota konsentratsiyasi 48 %  $P_2O_5$  ga qadar pasayadi. Nitroammofoska donachalarining shakllanishi ammoniyash-donadorlagichda amalga oshadi, u yerga bir vaqtida ammiakli selitra suyuqlanmasi, suyuq ammiak (rasmda ko'rsatilmagan), kaliy xlorid va retur beriladi. Suyuq moddalar changlanib quriydi va donachalar bir necha bor ammiakli selitra eritmasi va ammoniy fosfatlari bo'tqasi bilan yopishib kattalashadi. Bunda kaliy xlorid zarrachalari ammoniy nitrat bilan almashinish reaksiyasiga kirishadi, shuningdek, hosil bo'layotgan donachalarga birikadi. Shu bilan bir paytda ammoniy fosfatlari bo'tqasi  $NH_3:H_3PO_4$  mol nisbati 1,04 ga qadar qo'shimcha ammonylanadi, bu esa ammoniy fosfatlari tuzlarining eruvchanligi kamayishiga olib keladi va ularning donachalar sirtida kristallanishini hamda donachalarning yiriklashishini ta'minlaydi. Donadorlagichdagi materiallar

namligi retur berish bilan boshqariladi, uning miqdori muntazam o'lchab turiladi. Jarayon returligi 4-6 ni tashkil etadi. Donadorlangan mahsulot to'g'ri oqimli quritish barabanida quritiladi. Quritilgan donachalar tebranma elakda elanadi. Tayyor mahsulotning bir qismi retur sifatida ishlataladi, qolgan qismi nazorat elagidan o'tgach sovutgichga yuboriladi. Sovutilgan mahsulot baraban-konditsionerga tushadi, u yerda donachalar sirtiga moylovchi va kukunli qo'shimchalar yopishtiriladi. Baraban-konditsionerdan chiq-qan tayyor mahsulot omborga yuboriladi.

Nitroammofoska ham keltirilgan sxema bo'yicha olinishi mumkin. Lekin bunda ishlab chiqarish tartibi birmuncha o'zgartiriladi: bug'latilgan fosfat kislota 42 %  $P_2O_5$  dan yuqori bo'lмаган konsentratsiyagacha suyultiriladi; fosfat kislota  $NH_3:H_3PO_4$  mol nisbati 1,4 ga qadar neytrallanadi.

Ammoniylash donadorlagichda neytrallash jarayoni  $NH_3:H_3PO_4$  mol nisbati 1,7 ga qadar amalga oshiriladi.

Quritish gazining harorati barabanga kirishda 185°C, barabandan chiqishda 80°C ni tashkil etishi kerak.

Bir xil nisbatdagi 17-17-17 navli nitroammofoska bilan tayyor mahsulotda ammiakli azotning ulushi 10,3 dan 12,1 % gacha ortadi, bunga fosfat kislotani chuqur neytrallash va shunga muvofiq holda ammoniy nitrat sarfini kamaytirish orqali erishiladi. Nitroammofoska (nitroammofoska) olish texnologik tartib va sarf koeffitsiyentlari ko'rsatkichlari 4.7- va 4.8-jadvallarda keltirilgan.

Diammoniy shakldagi o'g'it olishda ammiakning ajralishi ortadi, bu esa absorbsiyadagi sulfat kislota sarfining ortishiga olib keladi. Nitroammofoska olishda tabiiy gaz sarfining kamayishi fosfat kislotani neytrallashda ajraladigan issiqlikning ortishi bilan izohlanadi.

#### 4.7-jadval

#### **AD jihozidan foydalanilgan holda nitroammofoska (nitroammofoska) olish texnologik tartiblari**

Ko'rsatkichlar	Nitroammofoska	Nitroammofoska
<i>Ammoniy fosfatlari bo'tqasini olish</i>		
Bo'tqa harorati, °C	100-110	125-135
Bo'tqa namligi, % $H_2O$	13-22	12-15

Bo'tqadagi $\text{NH}_3:\text{H}_3\text{PO}_4$ mol nisbati	0,70-0,75	1,35-1,45
Bo'tqa pH ko'rsatkichi	1,3-2,2	5,5-6,3
<i>Shixtani donadorlash</i>		
Harorati, °C:		
ammiakli setitura suyuqlanmasi	140-160	140-160
donadorlagichdagi shixta	80-115	≤ 75
retur	100 gacha	≤ 75
$\text{NH}_3:\text{H}_3\text{PO}_4$ mol nisbati	1,0-1,04	1,65-1,75
Shixta namligi, % $\text{H}_2\text{O}$ , ko'p emas	1,5	1,5
<i>Mahsulotni quritish</i>		
Harorati, °C, ko'p emas:		
gazlar:		
kirishda	195	185
chiqishda	110	80
quritish barabanidan chiqadigan mahsulot	80-110	75
<i>Mahsulotni sovutish</i>		
Mahsulot sovutilgandan so'ng harorati, °C, ko'p emas	40	40

Ko'rsatib o'tilgan yuqorida texnologiyada nitroammofoska ikki valli aralashtirgich qo'llagan holda ham olinishi mumkin, unda ammoniy fosfatlari bo'tqasi, ammoniy nitrat, kaliy xlorid va retur yaxshilab aralashtirilishi lozim bo'ladi. Nitroammofoskani donadorlash va quritish uchun BDQ jihozidan foydalanish ham taklif etilgan.

#### 4.8-jadval

### 17-17-17 markadali 1 t tayyor mahsulot olishga sarf koeffitsiyentlari

Sarf ko'rsatkichlari	Nitroammofoska	Nitrodiammofoska
Ammiak (100 % $\text{NH}_3$ ), t	0,127	0,149
Nitrat kislota (100 % $\text{HNO}_3$ ), t	0,310	0,233
Fosfat kislota (100 % $\text{P}_2\text{O}_5$ ), t	0,174	0,174
Kaliy xlorid (60 % $\text{K}_2\text{O}$ ), t	0,286	0,286
Sulfat kislota (100 % $\text{H}_2\text{SO}_4$ ), t	0,015	0,041
Kuydirilgan ohak (70 % $\text{CaO}$ ), t	0,003	0,003
Diatomit, t	0,015	0,015
<b>Moylovchi modda, t:</b>		
instrumental moy	0,004	0,004
oktadetsilamin	0,001	0,001
<b>Suv, m<sup>3</sup>:</b>		
aylanma	2,5	2,5
yangi	0,5	0,5
Qizdirilgan bug' (1,0 Pa), t	0,365	0,295

Elektr energiyasi, kVt·s	55	55
Tabiiy gaz (35,2 kJ/m <sup>3</sup> ), m <sup>3</sup>	14,6	12,5
Qisilgan havo, m <sup>3</sup> :		
NIJ (nazorat instrumental jihozlar) uchun texnologik talablar uchun	3,6	3,6


Bo‘tqani qayta ishlashga asoslangan usullarning afzalligi shundaki, yirik birlik quvvatdagi qurilmalarda keng assortimentdagi (diammoniy shakldagilar ham inobatga olinganda) murakkab o‘g‘itlar olish imkoniyati yaratiladi. Shunga muvofiq holda ko‘pgina zamonaviy qurilmalar ammoniylagich-quritgich qo‘llash texnologiyasiga asoslangan. Bunday jarayonlarning kamchiligi – yuqori returligi va chiqinli gazlari quritilgandan so‘ng hajmdor bo‘lishidir.

Karboammofoska ishlab chiqarishni ikki yo‘nalishda tashkil etilishi mumkin: azotli o‘g‘itlar sanoatiga ammosos ishlab chiqarish yarimmahsuloti – fosfat kislota (yoki mahsulot ammosos) ni tashib keltirish yoki fosforli o‘g‘itlar zavodida karbamiddan foydalanish. Birinchi yo‘nalishdagi jarayonga karbamid sintezi (70 % li eritma) ikkinchi bosqichida distillyatsiya gazlari tarkibidagi ammiakni fosfat kislota bilan neytrallash kiradi. Karbamid, ammoniy fosfatlari va kaliy xlorid eritmalari aralashtiriladi, BDQ jihozida donadorlanadi va quritiladi. Agar karboammofoska olishda fosfat kislota emas, balki kukunsimon ammosos ishlatilsa, ikkinchi bosqich distillyatsiyasidan olinadigan karbamid eritmasi ammosos va kaliy xlorid bilan aralashtiriladi. Bo‘tqa yuqorida ko‘rsatilgandek donadorlanadi va quritiladi.

Ikkinci yo‘nalishda karboammofoska olishda ammoniy-lagich-donadorlagichli kompleks o‘g‘itlar ishlab chiqarish texnologiyasidan foydalaniladi. Tarkibida azot tutgan komponent sifatida karbamid eritmasidan, fosforli komponent sifatida esa fosfat kislota yoki kukunsimon ammosos ishlatiladi.

Birinchi yo‘nalishning afzalligi shundaki, bunda karbamid sintezi yarimmahsuloti ishlatiladi, bu esa uni olish xarajatlarini kamaytiradi. Ammo namlikni yo‘qotish mahsulotlar aralashmasini quritishda emas, balki ammosos va karbamid olish bosqichlarida amalga oshirish afzaldir. Bu ikkinchi yo‘nalishning afzalligidan biridir.

Yaxshi fizik-mexanik xossaga ega bo'lgan tarkibdagi karbamid tutgan o'g'itlar olishning samarador usullaridan biri BDQ jihozida karbamid donachalari sirtiga ammoniy fosfatlari bo'tqasini ikkinchi qatlam sifatida biriktirish orqali mahsulot ishlab chiqarish hisoblanadi. Karboammofos olishning prinsipial sxemasi (4.7-rasm) quyidagicha amalga oshiriladi: fosfat kislotasi tezkor ammoniylashtiruvchi-donadorlagich (TAD) ga beriladi, u yerda gaz holatidagi ammiak bilan  $\text{NH}_3:\text{H}_3\text{PO}_4 = 0,5-0,6$  mol nisbatiga qadar neytrallanadi. Olingan bo'tqa vakuum-bug'latgich jihozida 8-10 %  $\text{H}_2\text{O}$  qoldiq namlikkacha bug'latiladi va oqimli reaktorga uzatiladi, u yerda  $\text{NH}_3:\text{H}_3\text{PO}_4 = 1,0-1,05$  mol nisbatiga qadar qo'shimcha ammoniyylanadi. Bo'tqa oqimli reaktordan BDQ jihozida changlatilgan mahsulot sirtiga purkaladi. Changlatiladigan mahsulot sifatida retur va me'yorlashtirgich orqali beriladigan karbamid donachalaridan iborat bo'ladi. Donadorlash mexanizmi fosfatli bo'tqani purkash va karbamid donachalari sirtida fosfatlarning kristallanishidan iborat bo'ladi.



**4.7-rasm.** Karboammofos olish texnologik sxemasi: 1-yig'gich; 2-TAB; 3-nasos; 4-yig'gichlar; 5-vakuum-bug'latgich jihizi; 6-karbamid bunker; 7-BDQ; 8-elevator; 9-transportyor; 10-elak; 11-tegirmon


Keltirilgan texnologiya bo'yicha olingan 23:23:0 markali karboammofos konditsionerlovchi qo'shimchalarsiz ham yopishib qolmasligi aniqlangan.

## Ishlab chiqarishning asosiy jihozlari va avtomatlashtirish.

**Nitrat kislotani neytrallagich.** Jihoz (4.8-rasm) vertikal, silindrik shaklda bo'lib, nitrat kislotani gaz holatidagi ammiak bilan neytrallash orqali ammoniy nitrat olishga mo'ljallangan. U reaksiya va separatsiya qismlaridan iborat bo'lib, 0,3X18H11T va 12X18H10T markali po'latdan tayyorlangan va quyidagi o'lchamlarga ega: reaksiya qismining diametri 1600 mm, separatsiya qismining diametri 3800 mm, umumiy balandligi 10100 mm.

**Barabanli quritgich.** Ammosni quritish uchun mo'ljallangan barabanli quritgichdan nitroammoska va nitrodiammoskaning nam donachalarini quritish mumkin. Ammo nitroammoska ishlab chiqarishda unumdorligi 56 va 112 t/s bo'lgan anchagina yirik quyidagi o'lchamlardagi baraban shaklidagi quritgichlar qo'llaniladi: baraban diametri mos holda 5000 va 5500 mm, baraban uzunligi 32000 va 50000 mm. Materialning barabandan o'tish vaqtiga 25 minutdan ko'p emas. Ularning to'ldirish koefitsiyenti 25 % gacha. Gazlarning tezligi quritish barabanidan chiqishda chang miqdori ko'p bo'lmasligi uchun 3,5 m/sek dan katta bo'lmasligi kerak.

**4.8-rasm.** Nitrat kislotani neytrallagich (NIF): 1-reaksiya stakan; 2-ammiak barbotaji qurilmasi; 4-nitrat kislotasi barbotaji qurilmasi; 4-difuzor; 5-zavixitel; 6-yuvgich; 7-qalpoqchali tarelka; 8-to'qli so'ndirgich



**Kondisioner.** Jihoz donachalarning bir-biriga yopishib qolishini oldini olish maqsadida ular sirtini kondisionerlovchi qo'shimchalar bilan ishlashga mo'ljallangandir. U 7,5 ayl/min chastota bilan aylanuvchi baraban shaklida bo'lib, uning

diametri 3,5 m va balandligi 8 m ni tashkil etadi hamda tayyor mahsulot bo'yicha 140 t/s gacha unumdorlikni ta'minlaydi. Sovutilgan mahsulot va kukunli qo'shimcha barabanning bosh qismidan beriladi, moylovchi qo'shimcha esa barabanning qarama-qarshi qismidan uning uzunligini 1/3 qismiga changlatib beriladi. Boshqa jihozlar ammoniy fosfatlari ishlab chiqarishda qo'llaniladigan jihozlar bilan bir xil bo'ladi. Jihozlarni joylashtirish va ishlab chiqarishni rejalashtirish ammoniy fosfatlari ishlab chiqarish bilan bir xil tashkil etiladi.

**Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish.** Nitroammofoska ishlab chiqarishni tezkor boshqarish xuddi ammosos ishlab chiqarishdagi kabi bo'ladi va dispetcherlik nazorat maskanida amalga oshiriladi. Maskanga jarayonni me'yorida ishlashini ta'minlash uchun nazorat va boshqarish jihozlari, shuningdek texnologik rejimni buzilishi haqida ogohlatiradigan signalizatsiya qurilmalari joylashtirilgan bo'ladi.

Dispetcherlik maskanidan yuboriladigan topshiriqlar bo'yicha quyidagi parametrlar boshqariladi:

- ammoniy nitrat eritmasi pH ni aniqlash uchun neytrallagichdan chiqishga o'rnatilgan avtomatik pH-metr ko'rsatkichi bo'yicha nitrat kislota sarfini belgilangan nisbatga to'g'rilash bilan neytrallagichga belgilangan nisbatdagi nitrat kislota va ammiak berish;

- konsentratorga beriladigan qaynoq bug' bosimi va issiq havo harorati;


- avtomatik pH-metr ko'rsatkichi bo'yicha fosfat kislota sarfini belgilangan nisbatga to'g'rilash bilan neytrallagichga fosfat kislota va ammiak berish;

- ammoniy lashtirgich-donadorlagichga suyuq ammiak, kaliy xlorid, mikroqo'shimchalar va ballast (uning ishlatalishi lozim bo'lsa) berish;

- barabanli quritgichdan chiqishda chiqindi gazlari harorati (yondirgichga beriladigan yoqilg'i miqdorini boshqarish yo'li bilan);

- sovutgichga beriladigan havo harorati;

- konditsionerga tushadigan mahsulot sarfi bilan belgilangan nisbatda kukunli va moylash qo'shimchalari berish;



4.9-rasm. Nitrozaminoftoska istibah chiqarish muddiy belansı (AD jihatli xema).

–sug‘oriladigan absorbsiya suyuqliklarining sarfini pH va zichligini to‘g‘rilash orqali adsorbsiya tizimiga tushadigan suyuqliklarni (fosfat kislota va suv) berish;  
–idishlardagi suyuqliklar sathi.

**Texnologik hisoblar.** *Moddiy balans.* 17-17-17 markali 1 t nitroammoska olishga moddiy balans (kg hisobida) 4.9-rasmida keltirilgan.

Moddiy balans tuzishda quyidagilar qabul qilingan:

–neytrallagichda fosfat kislotadan 32 kg/t suv (hisob bo‘yicha), ammoniylagich-donadorlagichdan 34 kg/t suv (tajriba natijalari bo‘yicha) bug‘lanadi;

–qish paytida absorbsiya tizimining chiquvchi quvuridan absorbsiya tizimida qancha namlik bug‘lansa shuncha kondensat qaytariladi (balansda ko‘rsatilmagan);

–nitrat kislota va havo qaynoq bug‘ bilan qizdiriladi, hosil bo‘ladigan kondensat nitrat kislota sexiga yuboriladi;

–jarayon returligi 4 ga teng;

–bosqlang‘ich fosfat kislota neytrallagichda absorbsiya tizimi oqavalari bilan 48 %  $P_2O_5$  konsentratsiyagacha suyultiriladi;

–moddiy balansda neytrallagichga to‘ridan to‘g‘ri emas, balki absorbsiya tizim orqali beriladigan fosfat kislota ko‘rsatilmagan.

*Issiqlik balansi.* 17-17-17 markali 1 t nitroammoska olishda nitrat kislota neytrallagichining issiqlik balansi 4.9-jadvalda keltirilgan. Fosfat kislota neytrallagichi va quritish barabani issiqlik balansi hisoblari ammosf ishlab chiqarishda keltirilgan.

**Ishlab chiqarishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari.** Ammoniy fosfatlari va ular asosidagi murakkab o‘g‘itlar ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish mavjud ishlab chiqarishni jadallashtirish bo‘yicha ham, mantiqan yangi jarayonlarni yaratish va ishlab chiqarishga tatbiq etish bo‘yicha ham quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

–ishlab chiqarishning barcha asosiy bosqichlaridagi issiqlik va massa almashinuv jarayonlarini jadallashtirish; kislotani neytrallash bosqichiga oqimli reaktorni tatbiq etish nazarda

tutiladi, bu esa neytrallash issiqligidan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi; BDQ jihoziga nisbatan takomillashgan yondirgich qo'llash hisobiga mahsulotni quritish jarayonini jadallashtirish;

#### 4.9-jadval

#### Neytrallagichning issiqlik balansi

Issiqlik kirimi	kj	Issiqlik chiqimi	kj
Nitrat kislota bilan: 553·2,93·(90-25)	105320	Ammoniy nitrat eritmasi bilan: 357·1,88(142-25)	78530
Ammiak bilan: 82·2,22·(50-25)	4550	Atrof-muhitga yo'qotilgan: 621160·0,03	18630
Kimyoiy reaksiya issiqligi: 106000·(80:17)	511290	Namlikni bug'latishga: $x[244t + (1,967 \cdot 117)]$	2671x
<b>Jami:</b>	<b>621160</b>	<b>Jami:</b>	<b>97160+2671x</b>

Issiqlik balansi tenglamasidan  $x = 196 \text{ kg}$

-yangi turdag'i xomashyolar: quiyi navlardagi fosforit va apatitlar asosidagi fosfat kislotadan ammoniy fosfatlari olishning samarador jarayonlarini yaratish; ko'rsatib o'tilgan fosfatlar tarkibining xilma-xilligi ularni ammoniy fosfatlariga qayta ishlash texnologiyalarining o'ziga xosligida namoyon bo'ladi, masalan, Qoratog' fosforitlaridan olingan kislotani ishlatishdan olingan qovushqoq bo'tqani qayta ishlash uchun bo'tqa oquvchanligini oshiruvchi tezkor aralashtirgichlardan foydalanish yaxshi samara beradi;

-monoammoniyli o'g'itlar hajmini kamaytirish hisobiga diammoniyli o'g'itlar ishlab chiqarishni oshirish; BDQ jihozida diammofoska olish usullarini topish lozim, bu esa ammofosga nisbatan iqtisodiy samarador mahsulot olishga olib keladi;

-boshlang'ich xomashyoni tozalash yo'li bilan ozuqa moddalari konsentratsiyasini oshirish; ekstraksion fosfat kislotadan fторни cho'ktirish yoki haydash yo'li bilan ammofosdag'i  $P_2O_{50\cdot zl}$  miqdorini 1,2-1,5 % ga oshirish mumkin; kislotadagi sulfat ionlari konsentratsiyasini kamaytirish orqali  $P_2O_{50\cdot zl}$  miqdorini 1,3 % ga oshirishga erishiladi; shuningdek kislotani ammoniylash va so'ngra hosil

qilingan cho'kmani filtrlash orqali undagi qo'shimcha metallar (Fe, Al) ni ajratish ham mukin; tozalangan kislotadan olingan ammoniy fosfatlaridan ozuqali mahsulot chifatida foydalanilishi mumkin;

– ammoniy fosfatlari va ular asosidagi kompleks o'g'itlar olish jarayoniga mikroelementlar kiritish jarayonini tatbiq etish;

– kukunsimon monoammoniyfosfat olish va uni suspenziyali o'g'itlar tayyorlash joylariga yetkazib berish;

– ammoniy fosfatlari olish jarayonida ammosofsat turidagi o'g'itlar olish uchun kislotani bir qismini fosfatlarni parchalash uchun ishlatalish;

– ishlab chiqarish maydonlarida ekologik vaziyatni yaxshilash; ammoniy fosfatlari va ular asosidagi murakkab o'g'itlar olishning mavjud jarayonlarida qattiq va suyuq chiqindilar hosil bo'lmaydi, asosiy e'tibor gaz holatdagi chiqindilarni kamaytirishga qaratilishi lozim; bunday tadbirlarga quyidagilar kiradi: ammoniy fosfatlari kislotali bo'tqalarini chuqur bug'latish, ikki bosqichli jarayonlar, issiqlik va massa almashinuvini jadallashtirish; bunday muammolarni keskin hal etishga chiqindi gazlarini (to'la yoki qisman) tozalash tizimidan so'ng jarayonning boshlang'ich bosqichiga (BDQ johozi yoki quritish barabaniga) «qamrab olish» kiradi.


## 2-§. Nitrofoska ishlab chiqarish nazariyasi va texnologiyasi

**Tabiiy fosfatlarni nitrat kislotali parchalash asosida o'g'itlar ishlab chiqarish.** Tabiiy fosfatlarni nitrat kislotali parchalanishidan *nitrat kislotali ajratma* deb ataladigan – tarkibida kalsiy nitrat va erkin fosfat kislota bo'lgan eritma hosil bo'ladi. Ajratmani keyingi bosqichlarda qayta ishslash usullariga bog'liq holda, bir komponentli – azotli va fosforli hamda ozuqa elementlarining eng keng diapazonidagi ko'p komponentli murakkab – azot-fosforli (N-P) yoki azot-fosfor-kaliyli (N-P-K) o'g'itlar ishlab chiqarilishi mumkin. Sulfat kislotali usuldan farqli ravishda, fosfatli xomashyoni nitrat kislotali parchalashda nafaqat kislotaning kimyoviy



energiyasidan foydalaniлади, balki azot ham o'g'it tarkibiga to'la o'tadi. Kislotani bunday kombinatsiyali ishlatish iqtisodiy jihatdan ancha qulaydir. Bu usulning kamchiligi nitrat kislotali ajratmadan bir qism kalsiyini yo'qotish yoki uni erimaydigan tuzlar hosil qilgan holda ajratib olish hisoblanadi. Agar kalsiy ajratib olinmasa, ishlab chiqariladigan o'g'it tarkibidagi ballast (erimaydigan kalsiy birikmalari) hisobiga ozuqa elementlarining konsentratsiyasi pasayadi. Bundan tashqari, ajratmada kalsiyning bo'lishi hisobiga o'g'itdagi fosforning to'la suvda eruvchan shaklda bo'lish imkonini bermaydi.

Shunga qaramasdan, fosfatlarni nitrat kislotali qayta ishlash yirik masshtabda qo'llaniladi. Ayniqsa bu usul – fosfatlarni sulfat kislotali parchalashda kerak bo'ladigan oltингugurtli resurslar yetishmaydigan mamlakatlarda (ko'pincha G'arbiy Yevropada) keng qo'llaniladi.

**Fosfatlarni nitrat kislota bilan parchalash.** Fosfatlarni nitrat kislotali parchalashda quyidagi reaksiya sodir bo'ladi:



Fosfat tarkibidagi qo'shimchalar – kalsiy va magniy karbonatlari, temir, aluminiy va nodir elementlar oksidlari nitrat va fosfat kislotalar bilan ta'sirlashib nitratlar va fosfatlar hosil qiladi:



Fosfatlar tarkibida temirning ikki valentli birikmalari bo'lgan minerallarining ishtirot etishi ularning nitrat kislotada oksidlanishiga olib keladi:



Qattiq fazaga kam eriydigan fosfatlarning, gaz fazasiga esa – azot oksidlaringajralishi ozuqa moddalarining yo'qotishiga olib keladi.

Vodorod ftorid fosfatlar bilan yo'ldosh silikat mineralarining parchalanishi natijasida hosil bo'ladigan silikat kislota bilan ta'sirlashib, odatda  $\text{H}_2\text{SiF}_6$  tarzida eritmada qoladi.

Tabiiy fosfatlarning, apatitdagi  $\text{CaO}$  yoki fosforitdagi  $\text{CaO}$  va  $\text{MgO}$  miqdoriga muvosif keladigan stexiometrik miqdordagi nitrat kislota bilan aralashtirilishi natijasida – eritmada tuzlarning to'planishi va eritma kislotaliliginini kamayishi hiso-

biga parchalanish muntazam ravishda sekinlashib boradi – 1,5-2 soat ichidagina parchalanish darajasi 98-99 % ga yetadi. Jarayon davomiyligini kamaytirish uchun uni 2-5 % ortiqcha olingan nitrat kislotada o'tkaziladi. Ko'pgina hollarda ortiqcha nitrat kislotasi 20 % gacha oshiriladi va ko'pincha olingan bunday eritmalar azot miqdori oshirilgan o'g'itlarga aylantiriladi.

Odatda, tabiiy fosfatlarni nitrat kislotali parchalash 45-50°C haroratda o'tkaziladi va bu harorat optimal hisoblanadi. Haroratning 50°C dan oshirilishi natijasida eritma qovushqoqligi kamayadi, diffuziya sharoiti yaxshilanadi va parchalanish tezligi ortadi. Lekin jihozlarning korroziyasi tezlashadi. Talab etilgan harorat, asosan, reaksiyaning issiqlik effekti (290 kJ/mol) hisobiga ushlab turiladi. Kerak bo'lganda nitrat kislotaning issiqlik almashtirgichi orqali qizdirilishi yoki sovutilishi mumkin.

$P_2O_5$  ning eritmaga ajralish darajasi kislotasi konsentratsiyasiga unchalik ham bog'liq emas. Odatda eritmaga 99 % gacha  $P_2O_5$ , CaO, MgO va nodir elementlar, 95 % gacha ftor, 70 % gacha temir o'tadi.

Fosfatlarning parchalanishi aralashtirgich o'rnatilgan ikkitadan beshtagacha birin-ketin o'tadigan reaktorlarda uzlusiz usulda o'tkaziladi. Reaktorlardan chiqadigan gazlar ventilyatorlar bilan so'rib olinadi va skrubberda ftor birikmalaridan tozalangandan so'ng atmosferaga chiqarib yuboriladi.

Parchalanish tugaganidan so'ng eritma va quyqumdan (erimaydigan qoldiqdan iborat shlam) iborat suspenziya hosil bo'ladi. Apatitni qayta ishlashda undagi 60-80 % stronsiy quyqumga o'tadi, uni ajratib olinishi mumkin. Lekin quyqumning ajratilishi uning kalloid xossalari sababli qiyinlashadi – u qiyin tinadi va qiyin filtrlanadi.

Shuningdek, fosfat tarkibidagi ftroring ko'p qismi eritmaga  $H_2SiF_6$  tarzida o'tadi, fosfatlarni nitrat kislotali parchalashda ftor birikmalarini ajratib olish va ishlatish (utilizatsiyasi) ma'lum qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Eritmadan ftroring natriy tuzlari –  $NaNO_3$  yoki  $Na_2CO_3$  qo'shish orqali ajratib olinishi mumkin. Stexiometrik me'yorning 300 % miqdorida natriy ionlari kiritilishi natijasida eritmadi 80-85 % ftroring natriy kremneftorid tarzida cho'ktiriladi. Natriy xlo-

rid ishlatish o'rinsizdir, chunki xlorid ionlari xromnikelli po'latdan tayyorlangan jihozlar korroziyasini kuchaytiradi.  $\text{Na}_2\text{SiF}_6$  kristall cho'kmasi eritmadan tindirish, so'ngra filtrlash orqali ajratiladi. Nitrat kislotali qayta ishlashda 1 t apatitdan 30 % namligi bo'lgan 63 kg  $\text{Na}_2\text{SiF}_6$  olinadi, quruq moddadagi  $\text{Na}_2\text{SiF}_6$  miqdori 87 % ni tashkil etadi.

Apatit konsentrati tarkibida 0,9-1 % seriy guruhining nodir elementlari (seriy, lantan va boshqalar) bo'ladi. Apatit konsentratini nitrat kislotali parchalash natijasida hosil qilin-gan eritmadan ularni ajratib olish – kuchsiz kislotali eritma-larda ( $\text{pH}=2\div2,5$ ) nodir elementlar fosfatlari eruvchanligining kamligiga asoslangan. Nodir elementlarni cho'ktirish uchun eritmadagi barcha nitrat kislotani va fosfat kislotasi birinchi vodorod ionlarining taxminan 50 % ni neytrallash kerak. Bunda qattiq fazaga fosfatlar shaklida 70-80 % (apatit kon-sentrati tarkibidagi) nodir elementlar o'tadi. Ular bilan bir-galikda eritmadan boshqa bir nechta qo'shimchalar cho'kadi, shuning uchun olingan qattiq qoldiqda ~65 % nodir element-lar fosfatlari bo'ladi, ulardan deyarli yarmi seriy fosfat his-sasiga to'g'ri keladi.

**Nitrat kislotali ajratmani qayta ishlash usullari.** Nitrat kislotali ajratmani qayta ishlash alohida-alohida fosfatlar (di-kalsiyfosfat, monokalsiyfosfat) va nitratlar (kalsiyli va ammi-akli selitralar) olish yoki murakkab o'g'itlar olish bilan amalga oshirilishi mumkin.

Bir komponentli o'g'itlar masalan, nitrat kislotali ajrat-madagi fosfat kislotani ohak yoki ohak suti bilan neytrallash yo'li bilan olinishi mumkin. Bunda dikalsiyfosfat (presipitat) cho'kmasi hosil bo'ladi, uni filtrlash orqali eritmadan ajratiladi va quritiladi. Qolgan kalsiy nitrat eritmasi bug'latiladi va kristallantiriladi. Monokalsiyfosfat va kalsiy nitrat alohida-alohida olinishi ham mumkin. Kalsiy nitratni ammoniy karbonat yordamida ammoniy nitrat va kalsiy karbonatga konversiya-lanishi mumkin.

Ajratmadan bir komponentli o'g'itlar olish katta miqdordagi kapital va ishlab chiqarish xarajatlarini talab etadi. Shuning uchun nitrat kislotali ajratmadan fosforli va azotli o'g'itlarni alohida-alohida olish hozirda qo'llanilmaydi.

Nitrat kislotali ajratmadan murakkab o‘g‘itlar ishlab chiqarishda u odatda neytrallanadi va hosil qilingan suspenziya komponentlarga ajratilmagan holda suvsizlantiriladi. Filtrlanish jarayonining bo‘lmashligi texnologik jarayonni sod-dalashtiradi. Hozirgi paytda qo‘llanilayotgan usullarda ajratmani ammiak bilan neytrallanadi. Bunday yo‘l bilan olingan murakaab o‘g‘it tarkibida ikkita ozuqa elementi – azot va fosfor bo‘ladi, ular *nitrofoslar* deyiladi. Ayrim hollarda donadorlashdan oldin neytrallangan suspenziyaga kaliy tuzlari ( $KCl$ ,  $K_2SO_4$ ) qo‘shiladi va uchlik o‘g‘it – tarkibida azot, fosfor, kaliy tutgan *nitrofoska* olinadi.

Tabiiy fosfatlardagi  $CaO:P_2O_5$  massa nisbati 1,3-1,8 chegarasida, ya’ni dikalsiyfosfatdagi – 0,79 ga qaraganda anchagina katta bo‘ladi. Shuning uchun ajratmani ammiak bilan neytrallashda undagi fosfat kislotaning hammasi dikalsiyfosfat hosil bo‘lishiga ketadi va eritmada  $Ca(NO_3)_2$  tarzida ortiqcha kalsiy qoladi. Suspenziyani quritilishidan olingan mahsulot tarkibida kalsiy nitrat bo‘ladi, uning gigroskopikligi o‘g‘it uchun o‘rinsizdir. Eritmadan kalsiyini yo‘qotish va  $CaO:P_2O_5 = 0,79$  nisbatiga erishish orqali buni oldini olish mumkin. Bu holda mahsulotdagi barcha fosfor sitratli eruvchan dikalsiyfosfat shaklida bo‘ladi. Bir qism fosforni suvda eruvchan shaklda olish va erkin fosfat kislotasini ammiak bilan neytrallanishidan ammoniy fosfatga aylanishi uchun reaksiyon massadagi  $CaO:P_2O_5$  nisbatini yanada kamaytirish kerak.

Bir qism  $P_2O_5$  ni suvda eruvchan holatda bo‘lishini ta’minlash uchun bu nisbat ( $CaO:P_2O_5$ ) yanada kamroq bo‘lishi kerak. Shuning uchun nitrofoska ishlab chiqarishda kalsiyini (ma’lum qismini) biriktirish uchun fosfat va sulfat kislotalari, karbonat angidrid qo‘sish yoki jarayondan kalsiyini  $Ca(NO_3)_2$  tarzida chiqarish zarur bo‘ladi. Shu sababli nitrofoska ishlab chiqarish usullari kalsiyini bog‘lovchi reagentlar turlariga bog‘liq holda o‘zaro farqlanadi.

Qayta ishlanadigan sistemalarda  $CaO:P_2O_5$  nisbatini kamaytirishning quyidagi: 1) kalsiy nitratni kristallantirish; 2) qo‘sishimcha miqdorda (ekstraksion yoki termik) fosfat kislota kiritish; 3) ortiqcha kalsiyini sulfat kislota yoki ammoniy yohud kaliy sulfat bilan cho‘ktirish; 4) ortiqcha kalsiyini

karbonat angidrid va ammiak bilan  $\text{CaCO}_3$  shaklida cho'ktirish usullari qo'llaniladi.

Nitrat kislotali ajratmadan kalsiyini bog'lash yoki yo'qotish usuliga va  $\text{CaO:P}_2\text{O}_5$  nisbatiga bog'liq holda turli tarkibdagi o'g'it olinadi. Odatda nitrofoskadagi ozuqa komponentlarini dikalsiyfosfat, ammoniy fosfatlari va nitratlari, kaliy tuzlari bilan ko'rsatiladi.

Ajratmadan kalsiy nitratni kristallantirish uni  $-10^{\circ}\text{C}$  haroratgacha sovutish yo'li bilan amalga oshiriladi, bunda kalsiy nitratning tetragidrati  $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$  kristallanadi, uni ajratib olingandan va quritilgandan so'ng o'g'it sifatida ishlatilishi mumkin yoki ammiakli selitra qayta ishlanishi mumkin. Kalsiyning ajralish darajasi boshlang'ich nitrat kislota konsentratsiyasi va ajratmaning oxirgi harorati orqali aniqlanadi. Ajratmani sulfat kislota bilan qayta ishlash yoki fosfatlarni nitrat va sulfat kislotalari aralashmasi bilan parchalash orqali har qanday  $\text{CaO:P}_2\text{O}_5$  nisbatdagi eritma olish mumkin – kalsiyning bir qismi sulfatga birikadi va u o'g'it tarkibida ballast sifatida qoladi. Konsentratsiyasi 42-55 % bo'lgan nitrat kislota va 93 % bo'lgan sulfat kislota ishlatiladi. Parchalanish mahsulotlari gaz holatdagi ammiak bilan qayta ishlanadi, buning natijasida suyuq fazasida ammiakli selitra, qattiq fazasida esa – dikalsiyfosfat va gips bo'lgan suspenziya olinadi.

Karbonatli usul bo'yicha nitrat kislotali ajratma dastlab gaz holatdagi ammiak bilan (ammoniylashtirish), so'ngra ammiak va karbonat angidrid bilan (ammoniylashtirish va karbonatlashtirish) va oxirida faqat karbonat angidrid bilan qayta ishlanadi. Bu usulning kamchiligi tayyor mahsulotdagi fosfatli komponentlar ulushining boshqalariga nisbatan kamiligi  $[\text{N:P}_2\text{O}_5 = 1:(0,7-0,8)]$  hisoblanadi. Tarkibidagi komponentlarning suvda (sitratda) eruvchan bo'lishi dikalsiyfosfatdan ustunligini ko'rsatadi. Tarkibida bir vaqtning o'zida azot, fosfor va kaliy ozuqa elementlarini tutgan murakkab mineral o'g'itlar nitrofoska deyiladi. Nitrofoskadagi ozuqa moddalari (elementlari) ning o'zaro massa nisbatlari qishloq xo'jaligi talablariga muvofiq turlicha bo'lishi mumkin.

Ko‘proq ommalashgan nitrofoskadagi ozuqa moddalari nisbati: N:P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>:K<sub>2</sub>O = 1:1:1, 1:1,5:1, 1:1,5:1,5 hisoblanadi.


Nitrofoskadagi fosfor suvda eriydigan, monoammoniyfosfat NH<sub>4</sub>H<sub>2</sub>PO<sub>4</sub> shaklida ham, sitratda eriydigan dikalsiyfosfat CaHPO<sub>4</sub> shaklida ham bo‘ladi. Odatda ular o‘zaro teng, 50 % dan bo‘ladi. Qishloq xo‘jaligidagi o‘simliklarga bog‘liq ravishda ozuqa moddalari nisbatlari ham, P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> ning shakllari ham turlicha bo‘lgan nitroforskalar tayyorlanadi.

Hozirgi paytda nitrofoska ishlab chiqarishda fosfatli mineral – apatit konsentrati ishlatilmoqda. U Rossiya Federatsiyasidagi Xibin tog‘lari (Kola yarim oroli) da joylashgan konlardan qazib olinadi va boyitiladi. Tarkibida kaliy tutgan minerallar ham Rossiya Federatsiyasi va Belorussiya Respublikasi hududlarida mavjud bo‘lib, nitrofoska mineral o‘g‘iti Rossiya va Ukraina sanoat korxonalarida (Voskresensk, Novocherkassk) ishlab chiqarilmoqda. Shu sababli quyida apatit asosidagi nitrofoska ishlab chiqarish usuli haqida so‘z yuritiladi. Kelajakda O‘zbekiston Respublikasida ham mahalliy xomashyolar asosida nitrofos va nitrofoska ishlab chiqarish amalga oshirilishi mumkin. Nitrofoska donadorlangan shaklda ishlab chiqariladi. Tarkibida ballast – kalsiy sulfat yoki karbonat bo‘lgan nitroforskalarда ozuqa moddalarining (N + P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> + K<sub>2</sub>O) konsentratsiyasi 33-36 % ni tashkil etadi. Bir qism kalsiy nitratni kristallantirish yoki jarayonga fosfat kislota kiritish bilan olinadigan nitroforskalarда esa ozuqa moddalarining konsentratsiyasi 45-50 % ga yetadi. Bu esa xomashyo sifati va ishlab chiqarish usullariga bog‘liqdir.


«Tenglashtirilgan», A va B markali donadorlangan nitrofos tarkibida, muvofiq ravishda: 22±1; 23±1 va 24±1 % N; 22±1; 17±1 va 14±1 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>; (shu jumladan 18,7 va 6 % dan kam bo‘lmagan P<sub>2</sub>O<sub>5s.e.</sub>); 1,5 % dan ko‘p bo‘lmagan H<sub>2</sub>O bo‘ladi; mahsulotda: 1-4 mm donachalar ulushi 94 % dan kam emas; 1 mm dan kichik zarrachalar – 3 % dan ko‘p emas; elakda qoladigan 6 mm dan yirik zarrachalar bo‘lmaydi; donachalar mustahkamligi – 2 MPa dan kam emas. Yirik masshtabda apatit konsentratidan 1:1:1 markali nitrofoska ishlab chiqariladi. Uning tarkibidagi ozuqa moddalarining yig‘indisi

33 % dan kam emas, shu jumladan, 11 % N, 11 % K<sub>2</sub>O va 11 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>-zli (suvda eruvchi P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> ulushi o'zlashadigan P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> ning 55 % idan kam emas), 1,5 % dan ko'p emas H<sub>2</sub>O bo'ladi. Donadorlik tarkibi va donachalar mustahkamligi nitrofosdag'i kabi bo'ladi.

4.10-rasmida nitrofoska ishlab chiqarishning prinsipial sxemasi ko'rsatilgan. Fosfatli xomashyoni parchalash 50-80°C haroratda to'rtta reaktorlar (6) da amalga oshiriladi. Birinchi reaktorga fosfat va 47-53 % li nitrat kislota beriladi. Uchinchi va to'rtinchi reaktorlarga umumiy me'yorning 60 % miqdorida 92-93 % li sulfat yoki fosfat kislota qo'shiladi. Fosfatning parchalanishi 1 soat davomida jadal aralashtirish orqali boradi. Suspenziya to'rtinchi reaktordan ammoniylashtiruvchi reaktor (7) ga tushadi. Ammoniylashtiruvechi reaktor U-simon shaklda bo'lib (4.11-rasm), korpus (1) va uning ichki qismi jizozni xuddi ikkita quvurga o'xshab ajratgan to'siq (5) dan tuzilgan. Har bir quvurning diametri 800-900 mm, balandligi ~2,5 m bo'ladi. Har bir quvurga 3 s<sup>-1</sup> (~200 ayl/min) chastota bilan aylanadigan oldinga suruvchi (propeller) shakldagi aralashtirgichlar o'rnatilgan. Reaktor sirtida suvli g'ilof bo'ladi; unga beriladigan suv yordamida haroratni boshqarib turiladi. Gaz holatdagi ammiak reaktorning pastki qismidagi ikkita quvurlar orqali beriladi. Fosfatlarni parchalash reaktorlari ham xuddi shunday tuzilishga ega bo'ladi, faqatgina ulardagi aralashtirgichlarning bitta kurakli va elektrodvigatellarning kam quvvatli bo'lishi bilan farq qiladi; ularda reaktorning g'ilofiga bug' beriladi. Reaktorlar xromnikelli yoki xromnikelmolibdenli zanglamaydigan po'latlardan tayyorlanadi. Suspenziyani ammoniylashtirish uchun birin-ketin ishlaydigan 10-15 ta reaktor o'rnatilgan (massaning ulardan o'tish vaqt 2-2,5 soat). Ularga sulfat yoki fosfat kislotalarning qolgan (40 %) qismi va ammiak beriladi. Karbonatlari sxema bo'yicha nitrofoska olishda ammoniylashtirgichlarga sulfat yoki fosfat kislotalar bilan birgalikda gaz holatdagi uglerod dioksid (*karbonatli usulda*) yoki ammoniy sulfat (*ammoniy sulfatlari usulda*) kiritiladi.




1.1.23 – lentali konveyer; 2 – bunker; 3 – shnek; 4 – elevator; 5 – o'ichov me'yorlashtirgich; 6 – parchalanish uchun reaktorlar; 7 – ammoniy lashtirish uchun reaktorlar; 8 – skrubber; 9 – markazdan qochma nasoslar; 10,25 – ventilyatorlar; 11 – yig'ich; 12 – tarmov; 13 – suspenziya uchun yig'ich; 14 – suspenziya uchun nasos; 15 – BDQ jihizi; 16 – yondirgich; 17 – elevator; 18 – elak; 19 – tegrimon; 20 – sovutish barabani; 21 - qo'shimchani changlatish uchun bunker; 22 – konditsiomirlash uchun barabani; 24 – siklonlar.



**4.11-rasm.** Reaktor-ammoniyalashtirgich: 1-korpus; 2-sovutish g'ilofi; 3-val; 4-alarashtirgich kurakchasi; 5-to'siq; 6-qopqoq; 7-elektrodvigatel; 8-reduktorlar.

Kiritiladigan reagentlarning ammoniyalashtirgichlarda taqsimlanishi pH qiymati bo'yicha belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi. Harorat  $60\text{--}105^{\circ}\text{C}$  chegarasida ushlab turiladi. Reaksiya issiqligi hisobiga ammoniyalashtirgichlardan 15-20 % suv bug'lanadi. Reaktor (6) va birinchi ammoniyalashtirgichdan chiqadigan gazlar (4.10-rasm), atmosferaga chiqarilishidan oldin fтор birikmalari, azot oksidlari va nitrat kislota bug'larini, neytrallagich (7) dan chiqadigan gazdan esa – nitrat kislotani tutib qolish uchun suv bilan yuviladi.

Oxirgi uchta reaktor-ammoniyalashtirgichga uchinchi ozuqa elementi – kaliy, odatda KCl tarzida kiritiladi. Bunda qisman quyidagi reaksiya sodir bo'ladi:




Bu reaksiya bo'yicha konversiyalanish darajasi aralash-tirishning davomiylik vaqtiga bog'liq bo'ladi. Odatda u 70-90 % atrofida bo'ladi. KCl bilan aralashtirilgach, tarkibida 15-30 % suv bo'lgan massani donadorlash va quritishga yuboriladi. Bunda unga retur – tayyor mahsulotning mayda fraksiyasi qo'shiladi, returning miqdori donadorlash va quritish usuliga bog'liq bo'ladi. Hozirgi paytda donadorlash va quritish uchun odatda BDQ (15) jihizi, shuningdek donachalarning qaynovchi qatlamlari jihozlari qo'llaniladi.

Quritilgan qaynoq ( $70-90^{\circ}\text{C}$ ) donachalar uchta fraksiyaga ajratilgan holda elanadi. 1 mm dan kichik zarrachali mayda fraksiya BDQga retur sifatida qaytariladi. 4 mm dan yirik zarrachali fraksiya maydalanadi va u ham returga ketadi. Tashqi returning umumiy miqdori 1 t tayyor mahsulotga 1 t ga to'g'ri keladi. 1-4 mm donachali fraksiya mahsulot hisoblanadi. Uni baraban (20) da  $35-40^{\circ}\text{C}$  gacha sovutiladi va baraban-konditsioner (22) ga moylashtirish va changlashtirishga yuboriladi, so'ngra omborga kelib tushadi.

**Sulfat kislotali usul** – sanoat ishlab chiqarishida eng ko'p tarqalgan usullardan biri bo'lib, sistemaga sulfat kislota qo'shiladi. Jarayon 4.12-rasmida tasvirlangan sxema tartibida amalga oshiriladi.

Avvalo fosforit birin-ketin nitrat va sulfat kislotalarda parchalanadi. Kislotali parchalanish jarayonlari ketma-ket ulangan bir necha U – simon reaktorlar (5) va (6) da sodir bo'ladi. Odatda reaktorlar soni 2:4 ta bo'ladi. Birinchi reaktor (5) ga bunker (1) va me'yorlashtirgich (shnekli ta'minlagich) (2) yordamida tabiiy fosfat va nitrat kislota (3) beriladi. Ikkinci reaktor (6) ga esa sulfat kislota (4) beriladi. Reaktorlar hajmi qurilma mahsulorligiga bog'liq ravishda tabiiy fosfatlarni 1-1,5 soat parchalash imkoniyatiga bog'liq holda tanlanadi. Parchalanish harorati  $45-50^{\circ}\text{C}$  dan oshmaydi, chunki bundan yuqori haroratda nitrat kislotaning ma'lum miqdori gaz fazasiga o'tishi kuzatiladi. Parchalanish jarayonining harorati past bo'lganligi sababli tabiiy fosfat tarkibidagi fтор birikmalarining gaz fazasiga chiqishi sodir bo'lmaydi. Parchalanish jarayoni reaksiyon bo'tqani to'xtovsiz

qorishtirish (qorishtirgich minutiga 200-250 marta aylanadi) orqali amalga oshiriladi.



**4.12-rasm.** Sulfat kislotali usulda nitrofoska ishlab chiqarish sxemasi:  
 1-apatit bunker; 2-shnekli ta'minlagich; 3-nitrat kislot uchun bak; 4-sulfat  
 kislot uchun bak; 5- va 6-parchalash reaktorlari; 7-reaktor-  
 ammoniylashtirgich; 8-kaliy xlorid bunker; 9-shnekli aralashtirgich;  
 10-shnekli donadorlagich; 11-barabanli quritgich; 12-elevator; 13-qaynoq  
 mahsulot elagi; 14-yondirgich; 15-barabanli sovutgich; 16-elevator;  
 17-sovutilgan mahsulot ikki to'qli elagi; 18-valkali maydalagich; 19-retur  
 uchun shnek; 20-tayyor mahsulot lentali konveyeri.

Bo'tqa parchalash reaktorlaridan reaktor-ammoniy-  
 lashtirgich (7) ga kelib tushadi va unda ikkinchi bosqich –  
 bo'tqani gaz holatidagi ammiak bilan neytrallash amalga  
 oshiriladi. Neytrallash jarayoni ham bir necha ketma-ket  
 ulangan reaktorlarda sodir bo'ladi. Ularning soni esa jarayon  
 2-3 soat davom etishi uchun mo'ljallanadi. Odatda bo'tqani  
 ammoniylash uchun 7-10 ta reaktordan foydalaniladi. Gaz  
 holatidagi ammiak barcha reaktorlarga taqsimlanadi. Bu  
 jarayon uzluksiz qorishtirish orqali 100-110°C haroratda olib  
 boriladi. Natijada bo'tqadan 25 % atrofida suv bug'lanadi.  
 Oxirgi reaktor-ammoniylashtirgichdan bo'tqa to'xtovsiz oqib  
 chiqadi va qorishtirgich shnek (9) ga tushadi. Bu yerda  
 bo'tqaga uchinchi komponent kaliy – kaliy xlorid tarzida  
 qo'shiladi (jarayonda kaliyli komponent ishlatilmasa, mahsulot  
 sifatida nitrofos hosil bo'ladi).

Bo'tqa qorishtirgich shnekdan donadorlagichli shnek (10)  
 ga yuboriladi va u yerga mahsulotning mayda fraksiyasi (retur)

ham kelib tushadi. Natijada bo'tqadagi namlik 20-24 % dan 5-6 % ga qadar pasayadi. Bu bosqichda bir vaqtning o'zida donadorlanish jarayoni ham sodir bo'ladi. Hosil bo'lgan nam holatdagi mahsulot barabanli quritgich (11) da quritiladi. Quritish jarayoni yondirgich (14) da yondirilgan gazga havo aralashtirilishidan hosil qilingan 250°C haroratdagi issiq gazlar aralashmasi ishtirokida amalga oshiriladi.

Quritilgan mahsulot elak (13) da fraksiyalarga saralanadi. Eng kichik o'lchamli (2 mm dan mayda) fraksiya siknga (donadorlagichli shnekka) retur sifatida qaytariladi. Yirik o'lchamli fraksiya barabanlisovutgich (15) ga yuboriladi. Unda mahsulot havo oqimi yordamida 40-50°C haroratgacha sovutiladi va navbatdagi elak (17) ga yuboriladi. Elangan tayyor mahsulot (2-4 mm li fraksiya) omborga yuboriladi. Mayda fraksiya – donadorlagichga, 4 mm yirik fraksiya esa maydalagich (18) ga yuboriladi va yana elakka qaytariladi.

### **3-§. Nitrofoska ishlab chiqarish texnologik hisoblari**

Hisoblashni amalga oshirish uchun dastlabki ma'lumotlar:

Qurilmaning ishlab chiqarish quvvati, kg/s:	10000
Tayyor mahsulotdagi ozuqa moddalar massa nisbati N:P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> :K <sub>2</sub> O:	1:1:1

Nitrofoskadagi o'zlashuvchan fosforining 50 % qismi suvda eriydigan va 50 % qismi sitratda eruvchan shaklda bo'ladi.

Xomashyo:

Nitrat va sulfat kislotalar aralashmasining tarkibi:	30 % HNO <sub>3</sub> , 20 % H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> va 50 % suv
--	---

Gaz holatidagi ammiak:	100 %
------------------------	-------

Kaliy xlorid:	95 %
---------------	------

Apatit konsentratinining tarkibi, % hisobida:	
P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	39,4
CaO	47,4
CaF <sub>2</sub>	6,2
Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	1,0
Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	2,0
erimaydigan qoldiq	3,5

Komponentlarni apatitdan ajratib olinish darajasi:

P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	0,98
CaO	0,98
CaF <sub>2</sub>	0,96
Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	0,70
Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	0,70
1000 kg apatitga 2700 kg kislotalar aralashmasi beriladi.	
Ammoniylash jarayonidan so'ng bo'tqada qoladigan suv miqdori, %:	25
Kiritilgan KCl ning KNO <sub>3</sub> va NH <sub>4</sub> NO <sub>3</sub> ga o'tishi, %	90
Eksperimental natijalarga ko'ra (yo'qotishni hisobga olgan holda) nitrofoska hosil bo'lishi, kg hisobida:	3323
Nitrofokaning yo'qolishi, %:	0,5

### **Apatitni kislotali parchalash jarayonining moddiy hisobi**

10000 kg/soat nitrofoska ishlab chiqarish uchun sarflanadigan apatit konsentrati miqdori:

$$\frac{10000 \cdot 1000}{3323} = 3009 \text{ kg/soat}$$

Bu apatit tarkibida quyidagi komponentlar bo'ladi:



	%	kg/s
P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	39,4	1186
CaO	47,4	1426
CaF <sub>2</sub>	6,2	187
Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	1,0	30
Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	2,0	60
erimaydigan qoldiq	3,5	105
suv	0,5	15
<b>Jami:</b>	<b>100,0</b>	<b>3009</b>

Parchalash jarayoniga beriladigan kislotalar miqdori:





$$2700 \cdot \frac{3009}{1000} = 8124 \text{ kg/soat}$$

Bunda  $8124 \cdot 0,2 = 1625 \text{ kg/s H}_2\text{SO}_4$ ,  $2437 \text{ kg/s HNO}_3$  va  $4062 \text{ kg/s H}_2\text{O}$  bo'ladi.

Apatitni kislotalar aralashmasida parchalash jarayonidagi reaksiyalarning umumiyligi tenglamasini quyidagicha ifodalash mumkin:



(2) reaksiyani alohida xususiy reaksiyalarga osonlikcha ajratish mumkin:



Bu tenglamalardagi  $m - 2$  mol apatitga sarflanadigan  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ning mollar soni.

(3)-(6) reaksiya tenglamalari asosida apatitni kislotali par-chalash hisobi bajariladi.

Ajratib olinayotgan  $\text{CaF}_2$  miqdori  $\text{CaSO}_4$  va  $\text{HF}$  ga aylanadi. Shart bo'yicha 95 %  $\text{CaF}_2$  ajratib olinadi, ya'ni  $187 \cdot 0,95 = 178$  kg/s va cho'kmada  $187 - 178 = 9$  kg/s  $\text{CaF}_2$  qoladi.


Demak, 178 kg/s  $\text{CaF}_2$  bilan ta'sirlashishi uchun:

$$\frac{178 \cdot 98}{78} = 223 \text{ kg/s H}_2\text{SO}_4 \text{ kerak.}$$

Bunda:  $\frac{178 \cdot 136}{78} = 310$  kg/s  $\text{CaSO}_4$  va  $\frac{178 \cdot 2 \cdot 20}{78} = 91$  kg/s HF hosil bo'ladi.

Qolgan  $1625 - 223 = 1402$  kg/s  $\text{H}_2\text{SO}_4$  qolgan kalsiy ( $\text{CaO}$ ) bilan ta'sirlashadi:

$$1426 \cdot 0,98 = 1397 \text{ kg/s CaO.}$$



reaksiya bo'yicha 1402 kg  $\text{H}_2\text{SO}_4$  bilan:  $\frac{1402 \cdot 56}{98} = 801$


kg/s  $\text{CaO}$  reaksiyaga kirishadi. Bunda  $\frac{1402 \cdot 136}{98} = 1964$  kg/s

$\text{CaSO}_4$  va  $\frac{1402 \cdot 18}{98} = 257$  kg/s  $\text{H}_2\text{O}$  hosil bo'ladi.

Hammasi bo'lib:  $310 + 1964 = 2256$  kg/s  $\text{CaSO}_4$  yoki

$\frac{2256 \cdot 145}{136} = 2405$  kg/s  $\text{CaSO}_4 \cdot \text{H}_2\text{O}$  hosil bo'ladi. Bunda

$2405 - 2256 = 149$  kg/s suv birikadi. Qolgan  $1397 - 801 = 596$  kg/s CaO esa HNO<sub>3</sub> bilan ta'sirlashadi:



Reaksiya uchun  $\frac{596 \cdot 2 \cdot 63}{56} = 1341$  kg/s HNO<sub>3</sub> kerak, bunda  $\frac{596 \cdot 164}{56} = 1745$  kg/s Ca(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> hosil bo'ladi hamda  $\frac{596 \cdot 18}{56} = 192$  kg/s H<sub>2</sub>O ajralib chiqadi. Eritmaga  $1186 \cdot 0,98 = 1162$  kg/s P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> o'tadi, cho'kmada esa  $1186 - 1162 = 24$  kg/s P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> qoladi.

Erish jarayonida  $1162$  kg P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>  $\frac{1162 \cdot 3 \cdot 18}{142} = 442$  kg/s H<sub>2</sub>O bilan birikadi va  $\frac{1162 \cdot 2 \cdot 98}{142} = 1604$  kg/s H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub> hosil bo'ladi.


Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> + 2H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub> = AlPO<sub>4</sub> + 3H<sub>2</sub>O  
 reaksiyasida  $30 \cdot 0,7 = 21$  kg/s Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> ajralib chiqadi va cho'kmada  $30 - 21 = 9$  kg/s Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> qoladi. 21 kg/s Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> ni bog'lash uchun  $\frac{21 \cdot 2 \cdot 98}{328} = 13$  kg/s H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub> kerak bo'ladi, bunda  $\frac{21 \cdot 2 \cdot 235}{328} = 30$  kg/s AlPO<sub>4</sub> hosil bo'ladi va  $\frac{21 \cdot 3 \cdot 18}{328} = 4$  kg/s suv ajralib chiqadi.

$60 \cdot 0,7 = 42$  kg/s Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub> ajralib chiqadi va cho'kmada esa  $60 - 42 = 18$  kg/s Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub> qoladi. 42 kg/s Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub> ni bog'lash uchun  $\frac{42 \cdot 2 \cdot 98}{160} = 51$  kg/s H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub> kerak bo'ladi, bunda  $\frac{42 \cdot 2 \cdot 151}{160} = 79$  kg/s FePO<sub>4</sub> hosil bo'ladi va  $\frac{42 \cdot 3 \cdot 18}{160} = 14$  kg/s suv ajralib chiqadi.

Bu reaksiyalarda 1341 kg/s HNO<sub>3</sub> sarf bo'ladi va eritmada  $2437 - 1341 = 1096$  kg/s HNO<sub>3</sub> qoladi.

H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub> ning umumiy sarfi  $13 + 51 = 64$  kg/s ni tashkil etadi, eritmada esa  $1604 - 64 = 1540$  kg/s H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub> qoladi.

Jarayonda hosil bo'lgan 91 kg/s HF quyidagi reaksiyada qatnashadi:



bunda  $\frac{91 \cdot 60}{6 \cdot 20} = 46$  kg/s  $\text{SiO}_2$  eriydi,  $\frac{91 \cdot 144}{6 \cdot 20} = 109$  kg/s

$\text{H}_2\text{SiF}_6$  hosil bo'ladi va  $\frac{91 \cdot 2 \cdot 18}{6 \cdot 20} = 28$  kg/s  $\text{H}_2\text{O}$  hosil bo'ladi.

Sistemadagi umumiy suv miqdori:

$15 + 4062 + 257 + 192 + 4 + 14 + 28 = 4572$  kg/s bo'lib, undan  $442 + 149 = 591$  kg/s miqdori sarflanadi. Erkin holatda  $4572 - 591 = 3981$  kg/s miqdordagi suv qoladi.

Erimaydigan qism (cho'kma) dagi, kg/s hisobida:  $\text{CaF}_2 - 9$ ;  $\text{CaO} - 29$ ;  $\text{P}_2\text{O}_5 - 24$ ;  $\text{Al}_2\text{O}_3 - 9$ ;  $\text{Fe}_2\text{O}_3 - 18$ ; erimaydigan qoldiq ( $\text{SiO}_2$  ning  $\text{H}_2\text{SiF}_6$  ga aylanishi hisobga olnган holda):  $105 - 46 = 59$  kg/s bo'lganligi uchun umumiy qoldiq miqdori:  $9 + 29 + 24 + 9 + 18 + 59 = 148$  kg/s ga teng bo'ladi.

#### 4. 10-jadval

### Fosforitni nitrat-sulfat kislotali parchalash jarayonining moddiy balansi


Kirish		Chiqish (sarfi)	
komponentlar	kg/s	komponentlar	kg/s
<b>Konsentrat:</b>		<b>Ammoniyash bo'tqasi:</b>	
$\text{P}_2\text{O}_5$	1186	$\text{CaSO}_4 \cdot 0,5\text{H}_2\text{O}$	2405
$\text{CaO}$	1426	$\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$	1745
$\text{CaF}_2$	187	$\text{H}_3\text{PO}_4$	1540
$\text{Al}_2\text{O}_3$	30	$\text{AlPO}_4$	30
$\text{Fe}_2\text{O}_3$	60	$\text{FePO}_4$	79
erimaydigan qoldiq	105	$\text{HNO}_3$	1096
$\text{H}_2\text{O}$	15	$\text{H}_2\text{SiF}_6$	109
<b>Jami</b>	<b>3009</b>	erimaydigan qoldiq	148
Kislotalar eritmasi:		suv	3981
Nitrat kislota	2437	<b>Jami</b>	<b>11133</b>
Sulfat kislota	1625		
Suv	4062		
<b>Jami eritma</b>	<b>8124</b>		
<b>Hammasi</b>	<b>11133</b>		

### Ammoniyash jarayonining moddiy hisobi


Ammoniyash jarayonida kislotali parchalashda hosil bo'lgan bo'tqa va 100 % li gaz holatidagi ammiak reaktorga kelib tushadi.

Bo‘tqani ammoniylash jarayonida  $\text{CaSO}_4 \cdot 0,5\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{AlPO}_4$  va  $\text{FePO}_4$  larning tarkibi o‘zgarishsiz qoladi. Bo‘tqani ammoniylashda barcha jarayonlar ketma-ket, parallel va bir vaqtning o‘zida sodir bo‘ladi.

Kremneftorid kislotaning ammiak bilan ta’siri quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:




Hosil bo‘lgan silikat kislota qizdirilganda parchalanadi:



Ammoniy storid kalsiy nitrat bilan ta’sirlashadi:




Reaksiyalar umumiy holda quyidagicha ifodalanadi:



Qolgan kalsiy nitrat  $\text{H}_3\text{PO}_4$  bilan ta’sirlashadi:



Ortiqcha fosfat kislotasi ammiak bilan neytrallanganda ammoniy fosfatga aylanadi:



Bo‘tqadagi barcha nitrat kislota ammiakli selitraga aylanadi:



(12) reaksiya bo‘yicha 109 kg/s  $\text{H}_2\text{SiF}_6$  bilan quyidagi miqdordagi moddalar ta’sirlashadi:  $\frac{109 \cdot 6 \cdot 17}{144} = 77$  kg/s  $\text{NH}_3$ ;

$$\frac{109 \cdot 2 \cdot 18}{144} = 28 \text{ kg/s } \text{H}_2\text{O} \text{ va } \frac{109 \cdot 3 \cdot 164}{144} = 373 \text{ kg/s } \text{Ca}(\text{NO}_3)_2.$$

$$\text{Bunda: } \frac{109 \cdot 60}{144} = 46 \text{ kg/s } \text{SiO}_2; \quad \frac{109 \cdot 3 \cdot 78}{144} = 178 \text{ kg/s } \text{CaF}_2$$

$$\text{va } \frac{109 \cdot 6 \cdot 80}{144} = 363 \text{ kg/s } \text{NH}_4\text{NO}_3 \text{ hosil bo‘ladi.}$$

Qolgan  $1745 - 373 = 1372$  kg/s  $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$  (13) reaksiya bo‘yicha fosfat kislotasi bilan ta’sirlashadi. Natijada fosfat kislotasi sarfi:

$$\frac{1372 \cdot 98}{164} = 820 \text{ kg/s ni tashkil etadi, bunda:}$$

$$\frac{1372 \cdot 136}{164} = 1138 \text{ kg/s CaHPO}_4 \text{ va } \frac{1372 \cdot 2 \cdot 63}{164} = 1054 \text{ kg/s}$$

$\text{HNO}_3$  hosil bo'ladi.

Ortiqcha  $1540 - 820 = 720 \text{ kg/s H}_3\text{PO}_4$  (14) reaksiya bo'yicha  $\frac{1372 \cdot 17}{98} = 125 \text{ kg/s NH}_3$  ni bog'laydi va natijada  $720 + 125 = 845 \text{ kg/s NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$  hosil bo'ladi.

Eritmadagi  $1096 + 1054 = 2150 \text{ kg/s HNO}_3$  (15) reaksiya bo'yicha:  $\frac{2150 \cdot 17}{63} = 580 \text{ kg/s NH}_3$  ni bog'lashga sarflanadi va natijada:

$$2150 + 580 = 2730 \text{ kg/s NH}_4\text{NO}_3 \text{ hosil bo'ladi.}$$

Ammoniyash jarayonida jami:  $363 + 2730 = 3093 \text{ kg/s NH}_4\text{NO}_3$  hosil bo'ladi. Buning uchun esa:  $77 + 125 + 580 = 782 \text{ kg/s NH}_3$  kerak bo'ladi.

Bo'tqa tarkibida, kg/s hisobida:  $\text{CaSO}_4 \cdot 0,5\text{H}_2\text{O} - 2405$ ;  $\text{CaF}_2 - 178$ ;  $\text{CaHPO}_4 - 1138$ ;  $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 - 845$ ;  $\text{NH}_4\text{NO}_3 - 3093$ ;  $\text{SiO}_2 - 46$ ;  $\text{AlPO}_4 - 30$ ;  $\text{FePO}_4 - 79$ ; erimaydigan qoldiq - 148, jami  $7962 \text{ kg/s erigan va muallaq holatidagi moddalar bo'ladi.}$

Shart bo'yicha ammoniyash jarayonidan so'ng bo'tqa tarkibida 25 % suv qolishi kerak edi. Uning miqdori:

$$\frac{7962 \cdot 25}{75} = 2654 \text{ kg/s ni tashkil qiladi.}$$

Shunday qilib, ammoniyash jarayonida:  $3981 - (2654 + 28) = 1299 \text{ kg/s suv bug'lanadi.}$

Bo'tqadagi  $\text{CaSO}_4 \cdot 0,5\text{H}_2\text{O}$  dan tashqari jami ballast qo'shimchalar miqdori:  $148 + 178 + 46 = 372 \text{ kg/s ni tashkil etadi.}$

Agar ammoniyangan bo'tqani donadorlash yo'li bilan quritilsa, nitrofos mineral o'g'iti hosil bo'ladi. Nitrofoska olish uchun esa bo'tqaga kaliy xlorid qo'shilgandan so'ng donadorlash yo'li bilan quritiladi.

**Ammoniyash jarayonining moddiy balansi**

Kirish	Chiqish (sarfi)		
komponentlar	kg/s	komponentlar	kg/s
<b>Kislotali parchalash bo‘tqasi:</b>		<b>Ammoniyangan bo‘tqa:</b>	
CaSO <sub>4</sub> ·0,5H <sub>2</sub> O	2405	CaSO <sub>4</sub> ·0,5H <sub>2</sub> O	2405
Ca(NO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub>	1745	CaHPO <sub>4</sub>	1138
H <sub>3</sub> PO <sub>4</sub>	1540	NH <sub>4</sub> H <sub>2</sub> PO <sub>4</sub>	845
AlPO <sub>4</sub>	30	NH <sub>4</sub> NO <sub>3</sub>	3093
FePO <sub>4</sub>	79	AlPO <sub>4</sub>	30
HNO <sub>3</sub>	1096	FePO <sub>4</sub>	79
H <sub>2</sub> SiF <sub>6</sub>	109	erimaydigan qoldiq	372
erimaydigan qoldiq	148	suv	2654
suv	3981	<b>Jami bo‘tqa</b>	<b>10616</b>
<b>Jami</b>	<b>11133</b>	Suv bug’lari	1299
Ammiak (100 % li)	782	<b>Hammasi</b>	<b>11915</b>
<b>Hammasi</b>	<b>11915</b>		

**Ammoniyangan bo‘tqaga kалии xlorid qо‘shish moddiy hisobi**

Murakkab o‘g‘it tarkibiga yana bitta ozuqa elementi – kaliyni kiritish ammoniyangan bo‘tqaga kалии xlorid qо‘shish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bu komponetni qо‘shish esa P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>:K<sub>2</sub>O = 1:1 nisbatida bajariladi. Shundan kelib chiqqan holda  $1186 \cdot 0,98 = 1162$  kg/s K<sub>2</sub>O qо‘shish talab etiladi, bundagi 0,98 – eritmaga P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> ning o‘tish darajasini ko‘rsatadi.

$$\text{Qо‘shiladigan K}_2\text{O miqdori: } \frac{1162 \cdot 2 \cdot 74,6}{94,2} = 1840 \text{ kg/s } 100 \%$$


li KCl ga yoki

$$\frac{1840}{0,95} = 1937 \text{ kg/s } 95 \text{ % li KCl ga to‘g‘ri keladi.}$$

KCl bilan kiradigan qо‘shimchalar miqdori:

$$1937 - 1840 = 97 \text{ kg/s ni tashkil qiladi.}$$

Jarayonga kiradigan KCl ning 90 % qismi ammiakli selitra bilan reaksiyaga kirishadi:



bunda  $1840 \cdot 0,90 = 1656$  kg/s KCl sarflanadi va:

$$\frac{1656 \cdot 101,1}{74,6} = 2244 \text{ kg/s KNO}_3 \text{ hamda } \frac{1656 \cdot 53,5}{74,6} = 1188 \text{ kg/s}$$

NH<sub>4</sub>Cl hosil bo‘ladi.

$$\text{NH}_4\text{NO}_3 \text{ sarfi: } \frac{1656 \cdot 80}{74,6} = 1776 \text{ kg/s ni tashkil etadi.}$$

Murakkab o'g'it tarkibida:  $3093 - 1776 = 1317$  kg/s  $\text{NH}_4\text{NO}_3$ , shuningdek:  $1840 - 1656 = 184$  kg/s  $\text{KCl}$  qoladi. Bo'tqadagi qo'shimchalar miqdori ( $\text{CaSO}_4 \cdot 0,5\text{H}_2\text{O}$  dan tashqari):  $372 + 97 = 469$  kg/s ni tashkil etadi.

#### 4.12-jadval

#### Bo'tqani $\text{KCl}$ bilan aralashtirish moddiy balansi

Kirish		Chiqish (sarfi)	
komponentlar	kg/s	komponentlar	kg/s
<b>Bo'tqa:</b>		Donadorlanadigan bo'tqa:	
$\text{CaHPO}_4$	1138	$\text{CaHPO}_4$	1138
$\text{CaSO}_4 \cdot 0,5\text{H}_2\text{O}$	2405	$\text{CaSO}_4 \cdot 0,5\text{H}_2\text{O}$	2405
$\text{NH}_4\text{NO}_3$	3093	$\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$	845
$\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$	845	$\text{NH}_4\text{NO}_3$	1317
$\text{AlPO}_4$	30	$\text{KNO}_3$	2244
$\text{FePO}_4$	79	$\text{NH}_4\text{Cl}$	1188
erimaydigan qo'shimchalar	372	$\text{KCl}$	184
suv	2654	$\text{AlPO}_4$	30
<b>Jami bo'tqa</b>	<b>10616</b>	$\text{FePO}_4$	79
$\text{KCl}$ (texnik tuz):		erimaydigan qo'shimchalar	469
$\text{KCl}$	1840	suv	2654
qo'shimchalar	97	<b>Jami</b>	<b>12553</b>
<b>Jami KCl</b>	<b>1937</b>		
<b>Hammasi</b>	<b>12553</b>		

#### Retur miqdorini aniqlash

Retur — tayyor mahsulotning standartiga zarracha o'lchami bo'yicha javob bermaydigan mayda (2 mm dan kichik o'lchamdagisi) fraksiyasi bo'lib, uni jarayonga qaytariladi. Bunda uni oxirgi — donadorlash va quritish bosqichiga qo'shish maqsadga muvofiq bo'ladi. Returni quritish bosqichidan oldin bo'tqaga qo'shiladi va bunda bo'tqadagi namlik  $\frac{2654 \cdot 100}{12553} = 21,14\%$  bo'lib, retur qo'shilgach namlik 5,5 % gacha pasayadi. Ma'lumki, returning namligi 1,5 % deb olingan edi. Bo'tqaga nisbatan qo'shiladigan retur miqdori:

$$\frac{21,14 - 5,5}{5,5 - 1,5} = \frac{15,64}{4} = 3,91 \text{ marta ko'proq bo'ladi.}$$

Bo'tqaga qo'shiladigan retur miqdori:  $12553 \cdot 3,91 = 49082 \text{ kg/s.}$

Quritgichda ajraladigan namlik miqdori:

$$2654 - \frac{(12553 - 2654) \cdot 1,5}{98,5} = 2654 - 151 = 2503 \text{ kg/s}$$

bunda 1,5 – tayyor mahsulotdagi namlik miqdori, % hisobida.

Hosil bo'ladigan tayyor mahsulot miqdori:

$$12553 - 2503 = 10050 \text{ kg/s.}$$

#### 4.13-jadval

#### **Quritish jarayonining moddiy balansi**

<b>Kirish</b>		<b>Chiqish (sarfi)</b>	
komponentlar	kg/s	komponentlar	kg/s
Bo'tqa:			
CaSO <sub>4</sub> ·0,5H <sub>2</sub> O	2405	Quruq retur	48346
CaHPO <sub>4</sub>	1138	Returdagi namlik	736
NH <sub>4</sub> H <sub>2</sub> PO <sub>4</sub>	845	<b>Jami retur</b>	<b>49082</b>
NH <sub>4</sub> NO <sub>3</sub>	1317	Quruq mahsulot	9899
NH <sub>4</sub> Cl	1188	Mahsulotdagi namlik	151
KNO <sub>3</sub>	2244	<b>Jami mahsulot</b>	<b>10050</b>
KCl	184	Suv bug'lari	2503
AlPO <sub>4</sub>	30	<b>Hammasi</b>	<b>61635</b>
FePO <sub>4</sub>	79		
erimaydigan qo'shimchalar	469		
suv	2654		
<b>Jami bo'tqa</b>	<b>12553</b>		
Quruq retur	48346		
Returdagi namlik	736		
<b>Jami retur</b>	<b>49082</b>		
<b>Hammasi</b>	<b>61635</b>		

Bu 10050 kg/s mahsulotdan yo'qolish 0,5 %, ya'ni 50 kg/s ni tashkil etsa, tayyor mahsulot miqdori 10000 kg/s bo'ladi.

Olingan murakkab o'g'itdagи ozuqa moddalar N:P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>:K<sub>2</sub>O nisbatlarini aniqlash.

Azot miqdori:

$$\text{NH}_4\text{NO}_3 \text{ tarkibida: } \frac{1310 \cdot 2 \cdot 14}{80} = 459 \text{ kg/s}$$

$$\text{KNO}_3 \text{ tarkibida: } \frac{2233 \cdot 14}{101,1} = 309 \text{ kg/s}$$

$$\text{NH}_4\text{Cl tarkibida: } \frac{1182 \cdot 14}{53,5} = 309 \text{ kg/s}$$

$$\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \text{ tarkibida: } \frac{841 \cdot 14}{115} = 102 \text{ kg/s}$$

**Jami: 1179 kg/s**

Mahsulotdagi fosfor miqdori:

$$\text{CaHPO}_4 \text{ tarkibida: } \frac{1132 \cdot 31}{136} = 258 \text{ kg/s}$$

$$\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4 \text{ tarkibida: } \frac{841 \cdot 31}{115} = 227 \text{ kg/s}$$

$$\text{AlPO}_4 \text{ tarkibida: } \frac{30 \cdot 31}{235} = 4 \text{ kg/s}$$

$$\text{FePO}_4 \text{ tarkibida: } \frac{79 \cdot 31}{151} = 16 \text{ kg/s}$$

**Jami: 505 kg/s**

505 kg/s fosforga to‘g‘ri keladigan  $\text{P}_2\text{O}_5$  miqdori:

$$\frac{505 \cdot 142}{162} = 1156 \text{ kg/s } \text{P}_2\text{O}_5.$$

Mahsulotdagi kaliy miqdori:

$$\text{KNO}_3 \text{ tarkibida: } \frac{2233 \cdot 39,1}{101,1} = 863 \text{ kg/s}$$

$$\text{KCl tarkibida: } \frac{183 \cdot 39,1}{74,6} = 96 \text{ kg/s}$$

**Jami: 959 kg/s**

959 kg/s kaliyga to‘g‘ri keladigan  $\text{K}_2\text{O}$  miqdori:

$$\frac{959 \cdot 94,2}{78,2} = 1156 \text{ kg/s } \text{K}_2\text{O}$$

Nitrofoskadagi ozuqa moddalari miqdori, % hisobida:

$$\frac{1179 \cdot 100}{10000} = 11,79\% \text{ N}$$

$$\frac{1156 \cdot 100}{10000} = 11,56\% \text{ P}_2\text{O}_5$$

$$\frac{1156 \cdot 100}{10000} = 11,56\% \text{ K}_2\text{O}$$

Olingan murakkab o'g'itdagি ozuqa komponentlar nisbatlari:

$\text{N:P}_2\text{O}_5:\text{K}_2\text{O} = 1,02:1:1$   
Nitrofoskadagi suvda eruvchan fosfor miqdori:

$\frac{227 \cdot 100}{505} = 45\%$  va sitratda eruvchan (o'zlashuvchi fosfor miqdoriga nisbatan) esa 55 % ni tashkil etadi. Bu esa sanoat ishlab chiqarishiga monand keladi.

#### 4.14-jadval


#### Qadoqlash jarayonining moddiy balansi

Kirish		Chiqish (sarfi)	
komponentlar	kg/s	komponentlar	kg/s
Quruq mahsulot	9899	Yo'qolish	50
Mahsulotdagi namlik	151	Mahsulot:	
<b>Jami</b>	<b>10050</b>	$\text{CaSO}_4 \cdot 0,5\text{H}_2\text{O}$	2393
		$\text{CaHPO}_4$	1132
		$\text{AlPO}_4$	30
		$\text{FePO}_4$	79
		$\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$	841
		$\text{NH}_4\text{NO}_3$	1310
		$\text{NH}_4\text{Cl}$	1182
		$\text{KNO}_3$	2283
		$\text{KCl}$	183
		erimaydigan qo'shimchalar	467
		suv	150
		<b>Jami mahsulot</b>	<b>10000</b>
		<b>Hammasi</b>	<b>10050</b>

#### 4-§. Azofoska ishlab chiqarish texnologiyasi

Fosfatlarning nitrat kislota bilan parchalashdan hosil qilinadigan eritmani sovutilishidan bir qism kalsiyini nitratli tuz tarzida qattiq fazaga ajratilishi mumkin. Bu nitrat kislotali


ajratmani keyingi qayta ishlashlar natijasida tarkibida yuqori darajadagi suvda eruvchan fosforli birikmalar bo'lgan o'g'itlar olishga yo'l ochib beradi.  $\text{CaO} - \text{P}_2\text{O}_5 - \text{N}_2\text{O}_5 - \text{H}_2\text{O}$  sistemasida harorat va tarkibiga bog'liq holda quyidagi nitratli tuzlar:  $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$ ,  $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2 \cdot 3\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$ , shuningdek (nitrat kislota ortiqcha bo'lganda)  $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2 \cdot 12\text{H}_2\text{O} \cdot \text{HNO}_3$  qo'sh tuzi kristallanishi mumkin. Misol tariqasida, 4.13-rasmida  $25^\circ\text{C}$  haroratdag'i bu sistema kristallanish maydonining sxemasi keltirilgan. Kalsiy nitratning cho'kish darajasiga boshlang'ich nitrat kislotaning konsentratsiyasi eng katta ta'sir ko'rsatadi. Nitrat kislota konsentratsiyasining ortishi bilan kalsiy nitratning cho'kishi tezlashadi.



**4.13-rasm.**  $25^\circ\text{C}$  haroratdag'i  $\text{CaO}-\text{P}_2\text{O}_5-\text{N}_2\text{O}_5-\text{H}_2\text{O}$  sistemasini kristallanish maydonining sxemasi.

Demak, fosfatni parchalanishi uchun eng yuqori konsentratsiyadagi nitrat kislota ishlatilsa, sovutish uchun oz xarajat qilgan holda eritmadan shunday miqdordagi kalsiy nitrat ajratib olinishi mumkin. Nitrat kislotaning stexiometrik me'yordan ortiqcha olinishi natijasida  $\text{CaO}$  ning suyuq fazadagi miqdori ortishi hisobiga ajralish darajasi pasayadi.

Kalsiy nitratning kristallanishi orqali nitrat kislotali ajratmadan olinadigan murakkab o'g'itlar *azofoska* deyiladi. Uni ishlab chiqarish quyidagicha amalga oshiriladi (4.14-rasm). Fosfatlarni  $40-60^\circ\text{C}$  haroratda nitrat kislotali parchalanishidan hosil qilingan eritma, yig'gich (8) ga



4.1.4 – rasm. Azofoska ishlab chiqqatish sxemasi:

- 1 – nitrat kislota uchun rezervuar;
- 2 – me'yorlashtirgichlar;
- 3 – fosfatli xonashlyo uchun bunker;
- 4 – va
- 5 – sirkulyatsiyali nases;
- 6 – kislotali gazlar absorberi;
- 7 – reaktorlar;
- 8 – nitrat kislotali ajratma yig'gichi;
- 9 – survli sovtugich;
- 10 – kristallantirgich;
- 11 – benzin uchun oraliq yig'gichi;
- 12 – qoldiq eritma rezervuar;
- 13 – ventilator;
- 14 – centrifuga;
- 15 – kalsiy nitrat eritmasing yig'gichi;
- 16 – suspenziyai retur yig'gichi;
- 17 – neytrallagich;
- 18 – kalyx klorid uchun bunker;
- 19 – absorber;
- 20 – siklonlar;
- 21 – havo kompressori;
- 22 – BDQ jichozi;
- 23 – yondirgich;
- 24 – siklonlar;
- 25 – bilan aralashtirgich;
- 26 – elaklar;
- 27 – transportyor;
- 28 – sovutgich barabari;
- 29 – valli tegimoni;
- 30 – konditsionirlash uchun barabari;
- 31 – changlashtiruvchi qo'shimcha bunker


u yerga esa suv bilan  $25\text{-}35^{\circ}\text{C}$  gacha sovutiladigan sovutgich (9) orqali keladi. Eritma yig'gichdan kristallantirgichlar tizimi (10) ga yuboriladi.

Zamonaviy korxonalarda nitrat kislotali ajratmaning eritmaga aralashmaydigan suyuq sovituvchi agent (masalan, benzin) bilan bevosita qo'shilishi hisobiga kalsiy nitratning cho'ktirish usuli qo'llaniladi. Benzin, bug'lanadigan suyuq ammiak bilan ishlaydigan issiqlik almashtirgich (11) da sovutiladi va kristallantirgichlar (10) ga tushadi. Kristallantirgichning barcha kesimlari bo'yicha taqsimlangan benzin tomchilarini eritmani sovutish orqali yuqoriga qalqib chiqadi va eritmaning yuqori qismida qatlama hosil qiladi, undan oraliq bak (12) ga quyib olish orqali benzin ajratib olinadi. Issiqlik uzatish koefitsiyenti  $3,5\text{-}8 \text{ MVt}/(\text{m}^2\cdot\text{K})$  chegarasida bo'ladi. Benzinning yo'qotilishi unchaliq ko'p emas — olinadigan o'g'itning 1 tonnasiga 2,5 t atrofida yo'qotiladi. Eritmaning sovutilishidan hosil bo'ladigan  $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2\cdot 4\text{H}_2\text{O}$  kristallari muallaq holatda bo'ladi va o'sishi davom etadi. Qachonki ularning o'lchami  $0,4\text{-}0,6 \text{ mm}$  ga yetsa, ular kristallantirgich tubiga cho'kadi. Kristallantirgichda eritmaning turish vaqtini 30-40 minutni tashkil etadi.

Qoldiq eritmaning  $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2\cdot 4\text{H}_2\text{O}$  kristallari bilan aralashmasi ajratish uchun uzlusiz ishlaydigan avtomatik filtrlash sentrifugasi (13) ga yuboriladi. Kristallar issiqlik almashtirgich (4) da oldindan  $-10^{\circ}\text{C}$  gacha sovutilgan nitrat kislota bilan yuviladi. Yuvindi kislota fosfatni parchalash uchun reaktorga beriladi. Xuddi shu yerga qoldiq eritmaning bir qismi ham qaytariladi. Uning tarkibidagi fosfat kislota ajratmadagi kalsiy nitratning to'ynishini tezlashtiradi, bu esa sovutishga ketadigan xarajatlarni kamaytiradi. Qoldiq eritmaning boshqa qismi neytrallagichlar (17) ga ammoniyalashtirish uchun yuboriladi, u yerga sovutgichlar (4) va (17) dan gaz holatdagi ammiak ham beriladi.

Neytrallagich (17) ga  $\text{N:P}_2\text{O}_5$  nisbatini to'g'rilash uchun ma'lum miqdordagi nitrat kislota ham beriladi, chunki ajratmadagi bir qism azot kalsiy nitratning kristallanishida yo'qotilgan bo'ladi. Bir qator neytrallagichlar orqali uzlusiz o'tadigan eritma tarkibida asosiy komponentlar sifatida

$\text{H}_3\text{PO}_4$ ,  $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$  va  $\text{HNO}_3$  bo'ladi. Uning pH = 3,5÷3,8 gacha neytrallanishidan oz miqdordagi trikalsiyfosfat qo'shimchasi bo'lgan dikalsiyfosfatdan iborat cho'kma ajraladi. Bundan tashqari, cho'kmada oz miqdordagi kalsiy ftorid, silikat kislota, aluminiy, temir va nodir metallar fosfatlari bo'ladi. Eritmada ammiakli selitra va monoammoniyfosfat bo'ladi. Neytrallanish jarayoni issiqlik ajralishi bilan sodir bo'ladi. Haroratni 110°C darajasida ushlab turiladi. Chiqindi gazlaridagi yutilmagan ammiakni suv yoki nitrat kislota bilan tutib qolinadi. Neytrallahni pH = 6÷6,8 gacha davom ettirish natijasida monoammoniyfosfatning bir qismi diammoniyfosfatga aylanadi. Neytrallahning umumiy tenglamasini taxminan quyidagicha ifodalash mumkin:



Neytrallahning oxirgi bosqichida  $\text{KCl}$  qo'shiladi. Almashinish reaksiyasi natijasida hosil bo'ladigan kaliy nitrat va ammoniy xloridlar ham azofoskaning komponentlari hisoblanadi. So'ngra suspenziya BDQ jihozida quritiladi va donadorlanadi. Hosil qilingan azofoska sovutilgandan so'ng elakda fraksiyalarga ajratiladi, undagi mahsulot fraksiyasi konditsionirlanadi va omborga jo'natiladi.

Mahsulotdagi suvda eruvchan  $\text{P}_2\text{O}_5$  miqdori nitrat kislotali ajratmadan kalsiy nitratning ajralish darajasiga bog'liqdir.  $\text{P}_2\text{O}_5$  ning yarmi suvda eruvchan shaklda hosil bo'lishi uchun neytrallananadigan ajratmadagi  $\text{CaO}:\text{P}_2\text{O}_5$  molyar nisbati 1 ga teng bo'lishi kerak. Buning uchun  $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$  ni kristallantirish jarayonida eritmada 70 %  $\text{CaO}$  ajratilishi kerak. Apatit konsentratidan shu usul bilan tarkibida 50 % ozuqa moddasi bo'lgan 16,7–16,7–16,7 turidagi o'g'it olinishi mumkin.

### Nazorat uchun savollar

1. Nitroammofosfatlar va karboammofosfatlar qanday olinadi?
2. Diammonitrofoska ishlab chiqarish usulini tushuntiring.

3. Fosfatlarni nitrat kislotali parchalashning fizik-kimyoviy asoslarini tushuntiring.
4. Nitrat kislotali ajratma nima va u qanday usullar bilan qayta ishlanadi?
5. Nitrat-fosfat kislotali usulda NPK o'g'itlar ishlab chiqarish usullarini tushuntiring
6. Karbonatli usulda NPK o'g'itlar ishlab chiqarish usullarini tushuntiring
7. Sulfat kislotasi va ammoniy sulfat ishtirokida NPK o'g'itlar ishlab chiqarish usullarini tushuntiring
8. Nitrofoska ishlab chiqarish sxemasini tushuntiring.
9. NPK o'g'itlari ishlab chiqarishda kalsiy ionini ajratib olish usullarini tushuntiring.
10. Azofoska ishlab chiqarish sxemasini tushuntiring.

## V bob. SUYUQ KOMPLEKS O'G'ITLAR ISHLAB CHIQARISH NAZARIYASI VA TEXNOLOGIK HISOBLARI

---

### 1-§. Suyuq kompleks o'g'itlar tarkibi va fizik-kimyoviy xossalari

Suyuq kompleks o'g'itlar (SKO') – tarkibida azot va fosfor yoki azot, fosfor va kaliy (to'la suyuq o'g'it) birikmalari, ba'zan esa ularda mikroelementlar, pestitsidlar va o'simliklarni o'stiruvchi moddalar (stimulyator) qo'shimchasi tutgan suvli eritmalar yoki suspenziyalar ko'rinishida bo'ladi. Qattiq o'g'itlarga nisbatan suyuq o'g'itlar – suvda va sitratli eritmalarda eruvchanligining yaxshiligi; tayyorlanish usullarining soddaligi; kapital va ishlatish xarakatlarining kamligi; zaharli chiqindilarning yo'qligi; ularni yuklash, tushirish va tashishni to'la mexanizatsiyalashtirish mumkinligi; ulardan qishloq xo'jaligida foydalanishda mehnatning 2-3 marta kamligi; tuproqda bir tekisda taqsimlanishi va boshqa bir qator afzalliklarga egadir. Lekin suyuq o'g'itlarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri – saqlash va ishlatishda qiyinchiliklar kelib chiqmasligi uchun ulardag'i tuzlarning kristallanish harorati past bo'lishi kerak.

Suyuq kompleks o'g'itlar uchun fosforning manbasi sifatida ekstraksion ortofosfat yoki, aniqrog'i, polifosfat kislota xizmat qiladi, uni gazsimon ammiak bilan neytrallanadi. Kerakli darajadagi N:P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>:K<sub>2</sub>O nisbatga erishish uchun eritmaga karbamid, amoniylitrat va kaliy tuzlari, ko'pincha kaliy xlorid qo'shiladi. Kaliy xlorid SKO' dagi boshqa komponentlarga nisbatan oz eriydi, shuning uchun to'la suyuq o'g'itlardagi ozuqa elementlarining N + P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> + K<sub>2</sub>O yig'indisi 30 % dan oshmaydi. Kaliy xlorid o'miga kaliy karbonat yoki gidroksid qo'shish orqali bu kattalik miqdorini oshirish o'g'it tannarxining keskin ortishiga olib keladi.

Tarkibida kondensirlangan fosfatlar bo‘lмаган hamda ammoniy nitrat va kalyx xlorid qo‘shish orqali termik fosfat kislotani  $\text{NH}_3\text{:P}_2\text{O}_5 = 1,6$  molyar nisbatigacha neytrallashdan olingan 1:1:1 markali suyuq o‘g‘it  $0^\circ\text{C}$  da kristallantirilmagani holda tarkibida 17 % gacha ozuqa elementlari tutadi. Agar ammoniy nitrat o‘rniga karbamid ishlatilsa, u holda ozuqa elementlari konsentratsiyasini 28 % gacha oshirish mumkin. Ozgina qo‘shimcha sovutish (taxminan  $5^\circ\text{C}$  ga) natijasida bu eritmalar uzoq vaqt to‘yingan holatda turishi mumkin. Ammoniy nitrat asosida tayyorlangan eritmalaridan birinchi navbatda kalyx nitrat kristallana boshlaydi, ammoniy nitrat o‘rniga karbamid almashtirilsa, eritmada cho‘kmaga dastlab kalyx xlorid ajraladi.

9–9–9 markali SKO‘ – termik fosfat kislota, karbamid, ammiakli suv va kalyx xlorid asosidagi eritmadir. Undagi har bir ozuqa elementning miqdori  $9\pm0,5$  % (jami – 27 % dan kam emas) ni tashkil etadi.  $15\text{--}25^\circ\text{C}$  haroratdagi o‘g‘it zichligi  $1230\text{--}1250 \text{ kg/m}^3$  ni, pH =  $6,5\div7,5$  ga tengdir.

10:34:0 turidagi suyuq kompleks o‘g‘itlar ammoniy orto-va polifosfatlarining suvdagi eritmasi tarzida bo‘lib, uning tarkibida 10 % azot va 34 %  $\text{P}_2\text{O}_5$  bo‘ladi. SKO‘ tarkibiga kiradigan ammoniy ortofosfatlari tarkibida bir atom fosfor bo‘lib, monoammoniy fosfat  $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$  va diammoniy fosfat  $(\text{NH}_4)\text{HPO}_4$  tarzida bo‘ladi. Tarkibida ikki va undan ortiq fosfor tutgan ammoniy polifosfatlari SKO‘ tarkibida diammoniy pirofosfat  $(\text{NH}_4)_2\text{H}_2\text{P}_2\text{O}_7$ , triammoniy pirofosfat  $(\text{NH}_4)_3\text{HP}_2\text{O}_7$ , shuningdek oz miqdorda ammoniy tripolifosfat  $(\text{NH}_4)_3\text{H}_2\text{P}_3\text{O}_{10}$  tarzida bo‘ladi. SKO‘dagi umumiy  $\text{P}_2\text{O}_5$  ning eng kamida 55 % miqdori poli-shaklda bo‘lishi kerak. Eritma zichligi  $1400\pm30 \text{ kg/m}^3$ , kristallanish haroratinining boshlanishi  $-18^\circ\text{C}$  dan yuqori, qovushqoqligi 50 MPa·s, pH =  $6\div7$  bo‘ladi. Uni uglerodli po‘latdan yasalgan idishlarda saqlanadi va tashiladi.

SKO‘ tarkibiga asosiy komponentlardan tashqari boshlang‘ich xomashyolarda qo‘shimchalar bo‘lgan temir, aluminiy, magniy, kalsiy, oltingugurt, fторning suvdasi eruvchan birikmalari kiradi. Ularning miqdori (oksidlar hisobida)

boshlang'ich xomashyo tarkibiga bog'liq bo'lib, 1,5-2,5 % ni tashkil etadi. SKO' tarkibida, shuningdek, oz miqdorda (0,3 % gacha) qattiq qo'shimchalar – tarkibi  $(\text{Fe}, \text{Al})\text{NH}_4\text{P}_2\text{O}_7$  bo'lgan temir va alumininiyning ammoniyli pirofosfatlari bo'ladi, ular organik moddalar bilan mayda kristalli sekin cho'kadigan zarrachalar hosil qiladi.

SKO' eritmasidagi tuzlarning umumiy miqdori ~ 60 % ni tashkil qiladi.

SKO' sifatini belgilaydigan asosiy ko'rsatkich  $\text{P}_2\text{O}_5$  konversiya darajasi hisoblanadi.

*Konversiya darajasi* suyuq o'g'itlar tarkibida polifosfatlar tarzida bo'ladi  $\text{P}_2\text{O}_5$  umumiy miqdoriga nisbatan qandaydir miqdorini tashkil etishini ko'rsatadi. Konversiya darajasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$K = \frac{\text{P}_5\text{O}_{5\text{poli}}}{\text{P}_5\text{O}_{5\text{umum}}} \cdot 100.$$

bu yerda:  $\text{P}_2\text{O}_5\text{poli}$  – SKO'dagi  $\text{P}_2\text{O}_5$  poli shakli massa ulushi, %;

$\text{P}_2\text{O}_5\text{umum}$  – SKO'dagi umumiy  $\text{P}_2\text{O}_5$  massa ulushi, %.

$\text{P}_2\text{O}_5\text{poli}$  ni analitik aniqlash anchagina qiyin, SKO'dagi konversiya darajasini aniqlash uchun  $\text{P}_2\text{O}_5\text{umum}$  va ortofosfatlar tarzidagi  $\text{P}_2\text{O}_5$  massa ulushlari aniqlanadi va ular orasidagi farqdan  $\text{P}_2\text{O}_5\text{poli}$  topiladi.

Bu holda konversiya darajasini (% hisobida) aniqlash formulasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:


$$K = \frac{\text{P}_5\text{O}_{5\text{poli}} - \text{P}_5\text{O}_{5\text{orto}}}{\text{P}_5\text{O}_{5\text{umum}}} \cdot 100.$$

Konversiya darajasi kattaligi SKO'ning qator fizik-kimyo-viy, xususan, suyuq o'g'itlarni ma'lum sharoitda uzoq vaqt saqlashni belgilab beradigan kristallanish harorati kabi xossalaringa ta'sir ko'rsatadi. 10:34:0 tarkibli SKO' kristallanish haroratinining konversiya darajasiga bog'liqligi keltirilgan 5.1-rasmdan ko'rindiki, konversiya darajasi 50 % dan kam bo'limgan eritmalarда kristallanish harorati past ( $18-20^\circ\text{C}$ ) bo'lishi mumkin. Quyi konversiya darajali SKO'larda tuzlarning eritmadan kristallanishi  $0^\circ\text{C}$  dan yuqori haroratda

sodir bo'ladi va bunday o'g'itlarni ishlatishda qiyinchiliklar kelib chiqadi.


Issiqlik va massa almashinuvi jarayonlari borishiga, texnologik tizim gidravlik parametrlariga bog'liq bo'lgan SKO'ning muhim fizik-kimyoviy xossalalariga qovushqoqlik kiradi. Qovushqoqlik kattaligiga harorat, boshlang'ich xomashyo tarkibi va  $P_2O_5$  konversiya darajasi katta ta'sir ko'rsatadi.

Superfosfat kislotadan (SFK) olingan SKO' qovushqoqligining harorat va konversiya darajasiga bog'liqligi 5.2-rasmida tasvirlangan. SKO' qovushqoqligi  $20^{\circ}\text{C}$  haroratda  $40-45 \text{ MPa}\cdot\text{s}$  ni,  $60^{\circ}\text{C}$  haroratda esa  $12-15 \text{ MPa}\cdot\text{s}$  ni tashkil etadi. Apatitdan olingan SFK asosidagi SKO' qovushqoqligi  $5-10 \text{ MPa}\cdot\text{s}$  ga kichikdir.



**5.1-rasm.** SKO' kristallanish haroratining  $P_2O_5$  konversiya darajasiga bog'liqligi: 1-kristallarning hosil bo'lishi; 2-kristallarning yo'qolishi.

SKO' zichligi  $20^{\circ}\text{C}$  haroratda  $1,395-1,410 \text{ g/sm}^3$  ni tashkil etadi hamda u o'g'itdagি ozuqa moddalari yig'indisiga va boshlang'ich xomashyo tarkibiga bog'liq bo'ladi. Ozuqa moddalari konsentratsiyasi oshganda va boshlang'ich superfosfat kislotadagi qo'shimchalar miqdori ko'payganda SKO' zichligi ortishiga olib keladi.



**5.2-rasm.** SKO' qovushqoqligining haroratga bog'liqligi,  
 $P_2O_5$  konversiya darajasi: 1 – 56,9 %; 2 – 68,7 %.

SKO' eritmasi neytral reaksiyaga egadir. Azotning massa ulushi 10 % bo'lgan SKO'ga pH ko'rsatkichining 6,4-6,8 qiymatlari to'g'ri keladi. SKO' olish uchun ishlataladigan kislota turiga bog'liq holda bu kattalik ma'lum darajada o'zgarishi mumkin.

Vaholanki, SKO' tarkibida erkin ammiak bo'lmaydi, eritma ustidagi  $NH_3$  ning muvozanatdagi parsial bosimi juda kichik bo'ladi.  $pH = 6,4-6,8$  intervalida ammiakning muvozanatdagi bug' bosimi, Pa hisobida quyidagicha bo'ladi:

Harorat, °C	
20	—
50	10,6
80	141,3
100	625,3


SKO'ni saqlash jarayonida polifosatlarning parchalanishi va ularning ortofosatlarga aylanishi sodir bo'ladi. Konversiya darajasini kamayishiga olib keladigan bu jarayon *gidroliz*, deb ataladi. Gidroliz tezligiga pH, harorat va konversyaning boshlang'ich darajasi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Eritma

pH qiymati qanchalik kichik va uning harorati yuqori bo'lsa, polifosfatlar gidrolizi shunchalik tez sodir bo'ladi. Lekin pH>6 va harorat 40°C dan katta bo'lmasa, gidroliz tezligi sezilarsiz darajada bo'ladi (5.3-rasm). Shuning uchun 10:34:0 turidagi SKO' ni xossasi yomonlashmagan holda uzoq vaqt saqlanishi mumkin.

10:34:0 turidagi SKO' sifati quyidagi talablarga javob berishi kerak:

Massa ulushi, %

ozuqa moddalari yig'indisi .....	$\geq 44$
azot .....	$\geq 10$
P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> sumum .....	$\geq 34$
erimaydigan qoldiq .....	$\leq 0,3$
P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> konversiya darajasi, % .....	$\geq 57$
eritma pH qiymati .....	6-7
20°C haroratdagi zichligi, g/sm <sup>3</sup> .....	$1,40 \pm 0,03$
kristallanish harorati, °C .....	$\leq -18$
20°C haroratdagi qovushqoqligi, MPa's .....	$\geq 50$



**5.3-rasm.** SKO'ni uzoq vaqt saqlanganda P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> konversiya darajasining o'zgarishi: konversyaning boshlang'ich darajasi: 1 – 77 %; 2 – 64 %; 3 – 50 %.

## 2-§. Suyuq kompleks o'g'itlar ishlab chiqarish xomashyolari

10:34:0 turidagi SKO' olish uchun superfosfat kislota, ammiak va suv asosiy boshlang'ich komponentlar hisoblanadi.

**Superfosfat kislota** alohida individual kimyoviy birikma hisoblanmaydi. Fosfat kislotalar aralashmasi shunday mahsulot nomi bilan yuritilishi mumkin. Uning tarkibiga ortofosfat kislota  $H_3PO_4$  hamda tarkibida ikki va undan ortiq fosfor atomlari tutgan bir qator polifosfat kislotalar kiradi. Polifosfat kislotalari pirofosfat kislota  $H_4P_2O_7$ , shuningdek oz miqdordagi tripolifosfat kislotasi  $H_5P_3O_{10}$  dan iborat bo'ladi. SKO'dagi kabi SFKda ham polifosfatlar ulushi konversiya darajasi kattaligi bilan aniqlanadi.

Asosiy komponentlardan tashqari SFK tarkibida uni olish jarayonida fosfatli xomashyodan kislotaga o'tadigan temir, aluminiy, magniy, ftor, kalsiy kabilar bo'ladi. Apatit konsentratidan olingan SFK tarkibida Florida fosforitlaridan olingan SFKga nisbatan qo'shimchalar kam bo'ladi (5.1-jadval).

### 5.1-jadval

#### Turli xil xomashyolardan olingan SFK tarkibi

Komponentlar	SFKdagi komponentlar massa ulushi, %	
	Florida fosforitlaridan olingan	Apatit konsentratidan olingan
$P_2O_5$ sumum.	68-72	70-72
$P_2O_5$ orto.	40-55	30-40
$Fe_2O_3 + Al_2O_3$	3,5-4,5	1,8-2,5
CaO	0,2	0,2
MgO	0,6 gacha	yo'q
$SO_3$	3,5 gacha	2,5-3,0
F	0,3-0,9	0,05-0,10
Organik qo'shimchalar	0,1-0,3	yo'q

Superfosfat kislota qiyom ko'rinishidagi qovushqoq suyuqlikdir. SFKning ayrim fizik xossalari 5.2-jadvalda keltirilgan.

Fosforitlardan olingan SFKda ko'p miqdordagi qo'shimchalar bo'lishi uning qovushqoqligini oshiradi, organik qo'shimchalar esa elementar uglerod (qurum) hisobiga kislotaning qora rangda bo'lishiga olib keladi.

## SFKning ayrim fizik xossalari

Ko'rsatkichlar	Superfosfat kislota	
	Apatit konsentratidan olingan	Florida fosforitlaridan olingan
Zichligi, g/sm <sup>3</sup> (20°C)	1,95-2,05	1,95-2,05
Qovushqoqligi, MPa's:		
20°C da	2100-2500	10000-15000
40°C da	550-600	2500-3000
60°C da	150-200	600-700
Solishtirma issiqlik sig'imi, kj/kg·K (25-100°C)	1,637	1,616
Issiqlik o'tkazuvchanligi, Vt/(m·K) (25-100°C)	0,0043	0,0044
Qaynash harorati, °C	300-340	300-340
Qotish harorati, °C*	5-10	10-20
Rangi	Yashildan to'q jigarranggacha	Qora

\* SFK qotish harorati deganda kislota oquvchanligi to'qa yo'qoladigan harorat tushuniladi.

Yuqori darajada qovushqoqligi sababli SFKnii saqlash va tashish 50-60°C haroratda amalga oshiriladi.

Kislotani tashish uchun maxsus sakkiz asosli 120 t sig'imli temiryo'l sisternalari ishlatiladi. Sisternalar ichki qismi butilkauchuk bilan himoyalangan uglerodli po'latdan yoki zanglamaydigan po'latdan tayyorlanadi. SFK cho'kishi oldini olish uchun sisternalar penopoliuretandan iborat issiqlik himoyasi bilan muhofazalanadi. Har bir sisterna ichki qismida bug' o'tkazish aylanma quvurlari (zmevik) joylashtiriladi, ular kerak bo'lganda kislotani qizdirish uchun xizmat qiladi.


Superfosfat kislota ishlab chiqarish bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

—tabiiy fosfatlarni sulfat kislotali qayta ishlash yo'li bilan P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> massa ulushi 28-40 % bo'lgan ekstraksion fosfat kislota (EFK) olish;


-vakuum-bug'latgich jihozlarida EFKdag'i  $P_2O_5$  massa ulushi 52-54 % gacha bug'latish, agar lozim bo'lsa, kislotadan magniy birikmalari, shuningdek erimaydigan qo'shimchalarni ajratish;

$-P_2O_5$  massa ulushi 68-72 % gacha EFKni keyingi konsentrash.

Konsentrash 240-260°C haroratda vakuum-bug'latgich jihozida ham, 300-350°C haroratda kislotadan yoqilg'i gazlarini o'tkazish orqali barbotaj turidagi jihozda ham amalgam oshirilishi mumkin. Bunda fosfat kislotadan faqatgina erkin suvgina (erituvchigina) bug'lanib qolmasdan, kimyoviy bog'langan suv yo'qotiladi. Konsentrash jarayoni bilan bir vaqtda ortofosfat kislotadan bitta yoki bir necha molekula suvning ajralish kimyoviy reaksiyasi – degidratatsiya sodir bo'ladi va polifosfat kislotasi hosil qiladi:



Bu jarayonni sxema tarzida quyidagicha ifodalanishi mumkin:



SFK olish jarayoni yetarli darajada murakkab va ko'p energiya talab etadi. SKO' ishlab chiqarish umumiyligi xarajatlarining 85 % gacha ulushi SFK xarajatlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Ammiak.** SKO' ishlab chiqarishda suyuq ammiak ishlatalidi. Ishlatiladigan ammiak sifati quyidagi talablarga javob berishi kerak (B markali):

Massa ulushi, % hisobida:

ammiak .....  $\geq 99,6$   
namlik .....  $\leq 0,4$

Miqdori, mg/l hisobida:

moy .....  $\leq 8$   
temir .....  $\leq 2$

SKO' olish jarayoni davomida suyuq ammiak bug'lanadi va SFK bilan ta'sirlashishga gaz holatdagi ammiak yuboriladi. 1 kg suyuq ammiak bug'langanda 1300 l gaz holatidagi ammiak  $\text{NH}_3$  hosil bo'ladi.

Suyuq ammiakning bug'lanish issiqligi 1200 kj/kg ( $15^{\circ}\text{C}$  haroratda). Ammiakning bu xossalidan suyuq ammiakni bug'latish uchun olinadigan SKO'ni qisman sovutishni amalga oshirishdagi texnologik jarayonlarda foydalaniadi.

Suyuq  $\text{NH}_3$  bug' bosimi uning harorati bo'yicha aniqlanadi:

t, $^{\circ}\text{C}$	-30	-20	-10	0
P, MPa (kgs/sm <sup>2</sup> )	0,11 (1,18)	0,18 (1,88)	0,28 (2,87)	0,42 (4,24)
t, $^{\circ}\text{C}$	10	20	30	
P, MPa (kgs/sm <sup>2</sup> )	0,6 (6,07)	0,84 (8,46)	1,15 (1151)	

Bu kattalik quyidagi texnologik jarayonlarda ishlatiladi: bug'latish jarayonida suyuq  $\text{NH}_3$  haroratining o'zgarishi, tizimda gaz holatdagi ammiak bosimini boshqarish.

Ammiakning zichligi va solishtirma issiqlik sig'imi qiymatlari:

Fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari	Suyuq $\text{NH}_3$	Gaz holatdagi $\text{NH}_3$
$15^{\circ}\text{C}$ haroratdagi zichligi, kg/m <sup>3</sup>	610	0,77
solishtirma issiqlik sig'imi, kj/(kg·K)	4,52	2,24

**Suv** tuzlar suyuqlanmasini eritish uchun ishlatiladi. Jarayonda dastlab tarkibida 0,02 mg/l dan ko'p bo'lмаган kalsiy va magniy ionlari tutgan yumshoq suv yoki suv bug'i kondensati ishlatiladi. Lekin o'tkazilgan tadqiqotlar va amaliy tajriba SKO' olishda quyidagi talablarga javob beradigan texnik suv ishlatilishini ham ko'rsatadi:

Qattiqlik	8 mg-ekv/l gacha
Ishqoriylik	4 mg-ekv/l gacha
Tuz miqdori	400 mg-ekv/l gacha


Bugungi kunda deyarli barcha SKO' ishlab chiqarish korxonalarida texnik suv ishlatilmoxda.

### 3-§. Suyuq kompleks o‘g‘itlar olish jarayonining fizik-kimyoviy asoslari

SKO‘ olish jarayoni ammiakning turli konsentratsiyadagi fosfat kislotalar bilan ta’sirlashishiga asoslangandir. Kislota ammoniyanganda hosil bo‘ladigan ammoniy fosfatlari suvda eritiladi, o‘g‘itli eritma – SKO‘ olinadi.

SKO‘da ozuqa moddalari konsentratsiyasi va nisbati belgilangan minimal haroratdagi ammoniy fosfatlari eruvchanligi orqali aniqlanadi. Turli xil sharoitlarda eruvchanlik kattaligiga  $N:P_2O_5$  nisbatini hamda tuzlar sistemasiga muvofiq keladigan orto- va polifosfatlar orasidagi nisbat bilan aniqlanadigan fosfat kislotaning ammoniyalanish darajasi katta ta’sir ko’rsatadi.

5.4-rasmida keltirilgan ammoniy orto- va metafosfatlari eruvchanligining  $N:P_2O_5$  nisbatiga bog‘liqligidan ko‘rinadiki,  $N:P_2O_5 = 0,29\text{--}0,33$  nisbatida eritmadiagi ozuqa moddalari yig‘indisi maksimumga erishadi. Bu o‘z navbatida SKO‘da ozuqa moddalari nisbatini aniqlaydi: suyuq o‘g‘itlar tarkibidagi 1 qism azotga 3,0-3,4 qism  $P_2O_5$  to‘g‘ri keladi.



**5.4-rasm.** 0°C haroratda  $\text{NH}_3\text{--H}_3\text{PO}_4\text{--H}_4\text{P}_2\text{O}_7\text{--H}_2\text{O}$  sistemasi eruvchanligi

Dastlab SKO‘ olish uchun termik ortofosfat kislota ishlataligan. Fosfat kislotani ammoniyash ammiakli suv bilan




hajmdor turdag'i jihozlarda amalga oshirilgan. Tayyor mahsulot mono- va diammoniyfosfat eritmalari bo'lib, tarkibida 8 % azot va 24 %  $P_2O_5$  bo'ladi. Ammo bunday tarkibda SKO' olish jarayoni termik fosfat kislota tannarxining kattaligi va kamyoobligi sababli keng ko'lamda qo'llanilmadi.

Keltirilgan sxema bo'yicha 8:24:0 turidagi SKO' olish uchun ekstraksion fosfat kislota ishlatish kislotada  $Ca^{2+}$ ,  $Mg^{2+}$ ,  $Fe^{3+}$ ,  $Al^{3+}$  va boshqa qo'shimchalar bo'lganligi sababli amalga oshmay qoldi. SKO' olishda kislotadagi qo'shimchalar suvda erimaydigan tuzlar –  $CaHPO_4 \cdot 2H_2O$ ,  $AlPO_4 \cdot 2H_2O$ ,  $FePO_4 \cdot 2H_2O$  va hokazo hosil qiladi, ular cho'kmaga tushadi, bu esa SKO'ni saqlash va ishlatishda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Cho'kmani SKO'dan ajratish va yuvishni uning tarkibiga kiradigan birikmalar mayda kristall va amorf xususiyatlari bo'lganligi tufayli amalga oshirib bo'lmaydi.


SFK va ammoniy polifosfatlari olish texnologiyalari yaratilgandan keyingina SKO' ishlab chiqarish yo'liga qo'yila boshlandi. Ortofosfatlar bilan solishtirilganda ammoniy polifosfatlari tarkibida 2-4 atom fosfor tutadi va yaxshi eruvchanlikka egadir. Bundan tashqari, ular 2- va 3-valentli metallar bilan suvda eruvchan turli xil kompleks birikmalar hosil qilish xususiyatiga ega, bu esa ekstraksion fosfat kislotani ammoniylashtirishda cho'kmalar hosil bo'lishini bartaraf etadi.

Polifosfatlarning bu sifati ular asosida olinadigan SKO'ning yuqori iste'mol sifatini ta'minlaydi: qattiq qo'shimchalarning amalda mavjud emasligi, ozuqa moddalarining yuqori konsentratsiyaliligi, kristallanish haroratining pastligi (minus 20°C gacha). Shunday xossal o'g'itli eritmalar olish uchun suyuq kompleks o'g'itlarda  $P_2O_5$  konversiya darajasini 55-57 % dan kam bo'lmasligini ta'minlash kerak.

SKO' olishda ammoniy polifosfatlarining hosil bo'lishi bevosita texnologik jarayonlarda, ya'ni uning 1-bosqichida – SFKni ammoniylashtirishda sodir bo'ladi. Bu jarayon soddalashtirilgan holda quyidagi reaksiyalar bilan ifodalanadi:




Ammoniy pirofosfatlari SFK tarkibiga kiradigan pirofosfat kislotani neytrallanishi hisobiga ham (2-reaksiya), ammoniy ortofosfatlarini neytrallanishi hisobiga ham (3-reaksiya) hosil bo'ladi. Vaholanki, SFKdagи pirofosfat kislotasi miqdori unchalik katta bo'lmaydi, fosfor polishaklining asosiy qismi degidratatsiya hisobiga hosil bo'ladi. Ortofosfatlar degidratatsiyasi 160-190°Cda boshlanadi, ammo bu haroratda jarayon juda sekin tezlikda boradi hamda talab etiladigan konversiya darajasiga yetishi uchun jarayon bir necha soat davom etadi. Harorat ortishi bilan degidratatsiya tezligi keskin ortadi va 300°C haroratda kerakli miqdordagi polifosfatlar 1 soatgacha vaqtida olinishi mumkin. Bu esa kislotani ammoniylashtirishni sodda va ixcham jihoz – quvurli reaktorda amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. SKO' olishda degidratatsiya jarayoni avtotermitik sodir bo'ladi, ya'ni jarayon uchun talab etiladigan harorat superfosfat kislotani ammoniylashtirish issiqligi hisobiga ta'minlanadi. SFKnı ammoniylashtirish issiqlik effekti 1 kg bog'langan azot hisobiga ~6200 kj ni tashkil etadi. Boshlang'ich kislotasi konsentratsiyasi qanchalik yuqori bo'lsa, ammoniylashtirish harorati ham yuqori bo'ladi va olinadigan SKO'da P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> konversiyasi katta bo'ladi (5.5-rasm). Quvurli reaktorda ammoniylashda 55-60 % konversiya darajali SKO' olishni ta'minlash uchun superfosfat kislotaning minimal konsentratsiyasi 63-65 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> bo'lishi kerak.



**5.5-rasm.** SKO'dagi P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> konversiya darajasi (1) va ammoniyash harorati (2) ning boshlang'ich kislotasi konsentratsiyasiga bog'liqligi

$P_2O_5$  konversiya darajasi quvurli reaktorga kirdigan ammiak:kislota ( $N:P_2O_5$ ) nisbatiga ham bog'liqdir. Bu nisbat ortishi natijasida kislota bilan ta'sirlashadigan  $NH_3$  miqdori ortadi (5.6-rasm). Shunga muvofiq holda ajraladigan issiqlik miqdori va ammoniyash harorati ortadi. SFK uchun bog'lanadigan ammiak ulushining shunday ortishi, faqat kirishdagi  $N:P_2O_5$  nisbat qiymati ~0,20 ga teng bo'lguncha sodir bo'ladi. Reaktorga beriladigan  $NH_3$  miqlorining bundan keyingi ortishi hech qanday samara bermaydi. Shuning uchun SFKdan foydalilaniganda reaktorga SKO' olish uchun talab etiladigan ammiak miqdorining ~70 % beriladi, qolgan qismi esa eritmani keyingi qo'shimcha ammoniyashda ishlataladi.




**5.6-rasm.** Reaktorga kirishdagi ammiak va fosfat kislota nisbatining suyuqlanganmadagi  $N:P_2O_5$  nisbatiga ta'siri: boshlang'ich kislota konsentratsiyasi: 1 – 53,2; 2 – 62,5; 3 – 69,2.

SFKga nisbatan past konsentratsiyali fosfat kislota ishlataliganda hosil bo'ladigan fosfatlardagi azot to'la me'yordagi ammiakni (kirishda  $N:P_2O_5$  nisbati – 0,294) reaktorga bergunga qadar eng katta miqdorgacha ortadi. Bu holda maksimal issiqlik effekti hosil qilish uchun quvurli reaktorga SKO' olish uchun kerak bo'ladigan ammiakning barcha miqdori beriladi. Kislotani ammoniyashtrish jarayonidagi haroratda hosil bo'ladigan tuzli komponentlar suyuqlanma holatida bo'ladi hamda tuzlar suyuqlanmasi, suv

bug'i va ta'sirlashmagan ammiakdan iborat gaz-suyuqlik aralashmasi tarzida quvurli reaktordan chiqadi. Bu aralashma keyinchalik suvda eritiladi, SKO' eritmasi hosil qilinadi.




Tuzlar suyuqlanmasi eritilganda polifosfatlar gidroliz jarayoni sodir bo'lishi mumkin. Gidroliz – polifosatlarga suv birikishi bilan bog'liq bo'lgan degidratatsiyaga nisbatan qaytar jarayondir va polifosatlarning ortofosatlarga aylanishidir:



Gidroliz juda ham o'rinsiz jarayon bo'lib,  $P_2O_5$  polishakli ulushini kamaytiradi, bu esa SKO' sifatini yomonlashishiga olib keladi (cho'kmalar paydo bo'lishi va hokazo).

Yuqori haroratda va eritma pH qiymati kichik bo'lganda gidroliz tezligi keskin ortadi. Shuning uchun polifosfatlar gidrolizidan xalos bo'lish uchun eritma suyuqlanmani eritish jarayonida  $pH=6-7$  gacha qo'shimcha ammoniylanadi va uni oldindan sovutilgan ko'p miqdordagi SKO' bilan aralashtirish orqali  $60-70^{\circ}C$  haroratgacha tez sovutiladi. Qo'shimcha ammoniylash quvurli reaktorda ta'sirlashmagan ammiak hisobiga ham, qo'shimcha beriladigan ammiak hisobiga ham amalga oshiriladi.

Qo'shimcha ammoniylashda bitta almashingan ammoniy orto- va polifosfatlarining bir qismi 2- va 3-almashingan tuzlarga aylanadi:



SKO' turg'unligiga boshlang'ich kislota tarkibidagi qo'shimchalar ta'sir ko'rsatadi. Masalan,  $SO_3$  miqdorining 5 % gacha ortishi konversiya darajasining ortishiga olib keladi. Kislotada fтор birikmalari bo'lganda SKO' eritmasi turg'unligi ortadi.

SFKni ammoniylash jarayonida reaktor ichki yuzasiga cho'kindilarning muntazam o'tirib qolishi – inkrustatsiya kuzatiladi. Bu jarayon halqa tuzilishli  $(Fe,Al)(PO_3)_3$  va chiziqli tuzilishli  $(Fe,Al)NH_4HP_3O_{10}$  turidagi suvda erimaydigan birikmalar hosil bo'lishi bilan bog'liqdir.


Boshlang'ich kislota tarkibida  $\text{Fe}_2\text{O}_3$ ,  $\text{Al}_2\text{O}_3$ ,  $\text{MgO}$  qo'shimchalari miqdorining ortishi reaktordagi inkrustatsiyani jadallashtiradi, reaktor samaradorligini kamaytiradi.

#### 4-§. Suyuq kompleks o'g'itlar ishlab chiqarish texnologik sxemasi

Suyuq kompleks o'g'itlar olish texnologik jarayoni quyidagi ishlarni o'z ichiga oladi:

- SFKni qabul qilish va saqlash;
- suyuq kompleks o'g'itlar eritmasi olish;
- tayyor mahsulotlarni saqlash va tashish.

**Superfosfat kislotani qabul qilish va saqlash** (5.7-rasm).



**5.7-rasm.** SFK qabul qilish va saqlash tarmog'i texnologik sxemasi: R1, R2 – SFK ombori; P3, P4, P5, P6 – rotatsion nasoslar; CH1 – moy statsiyasi; E6 – issiqlik almashirgich; B17 – hajmdor idish; P16 – uchplunjlerli nasos; TR1 – sisternalarni to'xtatish uchun qurilma; R17 – sisternalarni yuvish qurilmasi.

Superfosfat kislota ishlab chiqarish korxonasiga sig'imi 60  $\text{m}^3$  bo'lgan maxsus temiryo'l sisternalarida keltiriladi. Sisterna


kislotasi bilan tortiladi va tushirish moslamasiga bog'lanadi. 4 ta sisterna tagiga tushirish moslamasi o'rnatiladi. Tushirishdan oldin sisternalardagi harorat o'lchanadi: agar harorat 60°C dan past bo'lsa, kislota sisternaning o'zida qizdiriladi. Buning uchun sisterna ichiga o'rnatilgan isitish quvuriga 0,2 MPa (2 kgs/sm<sup>2</sup>) bosimli bug' yuboriladi. Bug' kollektori sisterna bilan tez ajratiluvchi shlang bilan biriktiriladi. Kislota 60-70°Cgacha qizdirilgandan so'ng bug' berilishi to'xtatiladi. Sisternaning quyish jo'mragidan shlang orqali rotatsion nasos yordamida omborga tushiriladi. Kislota tushishini tezlashtirish uchun sisternaga 0,065 MPa (0,65 kgs/sm<sup>2</sup>) bosimda havo beriladi. Ombordagi kislota harorati 60-70°Cda ushlab turiladi. Harorat pasayganda SFKni qizdirish 0,4 MPa (4 kgs/sm<sup>2</sup>) bosimdagagi to'yingan suv bug'i bilan qizdiriladigan issiqlik almashtirigichga kislotani quvurdagi aylanma harakati orqali amalga oshiriladi. Superfosfat omborlariga aralashtiruvchi qurilmalar o'rnatilgan bo'ladi.

Temiryo'l sisternalari va uzatish quvurlari 3-5 MPa (30-80 kgs/sm<sup>2</sup>) bosimdagagi suv bilan yuviladi. Me'yorida ishlashini ta'minlash uchun rotatsion nasoslarga 1,2-1,4 MPa (12-14 kgs/sm<sup>2</sup>) bosimda moy stansiyasidan moylash suyuqligi (moy) yuboriladi.

**Ammoniy polifosfatlari eritmasi olish** (5.8-rasm). Ombordan rotatsion nasos – me'yorlashtirgich P10 orqali quvurli reaktorga superfosfat kislota beriladi. Kislota reaktorga rotor nasosi – me'yorlashtirgichning aylanish soni o'zgarishiga qarab me'yorlashtiriladi.

Reaktorga uzatishdan oldin kislota issiqlik almashtirigich E7da 0,4 MPa (4kgs/sm<sup>2</sup>) bosimdagagi bug' bilan 80°C haroratgacha qizdiriladi.

1,4 MPa (14kgs/sm<sup>2</sup>) bosimdagagi suyuq ammiak korxona tizimidan «quvurdagi quvur» turidagi F2 o'z-o'zinisovutish tizimiga beriladi, u yerda ammiakdagagi gaz fazasini kondensatsiyalash uchun qo'shimcha sovutiladi. Sovutilgandan so'ng qurilmaga beriladigan ammiak miqdori o'lchanadi. So'ngra suyuq ammiak 0,7 MPa (7 kgs/sm<sup>2</sup>) bosimgacha drosellanadi va issiqlik almashtirigich E1 ning quvurlararo bo'shlig'iga beriladi.



**5.8-rasm.** SKO' eritmasi olish tarmog'i texnologik sxemasi: P10(P11) – SFK me'yorlashtirgich-nasoslari; E1, E4, E7 – issiqlik almashtirgichlar; A2 – ammiakning o'z-o'zini sovutgichi; E2 – ammiak bug'latgich; E3 – ammiak isitgich; A6A, A6B – quvurli reaktorlar; A3 – nasos; R3, R4 – hajmdor idishlar; P17(P18), P22(P23) – nasoslar.

Issiqlik almashtirgich quvurlari ichidan omborga yuboriladigan tayyor mahsulot harakatlanadi va u kelayotgan ammiak bilan  $40^{\circ}\text{C}$  dan  $25^{\circ}\text{C}$  gacha sovutiladi. Bunda suyuq ammiak  $14^{\circ}\text{C}$  haroratda qisman bug'lanadi. So'ngra ammiak bug'latgich E2 ga tushadi, u yerda bug'latgich quvur bo'shilig'iga  $65^{\circ}\text{C}$  haroratda beriladigan SKO' eritmasi issiqligi hisobiga ammiakning to'la bug'lanishi sodir bo'ladi. Tarkibida suyuq ammiak tomchilari bo'lgan gaz holatidagi ammiak qizdirgich E3 ga keladi, u yerda issiqlik almashtirgich quvurlararo bo'shilig'iga  $0,4 \text{ MPa}$  ( $4 \text{ kgs/sm}^2$ ) bosimda beriladigan to'yingan suv bug'i bilan  $50^{\circ}\text{C}$  haroratgacha qizdiriladi.

Qizdirilgandan so'ng qariyb 70 % ammiak qo'shimcha neytrallagichga o'rnatilgan reaktorga keladi. Unda ikkita reaktor o'rnatilgan bo'lib, ulardan biri ishchi, ikkinchisi esa zaxira holatida bo'ladi. Quvurli reaktorda superfosfat kislota-

ning ammiak bilan 300-350°C haroratda neytrallanishi sodir bo'ladi. Ammoniy orto- va metafosfatlarining suyuqlanma aralashmasi reaktordan qo'shimcha neytrallagichga o'tadi, u yerda SKO'ning aylanuvchi eritmasi va u bir vaqtida qo'shiladigan texnik suv yoki kondensat bilan suyultiriladi. Qo'shimcha neytrallagichning pastki qismida barbotaj qurilmasi joylashtirilgan bo'lib, u orqali eritmani pH=6,0-7,0 gacha qo'shimcha ammoniylashtirish uchun qolgan 30 % ammiak yuboriladi.

Qo'shimcha neytrallagichning yuqori qismi chiqindi gazlarini tozalash uchun skrubber vazifasini bajaradi va unda ikki qatlam to'ldirgich bo'ladi. Skrubber to'ldirgichning yuqori qatlamidagi R3 idishdan P17 nasos bilan uzatiladigan suv yoki kondensat hamda to'ldirgich quyi qatlami orqali ta'minlanadigan SKO' aylanuvchi eritmasi bilan sug'oriladi. Sug'oriladigan eritma o'z-o'zicha qo'shimcha neytrallagichning quyi qismiga oqib tushadi, u yerda reaktordan chiqadigan suyuqlanmani eritadi. Skrubber orqali gazlarning harakati tabiiy so'rilib hisobiga sodir bo'ladi.

Qo'shimcha neytrallagichdagi SKO' harorati bir qism sovutilgan eritmani qaytarish hisobiga 60-70°C da ushib turiladi. Buning uchun SKO' aylanishi nasos P20 bilan E2 va E4 issiqlik almashtirgichlar orqali amalga oshiriladi. Qo'shimcha neytrallagichdan chiqadigan SKO'ning bir qismi ammiak bug'latgichiga tushadi. Bug'latgichdan o'tgan eritma SKO'ning asosiy oqimi bilan qo'shiladi va E4 issiqlik almashtirgichga tushadi, u yerda aylanma suv bilan 40°C haroratgacha sovutiladi. Sovutilgandan so'ng SKO'ning bir qismi (~36 m<sup>3</sup>/soat) tayyor mahsulotning oraliq idishiga, ko'p qismi (~358 m<sup>3</sup>/soat) esa qo'shimcha neytrallagichga qaytariladi. Bunda skrubberning quyi qismidagi forsunkaga ~108 m<sup>3</sup>/soat eritma berilishi kerak, ~250 m<sup>3</sup>/soat eritma esa qo'shimcha neytrallagichga to'g'ridan to'g'ri qaytariladi. Tayyor mahsulot A4 oraliq idishdan P22 nasos bilan to'la sovutish uchun R1 issiqlik almashtirgichga va so'ngra tayyor mahsulot omboriga uzatiladi.

Oqavalar, kislotali kondensatlar, temiryo'l sisternalari yuvindilari R4 idishga yig'iladi, undan P18 nasos bilan suyuq-

lanmani eritish uchun qo'shimcha neytrallagich quyi qismiga beriladi.

**Tayyor mahsulotni saqlash va tashish** (5.9-rasm). Tayyor mahsulot SKO' olish qurilmasidan o'tkazish quvuri orqali har birining hajmi 20000 m<sup>3</sup> bo'lgan omborga yuboriladi. Saqlash paytida aylanma harakat yordamida SKO'ni muntazam aralashtirib turish amalga oshiriladi, bunda eritma tarkibi omboz hajmi bo'yicha bir xil bo'ladi va uning ostiga cho'kma tushishi oldi olinadi. Buning uchun rezervuarlar ostiga injeksiya turidagi forsunkalar bilan kollektorlar o'rnatiladi. Omboz osti yuzasi 5 ta sekxiyaga ajratiladi, ularning har birida alohida kirish bo'ladi. SKO' eritmasi ombordan P51(P52) nasoslar bilan 400 m<sup>3</sup>/soat tezlikda chiqariladi va yana sektorlardan biridagi kollektor orqali rezervuarga qaytariladi.


Sirkulyatsiya jarayonida eritma kirish joyida davriy ulanish-uzilish sodir bo'ladi va SKO' idishga beshta sektorning har biridan birin-ketin qaytariladi, natijada mahsulotning barcha massasi omboz hajmi bo'yicha bir tekisda aralashadi.

Qishki paytda SKO' kristallanishini oldini olish uchun sirkulyatsiya E5 issiqlik almashtirgichdan o'tkaziladi, u orqali eritmani isitish amalga oshiriladi. Issiqlik almashtirgichga bug' berish ombordagi harorat bo'yicha avtomatik boshqariladi.

P51(P52) nasos SKO'ni bir ombordan ikkinchisiga o'tkazishda ishlatalishi mumkin.

Tayyor mahsulot iste'molchiga temiryo'l yoki avtosisternalarda yetkazilishi mumkin.

Temiryo'l sisternalariga SKO' quyish P51(P52) nasoslari bilan amalga oshiriladi. Bunda bir vaqtning o'zida to'rtta sisterna to'ldiriladi. Avtosisternalarga P53(P54) nasoslar bilan 50 m<sup>3</sup>/soat tezlikda eritma to'ldiriladi. To'ldirilgan temiryo'l va avtosisternalar og'irligi tortiladi.



**5.9-rasm.** Tayyor mahsulotni saqlash va tashish tarmog'i texnologik sxemasi:  
R5, R6 – SKO' ombori; E5 – issiqlik almashtirgich; P51(P52), P53(P54) –  
nasoslar

**Suyuq kompleks o'g'itlar ishlab chiqarish texnologik tartibi va texnologik sxemasini ishlatish** (5.3-jadval). Texnologik tartib me'yori – texnologik jarayonni xavfsiz o'tkazishni ta'minlaydigan harorat, bosim, daraja, sarf, pH, zichlik qiymatlariga talablar hamda texnik shartlar barcha talablariga javob beradigan tayyor mahsulot olish bo'yicha o'rnatiladi.


Suyuq kompleks o'g'itlar issiq va sovuq aralashtirish usullari bilan ishlab chiqariladi. Yirik korxonalarda fosfat yoki polifosfat kislotani ammiak bilan neytrallash orqali issiq aralashtirishda ammoniy orto- va polifosfatlarining asosiy eritmalarini olinadi. Sovuq aralashtirish usuli iste'molchiga yaqin hududda kichik qurilmalarda ishlataladi. Bunda o'g'it – asosiy eritmaga karbamid, ammoniy nitrat, kaliy tuzlari qo'shish orqali ozuqa moddalarining talab etiladigan nisbatida tayyorlanadi.

5.10-rasmda suyuq kompleks o'g'itlar ishlab chiqarish sxemalaridan biri tasvirlangan. Bu sxema bo'yicha termik fosfat kislotasi 60°C haroratda ammiakli suv bilan neytrallanadi.

5.3-jadval

**SKO‘ ishlab chiqarish texnologik tartibining asosiy ko‘rsatkichlari**

Ko‘rsatkich	Jihozning tas-virdagi raqami	Ko‘rsatkich qiymati
1	2	3
Superfosfat kislotani qabul qilish va saqlash		
Tushirishda sisternadagi SFK harorati, °C	-	60-70
Sisternadagi SFKnii isitish uchun bug‘ning bosimi, MPa (kgs/sm <sup>2</sup> )	-	0,2 (2)
SFKni isitishda issiqlik almashtirgichdan chiqishda uning harorati, °C	E6	70-80
SFKni saqlash harorati, °C	R1, R2	60-70
Suyuq kompleks o‘g‘it olish		
Reaktorga tushadigan SFK miqdori, t/soat	A6A, A6B	25 gacha
Reaktorga kirishda SFK harorati, °C	E7	75-80
Reaktorga kirishda SFK bosimi, MPa (kgs/sm <sup>2</sup> )	A6A, A6B	≤ 0,6 (6)
Qurilmaga tushadigan suyuq NH <sub>3</sub> miqdori, t/soat	A2	6,1 gacha
O‘z-o‘zini sovutish tizimigacha suyuq NH <sub>3</sub> bosimi, MPa (kgs/sm <sup>2</sup> )	A2	≥ 1,4 (14)
O‘z-o‘zini sovutish tizimididan so‘ng suyuq NH <sub>3</sub> bosimi, MPa (kgs/sm <sup>2</sup> )	A2	0,7 (7)
Bug‘latgichda suyuq ammiak darajasi, %	E2	30-70
Isitgichdan so‘ng gaz holatidagi ammiak harorati, °C	E3	45-55
Isitgichdan so‘ng gaz holatidagi ammiak bosimi, MPa (kgs/sm <sup>2</sup> )	E3	0,65-0,75 (6,5-7,5)
Reaktorga kiradigan gaz holatidagi ammiak miqdori, t/soat	A6A, A6B	4,3 gacha
Qo‘sishmcha neytrallagichga kiradigan gaz holatidagi ammiak miqdori, t/soat	A3	1,8 gacha
Reaktordagi harorat, °C	A6A, A6B	≥ 300
Qo‘sishmcha neytrallagichdagi SKO‘ harorati, °C	A3	60-70
Issiqlik almashtirgichdan so‘ng sirkulyatsiyalanuvchi SKO‘ harorati, °C	E4	40
Omborga berishda SKO‘ harorati, °C	-	25
Qo‘sishmcha neytrallagichga beriladigan suv, t/soat	A3	19,5 gacha
Qo‘sishmcha neytrallagichdagi SKO‘ zichligi, g/sm <sup>3</sup>	A3	1,400-1,430
Qo‘sishmcha neytrallagichdagi SKO‘ pH qiymati	A3	6-7
Tayyor mahsulotni saqlash va tashish		
SKO‘dagi P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> massa ulushi, %	R5, R6	≥ 34
SKO‘dagi N massa ulushi, %	R5, R6	≥ 10
Konversiya darajasi, %	R5, R6	≥ 57
Suvda erimaydigan qoldiq massa ulushi, %	R5, R6	≤ 0,3



**5.10-rasm.** Suyuq kompleks oʻgʻitlar ishlab chiqarish sxemasi: 1-vakuum-nasos; 2-temiryoʻl sisternasi; 3-markazdar qochma nasoslar; 4-sifonli qurilma; 5-fosfat kislota saqlagichi; 6 - quyuvchi baki; 7-rotametrlar; 8- ammiakli suv bilan taʼminlash baki; 9-fosfat kislota neytrallagichi; 10-tuzlarni eritish uchun jihoz; 11-oxirgi aralashtirish (aralashtirishni tugallash) uchun jihoz; 12-SKO’ ombori; 13,14-taʼminlagichli bunker.


Soʻngra eritmaga ( $\text{pH} = 6,5 \div 7,5$ ;  $\text{NH}_3 \cdot \text{H}_3\text{PO}_4 = 1,8 \div 1,9$  molyar nisbati) karbamid va kaliy xlorid qoʼshiladi. Olinadigan suyuq oʻgʼit tarkibida 27 % ozuqa elementlari (9–9–9) boʼladi.

1 t oʻgʼit ishlab chiqarish uchun: 0,17 t fosfat kislota (53 %  $\text{P}_2\text{O}_5$ ), 0,155 t ammiakli suv (20,5 % N), 0,126 t karbamid (46 % N), 0,150 t KCl (60 %  $\text{K}_2\text{O}$ ) va  $0,4 \text{ m}^3$  suv sarflanadi.

Ortofosfat (40–54 %  $\text{P}_2\text{O}_5$ ) yoki polifosfat (68–88 %  $\text{P}_2\text{O}_5$ ) kislotalarni yuqori haroratli ( $210\text{--}250^\circ\text{C}$ ) ammoniylashtirish orqali olinadigan ammoniy polifosfatlar eritmalarini asosida yuqori konsentratsiyali oʻgʼitlar asosi: 10–34–0, 11–37–0 va boshqalar tayyorlanadi. Bu eritmalarini uchlamachi suyuq oʻgʼitlar ishlab chiqarish uchun ishlatish naf keltirmaydi, chunki ulardagagi ozuqa moddalar konsentratsiyasining yigʼindisi ortofosfat kislota ishlatilgandagiga nisbatan koʼp boʼlmaydi.

10-34-0 markali SKO' ishlab chiqarishda odatda 68-72 %  $P_2O_5$  li, ma'lum miqdori (25-40 %) kondensirlangan shakldagi ekstraksion polifosfat kislota ishlatiladi. Jarayon – 70-120°C haroratgacha qizdirilgan kislotani kichik hajmdagi (o'tish vaqtি 0,1-0,2 s) quvurli reaktorda 1,38 MPa bosim ostida beriladigan gaz holatdagi ammiak bilan neytrallash orqali amalga oshiriladi (5.11-rasm). Reaktorning bir soatdagi ishlab chiqarish unumdorligi kislota bo'yicha 17 t (50 t/soat 10-34-0 markali SKO') bo'lganda uning hajmi 0,3-0,4 m<sup>3</sup> tashkil etadi; reaktordagi harorat 270-380°C ga teng. Neytrallanishni  $NH_3:P_2O_5$  molyar nisbati 3 ga yaqin bo'lganda o'tkaziladi. Reaktordan chiqadigan suyuqlanma dastlabki ammoniyashtirgichga tushadi, u yerga ammiakli suv va gaz holatdagi ammiak, shuningdek issiqlik almashtirgichning sovuq eritmasi ham kiritiladi. Ammoniyashtirgichda 50-90°C haroratda va pH = 5÷6,2 da hosil bo'ladigan eritmaning qisman issiqlik almashtirgichga – birin-ketin reaktor va dastlabki ammoniyashtirishga qaytib kelish orqali uzatiladi, qisman esa – suyuq ammiakni bug'latgichga va so'ngra gaz holatdagi ammiak pH = 6,2÷6,7 gacha bilan qo'shimcha neytrallanishga uzatiladi. 25-35°C haroratli tayyor SKO' omborga yuboriladi.

Tarkibida 10,8 % N va 33,8 %  $P_2O_5$  bo'lgan mahsulotdagi fosfatli komponentlarning taxminiy tarkibi: 14 % orto-, 13 % piro-, 4 % tripoli-, 3 % tetrapoli-shakllarda (poli-shakllarning ulushi 58 %) bo'ladi; uning kristallanish harorati –17,5°C, pH = 6, 25°C haroratdagi zichligi – 1420 kg/m<sup>3</sup> ga teng. 10-34-0 markali SKO' – 52-54 %  $P_2O_5$  konsentratsiyagacha bug'latilgan ekstraksion fosfat kislotani aralashtirgichli silindrik reaktorlarda gaz holatdagi ammiak bilan neytrallash asosida ham olinishi mumkin. Boshlang'ich kislota 150-200°C haroratgacha qizdiriladi hamda reaktordan va aralashtirgichdan ajralib chiqadigan ammiakni tutib qolish uchun scrubberga beriladi. So'ngra belgilangan me'yordagi kislota reaktorga berib turiladi, u yerda 240°C haroratda ammoniy polifosfatlarining suyuqlanmasi hosil bo'ladi.



5.11 – rasm. Polifosfat kislotalar asosida suyuq kompleks o’g’illar ishlab chiqarish sxemasi:  
 1,4,7,8,10,11,17,19,22 – nasaqlar; 2,5 – qizdigichilar; 3,21 – omchorlar; 6 – hamkor idishlar;  
 9,18 – yig’gichilar; 11 – qizdigichilar; 12,20 – issiqlik almashingichlar; 13 – bug’ latgich;  
 14 – qo’shimcha neytallagich; 15 – absotsiya kolonkasi; 16 – qurvili reaktor

Suyuqlanmani eritish 80-85°C haroratda aralashtirgichda amalga oshiriladi, u yerga ammiakli suv va (agar lozim bo'lsa) gaz holatdagi ammiak beriladi. Aralashtirgichda hosil qilinadigan SKO' tarkibida muallaq mayda qattiq zarrachalar (aluminiy va temir fosfatlari) bo'ladi. Mahsulotdagi kondensirlangan fosfatlar ulushining 20-40 dan 50-60 % gacha ortishi natijasida muallaq zarrachalar keskin kamayadi.

Qoratog' fosforitidan (NamMPI, prof.Q.G'afurov boshchiligidagi izlanishlar natijalari asosida) olingen, ionitli usul bilan ma'lum darajada tozalangan va ammoniy nitrat ishtirokida 50-60 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> gacha bug'latilgan ekstraksion fosfat kislota tarkibida ham qandaydir darajadagi polifosfatlar bo'ladi, chunki kislota tarkibidagi qo'shimchalar polifosfatlar hosil bo'lishini kuchaytiradi. Shunday kislotani 180-220°C haroratdagi quvurli reaktorda dastlab gaz holatdagi ammiak bilan neytrallash, hosil qilingan suyuqlanmani sirkulyatsiyali sovutilgan (35-40°C gacha) SKO' eritmasi va ammiakli suv (lozim bo'lsa gaz holatdagi ammiak) bilan 50-90°C haroratda pH = 6,2÷6,7 gacha bilan qo'shimcha neytrallanish orqali yaxshi fizik-kimyoviy xossaga ega bo'lgan SKO' ham olingen.

Talab etilgan tarkibdagi SKO' olish uchun 10-34-0 va 11-37-0 eritmalar asosi kichik quvvatlari (0,2-2,5 ming t/yil) qo'zg'olmas va harakatlanuvchi qurilmalarda azot va kaliy tutgan komponentlar bilan aralashtiriladi. Buning uchun aalashtirgichga sovuq eritma asosi, karbamid, ammoniy nitrat, kaliyli tuz, mikroelementlar beriladi. Aralashtirishni 35-45°C haroratda va komponentlarni jadal aralashtirilgan holda o'tkaziladi; tayyor SKO' omborga jo'nataladi. Buday qurilmalar ko'pincha 50 km masofagacha joylashgan iste'molchiga suyuq o'g'it yetkazib berishda foydalilaniladi.

Muallaq holatda erimaydigan tuzlar, stabilizatorlar va boshqa moddalardan iborat mayda dispersiyali suyuq kompleks o'g'itlar — *suspenziyali suyuq kompleks o'g'it* (SSKO') lar deyiladi. SSKO' sifati — uning zichligi, qovushqoqligi, qattiq zarrachalar o'lchami, qattiq fazaning cho'kish darajasi va pH bilan tavsiflanadi.

SSKO' ning turg'unligini oshirish uchun bentonitli gillar va shunga o'xhash qo'shimchalardan foydalilaniladi. Ular

suspenziyani quyultirsada, ammo kristallar o'sishini to'xtatadi, ularning cho'kish tezligini kamaytiradi va kristallarning muallaq holatda turishini ta'minlaydi. Bunda ammiak qo'shilganda (kislota kiritilgandan so'ng yoki ularni bir vaqtida kiritish) suspenziyalovchi agent ta'siri yanada samaraliroq bo'ladi. SSKO'ni texnologik tayyorlashda ularning juda sekin taqsimlanishi ta'minlab turilishiga rioya qilinadi. Barqaror suspenziyalangan o'g'itlar turg'unlashtiruvchi agentlarsiz ham olinishi mumkin, bunda komponentlar kiritishning belgilangan tartibiga qat'iy rioya qilinishi kerak. SSKO'ga kiritishdan oldin barcha qattiq komponentlar 0,85 mm dan katta bo'limgan o'lchamgacha maydalanishi kerak.

KCl mayda kristallarini ishlatish SSKO'da uning cho'kishini bartaraf etadi. Eritmani  $25^{\circ}\text{C}$  gachasovutilishi natijasida kaly xloridning eruvchanligi kamayadi. Uning sekinlik bilan eritilishi kaly nitratning beqaror shakldagi kristallari hosil bo'lishini yo'qotadi.

Bir xil shakldagi va belgilangan o'lchamdagagi kristallar hosil qilish uchun kalyli komponentlar qo'shishdan oldin gilli suspenziya sovutiladi. O'g'itlarni issiq aralashdirishda ammoniy fosfatning qaynoq eritmasiga qattiq tuzlarni qo'shmaslik kerak. Bunda tuzlarning yirik kristallar hosil qilgan holda qayta kristallanishi kuzatiladi. Yaxshisi dastlab ammoniy fosfat eritmasi tayyorlanadi, uni sovutiladi, so'ngra 0,85 mm dan mayda o'lchamdagagi kaly xlorid zarrachalari qo'shiladi.

SSKO' konsentratsiyasining ortishi kristallarning o'sishi va cho'kish tezligiga ta'sir etmaydi, ammo sistemaning qovushqoqligi ortadi. Shuning uchun talab etiladigan konsentratsiya va qovushqoqlikni ta'minlab turish kerak. Bu esa qattiq zarrachalarning tez cho'kib qolishini oldini oladi. SSKO' konsentratsiyasining yuqori chegarasi uning jihozlar texnik tavsifiga muvosiq keladigan maksimal qovushqoqligi orqali aniqlanadi.

7-20-0 markali suspenziyalantirilgan suyuq kompleks o'g'it (SSKO') – ekstraksion fosfat kislota va ammiakli suv asosidagi sekin yoyiladigan, loyqali suspenziyadir. Uning tarkibida 6,5-8,0 %N, 19-21 %  $\text{P}_2\text{O}_5$  bo'ladi. O'g'itning pH = 6,0÷7,5 ga teng bo'lishi kerak; tinilish darajasi – 50 % dan

kam emas; uni saqlash va tashish  $-15^{\circ}\text{C}$  dan past bo'limgan haroratda yopiq uglerodli po'latdan yasalgan ishdishlarda amalga oshirilishi kerak.

### 5-§. Suyuq kompleks o'g'itlar olish moddiy va energetik hisoblari

**Moddiy hisoblar** asosida SKO' ishlab chiqarishdagi asosiy komponentlar sarfi aniqlanadi.

Tayyor mahsulot bo'yicha qurilmaning belgilangan bir soatlik unumdorligiga SFK, ammiak va suvning sarfi (t/soat hisobida) quyidagicha hisoblanadi:

*SFK:*

$$G_{SFK} = \frac{G_{SKO} \cdot C_{P_2O_5}^{SKO}}{C_{P_2O_5}^{SFK}}$$

bu yerda:  $G_{SKO}$  – tayyor mahsulot bo'yicha unumdorlik, t/soat;

$C_{P_2O_5}^{SKO}$  – SKO'dagi  $P_2O_5$  massa ulushi, %;

$C_{P_2O_5}^{SFK}$  – SFKdagi  $P_2O_5$  massa ulushi, %.

*Ammiak:*

$$G_{NH_3} = \frac{G_{SKO} \cdot C_N \cdot 17}{100 \cdot 14}$$

bu yerda:  $G_N$  – SKO'dagi azotning massa ulushi, %;

17 – ammiakning molyar massasi;

14 – azotning atom massasi.

*Suv:*

$$G_{H_2O} = G_{SKO} - G_{SFK} - G_{NH_3}$$

50 t/soat unumdorlikda 10:34:0 turidagi SKO' ishlab chiqarish uchun boshlang'ich komponentlarning bir soatlik sarfi (t/soat hisobida) quyidagilarni tashkil etadi:

*SFK* ( $P_2O_5$  massa ulushi 70 %):

*Ammiak:*

*Suv:*

$$G_{H_2O} = 50 - 24,3 - 6,1 = 19,6.$$

**Issiqlik hisoblari** asosida qo'shimcha neytrallagichdagi belgilangan haroratda sirkulyatsiyalanadigan SKO' eritmasi miqdori ham, qo'shimcha neytrallagichdagi belgilangan sirkulyatsiya qaytaligi sonida harorat ham aniqlanishi mumkin.

Misol tariqasida «reaktor-qo'shimcha neytrallagich» tizimida issiqlik balansini tuzamiz hamda qo'shimcha neytrallagichdagi belgilangan hajmda sirkulyatsiyalanuvchi eritma va SKO' haroratlarini aniqlaymiz.

**Issiqlik kiriimi**, kj/soat:

*superfosfat kislota bilan:*

$$Q_1 = 24300 \cdot 1,76 \cdot 80 = 3421440,$$

bu yerda: 24300 — quvurli reaktorga beriladigan SFK, kg/soat;

1,76 — SFK solishtirma issiqlik sig'imi, kj/kg·K;

80 — reaktorga kirishdagi SFK harorati, °C;

*ammiak bilan:*

$$Q_2 = 6100 \cdot 2,24 \cdot 50 = 683200,$$

bu yerda: 6100 — quvurli reaktorga beriladigan ammiak, kg/soat;

2,24 — ammiak solishtirma issiqlik sig'imi, kj/kg·K;

50 — reaktorga kirishdagi ammiak harorati, °C;

*suv bilan:*

$$Q_3 = 19600 \cdot 4,19 \cdot 20 = 1642480,$$

bu yerda: 19600 — qo'shimcha neytrallagichga kirdigan suv, kg/soat;

4,19 — suvning issiqlik sig'imi, kj/kg·K;

20 — suvning harorati, °C;

*sirkulyatsiya eritmasi bilan:*

$$Q_4 = 500000 \cdot 2,93 \cdot 40 = 58660000,$$

bu yerda: 500000 — qo'shimcha neytrallagichga qaytariladigan sirkulyatsiya SKO' eritmasi miqdori, kg/soat;

2,93 — SKO' solishtirma issiqlik sig'imi, kj/kg·K;

50 — qo'shimcha neytrallagichga qaytariladigan SKO' harorati, °C;

*kimyoviy reaksiya issiqligi*, kj/soat:

$$Q_5 = 6100 \cdot 6200 = 37820000,$$

bu yerda: 6100 — quvurli reaktorga beriladigan ammiak, kg/soat;

6200 – SFKni ammoniylash issiqlik effekti, kj/kg NH<sub>3</sub>;  
*umumiy issiqlik kirimini* quyidagini tashkil etadi, kj/soat:

$$Q_k = Q_1 + Q_2 + Q_3 + Q_4 + Q_5 = 3421440 + 683200 + 1642480 + \\ + 58660000 + 37820000 = 102227000.$$

***Issiqlik sarfi***, kj/soat:

*reaktorda ortofosfatlar degidratatsiyasiga:*

$$Q_2 = \frac{17000 \cdot 18 \cdot 80 \cdot 838}{142 \cdot 100} = 1444712,$$

u yerda: 17000 – qurilmaning P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> bo‘yicha unumдорлигি,  
kg/soat;

18 – suvning molyar massasi;

80 – SKO‘да конверсиya darajasi, %;

838 – ortofosfatlar degidratatsiya reaksiyasi issiqlik  
effekti, kj/kg H<sub>2</sub>O;

142 – P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> molyar massasi;

*go‘shimcha neytrallagichdan chiqadigan eritma bilan:*

$$Q_2 = (500000 + 24300 + 6100 + 19600) \cdot 2,93 \cdot X = 1611500 \cdot X,$$

bu yerda: 500000 – sirkulyatsiya eritmasi miqdori, kg/soat;

24300 – SFK miqdori, kg/soat;

6100 – ammiak miqdori, kg/soat;

19600 – suv miqdori, kg/soat;

2,93 – SKO‘ solishtirma issiqlik sig‘imi, kj/kg;

X – qo‘shimcha neytrallagichdagi harorat, °C.

*issiqlik yo‘qotilishi* (issiqlik kirimiga nisbatan taxminan 2 %), kj/soat:

$$Q_2 = 102227000 \cdot 0,02 = 2044540.$$

*issiqlikning umumiy sarfi* quyidagini tashkil etadi, kj/soat:

$$issiqlikning umumiy sarfi = 1444712 + 1611500 \cdot X + 2044540 =$$

$$Q_c = Q_1 + Q_2 + Q_3 = 3489252 + 1611500 \cdot X.$$

Issiqlik kirimini va sarfini tenglashtirib, kj/soat:

$$102227000 = 3489252 + 1611500 \cdot X \text{ hosil qilinadi.}$$

Bundan qo‘shimcha neytrallagichdagi harorat topiladi:

$$X = \frac{102227000 - 3489252}{1611502} = 61,3$$

Qo‘shimcha neytrallagich harorati – tayyor mahsulot bo‘yicha muntazam yuklamada sirkulyatsiya qaytaligi soni, ya’ni qo‘shimcha neytrallagichga qaytariladigan eritma miqdori va uning harorati bilan aniqlanadi.

P20(P21) nasoslar uzatishi orqali aniqlanadigan sirkulyatsiya qaytaligi soni amalda muntazam kattalik hisoblanadi.

Qaytariladigan eritma harorati katta chegarada o'zgarishi mumkin, chunki bu E2 va E4 issiqlik almashtirgichlar issiqlik unumdoorligiga bog'liqdir, issiqlik almashtirgichlar esa o'z navbatida issiqlik uzatish yuzasi ifloslanish darajasiga, sovituvchi suv berilishiga va boshqalarga bog'liq bo'ladi.

Qaytariladigan eritma haroratining o'zgarishi bilan qo'shimcha neytrallagichdagi SKO' harorati ham o'zgarishi mumkin:

Qaytariladigan eritma harorati °C:	40	45	50	55	60	65	70
Qo'shimcha neytrallagichdagi SKO' harorati, °C:	61	66	70	75	79	84	89

Shu bilan bir qatorda yuqori harorat polifosfatlar gidrolizini tezlashtiradi, shu sababli qo'shimcha neytrallagichdagi haroratning 70-75°C dan ortishi maqbul hisoblanmaydi.

#### **6-§. Suyuq kompleks o'g'itlar ishlab chiqarish asosiy texnologik jihozlari**

Suyuq kompleks o'g'itlar olish jarayoni uskunalar jihozlanishi soddaligi bilan ajralib turadi. Asosiy jihozlarga hajmdor idishlar, issiqlik almashtirgichlar va nasoslar kiradi.

Superfosfat kislota qabul qilish va saqlash tarmog'i quyidagi asosiy jihozlar bilan ta'minlangan:

*Superfosfat kislota ombori R1, R2.* Ko'pgina SKO' qurilmalarida har birining hajmi 2000 m<sup>3</sup> bo'lgan rezervuar ko'rinishidagi ikkita superfosfat omborlari bo'ladi. Rezervuarning balandligi 13,6 m ni, diametri 14 m ni tashkil etadi. Omborga aralashtiruvchi qurilma — kurakchalar diametri 4 m, aylanish chastotasi 34,5 min<sup>-1</sup>, quvvati 45 kVt, nikelli zanglamas po'latdan tayyorlangan propeller turidagi uchkurakchali aralashtirgich o'matilgan. Rezervuar korpusi uglerodli po'latdan tayyorlangan bo'lib, o'z-o'zicha vulkanlanadigan butilkauchuk bilan niqoblangan. Niqob


qalinligi rezervuar yuqori qismida 4 mm, quyi qismida 8 mm ni tashkil etadi. Rezervuar ichining pastki qismi (osti) 65 mm qalinlikdagi uglerodgrafitli plitka bilan qoplangan. Ostining o'rta qismi – ishchi aralashtirgich doirasida qoplama qalinligi 140 mm gacha yetadi va plitka yuzasiga 5 mm qalinlikdagi zanglamaydigan po'lat list joylashtirilgan. Kislota aralashishini yaxshilash uchun rezervuar peremetri bo'yicha uchta ichki qovurg'alar tayyorlangan.

*Issiqlik almashtingich E6.* Ombordagi SFKni isitish uchun mo'ljallangan. Qobiqqoplamlali, grafitli. 13 ta blokdan iborat. Issiqlik almashinishning umumiy yuzasi  $139 \text{ m}^2$ , issiqlik unumdarligi 736350 kj/soat.

#### Texnik tavslifi

	Quvurlararo bo'shliq	Quvur ichki bo'shlig'i
Bosim, MPa (kgs/sm <sup>2</sup> )	0,4 (4)	0,6 (6)
Harorat, °C	150	80
Muhit	Bug'	SFK
Hajmi, l	816	721


*SFKni uzatish nasoslari P3–P6.* Gorizontal, rotatsion, hajmiy ishlaydigan, ikki rotorli. Qovushqoqligi 3000 mPa·s gacha bo'lgan suyuqliklarni uzatish uchun mo'ljallangan. Zanglamaydigan nikelli po'latdan tayyorlangan. Uzatish  $37 \text{ m}^3/\text{soat}$ , uzatish balandligi 60 m, rotoring aylanish chastotasi  $141 \text{ min}^{-1}$ . Elektrodvigatel quvvati 15,8 kWt, aylanish soni  $1400 \text{ min}^{-1}$ . Rotatsion nasoslar ishchi qism qurilmasi 5.12-rasmida keltirilgan.



5.12-rasm. SFK uzatish uchun rotatsion nasosning ishchi qismi: 1-korpus; 2-yetaklovchi rotor; 3-boshqaruvchi rotor.

Suyuq kompleks o‘g‘itlar eritmasi olish tarmog‘iga quyidagi asosiy jihozlar kiradi:

*Reaktorlar A6A va A6B* (5.13-rasm). Bu reaktorlar quvur turida va  $\Gamma$ -shaklida bo‘ladi. Zanglamaydigan po‘lat (EI-943) dan tayyorlangan  $90^\circ$  burchak ostida payvandlangan ikkita quvurdan iboratdir. Ichki diametri 250 mm, gorizontal qism uzunligi 4900 mm, vertikal qismi uzunligi esa 3600 mm. Ikkitा reaktor o‘rnataladi – ishchi va zaxira reaktorlari.




5.13-rasm. SFKnı ammoniyash uchun quvurli reaktor sxemasi

Qurilma ishlaganda reaktorning ichki yuzasi inkrustatsiya hisobiga muntazam kichrayib boradi. Bunda reaktorning gidravlik qarshiligi ortadi u  $0,4\text{--}0,6 \text{ MPa}$  ( $4\text{--}6 \text{ kgs/sm}^2$ ) ga yetganda reagentlar uzatilishi zaxira reaktoriga o‘tkaziladi. Reaktor ichki yuzasidagi inkrustatsiya mexanik yoki kimyoviy usulda yo‘qotiladi. Reaktorni kimyoviy tozalashda uni 40-50 % li KOH eritmasi bilan yuviladi. Yuvishtdan so‘ng hosil bo‘ladigan eritma suv bilan suyultiriladi va SKO‘ ishlab chiqarishda ishlatiladi.

SKO‘ olishning ko‘pgina qurilmalarida inkrustatsiya va korroziya ta’sirini kamaytirish uchun reaktor gorizontal qismi ichiga suv bilan sovutiladigan gilza joylashtiriladi. Bunday maqsad uchun reaktorning gorizontal va vertikal qismlari uchun suv beriladi.

Sharoitga bog'liq holatda reaktorning uzlusiz ishlash vaqtiga 4-8 sutkani tashkil etadi.

*Nasoslar* — *superfosfat kislota me'yorlashtirgichlari* P10 va P11, tuzilishi bo'yicha SFK uzatish nasoslariga o'xshaydi. Rotor aylanish sonini o'zgartiradigan moslama o'rnatilgan bo'lib, suyuqliklarni 1-16 m<sup>3</sup>/soat intervalida uzatishni ta'minlaydi.



*Qo'shimcha neytrallagich A3* (5.14-rasm) — vertikal silindrik jihozdir. Uchta qismdan iborat: qo'shimcha neytrallagich (quyi qismi), chiqindi gazlarini tozalash uchun skrubber (o'rta qismi) va chiqarish quvuri. Qo'shimcha neytrallagichga ikkita reaktor o'rnatilgan: ishchi va zaxira. Qo'shimcha neytrallagich quyi qismida ammiak kiriishi uchun barbotajli qurilma bo'ladi.

**5.14-rasm.** Qo'shimcha neytrallagich:  
1-qo'shimcha neytrallagich; 2-skrubber;  
3-chiqarish quvuri; 5,7-suyuqlik ta'minlagich; 6,8-to'ldirgichlar;  
9-reaktor qurilmasi uchun quvur;  
10-barbotajli qurilma

*Tayyor mahsulot oraliq hajmdor idishlari A4* — gorizontal payvandlangan 10 m<sup>3</sup> hajmlli silindrik idishdir.

*Issiqlik almashtingich E7.* SFKn reaktorga uzatishdan oldin qizdirish uchun mo'ljallangan. Qobiqqoplamlami, grafitli. 8 blokdan iborat. Issiqlik almashinish yuzasi 37 m<sup>2</sup>, issiqlik unumdorligi 1634100 kj/soat.

### Texnik tavsifi

	Quvurlararo bo'shliq	Quvur ichki bo'shlig'i
Bosim, MPa (kgs/sm <sup>2</sup> )	0,4 (4)	0,10 (10)
Harorat, °C	150	100
Muhit	Bug'	SFK
Hajmi, l	288	196

*Issiqlik almashtirgich* E4. Sirkulyatsiyalanuvchi SKO'ni sovutish uchun mo'ljallangan. Gorizontal, qobiqqoplamlali, quvur bo'shlig'i bo'yicha to'rt yo'lli. Issiqlik almashinish yuzasi 616 m<sup>2</sup>, issiqlik unumдорлиги 35028400 kj/soat, Δt<sub>o'r</sub> 24°C. Texnologik sxemada birin-ketin joylashgan ikkita issiqlik almashtirgich o'rnatilgan.

### Texnik tavsifi

	Quvurlararo bo'shliq	Quvur ichki bo'shlig'i
Bosim, MPa (kgs/sm <sup>2</sup> )	0,4 (4)	0,5 (5)
Harorat, °C	40	65
Muhit	Suv	SKO'
Hajmi, l	5100	3450

*Issiqlik almashtirgich* E1. SKO'ni omborga jo'natishdan oldin qo'shimcha sovutish uchun mo'ljallangan. Gorizontal, qobiqqoplamlali, quvur bo'shlig'i bo'yicha sakkiz yo'lli. Issiqlik almashinish yuzasi 205 m<sup>2</sup>, issiqlik unumдорлиги 2200000 kj/soat, Δt<sub>o'r</sub> 17°C.

### Texnik tavsifi

	Quvurlararo bo'shliq	Quvur ichki bo'shlig'i
Bosim, MPa (kgs/sm <sup>2</sup> )	0,7 (7)	0,5 (5)
Harorat, °C	14	25
Muhit	Suyuq ammiak	SKO'
Hajmi, l	1450	1150

*Ammiak bug'latgich* E2. Gorizontal, qobiqquvurli issiqlik almashtirgich, quvur bo'shlig'i bo'yicha to'rt yo'lli. Issiqlik almashinish yuzasi 175 m<sup>2</sup>, issiqlik unumдорлиги 1512860 kj/soat, Δt<sub>o'r</sub> 44°C.

### Texnik tavsifi

	Quvurlararo bo'shliq	Quvur ichki bo'shlig'i
Bosim, MPa (kgs/sm <sup>2</sup> )	0,7 (7)	0,5 (5)
Harorat, °C	14	65
Muhit	Ammiak	SKO'
Hajmi, l	1560	1250

*Ammiak qizdirgich* E3. Vertikal, qobiqquvurli biryo'lli issiqlik almashtirgich. Issiqlik almashinish yuzasi 12 m<sup>2</sup>, issiqlik unumdarligi 658420 kj/soat, Δt<sub>o'r</sub> 119°C.

### Texnik tavsifi

	Quvurlararo bo'shliq	Quvur ichki bo'shlig'i
Bosim, MPa (kgs/sm <sup>2</sup> )	0,4 (4)	0,7 (7)
Harorat, °C	150	50
Muhit	Bug'	Gaz holatidagi ammiak
Hajmi, l	70	35

*Markazdan qochma nasoslar* P20 va P21. Issiqlik almashtirgich jihizi orqali SKO' sirkulyatsiyasi uchun mo'ljallangan. Xromli cho'yandan tayyorlangan. Uzatish 50 m<sup>3</sup>/soat, uzatish balandligi 50 m. Elektrodvigatel quvvati 22 kWt, aylanish chastotasi 2950 min<sup>-1</sup>.

*Markazdan qochma nasoslar* P22 va P23. Tayyor mahsulotni omborga uzatish uchun mo'ljallangan. Xromli cho'yandan tayyorlangan. Uzatish 400 m<sup>3</sup>/soat, uzatish balandligi 41 m. Elektrodvigatel quvvati 132 kWt, aylanish chastotasi 1470 min<sup>-1</sup>.

Suyuq kompleks o'g'itlar saqlash va yuklash tarmog'iga quyidagi asosiy jihozlar o'rnatilgan:

*Tayyor mahsulot ombori* R5, R6. Ko'pgina SKO' qurilmalarida har birining hajmi 20000 m<sup>3</sup> bo'lgan ikkita ombor bo'ladi. Ayrimlarida esa – har biri 10000 m<sup>3</sup> dan 3 ta ombor bo'ladi. Ombor tubi tekis va qopqog'i sferik bo'lgan payvandlangan silindrik shakldagi rezervuar ko'rinishida bo'ladi. Balandligi 12000 mm, diametri 45600 mm. Uglerodli po'latdan tayyorlangan, ichki yuzasi epoksid asosidagi lak-

bo‘yoq materiallari bilan qoplangan. Rezervuar ostiga sirkulyatsiyalanuvchi SKO‘ni kirishi uchun besh seksiyali kollektor joylashtirilgan. Rezervuarning pastki qismiga SKO‘ni qizdirish uchun issiqlik almashtirgich biriktirilgan.

*Issiqlik almashtirgich* E5. Tayyor mahsulot omborida SKO‘ni qizdirish uchun mo‘ljallangan. Gorizontal, qobiqquvurli, bir yo‘lli. Issiqlik almashinish yuzasi  $30 \text{ m}^2$ , issiqlik unumдорлиги  $4219500 \text{ kj/soat}$ ,  $\Delta t_{o-r} 112^\circ\text{C}$ .

#### Texnik tavslifi

	Quvurlararo bo‘shliq	Quvur ichki bo‘shlig‘i
Bosim, MPa (kgs/sm <sup>2</sup> )	0,2 (2)	0,4 (4)
Harorat, °C	25	150
Muhit	SKO‘	Bug‘
Hajmi, l	225	225

*Markazdan qochma nasoslar* P51 va P52. Ombordagi SKO‘ sirkulyatsiyasi va SKO‘ni temiryo‘l sisternalariga yuklash uchun mo‘ljallangan. Xromli cho‘yandan tayyorlangan. Uzatish  $400 \text{ m}^3/\text{soat}$ , uzatish balandligi 30 m. Elektrodvigatel quvvati 90 kWt, aylanish chastotasi  $1410 \text{ min}^{-1}$ .

*Markazdan qochma nasoslar* P53 va P54. SKO‘ni avtosisternalarga yuklash uchun mo‘ljallangan. Xromli cho‘yandan tayyorlangan. Uzatish  $50 \text{ m}^3/\text{soat}$ , uzatish balandligi 50 m. Elektrodvigatel quvvati 30 kWt, aylanish chastotasi  $2950 \text{ min}^{-1}$ .

### **7-§. Suyuq kompleks o‘g‘itlar ishlab chiqarish texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari**

Suyuq kompleks o‘g‘itlar ishlab chiqarish muhim texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlaridan biri tayyor mahsulot tannarxi hisoblanadi.

*Tannarx* – mahsulot birligi ishlab chiqarishga sarflanadigan mablag‘ni ifodalaydi. Mahsulot tannarxi qanchalik past bo‘lsa, korxona daromadi shunchalik ko‘p bo‘ladi. Korxona

daromadi mahsulot narxi va uning tannarxi orasidagi farq bo'yicha aniqlanadi.

*Tannarx kalkulyatsiyasi (hisobi)* — xomashyo, energoresurslar, jihozlar va ularni ishlatish, ishchi va xizmatchilar maoshi, sex, zavod va ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlarni aniqlash hamda barcha sarf-xarajatlar yig'indisidan iboratdir. 5.4-jadvalda 1 t SKO'ning to'la tannarxi alohida turdag'i xarajatlar ulushi bilan keltirilgan.

#### 5.4-jadval

#### SKO' tannarxining xarajatlarga taqsimlanishi

Xarajat turlari	Umumiy tannarxdagi ulushi, %
Xomashyo va yordamchi materiallar	94,0
Energoresurslar	0,9
Oylik maoshlari va ustama xarajatlar	0,2
Jihozlar va ularni ishlatish xarajatlari	3,3
Sex, zavod va ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlar	1,6
<b>Jami:</b>	<b>100</b>

5.4-jadvaldan ko'rindaniki, SKO' tannarxidagi asosiy xarajatlar ulushi xomashyoga to'g'ri keladi. Shuning uchun SKO' tannarxini pasaytirish omillaridan biri texnologik jarayonda ammiak va SFK yo'qotilishini kamaytirish hisoblanadi. Bunga jarayonning barcha bosqichlarida mo'tadil (optimal) rejimni ushlab turish hamda nazorat turlarini takomillashtirish orqali erishiladi.

1 t tayyor mahsulotga ajratilgan xomashyo va energoresurslar xarajatlari sarf me'yorlarini (koeffitsiyentlarini) tashkil etadi. Ular texnologik reglament bo'yicha aniqlanadi va hisobot ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Quyida eng yaxshi korxonalarda erishilgan 1 t P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> SKO' uchun sarf koeffitsiyentlari keltirilgan:

SFK (100 %), t .....	1,01
Ammiak (100 %), t .....	0,360
Texnologik suv, t .....	1,16
Aylanma suv, m <sup>3</sup> .....	47
Elektr energiyasi, kVt·soat .....	10
Bug', gkal .....	0,1

## **Pedagogik texnologiyalar interfaol strategiyalarining qo'llanilishi**

Mavzularni o'rganishda pedagogik texnologiyalarning quyidagi interfaol usullaridan foydalanish tavsiya etiladi: suyuq kompleks o'g'itlar va ularning turlari bo'yicha **klasterlar tuzish**; suyuq kompleks o'g'itlar ishlab chiqarish texnologiyalarini o'rganishda **insert usulidan** foydalanish; o'rganilgan materialni mustahkamlash uchun **sinkveynlar** yoki **Venn diagrammalari tuzish** va hokazo.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Suyuq kompleks o'g'itlarga qanday talablar qo'yiladi va ularning tarkibi qanday bo'ladi?
2. Suyuq kompleks o'g'itlarning fizik-kimyoviy xossalari tushuntiring.
3. Konversiya darajasi nima? U suyuq kompleks o'g'itlarda qanday ahamiyatga ega bo'ladi?
4. Suyuq kompleks o'g'itlar ishlab chiqarish xomashyolari va ularning xossalari tushuntiring.
5. Superfosfat kislotani qabul qilish va saqlash jarayonini tushuntiring.
6. Ammoniy polifosfatlari eritmasi olish jarayonini tushuntiring.
7. Tayyor mahsulotni saqlash va tashish jarayonini tushuntiring.
8. Suyuq kompleks o'g'itlar ishlab chiqarish texnologik tartibini tushuntiring.
9. Polifosfat kislotalar asosida suyuq kompleks o'g'itlar ishlab chiqarish texnologiyasini tushuntiring.
10. Suspenziyalı suyuq kompleks o'g'itlar deganda nimani tushunasiz? Ularning xossalari aytинг.
11. Superfosfat kislota ombori qanday tuzilgan va ishlash prinsipini tushuntiring.
12. SKO' olishda issiqlik almashtirgich nima maqsadlarda ishlataladi?
13. SKO' olishda nasoslar qanday vazifalarni bajaradi?

## **VI bob. KOMPLEKS MIKROO‘G‘ITLAR ISHLAB CHIQARISH NAZARIYASI VA TEXNOLOGIK HISOBLARI**

---

### **1-§. Mikroo‘g‘itlar. O‘simliklar rivojlanishida mikroelementlarning roli**

**Mikroo‘g‘itlar.** Mamlakatimizda va chet ellarda o‘tkazilgan tadqiqotlar ko‘rsatadiki, tarkibida mikroelementlar (Mn, Zn, Fe, B, Cu, Co va boshqalar) tutgan o‘g‘itlardan foydalanish natijasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hosildorligi va sifati yaxshilanadi. Mikroozuqa moddalari yetishmaganda o‘simliklarning me’yorida rivojlanishi va modda almashinuvi buziladi, mahsuldarligi kamayadi, turli xil kasalliklarga moyilligi ortadi.

Mikroelementlar mineral o‘g‘itlarning asosiy ozuqa elementlari o‘mini bosa olmaydi, faqatgina ular ta’sirini to‘ldiradi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish amaliyoti ko‘rsatishicha, mikroelementlar biri o‘mini boshqasi bosa olmaydi. Tuproqda mikroelementlar kam bo‘lganda qishloq xo‘jaligi o‘simliklari yetarlicha hosil bermaydi, o‘simlik esa turli kasalliklarga chalinishi mumkin. Keyingi yillarda qishloq xo‘jaligida mikroo‘g‘itlardan foydalanish miqyosi kengayib bormoqda. Ularni makroo‘g‘itlar tarkibiga kiritishda komponentlarning ta’sirlashishi natijasida sodir bo‘ladigan kimyoviy jarayonlarni ham e’tiborga olish kerak bo‘ladi.

**O‘simliklar rivojlanishida mikroelementlarning roli.** Tirik organizmlar va o‘simliklardagi birorta muhim biokimyoviy yoki fiziologik jarayon u yoki bu turdagи mikroelementlarsiz amalga oshmaydi.

Hozirgi paytda rux, mis, molibden, marganes, bor, kobaltning fiziologik va biokimyoviy roli anchagina o‘rganilgan, ularning o‘simliklar metabolizmidagi roli, to‘qimalardagi sintetik jarayonlardagi bevosita yoki bilyosita ishtiroki, organizmning o‘sishi va rivojlanishiga ta’siri yetarlicha aniqlangan. Bu

mikroelementlarning o'simliklardagi biologik jarayonlarga, uglevod almashinuviga, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga va fosforlanishga ta'sir etish mexanizmi o'rganilgan.

Mikroelementlar fermentlar tarkibida ishtirok etib, nuklein almashinuvida va oqsillar sintezida tengsiz aktivator vazifasini bajaradi, o'simlik to'qimalaridagi turli xil birikmalarda modda almashinuvi tezligi va energiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Mikroelementlar o'simlik organizmi metabolizmida muhim fiziologo-biologik vazifani bajaradi. Ular to'qimadagi sintetik jarayonlarda qatnashadi, xususan, o'simliklar o'sishi va rivojlanishida, shuningdek organizmdagi reaksiyaning tezligi va yo'nalishini belgilab beradi. Ular yetishmaganda organik moddalar sintezi, fosfor va azot almashinuvi buziladi, o'simlik to'qimalaridagi asosiy almashinish jarayonlari tezligi pasayadi.

Mikroelementlar tuproqda turli xil shakllarda bo'ladi va o'simliklarga turli darajada o'zlashadi. O'simliklar uchun kerak bo'ladigan mikroelementlarning tuproqda kam bo'lishi ularda turli xil kasalliklarni keltirib chiqaradi.

O'simliklar hayotiy faoliyatida har bir mikroelement o'ziga xos funksiyani bajaradi. Masalan, mis va molibden o'simliklar nafas olishi bilan bog'liq bo'lgan oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida, fotosintezda, azot va fosfor almashinuvida, shuningdek aminokislotalar va xlorofill biosintezida hamda molekulyar azot fiksatsiyasida qatnashadi. O'simliklar oziqlanishida misning yetishmasligi fermentlar faolligini pasaytiradi, xlorofill va nuklein kislotalarning me'yorida hosil bo'lishi hamda oqsillar biosintezi buziladi. Buning natijasida o'simlik hosildorligi pasayadi. Shakar lavlagidan yuqori hosil olishda ruxning katta ahamiyat kasb etishi ham aniqlangan. Shuningdek, rux ko'pchilik donli ekinlarda kasalliklarga chidamlikni oshiradi. Rux ta'sirida fosfor almashinuvi yaxshilanganligi sababli yuqori me'yorda fosforli o'g'itlar ishlatalganda ruxli o'g'itlarning samaradorligi aniqlangan.

Rux yetishmaganda g'o'zaga azotning o'zlashishi kamayadi, oqsil sintezi buziladi, natijada paxta hosildorligi pasayadi.

Dala sharoitida o'tkazilgan tajribalar natijasida mis, rux va molibden ammosof tarkibida paxta hosildorligiga va vilt bilan kasallanishning oldini olishga ijobiy ta'siri aniqlangan. Mikro-

elementlar o'simlikning o'sishiga, rivojlanishiga va hosil toplashiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Bunda kasallangan o'simlikdagi viltning 25-27 % ga kamayishi, hosildorlikning 10-13 % ga ortishi aniqlangan. Kasallangan o'simliklarda rux va molibdenga bo'lgan talab sog'lom o'simlikka nisbatan katta bo'ladi.

Mikroelementlarni asosiy o'g'itlar bilan birgalikda qo'llanilishi o'simliklarga azot o'zlashishini 5-9 % ga va fosfor o'zlashishini 4-5 % ga oshiradi, bu esa paxta hosildorligini 2,5 dan 7,0 s/ga ga oshishini ta'minlaydi.

Turli xil qishloq xo'jalik ekinlarining har xil mikroelementlarga bo'lgan talabi turli tuproqlarda bir xil bo'lmaydi.

Tuproqda kerakli shakldagi bor, marganes, mis, molibden, ma'lum sharoitlarda esa kobalt, rux, yod, vanadiy va boshqa mikroelementlar yetishmasa, qishloq xo'jaligi ekinlarida o'ziga xos kasalliklar yuzaga keladi, bu esa hosil sifati pasayishiga olib keladi. Bunday hollarda mos holdagi mikroo'g'itlardan foydalanish natijasida o'simliklar kasallanishi bartaraf etiladi va o'simlik mahsulotlari sifati yaxshilanadi. Mikroelementlar ta'sirida ko'pgina o'simliklardagi saxaridlar, kraxmal yoki oqsil, vitamin va yog'lar miqdori ortadi. Shuningdek, mikroelementlar qo'llanilganda o'simliklarning qurg'oqchilikka, haroratning ortishi va pasayishiga chidamliligi ortadi, zararkunandalar va kasalliklarga chidamliligi ortadi.

Qishloq xo'jaligining mikroo'g'itlarga bo'lagan talabi keyingi paytlarda mikroelementlar bilan boyitilgan asosiy shakllardagi oddiy va kompleks mineral makroo'g'itlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orgali amalga oshirilmoqda. Ularning iqtisodiy samaradorligi ham yuqori bo'lishi aniqlangan.

Mikroo'g'itlar – bu mis, rux, temir, kobalt, molibden, marganes, bor, saxarozalar, shuningdek fosfor, azot, kaliy, kalsiyidan iborat kompleks bo'lib, u tuproqqa ijobiy ta'sir ko'rsatadi, uning hosildorligini anchagina oshiradi va kimyoviy kuchlanishini kamaytiradi. Bunday o'g'itlar tuproqning foydali sifatlarini saqlashni kafolatlaydi, uning hosil yetishtirish sifatini yaxshilaydi, o'simliklarning sovuqqa chidamliligin oshiradi va

hosildorlikni 100 % gacha oshishini ta'minlaydi. Mikroo'g'itlar hozirgi paytda eng kerakli va muhim mahsulotlardan biri hisoblanadi.

Mikroo'g'itlar kuzgi, lalmi (bahorgi), texnik ekinlar uchun ham, sabzavotlar uchun ham ishlataladi, urug' va danaklar ularda ivitiladi, hosildorlik yetarlicha oshadi, olinadigan mahsulotning fitoftoroz bilan zararlanishi hamda nitrat va radionuklidlar miqdori kamayadi.

Keyingi paytlarda NANO – agrokimyoviy texnologiyalarga katta qiziqish / paydo bo'lmoqda. NANO ning muhim xususiyati – o'simlikshunoslik, chorvachilik va tibbiyot texnologiyalarida makro- va mikroelement kukunlaridan foydalanish orqali dunyo miqyosida katta ijobiy o'zgarishlar yuzaga kelmoqda.

NANO asosidagi o'g'itlar – metall tuzlarining kukuni bo'lib (**nanoo'g'itlar**) – bu kimyoviy elementlarning (Mn, Zn, Fe, B, Cu, Co va o'simliklar hayot faoliyati uchun muhim bo'lgan boshqa elementlar) maxsus tanlab olingan kompleksdir, o'g'itning tarkibi va nisbati har bir agroekinlar hamda ularning rivojlanish fazasi uchun alohida-aohida ishlab chiqiladi.

NANO mineral o'g'iti zarrachalarining o'simlik to'qimalarida tarqalish tezligi juda yuqori bo'ladi – bir necha sekunddan 20 minutgacha, bu esa o'simliklardagi biokimyoviy jarayonlar sifatiga tezkor ta'sir ko'rsatishni ta'minlaydi.

NANO – agronomik texnologiya bu:

- tuproqda kimyoviy kuchlanishni bir necha bor kamaytirish;

- tuproqdagi mikro- va makrobiotiklar tiklanishi hisobiga tuproq unumdotligini regeneratsiyalash;

- to'la oziqlanish va teng taqsimlanish hisobiga o'simliklar tabiiy himoya kuchini tiklash;

- agroekinlarning qurg'oqchilikka, suvuq va issiqqa chidamliligini oshirish;

- barcha agroekinlar hosildorligini 20 dan 100 % gacha oshirish;

- o'simlik mahsulotlari sifatini oshirish (masalan, bug'doy doni sifatini 1-2 birlikka ko'tarish);

-mahsulot ishlab chiqarishga sarflanadigan energetik va material xarajatlarni kamaytirish, shuningdek ishlab chiqarish rentabelligini o'stirish;

-«sifat halqasi»ni yo'lga qo'yish: o'simlik mahsulotlari sifati - chorvachilik mahsulotlari sifati - inson hayot faoliyati sifatini ta'minlash.

Fosforli, azotli va kaliyli o'g'itlardan foydalanish hamma vaqt ham kerakli natijani beravermaydi. Buning asosiy sababi tirik organizmlar normal hayot faoliyati uchun kerakli va kam konsentratsiyada bo'ladigan kimyoiy elementlar - mikroelementlarning tuproqda yetishmasligi yoki bo'lmaslididir. Binobarin, yuqori sifatli hosil olish uchun o'simliklarning mineral oziqlanishida tuproqqa asosiy elementlardan tashqari mikroelementlarni ham to'ldirib turish darkor bo'ladi.

Mikroo'g'itlar - o'g'itlarning alohida muhim guruhi bo'lib, ular ko'pgina turli xil komponentlar bilan bir qatorda o'simliklar uchun kerak bo'ladigan mikroelementlardir. Qishloq xo'jaligida borli, marganesli, kobaltli, molibdenli, misli va ruxli o'g'itlar keng miqyosda qo'llaniladi. Shu bilan bir qatorda ozuqa sifatida yoddan foydalilanadi.

Mikroo'g'itlar - tarkibida uncha ko'p bo'lмаган miqdorda mikroelementlar tutgan o'simliklar tomonidan o'zlashtiriladigan moddalardir. Ular borli, misli, marganesli, ruxli, kobaltli va boshqa turlarga, shuningdek tarkibida ikki va undan ortiq mikroelementlar bo'lgan polimikroo'g'itlarga bo'linadi. Mikroelementlar sifatida mikroelementlar tuzlari, sanoat chiqindilari va boshqalar ishlataladi.

Mikroelementlarning eng samarador shakllariga xelatlar ( $Zn$ ,  $Cu$ ,  $B$ ,  $Mo$ ,  $Fe$ ,  $Co$ ) va organik molekulalar tarkibidagi birikmalar (boretanolamin va boshqalar) kiradi.

## 2 §. Mikroo'g'itlar va ularni ishlab chiqarish

**Borli o'g'itlar.** Bor - bu rangsiz qattiq kristall modda bo'-lib, u tabiatda erkin holatda uchramaydi. Tuproqqa borat kislota va uning tuzlari tarzida beriladigan harakatchan (o'simlikka o'zlashadigan) bor miqdori nafaqat tuproq hosil

qiluvchi jinslardagi bu kimyoviy elementning mavjud bo‘li-shiga, balki tuproqning mexanik tarkibiga ham bog‘liq bo‘ladi.

O‘g‘itlar bilan beriladigan yoki tuproq qatlamlarida hosil bo‘ladigan borat kislota qiyin o‘zlashadi va namlik ta’sirida oson yuviladi, shu sababli namlik yuqori bo‘ladigan hududlarda bu mikroelement harakatchanligi sababli tuproqlar kambag‘allashadi. Tuproqda borni ko‘proq ushlab turish uchun mutaxassislar tomonidan ohaklash tavsiya etiladi. Bunday hollarda mazkur kimyoviy elementning organik birikmalari barqarorlashadi, lekin o‘simlik ildiz tizimi orqali o‘zlashishi kamaymaydi. Ohaklash jarayonida borning mineral birikmalari ham o‘z xususiyatini yo‘qotmaydi.

O‘simlikning borli ozuqaga talabini bir necha belgilar ko‘rsatib turadi: ekin o‘zagi va tanasining o‘sishi sekirlashadi, so‘ngra butunlay to‘xtaydi, xlorofill hosil bo‘lishi buziladi, barglari sarg‘ayadi, oq dog‘lar paydo bo‘ladi, so‘ngra quriydi.

Turli ekinlardagi borning miqdori 1 kg quruq modda hisobida 2 dan 60 mg gachani tashkil etadi. Qand lavlagi, beda, yo‘ng‘ichqa, zig‘ir, kungaboqar, paxta, ko‘pgina donli ekinlar, shuningdek sabzavotlar va mevali o‘simliklar bor yetishmovchiligiga anchagina ta’sirli hisoblanadi. Bor yetishmaganda javdar, suli, arpa va bug‘doy kam darajada zararlanadi. Ko‘pgina tajriba va eksperimentlar natijasida turli tuproqlarga borli o‘g‘itlar solish hosildorlikni qand lavlagida 10-15 s/ga ga, zig‘irda 0,8-1,5 s/ga, beda va yo‘ng‘ichqada 0,5-1,5 s/ga ga oshirish mumkinligi aniqlangan. Borli o‘g‘itlar paxta hosildorligini 1,5-6,5 s/ga gacha oshirishi mumkin.

Bor mikroelementi nafaqat hosildorlikni oshirishda, balki yetishtiriladigan hosil sifatini yaxshilashda ham muhim o‘rin tutadi: shakar lavlagida saxarid moddalari, no‘xatda oqsillar, mevalarda vitamin va saxaridlar miqdori ortadi. Tarkibida bor tutgan qo‘srimchalar ta’sirida paxta va zig‘ir tolalari uzunligi ortadi, ular anchagina pishiq bo‘ladi. Borli o‘g‘itlar turli shakllarda ishlatiladi: tuproqqa to‘g‘ridan to‘g‘ri solinishi, urug‘larni ekishdan oldin ishlov berilishi, o‘simlik tanasidan tashqariga sepilishi (bargi orqali oziqlantirilishi) mumkin.

Borli superfosfat (0,2 % B) va bor-magniyli aralashma (13 %  $H_3BO_3$  va 20 % MgO) tuproqqa ekish paytida urug‘ bilan

birgalikda solinadi. Qand lavlagi, no'xat, makkajo'xori, grechka, beda, yo'ng'ichqa, paxta va sabzavot ekinlariga solinadigan borli superfosfat me'yori  $10\text{ m}^2$  maydonga 300-350 g ni tashkil etadi. Agar o'simliklar qator oralab ekilgan bo'lsa, me'yor  $10\text{ m}^2$  maydonga 80 g gacha kamayadi. Zig'ir, poliz ekinlari, yeryong'oq kabilarda bu o'g'it me'yori ikki marta kam bo'ladi. Mineral o'g'itlar bilan birga solinadigan bor-magniyli o'g'it ma'yori  $10\text{ m}^2$  maydonga 100 g ni tashkil etadi, qatorlarga solishda me'yor birmuncha kamayadi va  $10\text{ m}^2$  maydonga 30-35 g ni tashkil etadi.

Urug'larni ekishdan oldin ishlov berish borat kislotaning 0,05 % li eritmasi yoki bor-magniyli o'g'it eritmasi (1 kg uruqqa 3-5 g hisobida) bilan amalga oshiriladi, mutaxassislar taklifiga binoan bunday amaliyotni hasharotlarga qarshi zaharli kimyoviy vositalar bilan urug'larga ishlov berish jarayonida bajarish maqsadga muvofiqdir.

O'simlik o'zaksiz oziqlanishi uchun ma'lum konsentrasiyadagi borat kislotasi ishlatiladi. Bunda oziqlantirish turli o'simliklar uchun har xil davrlarda amalga oshiriladi: qand lavlagi qatorlariga ekishdan oldin, makkajo'xori – ko'chat unib chiqish paytida, no'xat va beda – gullashidan oldin ishlov beriladi.

Borli o'g'itlar eng keng tarqalgan mikroo'g'it hisoblanadi. Borat kislotasi  $\text{H}_3\text{BO}_3$  va uning tuzlari borli konsentrlangan o'g'it hisoblanib, uning tarkibida 99,6-99,7 %  $\text{H}_3\text{BO}_3$  bo'ladi.

Urug'larga purkashda uni texnik talk bilan aralashtirilib, tarkibidagi  $\text{H}_3\text{BO}_3$  14-16 % gacha yetkaziladi. Ko'p hollarda esa uni oddiy va qo'shaloq superfosfatlar hamda nitroammonofskalarga qo'shib ishlatiladi. Bu maqsadlarda asosan bura  $\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$  dan foydalaniladi. Mahsulot sifatida ishlatiladigan buraning yuqori navida 99,5 % va 1-navida esa 94 % asosiy modda bo'ladi. Bundan tashqari 1- va 2-navdagisi kalsiy borat ( $45 \pm 0,75$  %  $\text{CaO}$  va 40 % dan kam bo'limgan  $\text{B}_2\text{O}_3$ ) ham borli o'g'it sifatida ishlatiladi. Mustaqil ravishdagi mikroo'g'it sifatida esa sanoat chiqindilari va tabiiy boratlar ishlatiladi.

Borli o'g'itlar olishda ayrim tuzli ko'llarning suvlari, neft qazishdagi oqavalari, rudalarni boyitishdagi borli chiqindilar va

boshqalar ishlatiladi. Kul, torf va go'ng tarkibida ham ma'lum miqdordagi bor birikmalari bo'ladi. Kaliyning mineral tuzlari tarkibida esa 4-8 mg/kg atrofida bor bo'ladi.

Borat kislotasini ishlab chiqarishda tabiiy boratlarga sulfat kislotali ishlov beriladi. Bunda chiqindi sifatida 21-23 %  $MgSO_4$  va 1,8-2,5 %  $H_3BO_3$  bo'lgan eritma hosil bo'ladi. Uni sochma quritgichda bug'latish orqali quritiladi. Natijada mahsulot tarkibida 13 %  $H_3BO_3$  va 13 %  $MgO$  bo'lgan bormagniyli o'g'it olinadi. Shunday usul bilan bu eritmaga borat kislotasi qo'shib quritish orqali borli konsentrat ( $H_3BO_3$  20 % dan kam emas) olinadi. Bu o'g'itlar tarkibidagi magniy ham o'simliklar tomonidan yaxshi o'zlashtirila oladigan holatda bo'ladi. Shuning uchun bunday o'g'itlardan nafaqat borli o'g'it sifatida, balki magniyli o'g'it sifatida ham foydalaniлади.

**Molibdenli o'g'itlar.** Molibden – yorqin kulrang metall, tabiatda erkin holda ham, boshqa elementlar bilan birikmasi tarzida ham uchraydi. U o'simlikning o'sishi va rivojlanishini ta'minlovchi qator fiziologik jarayonlarda, ayniqsa, azot almashinuvida muhim rol o'ynaydi. Molibden gilli va bo'z tuproqlarda qumloq tuproqlarga nisbatan ko'p uchraydi. Tuproqda harakatchan molibden yetishmaganda o'simlik barglarida qo'ng'ir dog'lar paydo bo'ladi, yaproqning o'zi sarg'ish rangga kiradi va tezda so'liydi, bundan tashqari zararlangan o'simliklarning rivojlanishi keskin to'xtaydi. Tuproq qatlamlaridagi molibden ko'rsatkichi 0,15 mg/kg tuproq kattalikdan kamaymasligi kerak.

Molibdenli o'g'itlardan foydalanish nafaqat donli va boshqa turdag'i ekinlar hosildorligini oshirishda, balki ular sifatini yaxshilanishida ham muhim o'rinni tutadi, masalan molibden ta'sirida no'xatdag'i proteinlar miqdori 2-4,5 % ga ortadi. Molibdenli o'g'itlar, xususan, ammoniy molibdat urug'larni ekishdan oldin ishlov berish vositasi uchun ishlatiladi. No'xat va boshqa ekinlarga ishlov berish uchun 1 kg urug' hisobiga 0,25-0,3 g o'g'it va 0,2 kg suv, 1 kg beda urug'i uchun esa 5-8 g ammoniy molibdan va 0,3-0,5 l suv ishlatiladi. Molibdenli superfosfat tuproqqa beda, no'xat, qator dukkakli va boshqa ekinlar urug'lari bilan  $10\text{ m}^2$  ekiladigan

maydonga 50 g hisobida beriladi. O'simliklarni o'zaksiz oziqlantirishda ammoniy molibdat ( $10 \text{ m}^2$  maydonga 0,02 g hisobida) shonalash va gullash boshlanishida beriladi.

Molibdenli o'g'itlar sifatida asosan suvda eruvchan ammoniy paramolibdat  $3(\text{NH}_4)_2\text{O}\cdot 7\text{MoO}_3\cdot 4\text{H}_2\text{O}$  yoki ammoniy molibdat  $5(\text{NH}_4)_2\text{O}\cdot 12\text{MoO}_3\cdot 7\text{H}_2\text{O}$  hamda ammoniy-natriy molibdat ishlatiladi. Ularni ferroqotishmadan elektrolampochka va boshqa korxonalar chiqindilaridan olinadi. Nitroforskaga ( $0,2\pm 0,05\%$  Mo), qo'shaloq superfosfatga ( $0,2\pm 0,02\%$  Mo) va oddiy supersfosfatga ham ( $0,13\pm 0,03\%$  Mo) qo'shiladi.

**Marganesli o'g'itlar.** Marganes kumushrang-oq tusli metall bo'lib, tabiatda kislород va boshqa kimyoviy elementlar bilan birikma holatida uchraydi, tuproqdagi uning miqdori quruq modda hisobida 21 dan 6400 mg/kg gacha bo'ladi.

Marganesning harakatchanligiga tuproqda bo'ladigan oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, marganesning ikki valentli birikmalari o'simlik o'zak tizimiga o'zlashish uchun qulay bo'lgan asosiy mikroelement hosil qilgan holda suvda yaxshi eriydi. Shu bilan bir vaqtida to'rt valentli ko'rsatkichgacha oksidlanadi va ko'pchilik o'simliklar o'zlashtira olmaydigan birikmaga aylanadi. Marganesning yuqori valentli birikmalari esa tuproqda boradigan oksidlanish-qaytarilish jarayonlarida ikki valentli birikmalarga aylanishi ham mumkin. Tuproq kislotaliligi va qulay sharoit (tuproq qatlamiga atmosfera kislородining kirishi kamayishi yoki butunlay kirmasligi, haroratning mo'tadil ko'rsatkichi, yuqori namlik) tuproqdagi marganes eruvchanligini oshiradi, natijada u harakatchan bo'ladi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, ortiqcha miqdordagi marganes o'simlik rivojlanishining umumiy holatiga yaxshi ta'sir ko'rsatmaydi. Ko'pgina hollarda mazkur mikroelement kislotali tuproqlarda o'sadigan o'simliklarning zaharlanishiga olib kelishi aniqlangan. Ortiqcha miqdordagi marganesga qand va ozuqali lavlagilar, beda va yo'ng'ichqa o'ta sezgir bo'ladi. Bunday ta'sirni tuproqni ohaklash yo'li bilan kamaytiriladi. Tuproqqa azotli, ayniqsa, ammiakli o'g'itlar solinganda o'simliklarda marganes faol o'zlashadi. Aksincha, tuproqni ohaklash mazkur kimyoviy element harakatchanligini kamaytiradi, uning ekinda o'zlashishini qiyinlashtiradi.

Marganes o'simliklarga nisbatan ko'p miqdorda beriladi, ko'pgina ekinlarda u 1 kg quruq modda hisobiga 8 dan 325 mg gacha bo'ladi. Qand va ozuqali lavlagilar, paxta, kanop, makkajo'xori, kuzgi bug'doy yaproqlari, tanasi va urug'i, olma va gilos mazkur mikroelementga boy bo'ladi. Kartoshka, no'xat va boshqa donli ekinlarda marganes kam bo'ladi.

O'simliklarga marganes yetishmaganda ularning bargida dog'lar paydo bo'ladi, vaqt o'tishi bilan bu dog'lar qorayadi, barg to'qimalari zararlanadi va so'liydi. Ko'pgina hokatlarda marganes yetishmasligi tufayli nafaqat o'simlik barglari, balki zararlanish o'simlikning butun tanasini qamrab oladi, o'simlikning hosildorligi keskin kamayadi. Ayniqsa bu qand lavlagida, gilosda, malinada, olmada yaqqol namoyon bo'ladi.

O'simliklarda marganes yetishmovchiligi ayrim hollarda butunlay yo'qolib ketadi, bu ayniqsa, yog'ingarchilikdan so'ng tuproq namligi ortganda seziladi, bunda marganesning harakatchanligi ortadi.

Marganesli o'g'itlar bilan o'simliklar o'zakli yoki o'zaksiz oziqlanishi, urug'lariga ishlov berilishi mumkin, u nafaqat o'simlik hosildorligini oshirishda, balki yetishtiriladigan hosil sifatiga ham yaxshi ta'sir ko'rsatadi. O'simliklarda oqsil, yog'lar, vitaminlar va qand moddalari miqdori ortadi.

Qand lavlagi, donli, yog'li va sabzavot ekinlari uchun 10 m<sup>2</sup> maydon hisobiga 200-200 g miqdorida marganesli superfosfat ishlatiladi. O'zaksiz oziqlantirish uchun 10 m<sup>2</sup> maydon hisobiga 0,15-0,2 g marganes sulfat ishlatiladi.

O'simlik urug'lari marganes sulfat bilan ekishdan oldin ishlov berilganda yuqori samara beradi. Mazkur tadbir quruq usulda amalga oshiriladi, buning uchun mikroo'g'it yaxshilab quritiladi, maydalanadi va talk (oq yoki yashil rangdagi maydalangan silikatli mineral) bilan aralashtiriladi, bu urug' sirtiga marganes mikroo'g'itini yaxshi yopishishini ta'minlaydi. Barcha komponentlar nisbati qaysi uruqqa ishlov berilishiga bog'liq bo'ladi. Makkajo'xori va no'xatga 1 kg urug' hisobiga 0,5 g marganes sulfat va 2-3 g talk olinadi, qand lavlagi uchun - 1 g mikroo'g'it, 4 g talk va hokazo. Marganesli o'g'itlar sifatida marganes rudalarini boyitishdagi quyqumlar ishlatiladi. Bu quyqumlar quritilgach, uning tarkibidagi MnO<sub>2</sub> miqdori 14

% gacha yetadi. Suvda eruvchi o‘g‘it sifatida karbonatli marganes rudasini yoki MnO ni sulfat kislotali ishlashdan hosil bo‘ladigan MnSO<sub>4</sub>·5H<sub>2</sub>O ham ishlatiladi. Uni oddiy superfosfatga ham (1,5±0,5 % Mn) qo‘shiladi.

**Misli o‘g‘itlar.** Mis – qizg‘ish tusli metall bo‘lib, yumshoq, o‘z navbatida mustahkam – tabiatda erkin holatda ham (tug‘ma mis), boshqa kimyoviy elementlar bilan birikmalar holatida ham uchraydi. Tuproq qatlamicidagi harakatchan mis miqdori quruq modda hisobida 0,05 dan 0,14 mg/kg chegarasida bo‘ladi.

Mazkur mikroelement o‘simlikka suvda eriydigan birikmalar tarzida o‘zlashadi (bu tuproqdagi uning umumiyligining o‘rtacha 1 % ni tashkil etadi). Tabiatda misning suvda eriydigan birikmalari mineral – nitrat, sulfat, xlorid kislotalar va organik (limon, sirka, yantar va boshqa) kislotalar tuzlari tarzida bo‘ladi. Mazkur kimyoviy element birikmalarini yuqori harakatchanligi bilan ajralib turadi va tuproq qatlamida oson yuviladi. Tuproqda misning mustahkam turishi uchun mutaxassislar tomonidan misli o‘g‘itlar bilan bir qatorda organik birikmalar va karbonatlar ishlatish tavsiya etiladi. Shuni ham ta’kidlash lozimki, ishqoriy va hatto neytral reaksiyali tuproqlarda, shuningdek tuproq qatlami balchiqli bo‘lganda misning harakatchanligi kamayadi.

Neytral tuproqlarda turli organik moddalar bilan birikib bu kimyoviy element mustahkam, suvda qiyin eriydigan komplekslar va suvda amalda erimaydigan mineral tuzlar hosil qiladi. Masalan, tuproq muhitini pH = 7 ga teng bo‘lganda mis toza holatda umuman uchramaydi, faqat kompleks birikmalar holatida bo‘ladi. pH qiymati 4,5 dan ortganda bu mikroelement tuproq eritmasida fosfatlar, karbonatlar, sulfidlar yoki gidratlar tarzida cho‘kadi.

Tuproqni ohaklash mis harakatchanligini kamaytiradi, uning tuproq qatlamida mustahkam turishini ta’minlaydi va o‘simlikka o‘zlashishi qiyinlashadi. Shunday qilib, tuproqqa misli o‘g‘itlar va ohakni bir paytda berilishi maqsadga muvofiqdir. Shuni ham ta’kidlash joyizki, tuproqdagi harakatchan mis 1,5 mg/kg dan ortmaganda misli o‘g‘itlarning ta’sir kuchi yaxshi bo‘ladi.

Turli xil ekinlardagi mazkur mikroelementning miqdori u yoki bu turdag'i o'simlikka va tuproq sharoitiga bog'liq bo'lib, 1 kg quruq modda hisobida 1,5 dan 26 mg gachani tashkil etadi. Tuproq qatlamida mis yetishmasligi kuzgi va lalmi bug'doyda, sulida, arpada, makkajo'xorida, lavlagida, mevali daraxtlarda va boshqa qator ekinlarda o'z ta'sirini yaqqol ko'rsatadi. Mis yetishmasligi ularda qator kasalliklarni keltirib chiqaradi: boshoq donining puch bo'lishi, zang kasalligi, barglarda xloroz va o'simlikning sekin o'sishi kuzatiladi.

Ekinlar hosildorligi oshishini ta'minlovchi hamda meva va urug'lar sifatini yaxshilaydigan misli o'g'itlar turli xil tarzda ishlatiladi: tuproqqa to'g'ridan to'g'ri berish orqali, o'zaksiz oziqlantirish yo'li bilan yoki urug'larni ekishdan oldin ishlov berish yo'li bilan oziqlantiriladi. Misli o'g'itlar bilan tuproqli oziqlantirish 4-5 yilda bir marta amalgalash oshiriladi. Buning uchun haydaladigan yoki chopiladigan har bir kvadrat metr maydonga 50-60 g misli pirit kuyundisi hisobidan ozuqa beriladi. Urug'larga ekishdan oldin ishlov berish uchun yaxshilab quritilgan va maydalangan mis(II)-sulfat bilan ishlov beriladi (1 kg urug' hisobiga 0,1-1 g o'g'it to'g'ri keladi). O'simliklarni o'zaksiz oziqlantirishda mis(II)-sulfat eng yaxshi o'g'it hisoblanadi. Uning 20-30 g miqdori 10 l suvda eritiladi va o'simlik rivojlanishga kirishdan oldin sepiladi. Lekin ekinnning barg yuzasi yetarlicha rivojlangan bo'lishi lozim.

Misli o'g'itlar faqatgina hosildorlikni oshirish uchungina emas, balki o'simlik va tirik organizmlarni kasalliklardan saqlash uchun ham xizmat qiladi (inson organizmida misga bo'lgan talab sutkasiga 2 mg ni tashkil etadi). Ko'pincha misli o'g'it sifatida mis metali ishlab chiqaruvchi korxonalarining kolchedan kuyundisi ishlatiladi. Uning tarkibida 0,3-0,6 % Cu, shuningdek Zn, Co va Mo mikroelementlari ham bo'ladi. Bundan tashqari misli o'g'it sifatida misli shlaklar va maydalangan mis rudalari ham ishlatiladi.

Konsentrangan misli o'g'it sifatida mis kuporosi  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  dan (23,4-24 % Cu tutgan) foydalilanadi. Uni asosiy o'g'it bilan birgalikda, urug'larga ekishdan oldingi ishlov berishda va unda fungitsidlik xossasi bo'lganligi uchun eritmasini o'simliklarga sepishda qo'llaniladi. Urug'larga

changlatish (sepish) uchun uni talk bilan (5,6-6,4 % Cu hisobida) aralashtiriladi.

Shuningdek, sanoat chiqindilaridan foydalanilgan holda misli kaliy xlorid ( $90\pm 1$  % KCl,  $1\pm 0,2$  % Cu), misli ammofos (0,3-0,5 % Cu) ham ishlab chiqariladi.

**Ruxli o'g'itlar.** Rux – ko'kimir-oq tusli mustahkam metall bo'lib, havoda oksidlanadi, tabiatda erkin holatda amalda uchramaydi. Tuproqda mazkur mikroelement miqdori o'rtacha 10-60 mg/kg ni tashkil etadi. Tuproqdagagi harakatchan rux miqdori 5 dan 25 mg/kg chegarasida o'zgaradi. Rux o'simlikka suvda eruvchan va almashinuvchan shakllarda o'zlashadi. Tuproqni ohaklash mazkur kimyoviy element birikmalarining eruvchanligini kamaytiradi, bu esa ruxning o'simlikka o'zlashishini sekinlashtiradi. Tuproq qatlamiga fosforli o'g'itlar solinganda ham amalda kam eriydigan rux fosfatlari hosil bo'lishi hisobiga mazkur mikroelement harakatchanligi kamayadi. Rux yetishmovchiligi olmada, nokda, uzumda, shuningdek sitrus, donli va ko'pgina sabzavot ekinlarida o'z ta'sirini ko'rsatadi. O'simliklarda rux yetishmaganda rivojlanishi orqada qola boshlaydi va turli xil kasalliklarga uchraydi.

Ruxli o'g'itlardan foydalanish nafaqat o'simliklarning fizik holatiga ta'sir ko'rsatadi, balki hosildorligi ham ortadi. Masalan, makkajo'xori hosildorligi 5-7 s/ga ga, paxta – 2-3 s/ga ga, bug'doy doni 1,5-2,3 s/ga ga ortadi. Pomidor ko'chatlarini ruxli o'g'itlar bilan oziqlantirilishi natijasida C vitaminini va shakar moddalari miqdori va hosildorligi ortadi. Mazkur guruh o'g'itlari bilan kartoshkani oziqlantirish uning turli xil kasalliklarga bo'lган immunitetini oshiradi.

Boshqa turdagagi mikroo'g'itlardan farqli o'laroq, ruxli o'g'itlar faqat o'zaksiz va ekishdan oldin urug'larga ishlov berish yo'li bilan oziqlantiriladi. Buning uchun maydalangan mis(II)-sulfat talk bilan aralashtiriladi va hosil qilingan aralashma urug' bilan aralashtiriladi. Bunda 1 kg donga 0,35 g ruxli o'g'it va 2 g talk, 1 kg makkajo'xoriga 0,4 g ruxli o'g'it va 1,6 g talk ishlatiladi. O'zaksiz oziqlantirish o'simlikda g'uncha va gul shakllanish davrida rux sulfatning suvdagi eritmasi ( $10 \text{ m}^2$  maydonga 1 g o'g'it va 10 l suv) bilan amalgaga

oshiriladi. Mevali daraxtlarga bahorda ishlov beriladi, bunda rux sulfatning (60 g) so'ndirilgan ohak (60 g) va suv (10 l) aralashmasi ishlatiladi.

Ruxli o'g'itlar sifatida ko'pincha rux sulfat  $ZnSO_4 \cdot 7H_2O$  ishlatiladi. Qishloq xo'jaligidagi 21,8-22,5 % Zn tutgan, talk bilan aralashtirilganda esa 8,1-9,9 % Zn tutgan, shuningdek ruxli polimer o'g'itlar PMU-7 (Zn 25 % dan kam emas) va ruxli belila bo'yog'i ishlab chiqarish korxonasining chiqindisi ishlatiladi. Bunday chiqindilarda Cu, Mn va boshqa mikroelementlar ham bo'ladi. Rux tuzlarini ammofosga (~1,4 % Zn) va karbamidga (1,5-1,7 % Zn) ham qo'shish yo'li bilan o'g'itlar ishlab chiqariladi.

**Kobaltli o'g'itlar.** Kobalt – qizg'ish toblanadigan kumushrang-oq metall bo'lib, tabiatda nikelli rudalar tarkibida uchraydi. Mazkur mikroelementning tuproqdagi miqdori 1 kg tuproqda 0,4 dan 21 mg gacha chegarada o'zgaradi, bunda ikki va uch valentli kobalt harakatchanligi bir-biridan farq qiladi. Ikki valentli kobalt sulfatlar, xloridlar va bikarbonatlar tarzida, uch valentli kobalt esa ammiak va ayrim organik kislotalar bilan komplekslar tarzida bo'ladi. Kobaltning harakatchanligi tuproqning pH ko'rsatkichiga bog'liq bo'ladi: mazkur mikroelement neytral va ishqoriy reaksiyaga ega bo'lgan tuproqlarda kislotali tuproqlardagiga nisbatan ko'p bo'ladi.

Ikki valentli kobalt turli kimyoviy reaksiyalarga tez kirishadi, uni tuproqda ushlab turish uchun ohaklash maqsadga muvofiqdir. Bunday tadbir ayniqsa kobalt tuproqda ortiqcha miqdorda bo'lganda yaxshi samara beradi. Kobalt yetishmovchiligi o'simliklarda turli kasalliklarni keltirib chiqarishini ham unutmaslik lozim.

Kobaltli o'g'itlar (kobalt sulfati, nitrati va xloridlari) tuproqqa solish uchun ham, o'simliklarni o'zaksiz oziqlantirishda ham (o'g'itning 0,05 % li eritmasi), urug'ni ekishdan oldin ishlov berishda ham (bu holda kobalt tuzining 0,5 % li eritmasi) ishlatiladi. Kobaltli o'g'itlar sulfatli va xloridli holida ishlatiladi. U qo'shaloq superfosfat, nitrofoska va ammofosga (~0,1 % Co hisobida) qo'shiladi. Fosforit unida ham 0,001-0,02 % atrofida kobalt bo'ladi. Uning asosiy qismi o'g'it tarkibiga o'tadi.

**Yodli o'g'itlar.** Yod – metall yaltiroqlikka ega bo'lgan qora-kulrang tusli kristall modda bo'lib, barcha tirik organizmlar oziqlanishida muhim rol o'yndaydi. Tabiatda u birikmalar holatida uchraydi, tuproqda mazkur mikroelement miqdori quruq modda hisobida 0,1-5 mg/kg chegarasida o'zgaradi.

Tog'li hududlar tuproqlarida tekisliklardagiga nisbatan yod tanqisroq bo'ladi.

O'simliklarda yod miqdori kam bo'lishi turli kasallikkarni kamdan kam keltirib chiqaradi. Lekin bunday hududlarda inson va hayvonlarda yod yetishmovchiligi kuzatiladi. O'simliklarni mazkur mikroelement bilan to'yintirish uchun ayrim ozuqalarga kaliy yodidning 0,01-0,02 % li eritmasi qo'shiladi, tarkibida yod tutgan boshqa mineral o'g'itlardan foydalaniladi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, tuproqni ohaklash, shuningdek tuproqqa xlor tutgan va nitratli o'g'itlar solish yod harakatchanligini kamaytiradi, buning natijasida mazkur mikroelementning o'simlikka o'zlashishi qiyinlashadi va yod yetishmovchiligi kelib chiqadi.

**Kompleks mikroo'g'itlar** sifatida borat kislotasi, mis, rux, kobalt va marganes sulfatlari, ammoniy molibdat va kaliy yodid aralashmalari ishlatiladi. Kompleks mikroo'g'itlar tarkibida 5,5 % B, 2,8 % Cu, 5,5 % Zn, 1±0,1 % Mo va Co, 11 % Mn bo'ladi. Ular 0,18 g va 0,36 g li tabletkalar holida ishlab chiqariladi. Borat kislotasi, mis, rux va marganes sulfatlari, molibden(III)-oksid va talkni maydalab aralashtirish natijasida mikroelementli kukun hosil qilinadi. Bunday kukunning tarkibida 2,4-2,8 % B, 5-6 % Cu, 8-10 % Zn, 9,5-11 % Mo, 6,5-8,0 % Mn bo'ladi. O'n xildan ortiq turdag'i bunday mikroo'g'itlar ishlab chiqariladi.

O'simliklardi xlorzoza kasalligiga qarshi (temir yetishmasligidan shu kasallik kelib chiqadi) antixlorozin – Fe-DTPA dan foydalaniladi. Uni temir kompleksionati (temir dietilentriaminopentaasetat) deb ham ataladi. Rux, mis, marganes va boshqa metallarning kompleksionatlari ham mikroo'g'itlar sifatida ishlatilishi mumkin. Ular suvda yaxshi eriydi, tuproqdag'i mikroorganizmlar ta'sirida parchalanib ket-

maydi hamda tuproq tarkibidagi o'simlikka o'zlashmayotgan mikro- va makroelement birikmalarini o'zlashadigan holatga keltiradi. Bunday kompleksonatlarni makroo'g'itlar ishlab chiqarish jarayonida o'g'it tarkibiga ham kiritilishi mumkin.

### **3 §. Tarkibida mikroelementlar bo'lgan azot-fosforli o'g'itlar ishlab chiqarish**

**Mis va rux mikroelementlarining o'g'itlar komponentlari bilan ta'sirlashuvi.** Mis (II) va rux fosfat-anion bilan bir qator birikmalar hosil qiladi:  $\text{Me}_3(\text{PO}_4)_2 \cdot \text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{MeHPO}_4 \cdot \text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{Me}(\text{H}_2\text{PO}_4)_2 \cdot \text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{MeNH}_4\text{PO}_4 \cdot \text{H}_2\text{O}$ .

Ilmiy tekshirishlar natijasida Zn, Cu, Mn nitratlarining  $\text{H}_3\text{PO}_4$  bilan boshlang'ich moddalar miqdoriy nisbatlariga, ortofosfat kislotasi konsentratsiyasiga, aralashma haroratiga hamda jarayonning davomiyligiga bog'liq ravishdagi ta'sirlashuvi o'rganib chiqilgan.  $\text{Me}(\text{NO}_3)_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$  ning sistemadagi miqdorini kamayishi va ortofosfatning dastlabki konsentratsiyasining ortishi hamda harorat va reaksiya davomiyligini ko'payishi gaz fazasiga azot miqdorining ko'p miqdorda ajralib chiqishini ta'minlaydi.

Bunday ta'sirlashuv metallarning nitratlari ortofosfat kislotasi bilan mikroelementlar (mis va rux) monofosfatlari va nitrat kislotasi hosil bo'lishiga olib keladi. Bunday moddalarini hosil bo'lishi birmuncha ishonchszilikka olib keladi va ular beqaror bo'lib, organik erituvchilar yordamida ajratib olinishi mumkin. Shegrov va boshqalar tomonidan metallarning fosfatli birikmalari tadqiq qilingan. Ortofosfat kislotasi va mis karbonatning asosli tuzi yordamida moddalar sintezi asoslari aniqlangan. Bunda kislotqa miqdori, jarayon harorati, ta'sirlashuv davomiyligi va muhitning vodorod ko'rsatkichi pH ni hosil bo'layotgan fosfatlar tarkibiga ta'siri aniqlangan.

Organik reagentlar (aseton) yordamidagina hosil bo'lgan mis fosfat tuzlari qattiq fazaga ajratilishi isbotlangan. Hosil bo'ladigan  $\text{Cu}(\text{H}_2\text{PO}_4)_2 \cdot \text{H}_2\text{O}$  tuz tarkibining barqarorligi oz miqdordagi  $\text{H}_2\text{SO}_4$  aralashmasi yordamida amalga oshiriladi. Tekshirishlarni ko'rsatishicha  $\text{Cu}(\text{H}_2\text{PO}_4)_2 \cdot \text{H}_2\text{O}$  oddiy sharoitda o'ta beqaror modda hisoblanadi. Kam miqdordagi

sulfat kislotasining qo'shilishi yuqoridagi tarkibni barqarorligini ta'minlaydi. Juda kam miqdorda namlik ta'siri ostida o'z-o'zidan parchalanib,  $\text{CuHPO}_4$  mis gidrofosfat va ekvivalent miqdordagi ortofosfat kislotasini hosil qiladi. Hosil qilingan (sintez qilingan) moddaning tarkibi rentgen fazali va infraqizil (IQ) spektroskopik tahlil usuli yordamida identifikatsiya qilingan.


Izotermik usul yordamida  $\text{CuO}-\text{P}_2\text{O}_5-\text{H}_2\text{O}$  sistemasida  $25^\circ\text{C}$  haroratda  $\text{P}_2\text{O}_5$  ni 0 dan 67 % konsentratsiyagacha intervalda (oraliqda) o'zaro ta'sirlashuv o'rganilgan. Bu ta'sirlashuv natijasida ikki valentli misning fosfat kislotali uch xil tuzlari  $\text{Cu}_3(\text{PO}_4)_2 \cdot 3\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{CuHPO}_4 \cdot \text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{Cu}(\text{H}_2\text{PO}_4)_2$  hosil bo'lishi aniqlangan, bu tuzlarni hosil bo'lishi  $\text{P}_2\text{O}_5$  miqdoriga bog'liq bo'ladi.

$\text{H}_2\text{O}-\text{Cu}(\text{NO}_3)_2-\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$ ,  $\text{H}_2\text{O}-\text{Zn}(\text{NO}_3)_2-\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$  sistemalarida Cu va Zn fosfatlarining hosil bo'lishi aniqlangan. Adiabatik qobiqli germetik kalorimetrda  $25^\circ\text{C}$  haroratda mis va rux nitratlarning ammoniy digidrofosfat bilan ta'sirlashuv entalpiyasi o'rganilgan. Hosil bo'lgan birikmalar tarkibi potensiometrik usulda tasdiqlangan. Qattiq faza tarkibini elementar tahlili natijasida, eritmadan qattiq fazaga o'tgan mis va rux ionlari miqdori aniqlangan.


$\text{ZnO}-\text{P}_2\text{O}_5-\text{H}_2\text{O}$  sistemasidagi o'zaro ta'sirlashuv  $25^\circ\text{C}$  dan  $100^\circ\text{C}$  harorat oralig'ida o'rganib chiqilgan. Bunda harorat va boshlang'ich moddalar konsentratsiyasining o'zgarishi orqali quyidagi moddalar hosil bo'lishi aniqlangan:  $\text{Zn}_3(\text{PO}_4)_2 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{ZnHPO}_4 \cdot \text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{Zn}_3(\text{PO}_4)_2 \cdot \text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{Zn}(\text{H}_2\text{PO}_4)_2 \cdot 2\text{H}_3\text{PO}_4$ . Tadqiqot natijalari  $\text{Zn}(\text{H}_2\text{PO}_4)_2 \cdot \text{H}_2\text{O}$  ni termolizi natijasida yuqori kondensatlangan fosfatlar va erkin holdagi fosfat kislotalari hosil bo'lishini ko'rsatdi. Reaksiya natijasida hosil bo'lgan yopiq zanjirli rux(II)-termofosfat-larning hosil bo'lishini dastlabki moddalar ikki xil yo'nالishda termolizga uchrashi natijasi deb hisoblash mumkin. Ulardan birinchi yo'nالish oraliq nordon kondensatlangan fosfatlarni degidratatsiyasi tufayli termofosfatlar hosil bo'lishi bilan yakunlanadi. Ikkinci yo'nالish bo'yicha esa, dastlabki rux ortofosfatlar termolizi orqali erkin holdagi fosfat kislotalari hosil bo'ladi, ular degidratatsiyaga uchrab, tetrametafosatlarni

hosil bo'lishida bevosita ishtirok etadi. IQ-spektroskopik, termogravimetrik, rentgenofazali va kimyoviy tahlil usullari yordamida  $\text{ZnHPO}_4 \cdot \text{H}_2\text{O}$  ning termik degidratatsiyasi jarayoni o'rganilgan. Bunda sodir bo'ladigan o'zgarishlar sxemalari muhokama qilingan va hosil bo'ladigan oraliq mahsulotlar identifikasiya qilingan. Ayrim termodinamik parametrlari hisoblangan.


Rux ammoniy fosfat rux oksidiga ortofosfat kislotasi va  $\text{NH}_3$  ta'sirida olingan:



Rux ammoniy fosfatni suvda qaynatilganda uning parchalanishi sodir bo'ladi.




$17,5^{\circ}\text{C}$  haroratda 100 ml suvda 0,00145 g  $\text{ZnNH}_4\text{PO}_4$  eriydi. Hosil qilingan tuz xlorid, vino va sırka kislotalarida hamda ammoniy xlorid eritmasida eriydi. Uning ammoniy xloridda erish jarayoni quyidagicha boradi:



Mis(II)-xlorid fosfat kislotasi va ammiak bilan ( $\text{pH}=7$ ) mis ammoniy fosfat hosil qiladi  $\text{CuNH}_4\text{PO}_4 \cdot \text{H}_2\text{O}$ .

$\text{Zn}_3(\text{PO}_4)_2$  tuzining hosil bo'lishi rux oksidi va ekstraksion fosfat kislotasi (EFK) ishtirokida sodir bo'ladi. Bunda rux fosfatning hosil bo'lishi EFKning rux oksidi stexiometrik miqdori bilan neytrallashga asoslangan. Hosil qilingan rux fosfat tarkibi quyidagicha (foiz hisobida): asosiy modda 90-95; temir fosfat 2-2,79; Mn - 1,3-1,5; Ca - 1,75-2,59; Al - 0,01; Mg - 0,73-2,30; Cu - 0,04. Hosil qilingan modda tarkibida o'simliklar tomonidan o'zlashtiriladigan  $\text{P}_2\text{O}_5$  miqdori 31-32 % ni, suvda eriydigan  $\text{P}_2\text{O}_5$  miqdori esa 3-5 % ni tashkil qiladi. Hosil qilingan texnik fosfatlar tarkibida Fe, Mn, Cu, Zn qo'shimchalarining bo'lishi bu moddaning mikroog'it sifatida ishlatalish imkonini beradi.

$\text{ZnSO}_4 - (\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4 - \text{H}_2\text{O}$  sistemasi o'rganilib, mualliflar tomonidan  $\text{Zn}_3(\text{PO}_4)_2$  ni hosil bo'lishi aniqlangan.  $[\text{PO}_4^{3-}] / [\text{Zn}^{2+}] \leq 2$  nisbatda:




reaksiyasi boradi. Bu ta'sirlashuvda ammoniy tuzlarining ko'p miqdorda bo'lishi natijasida rux fosfat  $Zn_3(PO_4)_2$  rux ammoniy fosfatga  $ZnNH_4PO_4$  ga aylanadi.

$Zn_3(PO_4)_2 \cdot 2H_2O$  ni hosil qilishni yana bir usuli ortofosfat kislotasiga ( $H_3PO_4$ ) rux oksid  $ZnO$  ining bevosita ta'sir etishi hisoblanadi.  $ZnO - P_2O_5 - H_2O$  sistemasidagi muvozanat holati turli xil mualliflar tomonidan o'rganib chiqilgan. Bunda  $Zn_3(HPO_4)_2$  ni kristallizatsiyasini optimal sharoitini aniqlash maqsadida, uning hosil bo'lishi  $40-90^{\circ}C$  harorat oralig'i va  $P_2O_5$  ning  $3,16-10,8\%$  li konsentratsiyasi intervalida o'rganilgan.

Termografimetrik va differensialmetrik tahlil usullari yordamida quyidagi kompleks birikma olinadi:  $ZnNH_4PO_4 \cdot H_2O$ ,  $ZnNH_4PO_4$ ,  $Zn(NH_4)HPO_4 \cdot (H_2PO_4) \cdot H_2O$ ,  $3Zn_2P_2O_7 \cdot 4NH_3 \cdot 9H_2O$ . Tahlil natijalariga asosan  $ZnNH_4PO_4$   $250-620^{\circ}C$  harorat oralig'ida 3 bosqichda parchalanadi. Bunda rux pirofosfat hosil bo'lib, bu modda  $1000^{\circ}C$  haroratda  $ZnO$  ga parchalanib ketadi.  $460-500^{\circ}C$  haroratda  $Zn(NH_4)HPO_4 \cdot (H_2PO_4) \cdot H_2O$  parchalanib rux pirofosfat hosil qiladi. Van-Vezer o'z ishlarida ikki valentli metallar pirofosfatlarini ularning ortofosfatli tuzlarini parchalash orqali olish mumkinligini keltirib o'tgan.

Mis pirofosfat, ammoniy pirofosfatni suvli muhitda  $30^{\circ}C$  haroratda o'zaro ta'sirlashuvi o'rganilganda  $2,5Cu_2P_2O_7 \cdot (NH_4)_4P_2O_7 \cdot 17H_2O$  qo'sh tuzining hosil bo'lishi aniqlangan. Bu qo'sh tuz tarkibida 58 % Cu pirofosfat ( $Cu_2P_2O_7$ ), 18,86 %  $(NH_4)_4P_2O_7$  va 23,3 %  $H_2O$  bo'ladi.  $2,5Cu_2P_2O_7 \cdot (NH_4)_4P_2O_7 \cdot 17H_2O$  qo'sh tuzi hidsiz  $H_2SO_4$ ,  $HNO_3$ ,  $HCl$  kislotalarida eruvchan, organik erituvchilarda kam eriydigan modda hisoblanadi. U  $263-320^{\circ}C$  harorat oralig'ida  $NH_3$  ammiak ajralib chiqishi bilan parchalanadi.

Tarkibida besh molekula suv bo'lgan rux pirofosfat  $Zn_2P_2O_7 \cdot 5H_2O$  qizdirilganda sodir bo'ladigan jarayonlar termografiya, termogravimetriya, rentgenfazalii tahlil usullari yordamida o'rganib chiqilgan. Tadqiqot natijalari  $Zn_2P_2O_7 \cdot 5H_2O$  ni quyidagi sxema asosida o'zgarishga uchrashini ko'rsatdi:



Tarkibida besh molekula suv bo'lgan rux pirofosfat  $\text{Zn}_2\text{P}_2\text{O}_7 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  ni va kaliy-ruxli pirofosfatlar  $\text{K}_2\text{Zn}_3(\text{P}_2\text{O}_5)_2 \cdot 3\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{K}_2\text{ZnP}_2\text{O}_7 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{K}_6\text{Zn}(\text{P}_2\text{O}_7)_2 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$  ni tarkiblari xromatografik, IQ-spektroskopik, rentgenfazalni tahlil usullari yordamida o'rganib chiqilgan.

Izotermik usul yordamida  $\text{Zn}_2\text{P}_2\text{O}_7 - \text{K}_4\text{P}_2\text{O}_7 - \text{H}_2\text{O}$  sistemasida eruvchanlik  $25^\circ\text{C}$  haroratda o'rganilgan.  $\text{K}_2\text{Zn}_3(\text{P}_2\text{O}_5)_2 \cdot 3\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{K}_2\text{ZnP}_2\text{O}_7 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{K}_6\text{Zn}(\text{P}_2\text{O}_7)_2 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$  birikmalarini mavjudligi rentgenfazalni tahlil usuli yordamida identifikasiya qilingan.

Kompleks o'g'itlar tarkibidagi makro- va mikrokomponentlar o'rtaida sodir bo'ladigan jarayonlarni ayrim aspektlari o'rganilgan. Termodifferensial va fazali tahlil, IQ-spektrlar o'g'itlar tarkibining barqarorlik bosqichlarini, ularni parchalanish bosqichlarini, komponentlarni o'zaro ta'sirlashuv jarayonlarini aniqlash imkoniyatlarini beradi.

AQSHning turli xil fosfatli rudalaridan olingan ammosof namunalari eritilganda hosil bo'ladigan cho'kmalar tarkibi argon spektroskopiyasi, plazma va optik mikroskopiya hamda rentgenoskopiya, IQ-spektroskopiya usullari yordamida tekshirib chiqilgan. Tekshirilgan namunalarda kalsiy, magniy, temir, rux fosfatlar borligi aniqlangan.

**Tarkibida mikroelement tutgan azot-fosforli murakkab o'g'itlarning olinishi va tadqiq etilishi.** Hozirgi paytda ilmiy va amaliy jihatdan mikroelementlarning qishloq xo'jaligida ishlatalishi yuqori samara berishi tasdiqlangan. Keyingi 10-15 yil ichida ko'pgina mamlakatlarda mikroo'g'itlarning qishloq xo'jaligida ishlatalishi, keng qo'llaniladigan o'g'itlar bilan birlgilikda foydalanish imkonini beradi.

Amalda mikroo'g'itlar sifatida quyidagilardan foydalaniadi:

- 1) mikroelementlarning tuzlari;
- 2) mikroelement birikmalari qo'shilgan o'g'itlar;

3) tarkibida mikroelementli sanoat chiqindilari bo‘lgan o‘g‘itlar.

Mikroo‘g‘itlar sifatida ishlatiladigan birikmalarga Cu, Zn, Co va boshqa elementlarning sulfatli birikmalarini kiritish mumkin:  $\text{CuSO}_4$  favorang tusdagi,  $\text{ZnSO}_4$  esa oq rangli kristalldan iboratdir.

Bu birikmalarda suvda eruvchan mikroelementlarning massa ulushlari mos ravishda 25 va 39 % ni tashkil qiladi. Mn, Zn, Cu sulfatlari tabletkalar shaklida ishlab chiqariladi. Mikroo‘g‘itlar sifatida Cu, Zn, Mn, Co ammoniy fosfatlar taklif qilingan. Metall ammoniy fosfatlarning ishlab chiqarishni texnologik sxemalari ishlab chiqilgan va ularning xossalari o‘rganilgan. Ion almashinuvchi smolalarning mikroelementli birikmalar bilan to‘yintirish orqali ularning eritishni tartibga solish imkoniyati mavjud bo‘lib, mikroo‘g‘itlar olingan. Suvda yaxshi eriydigan tarkibi mikroelementlar tuzlaridan va stabilizatsiyalovchi qo‘sishchalaridan tashkil topgan qattiq holdagi mikroo‘g‘itlar olish taklif etilgan.

Lignosulfon kislotasini konsentrash va qizdirish orqali rux va mis asetatlarini qo‘sish shisha orqali xelatlar shaklidagi mikroo‘g‘itlar olish usuli ham mavjuddir. Olingan mikroo‘g‘itlarga  $\text{MgO}$  qo‘sish shisha orqali uning barqarorligiga erishish mumkin. Shisha shaklidagi mikroo‘g‘itlar olish uchun suvgan borat kislotasi, mis, rux, magniyning karbonatlari yoki oksidlari va kaliy metafosfat qo‘shiladi.

Olingan aralashmani  $900\text{-}1000^\circ\text{C}$  haroratda qizdiriladi, tezlik bilan sovutiladi va maydalananadi. Olingan shisha shaklidagi mikroo‘g‘it silikatli mikroo‘g‘itlardan farqli ravishda asta sekin tuproqda erish xususiyatiga egadir.

Juda ko‘p ilmiy tadqiqot ishlari mikroo‘g‘itlarning oddiy o‘g‘itlarga mikroelementlar birikmalarining qo‘sishiga bag‘ishlangan. O‘g‘itlarga mikroqo‘sishchalarining kiritish jarayoniga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat: mikroozuqa elementlarning mikroo‘g‘itlar tarkibida bir tekisda taqsimlanishi; olingan o‘g‘itlar tarkibida mikroelementlarning o‘simgiliklar tomonidan oson o‘zlashtiriladigan shaklda bo‘lishi; mikroelementlarning o‘g‘it donachalariga ularni sepilganda mustahkam birikishi; tayyor mahsulotning sifat tarkibiga va boshqa fizika-

kimyoviy xossalariiga mikroelementlar ta'sirining salbiy bo'lmasligi va boshqalar.

O'g'itlarni mikroelementlar bilan boyitishda turli xil usullardan foydalilanildi, masalan, aralashtirish, mikroelementni o'g'itni donadorlashtirishda kiritish va asosiy o'g'it donachalariga sepish tartibi ishlatiladi.

Tarkibiga turli xil mikroelementlar bo'lgan tuzlarni kiritish orqali olingen mikroo'g'itlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, mochevinani olishda uning suyuqlanmasiga mis va rux sulfatlarni kiritish usuli ko'rsatib o'tilgan. O'g'it donachalari mustahkamligini oshirish va ularda mikroozuqa elementlarini bir tartibda tarqalishini ta'minlash maqsadida, ularni eritmalar shaklida natriy polifosfat tarkibiga kiritiladi. Tarkibida temir, mis, marganes, bor, rux, molibdenlarning suvda eruvchan tuzlari bo'lgan azotli o'g'itlar olish texnologiyasi taklif etilgan. Mikroelementlar tuzlarini stabilizatorlar ishtirokida kiritish orqali suyuq azotli o'g'itlar olish mumkin. Suyuq ammiakka mis, marganes, molibden va bor hamda ammoniy nitrat qo'shish orqali suyuq o'g'it olish mumkinligi isbotlangan. Ammoniy tiosulfatni suvdagi eritmasiga rux oksidni 2:1 nisbatlarda aralashtirish orqali tarkibida rux tutgan suyuq azotli o'g'it olish mumkin. Aralashmaga ammoniy nitrat va mochevina qo'shilganda tayyor mahsulotda ruxning miqdori 0,1-1,5 % ni tashkil qilishiga erishish mumkin.

Mis(II), kobalt(II) va rux xelatlarini karbamidga purkash yordamida mikroo'g'it olinadi.

Hozirda ruxli superfosfat olish usuli mavjud. Usulni soddallashtirish va maqsadli mahsulotda fosfor miqdorini oshirish uchun rux oksidini oddiy superfosfat bilan 1:12-1:16 nisbatda aralashtiriladi.

Superfosfatni mikroelementlar bilan boyitish va shu orqali ularning o'simliklar tomonidan oson o'zlashtiriladigan holatga o'tkazish hamda o'g'itning fizik-kimyoviy xossalariini va tayyor mahsulotning mehanik xususiyatlarini yaxshilash maqsadida, o'g'itni donadorlashtirish mikroelementlarning ammiakli komplekslari ishtirokida olib boriladi. Taklif qilingan usulda mikroelementlarga sulfatli tuzni superfosfat olishning bosh-

lang'ich bosqichiga kiritish fosforitni parchalashni tezlashtiradi va tayyor mahsulotni yetilish jarayonini qisqartiradi.

NP-tarkibli murakkab o'g'itlarda mikroelementlar bo'lgan mahsulotlar olish usuli ham o'rganilgan. Masalan, donador ammoniy fosfatning ammoniy sulfat va marganes tuzlari bilan aralashtirish orqali asosiy tarkibini suvda qiyin eriydigan marganes fosfat tashkil qiladigan o'g'itlar olish mumkin.

Cu, Zn, Co, Mn ning xloridlari, nitratlari va sulfatlari ammoniy fosfatga qo'shiladi va hosil bo'lgan suspenziyani suv ishtirokida aralashtiriladi. Mahsulotda bitta yoki ikkita ammoniy fosfatdagi ammoniy kationi mos holdagi metall kationiga almashgan bo'ladi.

Mikroelementli o'g'itlar olishning yana bir taklif qilingan usulida maydalangan fosfat rudasini suv bilan aralashtirib, unga suvda eriydigan Co, Zn, Fe tuzlari qo'shiladi va aralashma muhiti pH=7,5-9,0 ga yetkaziladi. Hosil qilingan aralashmani 30°C gacha qizdirib, tuproqda eriydigan fosfatlar holatiga o'tkaziladi. Tarkibida Mn bo'lgan ammosos olish uchun termik fosfat kislotasi tarkibiga  $MnSO_4$  kiritiladi va  $NH_3$  bilan neytrallanadi. Bunda Mn to'la-to'kis amaliy jihatdan suvda erimaydigan holatga o'tadi.

Misli ammosos olish uchun taklif qilingan usulda ammosos bo'tqasiga mis naftenat qo'shiladi. Bu usulda o'g'it olinganda donador o'g'it zarrachalari mustahkamligi 30 kg/sm<sup>3</sup> ga teng bo'ladi. Misli ammosos olishda tarkibida mikroelementlar bo'lgan  $H_2SO_4$  eritmasidan foydalaniladi. Bunda kislota fosfat xomashyosi parchalanish jarayoniga kiritiladi. Bunday usul bilan o'g'it olinganda tayyor mahsulot tarkibidagi misning miqdori 0,5-0,6 % gacha yetadi. Tarkibida Zn bo'lgan suyuq o'g'itlar olish uchun ammoniy fosfat aralashmasiga aralashtirish orqali Zn birikmalari va Zn metali qo'shiladi. Rux, kobalt va marganes tuzlari nitroammofoskaning termik barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'pgina tadqiqotlar natijasida ortofosfatli o'g'itlar tuproqqa solinganda ular tarkibidagi o'zlashtiriladigan fosforining kamayishi uning retrogradatsiya natijasida o'zlashtiirilmaydigan holatga o'tib turishi bilan izohlanadi. Bu yerda shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, polifosatlarning ijobiy tomonlari ular tuproq

tarkibidagi Fe, Al, Mn boshqa kationlar bilan ortofosatlarga nisbatan erimaydigan birikmalar hosil qiladi.

Mikroelementli suyuq polifosfatli o'g'itlar olish usuli o'r ganib chiqilgan. O'g'it tarkibiga ammoniy sitrat kiritilganda uning tarkibidagi mikroelementlarning kationli shakli anionli shakliga o'tadi va shuning natijasidan erimaydigan tuzlar hosil bo'lishining oldi olinadi. Shu usul orqali mikroelementli suyuq NP-tarkibli o'g'itlar olish optimal sharoitlari aniqlangan. Olingen o'g'itlar tarkibida yuqori polifosfatli ( $P_2O_5$  ning umumiyligi miqdori 55 % dan yuqori) birikmalar bo'ladi. Ular tarkibidagi mikroelementlar fosfatli birikmalarni yuqori eruvchanligini ta'minlaydi.

Suyuq NP li tarkibda mikroelement tuzlari bo'lgan o'g'itlar olish texnologiyasi taklif qilingan. Tarkibida fosfatning polishakllari yuqori darajada bo'lgan, shu orqali ularning gidrolizlanish darajasini pasaytirish maqsadida va uzoq muddat saqlanganda cho'kmalar hosil bo'lishining oldini olish uchun suyuq o'g'itlar ishlab chiqarishda barqarorlashtiruvchi agent sifatida mochevinadan foydalaniлади va ularga oldindan mikroelementning quruq tuzlari qo'shiladi.

Suyuq o'g'itlar olish texnologiyasida Fe, Mg va boshqa elementlar fosfatlarining cho'kmalarini hosil bo'lmasligini ta'minlash uchun, o'g'itlar olish texnologiyasida polifosatlarni xelatli birikmalar hosil qilishga moyilligidan foydalaniлади. Bu esa qiyin eriydigan birikmalar hosil bo'lmasligini ta'minlaydi. Polifosatlarning bunday xossalari olinadigan o'g'itlar turlarini ko'paytirish, tarkibida mikroelementlar bo'lgan NP li o'g'itlar olish imkoniyatlarini ko'paytiradi. Tarkibida Mn bo'lgan ammoniy polifosfatli o'g'itlar olish texnologiyasi ma'lum. Ammoniy polifosfatlar fizik-kimyoiy xossalariiga turli xil qo'shimchalar ta'siri o'rganilgan. Yuqori darajadagi fizik-mexanik xossalarga ega bo'lgan ammoniy polifosfat olish uchun organik va mineral qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiқdir.

Tarkibida asosan orto- va piroshaklli  $P_2O_5$  bo'lgan ammoniy polifosfatlar yaxshi donadorlanadi. Tarkibiga turli xil qo'shimchalar qo'shilishidan qat'iy nazar va minimal miqdorda yuqori  $P_2O_5$  poliformali (2,7-3,4 %) ammoniy

polifosfatlar qaynoq holatda yaxshi donadorlanadi. Xuddi shunday sharoitda yuqori  $P_2O_5$  polishaklli, ya'ni ularning konsentratsiyasi 7 % dan yuqori ammoniy polifosfatlar yaxshi donadorlanmaydi.

NPK-o'g'itlar olish uchun tabiiy fosfatlar 70°C haroratda nitrat kislota bilan parchalanadi hosil bo'lgan bo'tqa ammoniyланади. Со'нгра retur va kaliy tuzlari qo'shiladi va aralashma donadorlanadi hamda quritiladi. Ammoniy lash jarayonida yoki uning tugallanishidan so'ng mikroelementlar (bor, marganes, mis, rux tuzlari) qo'shiladi.

Tarkibida rangli metallurgiya chiqindilari va ikkilamchi mahsulotlari bo'lgan o'g'itlar olish texnologiyasini tadqiq qilish muhim texnologik ahamiyatga ega bo'ladi. Bunda keklar, shlaklar, shpallar, ishlatib bo'lingan aralashmalar, katalizatorlar va boshqalardan foydalaniлади. Kimyo sanoating rangli metallurgiya va boshqa turli xil sanoat ishlab chiqarish mahsulotlari chiqindilari tarkibida juda kam miqdorda foydali mikroelementlar bo'ladi. Bu chiqindilar tarkibida foydali elementlardan tashqari o'simliklar uchun salbiy ta'sir qiladigan birikmalar ham bo'ladi. Shuning uchun ishlab chiqarish chiqindilari ikkilamchi mahsulotlar aniq bir ishlab chiqarish uchun yo'naltirilgan bo'lishi mumkin.

Tarkibida mis mikroelementi bo'lgan karbamid olish uchun o'g'it suyuqlanmasiga rux ishlab chiqarishning chiqindi – misli kekni qo'shish maqsadga muvofiqdir. Qo'shilgan chiqindi mahsulotning fizikaviy xossalariни yaxshilaydi. Sulfatli kuydirish jarayonidan o'tkazilgan rangli metallurgiyaning kobaltli kekidan foydalanish orqali mikroelementli azotli o'g'itlar olingan. Misli superfosfat olish uchun o'g'itni yetiltirishdan oldin, unga mis kuyundisini, tayyor mahsulot tarkibida misning miqdori 0,1-3,0 % tashkil etishini hisobga olgan holda qo'shiladi. Oddiy yoki qo'shaloq superfosfatni marganesli rudalarni qayta ishlash chiqindi bilan aralashtirish orqali marganesli o'g'itlar olish mumkin. Qo'shaloq superfosfatni marganes bilan boyitish uchun, marganesli rudani xlорид kislotasi bilan parchalashda hosil bo'lgan marganesli eritmadan foydalaniлади. Polimikroelementli nordon oqava suvlarni qo'shaloq superfosfat tarkibiga qo'shish

imkoniyatlari o'rganilgan. Superfosfatga qo'shimcha sifatida misli shlamni qo'shish mumkin.

Oddiy superfosfatga 550°C haroratga qadar qizdirilgan molibdenli konsentratni qo'shish orqali molibdenli superfosfat olish texnologiyasi taklif qilingan. Konsentrat kuydirilgandan so'ng adsorbsiyalangan uglevodorodlardan tozalanadi va oksidlangan holga o'tadi. Oksidlangan konsentrat tarkibida 14,4 % MoO<sub>3</sub> bo'ladi. Molibdenli xomashyolar miqdorini ko'paytirish va tayyor mahsulotning sifatini yaxshilash uchun, ferromolibden ishlab chiqarishning shlaklaridan foydalaniladi, bunda shlakni suyuqlantirish ohaktosh ishtirokida, olingan suyuqlanmani kislorod ishtirokida va kislorodli gazlar yordamida amalga oshiriladi. Fosfatli xomashyoni elektr lampalari ishlab chiqarishning molibdenli eritmalarini yordamida parchalash yo'li bilan ham superfosfat olish mumkin. Bunda mahsulotni yetilish davri kamayadi.

Superfosfatni ruxli yarimmikroog'it bilan aralashtirish orqali ruxli fosforli o'g'itlar olingan. Bunda fosforining miqdori 19 %, rux esa 2,5-3,0 % ni tashkil qiladi. O'g'itni donodorlash barabanli donadorlagichlarda bajariladi. Fosforitni chiqindi, tashlandiq eritmalar yordamida parchalash orqali mikroelementli o'g'itlar olish texnologiyasi ham mavjud bo'lib, bu o'g'it tarkibida, % hisobida: P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> - 10,2, Ca<sup>2+</sup> - 11,2, Mg<sup>2+</sup> - 0,7, F<sup>-</sup> - 1,1, Fe<sup>2+</sup> - 11,6, Ni<sup>2+</sup> - 0,25, Cu<sup>2+</sup> - 0,025, Zn<sup>2+</sup> - 0,025 bo'ladi. Mikroelementlar suvda eriydigan shaklda bo'ladi. Tarkibida mikroelementlar bo'lgan azot-fosforli o'g'itlarni, sun'iy tolalar ishlab chiqarish chiqindi suvlari va fosfat kislotasi orqali olish mumkin, bunda ta'sirlashuv muhitiga pH=7,0-8,0 va P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>/Zn<sup>2+</sup> nisbatasi 0,3-0,5 chegarasida bo'ladi.

Rangli metallurgiyaning oraliq mahsulotini ekstraksion fosfat kislotasida eritish, hosil qilingan eritmani ammiak eritmasi yordamida neytrallash, olingan bo'tqani quritish va mahsulotni donadorlash orqali misli ammofos olingan.

Latunni induksion pechlarda qayta quyish natijasida hosil bo'lgan shlaklardan foydalanib, suyuq azot-fosforli mikroelementli o'g'itlar olish mumkin. Bunda asosiy eritma sifatida orto- va polifosforli kislotalardan foydalanilgan.

Bunday kislotalarni shlaklar yordamida ishlov berish orqali tarkibida o'zlashtirilishi oson bo'lgan mis va ruxli o'g'itlar olish mumkin, bu holat o'g'itlarni ahamiyatini yanada oshiradi. O'g'it tarkibiga kiritiladigan mis mikroelementining xomashyosi sifatida o'lchamlari 0,1 mm bo'lgan kukun holidagi misdan fodalaniladi. Mis xomashyosi sifatida rangli metallarni gidrometallurgik ishlov berish chiqindilaridan ham foydalanish mumkin.

Ruxli va marganesli NPK-o'g'itlar olish usuli o'rganib chiqilgan. Bunda oddiy qurilmadan va arzon xomashyodan foydalanish mumkin.

Rudalar, minerallar va tarkibida bor, rux, molibden, mis hamda kobalt bo'lgan sanoat chiqindilari sulfat va nitrat kislotlarda eritiladi. Olingan bo'tqani oddiy ishlatiladigan o'g'itlarga qo'shiladi va aralashma donadorlanadi.

Mikroelementli o'g'itlar olish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadi, tarkibida mis, rux, molibden, kobalt, bor, marganes bo'lgan o'g'itlardan foydalanish qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosildorligini oshiradi va mahsulotlar sifatini yaxshilaydi. Mikroelementlarning yetishmasligi oqibatida, o'simliklarni o'sishi sekinlashadi, modda almashinuvi buziladi va o'simliklar hosildorligi keskin kamayib ketadi. 1 ga yerga ishlatiladigan mikroelementlarning miqdori bir necha kilogrammdan bir necha grammgacha bo'lishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan materiallar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, tarkibida mis va rux mikroelementlari bo'lgan ammofos yoki boshqa turdag'i fosforli, azotli mikroo'g'itlar ishlab chiqarishda bo'layotgan asosiy muammolar mikroelementli sanoat ikkilamchi mahsulotlarini to'liq o'rganilmagani va mikroelementli arzon xomashyolarni yetishmasligi hisoblanadi. Rangli metallurgiya ikkilamchi mahsulotlari va chiqindilaridan kerakli darajada xomashyo bazasi sifatida foydalanish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Rangli metallurgiya ikkilamchi mahsulotlari va ishlatilgan katalizatorlar tarkibidan mikroelementlarni ammiak va kislota eritmalarini tarkibiga o'tkazish. Tarkibida mikroelementlar bo'lgan kompleks o'g'itlar ishlab chiqarish jarayoni, asosan, arzon va ishlatish imkoniyatlari bo'lgan xomashyolarning

yetishmasligi asosida birmuncha qiyin holatda qolib ketmoqda. Shu nuqtai nazardan rangli metallurgiya ikkilamchi mahsulotlari (kislorod-alangali pech elektrofiltrlari kukuni – qurumi, rux bug'lanmasi) va ishlatib bo'lingan past haroratli katalizatorlar (PHK-4), rux asetatli katalizatorlar qo'llanilishga qulay va yuqori imkoniyatlarga ega bo'lgan xomashyo bo'lishi mumkin. Elektrofiltrlar kukunining tarkibi agregatning ishlash tartibi va utilizator-o'chog'ining ish holatiga bog'liq bo'ladi. Kimyoviy tahlil natijalariga mufoviq, kukunning tarkibi quyidagicha bo'ladi (foiz hisobida): Cu – 18; Fe – 17,1; S – 11,4; SiO<sub>2</sub> – 2,4; Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> – 1,5; CaO – 1,2; Mg – 0,3. Mis kukun tarkibida asosan sulfidlar va oksidlar holida bo'ladi (oltingugurt S<sup>2</sup> bilan misning bog'langan birikmasi miqdori 3-5 % atrofida bo'ladi).


Rux bug'lanmasi asosan ruxning velsoksidini qo'shimchalardan tozalash jarayonida rux zavodlarida hosil bo'ladi. Uning tarkibi quyidagicha bo'ladi, % hisobida: Zn – 54,6; Fe – 0,4; Cl – 1,4; F – 0,08; Cd – 0,57. Rux bug'lanmasi tarkibida rux, asosan, oksid va sulfid holida bo'ladi.

Past haroratli katalizator PHK-4, asosan uglerod oksidini suv bug'i bilan konversiyalashda ishlatiladi, ular diametri 6 mm va qalinligi 4 mm bo'lgan tabletkalar shaklida bo'ladi va tarkibi quyidagicha bo'ladi, % hisobida: Cu – 44; Zn – 9,0; Cr – 9; Al – 10; S – 0,1. Ishlatib bo'lingan va ishlatilish davrida katalizator tarkibidagi hamma komponentlar oksid holida bo'ladi. Rux asetatli katalizatorlar, vinil asetat ishlab chiqarishda ishlatiladi va o'lchamlari 0,2-0,4 mm zarrachalardan tashkil topgan kukun holidagi moddalar hisoblanadi. Katalizatorning asosi aktivlashtirilgan ko'mirdan (80-83 %) va rux asetatdan (7-20 %) iboratdir. Katalizatorda ruxning miqdori 6,5 % ni tashkil qiladi.

Mikroelementlarni ajratib olish uchun ammiak, sulfat va ortofosfat kislota eritmalarining «tahlil uchun toza» («t.u.t.») kvalifikatsiyali navlaridan, bundan tashqari, Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinatining sulfat (H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> = 80 g/l) va Olmaliq «Ammofos-Maksam» korxonasining ekstraksion fosfat (22,5 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>, 1,95 % Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>, 1,55 % Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub>, 1,60 % MgO, 1,5 % F, 2,0 % SO<sub>3</sub>) kislotalaridan foydalanish mumkin.

**KAP elektrofiltrlari kukunidan misni ammiak eritmalari tarkibiga o'tkazish.** Elektrofiltrlar kukunidan mis elementini ammiak eritmasi yordamida eng yuqori miqdorda ajratib olishning optimal sharoitlarini aniqlash maqsadida, ajratib olishga ta'sir qiluvchi omillar: ammiak eritmasining konsentratsiyasi, Q:S (qattiq va suyuq fazalar) nisbati va ta'sirlashuv vaqtining davomiyligi o'rganilgan.

Ammiak eritmasi konsentratsiyasining (5, 10, 15, 25 %) ta'siri, Q:S = 1:5 nisbatda, ta'sirlashuv davomiyligi 30 minut va 20-22°C haroratda o'rganilgan. Olingan natijalar 6.1-jadvalda keltirilgan.



**6.1-rasm.** Misning elektrofiltrlar kukunidan ammiak eritmasiga o'tishi:  
 1-ammiak konsentratsiyasiga bog'liq ravishda ( $Q:S=1:5$ , vaqt 30 minut);  
 2-vaqt davomiyligiga bog'liq ravishda (ammiak 10 %,  $Q:S=1:5$ ).

Ammiak eritmasi konsentratsiyasi 5 dan 15 % ga o'zgartirilganda misni eritmaga o'tishi amaliy jihatdan deyarli o'zgarmaydi. Masalan, ammiak eritmasining konsentratsiyasi mos ravishda 5 va 10 % bo'lganda misning eritmaga o'tishi 52,1 va 53,4 % ni tashkil qiladi.  $\text{NH}_4\text{OH}$  eritmasining konsentratsiyasi 25 % bo'lganda misning eritmaga o'tishi 54 % ni tashkil etadi (6.1-rasm). Ammiak eritmasi konsentratsiyasining o'zgarishi temirning eritmaga o'tishiga juda kam miqdorda ta'sir ko'rsatadi. Ammiak eritmasining konsentratsiyasi 5-10 % bo'lganda temirning eng kam miqdori (0,008-0,009 %) eritmaga o'tadi. Shuning uchun keyingi

tadqiqotlar ammiak eritmasining 10 va 25 % li eritmalaridan foydalanish bilan chegaralanib qoldi.

Qattiq va suyuq moddalar (Q:S) nisbatlarining mis va temirni elektrofiltrlardan ajratib olingan kukundan 25 % ammiak eritmasiga o'tishi ta'sirlashuvning davomiyligi 30 minut bo'lganda va xona haroratida olib borildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ammiak eritmasining me'yorini orttirib borilishi bilan misni eritmaga o'tishi juda kam miqdorda o'zgaradi. Masalan, Q:S nisbatlari 1:5 dan 1:20 ga o'zgartirilganda misni eritmaga o'tishi mos ravishda 54,0 dan 59,1 % ga o'zgaradi va temirni eritmaga o'tishiga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi, uning qiymati 0,016 dan 0,023 % ga o'zgaradi.

### 6.1-jadval

#### **Elektrofiltrlar kukunidan mis va temirni ammiak eritmasiga o'tkazish (harorat 20-22°C)**

Omillar	Misni ajralishi	Temirni ajralishi	Tadqiqotni o'tkazish sharoiti
Ammiak konsentratsiyasining ta'siri			
5	5,1	0,008	
10	52,1	0,009	
15	53,4	0,011	
25	54,0	0,016	
Q:S moddalar nisbatlarining ta'siri			
5	51,7	0,006	
15	52,7	0,007	
30	53,2	0,009	
60	57,9	0,007	
120	59,7	0,007	
Ta'sirlashuv vaqtining ta'siri (minut)			
1:3	53,8	0,014	
1:5	54,0	0,016	
1:8	55,3	0,021	
1:10	56,1	0,023	
1:20	59,1	0,023	

Temir va mis elementlarini ammiak eritmasiga o'tishini vaqtga bog'liqligini tekshirish uchun tadqiqotlar Q:S moddalar nisbatlari 1:5 (Q:S=1:5), ammiak eritmasining konsentratsiyasi 10 % bo'lganda xona haroratida olib borilgan (6.1-jadval, 6.1-rasm). Natijalar shuni ko'rsatdiki, ta'sirlashuv davomiyligini

5 minutdan 30 minutgacha o'zgartirilganda misni eritmaga o'tishi 1,5 % ga ortadi, ta'sirlashuv vaqt 30 dan 60 gacha va 120 minutgacha uzaytirilganda – 4,7 va 6,5 % gacha ortadi hamda mos ravishda 57,9 va 59,7 % ni tashkil qiladi.

Shunday qilib, elektrofiltrlar kukunidan misni ajratib olishning optimal sharoitlari: Q:S=1:20 va ta'sirlashuv vaqt 60 minutni tashkil qiladi, bunda ammiak eritmasi konsentratsiyasini o'zgartirilishi misni va temirni eritmaga o'tishiga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi. Mikroelementlarni ammiak eritmasiga o'tkazishning afzallik tomonlari shundan iboratki, bunda ikkilamchi mahsulot yoki rangli metallurgiya chiqindilari tarkibidagi temir elementi ammiakli eritmaga deyarli o'tmaydi, mis mikroelementi esa ammiak bilan birikib ammiakli kompleks birikmalar  $[Cu(NH_3)_4]^{2+}$  hosil qiladi, ularning hosil bo'l shini fizik-kimyoviy usullar bilan hamda eritmaning tiniq havo rang tusga kirishi bilan tasdiqlash mumkin.

**KAP elektrofiltrlari kukunidan misni sulfat, termik va ekstraksion fosfat kislotalar eritmalari tarkibiga o'tkazish.** Turli xil omillarning (konsentratsiya, Q:S moddalar nisbatlari, ta'sirlashuv vaqtining davomiyligi va harorat) elektrofiltrlar kukunlari tarkibidan mis mikroelementini sulfat, termik va ekstraksion fosfat kislotalar tarkibiga o'tishiga ta'siri o'rganilgan.

Sulfat kislota konsentratsiyasining misni ajratib olinishiga ta'siri Q:S=1:5 nisbatlarida va ta'sirlashuv davomiyligi 60 minut bo'lganda o'rganilgan (6.2-jadval, 6.2-rasm). Kislota konsentratsiyasini 7 dan 15 % ga o'zgartirilganda misning eritmaga o'tishi ortadi. Eritmaning konsentratsiyasi 7 % bo'lganda mikroelementning o'tishi 50,7 % bo'lsa, eritmaning konsentratsiyalari 12 va 15 % bo'lganda mos ravishda 51,6 dan 53,3 % teng bo'ladi. Sulfat kislota konsentratsiyasi 30 dan 45 % ga ortirliganda misning eritmaga o'tishi 53,3 dan mos ravishda 45,8 dan 9,3 ga kamayadi. Bu sulfat kislota eritmasini konsentratsiyasining ortishi natijasida unda  $CuSO_4$  ni erishini kamayishi bilan tushuntiriladi.

Q:S moddalar nisbatlarining kukun tarkibidagi misni sulfat kislotalada erishiga ta'siri  $20^{\circ}C$  haroratda va ta'sirlashuv

davomiyligi 60 minut bo'lganda o'rganilgan. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, 15 % li sulfat kislota eritmasi miqdori ko'paytirilganda misni eritmaga o'tishi ortib boradi. Q:S=1:3 bo'lganda misni eritmaga o'tishi 52,2; Q:S=1:10 bo'lganda esa 57,9 % ni tashkil qiladi.

### 6.2-jadval

#### Mis va temirni elektrofiltrlar kukunidan sulfat kislota eritmasisiga o'tkazish (harorat 20-22°C)


Omillar	Misni ajralishi, %	Temirni ajralishi, %	Tadqiqotni o'tkazish sharoiti
Sulfat kislota konsentratsiyasining ta'siri			
7	50,7	1,04	
12,5	51,6	1,04	
15	53,3	1,00	
30	45,8	2,07	
45	9,3	1,86	
Q:S moddalar nisbatlarining ta'siri			
1:3	52,2	1,8	
1:5	53,3	1,1	
1:6	54,2	0,95	
1:8	55,0	0,85	
1:10	57,9	0,65	
Ta'sirlashuv vaqtining ta'siri (minut)			
5	54,2	0,77	
15	55,0	0,95	
30	56,1	1,0	
60	59,9	1,05	
120	60,7	1,09	

Misni 15 % li sulfat kislota eritmasisiga o'tishiga ta'sirlashuv davomiyligining ta'siri, Q:S=1:10 nisbatlarda o'rganilgan. Ta'sirlashuv davomiyligini 5 dan 120 minutga o'zgartirilganda misni eritmaga o'tishi 54,2 dan 60,7 % ga ortadi. Bunday sharoitlarda temirning eritmaga o'tishi 0,77 dan 1,09 % ga o'zgaradi. Aralashma haroratini 80°C ga oshirilishi misni sulfat kislota tarkibiga o'tishini birmuncha pasaytiradi.

Shunday qilib, kerakli element (mis) ni sulfat kislota eritmasisiga o'tkazishning optimal sharoiti quyidagicha bo'ladi: kislota konsentratsiyasi 15 %; Q:S=1:10; ta'sirlashuv davomiyligi 60 minut; harorat esa 20-22°C ni tashkil etadi. Bunda

misni eritmaga o'tish darajasi 60 %, temirning eritmaga o'tishi esa 1,05 % ni tashkil qiladi.


Misni mis oksidi va elektrofiltrlar kukuni tarkibidan termik (8,86 %, 18,1 %, 24,8 %, 29,1 %, 43,3 %  $P_2O_5$ ) va ekstraksion (22,5 %  $P_2O_5$ ) fosfat kislotalar tarkibiga o'tkazish shart-sharoitlari o'rganilgan.



- 6.2-rasm.** Elektrofiltrlar kukunidan misning sulfat kislota eritmasiga o'tishi:
- 1- Q:S (15,5 %  $H_2SO_4$ , vaqt 60 minut) moddalar nisbatiga bog'liq ravishda;
  - 2- kislota konsentratsiyasiga ( $Q:S=1:5$ , vaqt 30 minut) bog'liq ravishda;
  - 3-kislota konsentratsiyasiga ( $Q:S=1:5$ , vaqt 60 minut) bog'liq ravishda.

Termik fosfat kislota eritmasi konsentratsiyasining mis oksidi (elektrofiltrlar kukunining asosiy tarkibiy qismi) ga ta'siri  $Q:S=1:10$  va  $90^\circ C$  haroratda hamda ta'sirlashuv davomiyligi 30 minut bo'lganda o'rganilgan. Eritma konsentratsiyasini 8,86 % dan 43,3 %  $P_2O_5$  ga o'zgartirilganda mikroelementni eritmaga o'tish darajasi 48,9 dan 99,8 % ga ortadi. Tarkibida 18,1 %  $P_2O_5$  bo'lgan termik fosfat kislotaga 65 % va ekstraksion fosfat kislota eritmasiga 76,5 % mis mikroelementi o'tishi aniqlangan.


Xuddi shunday kislotalar (18,1 %  $P_2O_5$ ) eritmalariga misni mis oksididan o'tishiga Q:S moddalar nisbatlarining ta'siri 20- $90^\circ C$  haroratda ta'sirlashuv davomiyligi 30 minutni tashkil qilganda o'rganilganda, fosfat kislotasi eritmasining miqdori oshirib borilishi bilan misning eritmaga o'tish darajasi ortib borishi aniqlangan (6.3-rasm).



**6.3-rasm.** Q:S=1:5 nisbatga bog'liq ravishda misni mis oksididan ajralishi: 1 – 20°C haroratda 18,1 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> li TFKga; 2 – 90°C haroratda 18,1 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> li TFKga; 3 – 20°C haroratda EFKga; 4 – 90°C haroratda EFKga.

Q:S=1:10 va harorat 20°C bo'lganda misni termik va ekstraksion fosfat kislotalarga o'tish darajasi mos ravishda 46 va 52 % ni tashkil qiladi. Bundan keyingi Q:S moddalar nisbatlarini o'zgartirilishi, deyarli mis oksidini erishiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Ta'sirlashuv davomiyligining mis oksidini fosfat kislota (8,9 va 18,1 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>) lar tarkibiga o'tishiga ta'siri moddalar nisbati Q:S=1:10 va harorat 20°C bo'lganda olib borilgan (6.4-rasm).



**6.4-rasm.** Mis oksididan misni Q:S=1:5 nisbatda termik fosfat kislotaga ajralishi: 1 – vaqtga bog'liq ravishda 8,9 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> TFKga; 2 – 18,1 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> TFKga; 3 – vaqt 30 minut, harorat 90°C.

Ta'sirlashuv davomiyligi 60 minut bo'lganda misni eritmaga o'tishi mos ravishda 32 va 46 % ni tashkil etgan. Bundan keyingi ta'sirlashuv vaqtining oshirilishi misni eritmaga o'tishiga deyarli ta'sir ko'rsatmasligi aniqlangan. 90°C haroratda Q:S moddalar nisbatlarini 1:3 dan 1:25 ga o'zgartirilishi misni termik fosfat kislota eritmasiga o'tishini 22 dan 93 % ga ko'paytiradi. Xuddi shunday sharoitlarda misni ekstraksion fosfat kislota tarkibiga o'tishi mos ravishda 31 va 98 % ni tashkil qiladi. Q:S moddalar nisbatlarini, misni elektrofiltrlar kukunlari tarkibidan 18,1 %  $P_2O_5$  li fosfat kislotaga o'tishi sharoitlari o'rganilgan. Q:S moddalar nisbatlarini 1:5 dan 1:25 ga o'zgartirilishi va ta'sirlashuv davomiyligi 60 minut, harorat 20°C bo'lganda misni eritmaga o'tishi 50,4 dan 62,4 % gacha ortadi (6.3-jadval). Haroratning ta'siri uning 20-90°C qiymatlari oralig'ida, Q:S=1:10 va 30 minut davomida tekshirildi, bunda misni eritmaga o'tishi 67,6 va 68,5 % ni tashkil qildi. Q:S=1:10 va harorat 90°C bo'lganda 25-30 minut davomida misni 80-82 % eritmaga o'tadi.

### 6.3-jadval

#### **Elektrofiltrlar kukunidan misni TFKga o'tkazish**

**(18,1 %  $P_2O_5$ )**

Omillar	Misni ajralishi, %	Tadqiqotni o'tkazish sharoiti
Q:S moddalar nisbatlarining ta'siri		
1:5	50,4	ta'sirlashuv vaqt 60 minut, harorat 20-22°C
1:8	51,7	
1:10	59,3	
1:15	60,5	
1:25	62,4	
Haroratning ta'siri, °C		
20	57,9	ta'sirlashuv vaqt 30 minut, Q:S =1:10
40	66,0	
50	67,1	
70	67,6	
90	68,5	
Ta'sirlashuv vaqtining ta'siri (minut)		
5	16,1	Q:S =1:10, harorat 20-22°C
15	18,0	
30	35,1	
60	43,1	
120	60,0	

Q:S moddalar nisbatini, misni ekstraksion fosfat kislota tarkibiga o'tishi 20 va  $90^{\circ}\text{C}$  haroratda 30 minut davomida o'rganib chiqilgan (6.4-jadval, 6.5-rasm). Q:S=1:5 bo'lganda misni EFK (8,9 va 18,1 %  $\text{P}_2\text{O}_5$ )ga o'tishi mos ravishda 60,3 va 68,1 % ni tashkil qiladi. Bundan keyingi EFK miqdorini ko'paytirilishi misni eritmaga o'tishiga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi. Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, ta'sirlashuv davomiyligini ortishi kukun (qurum) tarkibidan misni eritmaga o'tishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda dastlabki 30-40 minut davomida, kukun (qurum) ni erishi tezlashadi, ammo eritmaning to'yinish darajasiga yaqin sekinlashadi. Bundan keyingi aralashtirish davomiyligi orttirilganda misni eritmaga o'tishi 5-9 % ga ortadi.

#### 6.4-jadval


##### Elektrofiltrlar kukunidan misni EFKga o'tkazish (22,5 % $\text{P}_2\text{O}_5$ )

Omillar	Misning ajralishi, %	Tadqiqotni o'tkazish sharoiti	
Q:S moddalar nisbatlarining ta'siri			
1:5	50,2	vaqt 30 minut, harorat 20-22°C	
1:4	55,4		
1:5	60,3		
1:6	63,8		
1:8	67,1		
1:10	70,5		
1:20	71,4	vaqt 30 minut, harorat 90°C	
Q:S moddalar nisbatlarining ta'siri			
1:3	57,5		
1:5	68,1		
1:8	72,3		
1:10	82,3		
1:20	86,7		
Ta'sirlashuv vaqtining ta'siri (minut)			
5	42,7	Q:S=1:5, harorat 20-22°C	
15	46,0		
30	60,5		
60	65,4		
120	69,2		

Haroratni 20 dan  $90^{\circ}\text{C}$ ga orttirilishi misni EFKga o'tishini oshiradi. Bunda aralashtirish davomiyligi 30 minut, Q:S=1:5

bo'lganda ajralish darajasi 60,3 dan 68,1 % ga; Q:S=1:10 bo'lganda esa, 70,5 dan 82,3 %ga ko'payadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, misni EFKga o'tish darajasi, yuqorida o'rganilgan sharoitlarda TFKga nisbatan birmuncha yuqori hisoblanadi. Bu EFK tarkibida sulfat kislota borligi bilan izohlanadi.



**6.5-rasm.** Q:S moddalar nisbatini elektrofiltrlar kukunidan misni EFKga ajralishiga ta'siri: 1 – 20°C haroratda; 2 – 90°C haroratda.

Yuqorida olingan natijalar asosida, misni elektrofiltrlar qurumlari tarkibidan turli xil kislotalar tarkibiga o'tishi Olmaliq «Ammofos-Maksam» OAJ EFKda kuchliroq namoyon bo'ladi. Bundan keyingi qatorda termik fosfat va sulfat kislotalar turadi. Bu kislotalar tarkibiga 60-62 % misni o'tishi aniqlandi. Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, TFK va sulfat kislotalarga qurumning sulfatli qismlari o'tadi. Xuddi shunday natijalarni xona haroratida EFK bilan ham kuzatish mumkin, bunda misning eng yuqori o'tish darajasi 71 % ni tashkil qiladi. Texnologik sharoitlarda (90°C harorat) misni EFKga o'tishi 86,7 %ni tashkil qiladi, bu natija shuni tasdiqlaydiki, qurumning oksidli qismi bilan bir qatorda sulfatli qismi ham EFK tarkibiga o'tadi. Bunday natijalarni tasdig'i sifatida mis oksidini ekstraksiyon fosfat kislotaga o'tishi TFKga nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatish mumkin.

Shunga muvofiq ravishda, misli ammofos ishlab chiqarishda, sanoat yarim mahsulotlarini ekstraksiyon fosfat

kislotaga  $Q:S=1:10$ ,  $90^{\circ}\text{C}$  haroratda va aralashtirish davomiyligi 30 minutda kiritish mumkin.

**Ruxni rux bug'lanmasi tarkibidan ammiak eritmalarini tarkibiga o'tkazish.** Rux bug'lanmasini ammiak eritmasida erishini konsentratsiya,  $Q:S$  moddalar nisbatlari va reaksiya davomiyligiga bog'liqligini o'rnatilgan.

Ammiak eritmasi konsentratsiyasining ruxni ajralishiga ta'sirini  $Q:S$  moddalar nisbatlarini turli xil qiymatlarida, xona haroratida va turli xil ta'sirlashuv davomiyliklarida o'rnatilgan. Tekshirish natijalari shuni ko'rsatadiki (6.5-jadval), ammiak eritmasining konsentratsiyasi ortishi bilan ruxning eritmaga o'tishi pasayadi.

6.5- jadval

### Xona haroratida rux bug'lanmasidan ammiak eritmalariga ruxning o'tishida turli xil omillar ta'siri

Omillar	Ruxni ajralish darajasi, %	Tadqiqotni o'tkazish sharoiti
Q:S moddalar nisbatlarining ta'siri		
1:5	33,9	10 % li ammiak eritmasi, vaqt 30 min
1:6	34,6	
1:8	36,2	
1:10	39,0	
Q:S moddalar nisbatlarining ta'siri		
1:5	24,0	
1:6	26,5	
1:8	27,6	
1:10	28,3	
1:15	29,1	
Aralashtirish vaqtining ta'siri (minut)		
5	32,1	10 % li ammiak eritmasi, $Q:S=1:5$
15	32,9	
30	33,9	
60	37,5	
120	39,9	
5	24,7	25 % li ammiak eritmasi, $Q:S=1:5$
15	26,0	
30	26,9	
60	27,5	
120	29,0	

Masalan,  $Q:S=1:5$  bo'lganda, ammiak eritmasi konsentratsiyasi 10 dan 25 % ga ko'paytirilganda, ruxni eritmaga o'tishi

33,9 dan 24,0 % gacha kamayadi. Bunday o'zgarishni Q:S moddalar nisbatlarining boshqa qiymatlarida ham kuzatish mumkin.

Q:S moddalar nisbatlarini ruxni erishiga ta'sirini 20°C haroratda, reaksiya davomiyligi 30 minut bo'lganda o'rghanildi. Bunda ammiak eritmasi miqdori ko'paytirilganda, ruxni erishi ortadi. Agar Q:S=1:5 (ammiak eritmasi konsentratsiyasi 10 %) bo'lganda, ruxni eritmaga o'tishi 33,9 % bo'lsa, Q:S=1:10 bo'lganda bu natija 39,0 % ni tashkil qiladi. Xuddi shunday natijalarni 25 % li ammiak eritmalarini bilan ham kuzatish mumkin.

Aralashtirish davomiyligini ruxni ammiak eritmalariga o'tishiga ta'sirini Q:S=1:5 nisbatda o'rghanib chiqilgan. Aralashtirish vaqtini 15 minutdan 120 minutga o'zgartirilganda 10 va 25 % li ammiak eritmalariga ruxning o'tishi mos ravishda 32,1 dan 39,9 % gacha va 24,7 dan 29,0 % gacha o'zgaradi.

Tadqiqotlar natijasida ruxni rux bug'lanmalaridan ammiak eritmalariga o'tishining optimal sharoitlari 10 % li ammiak eritmasiga Q:S=1:10 va aralashtirish vaqt 30 minut, Q:S=1:5 da esa, aralashtirish vaqt 120 minut hisoblanadi.

**Ruxni rux bug'lanmasi tarkibidan yuvindi sulfat, termik va ekstraksion fosfat kislotalar eritmalarini tarkibiga o'tkazish.** Rangli metallurgiyaning chiqindi mahsuloti bo'lgan, yuvindi (8 % H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>) sulfat kislotasini ruxni rux bug'lanmasidan ajratish uchun ishlatish maqsadida bir qator tadqiqotlar o'tkazilgan. Q:S moddalar nisbatlarini ruxni rux bug'lanmasidan ajratishga ta'sirini yuvindi sulfat kislotasi va EFK uchun xona haroratida va ta'sirlashuv vaqt 30 minut bo'lganda o'rghanilgan.


Bunda sulfat kislota miqdori oshirib borilganda ruxni eritmaga o'tishi ortadi Q:S=1:5 dan Q:S=1:10 ga o'tkazilganda ruxni eritmaga o'tishi 72 dan 99,8 % gacha ortadi (6.6-jadval). 6.6- va 6.7-rasmlarda ruxni yuvindi sulfat kislotasiga o'tishini Q:S moddalar nisbatlariga hamda aralashtirish vaqtiga bog'liqligi keltirilgan. Natijalardan ko'rindiki, aralashtirish vaqt ortishi, ruxni eritmaga o'tishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, 5 va 15 minut aralashtirish vaqtlarida ruxni eritmaga o'tishi 70,0 va 70,9 % ni tashkil qiladi, agarda aralashtirish

vaqtлари 60 ва 120 минутни ташкіл qilsа, рuxni eritmaga o'tishi mos ravishda 73,2 va 76,3 % ga boradi.


6.6-jadval

**OTKMK sulfat kislota ishlab chiqarish zavodining yuvindi sulfat kislotasiga rux bog'lanmasidan ruxni o'tkazishga turli xil omillarning ta'siri**

Omillar	Ruxni o'tish darajasi, %	Tadqiqotni o'tkazish sharoiti
Q:S moddalar nisbatlarining ta'siri		
1:5	72,0	
1:6	79,4	
1:8	95,9	
1:10	99,8	
1:20	99,8	
Aralashtirish vaqtining ta'siri (minut)		
5	70,0	Q:S=1:5 moddalar nisbati, harorat 20-22°C
15	70,9	
30	72,0	
60	73,2	
Haroratning ta'siri		
20	72,0	vaqt 30 minut, Q:S=1:5 moddalar nisbati
40	83,2	
60	92,1	
70	95,2	
90	99,7	



**6.6-rasm.** Q:S moddalar nisbatini rux bug'lanmasidan ruxni ajralishiga ta'siri: 1-yuvindi sulfat kislota eritmasiga (vaqt 30 minut, harorat 20-22°C); 2-EFK ga (vaqt 30 minut, harorat 90°C).



**6.7-rasm.** Vaqt davomiyligi ruxni rux bug'lanmasidan ajralishiga ta'siri:  
1-yuvindi sulfat kislotaga ( $Q:S=1:5$ ,  $20-22^{\circ}\text{C}$ ); 2-EFKga ( $Q:S=1:10$ , harorat  
 $20-22^{\circ}\text{C}$ ); 3-EFKga ( $Q:S=1:10$ , harorat  $90^{\circ}\text{C}$ ).

Ruxni eritmaga o'tishiga sezilarli darajada, jarayon harorati ta'sir ko'rsatadi,  $Q:S=1:5$  va aralashdirish vaqt 30 minut va aralashma harorati  $40^{\circ}\text{C}$  bo'lganda eritmaga 83,2 % rux o'tadi. Xuddi shunday sharoitda jarayon harorati  $90^{\circ}\text{C}$  ga oshirilsa, ruxni eritmaga o'tishi 99,7 % ni tashkil qiladi.

Rux bug'lanmasining asosiy tarkibiy qismi – rux oksidini TFKga o'tishi sharoitlari o'rganib chiqilgan.

$Q:S$  moddalar nisbatlarini rux oksidi eritmasiga o'tishiga ta'siri TFK ( $18,1\%$   $\text{P}_2\text{O}_5$ ) uchun  $20-22^{\circ}\text{C}$  haroratda va 30 minut vaqt davomiyligida o'rganilgan.

Quyida rux oksidini  $18,1\%$   $\text{P}_2\text{O}_5$  TFKga  $20-22^{\circ}\text{C}$  haroratda, ta'sirlashuv vaqt 30 minut bo'lganda  $Q:S$  moddalar nisbatlariga bog'liqligi o'rganib chiqilishi natijalari keltirilgan:

$Q:S$	Ruxning ajralishi, %
1:3	18,9
1:5	21,9
1:6	30,8
1:8	55,7
1:10	80,3
1:20	88,4

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, TFK miqdori ortib borishi bilan ruxni eritmaga o'tishi ortib boradi. Masalan,  $\text{P}_2\text{O}_5$  miqdori  $18,1\%$  bo'lgan TFK uchun  $Q:S=1:10$  bo'lganda rux oksidini eritmaga o'tishi  $80,3\%$  ni tashkil qilsa,  $Q:S=1:5$  bo'lganda bu ko'rsatkich  $21,9\%$  ga teng bo'ladi. Kislota konsentratsiyasi  $70\%$  ga yetkazilganda rux oksidi yuqorida keltirilgan nisbatlarda to'la erib ketadi. Moddalar nisbatlarini

mikroelementlarni eritmaga o'tishiga ta'siri TFK uchun 20-22°C harorat va 30 minut vaqt davomiyligida o'rganilgan.

$P_2O_5$  ning miqdori 18,1 % bo'lgan TFKda ruxni Q:S=1:(5-8) nisbatlarda to'la erimasligi fosfat kislota miqdori yetarli emasligini bildiradi. Vaqt ni rux oksidini erishiga ta'siri  $P_2O_5$  miqdori 18,1 % bo'lganda TFK uchun Q:S=1:10 moddalar nisbatida o'rganib chiqilgan:

Vaqt, minut	Ruxning ajralishi, %
5	30,1
15	40,1
30	80,3
60	85,2
120	87,9

Natijalardan ko'rindiki, aralashtirish vaqt ruxni kislotada erishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aralashtirish vaqtini 15 dan 120 minutga oshirilganda rux oksidini ajralish darajasi 40,4 dan 87,9 % ga o'zgaradi. Shunday sharoitlarda kislota konsentratsiyasini 30,0 % ga yetkazilsa, ruxni kislotaga o'tishi 99,2 % ni tashkil qiladi.

Rux bug'lanmasini EFK ga o'tishi o'rganib chiqilgan (6.7-jadval, 6.6- va 6.7-rasmlar). Ko'rindiki, haroratni 20 dan 90°C ga Q:S=10 bo'lganda, oshirilganda, mikroelementni EFKga o'tishi mos ravishda 75 va 96,2 % ni tashkil qiladi. Ruxni ajralishiga Q:S moddalarni nisbatlari va ta'sirlashuv davomiyligi sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Q:S moddalar nisbatlarini 1:3 dan 1:15 ga oshirilganda 90°C haroratda mikroelementni eritmaga (EFKga) o'tishi 80,5 dan 98 % ga ortadi. O'tkazilgan tadqiqotlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, rux bug'lanmasi termik va ekstraksion fosfat kislotalarda yaxshi eriydi.

Yuqoridaq natijalar va xulosalar asosida rux oksidi va rux bug'lanmasini ruxli ammofos ishlab chiqarish uchun tavsiya qilish mumkin.

**Misni PHK-4 katalizator tarkibidan sulfat, termik va ekstraksion fosfat kislotalar eritmalari tarkibiga o'tkazish.** Ishlatib bo'lingan PHK-4 (past haroratli konversiya katalizatori - 4) katalizatorini mikroelementli (misli) ammofos ishlab chiqarishda foydalanish uchun misni sulfat (7,7, 12 va

15 % H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>), termik (19 va 32 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>) va ekstraksion fosfat kislotalar eritmalariga o'tishiga turli xil omillar: Q:S moddalar nisbatlari, vaqt va harorat ta'sirlari o'rganilgan.

**Xona haroratida rux bug'lanmasidan ekstraksion fosfat kislota (22,5 % P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>) eritmasiga ruxning o'tishiga turli xil omillar ta'siri**

6.7-jadval


Omillar	Ruxning ajralish darajasi, %	Tadqiqotni o'tkazish sharoiti
Q:S moddalar nisbatlarining ta'siri		
1:3	70,6	harorat 20-22°C, ta'sirlashuv vaqt 30 minut
1:5	78,3	
1:8	80,5	
1:10	82,0	
1:15	83,2	
Q:S moddalar nisbatlarining ta'siri		
1:3	80,5	harorat 90°C, ta'sirlashuv vaqt 30 minut
1:5	85,3	
1:8	90,4	
1:10	96,2	
1:15	98,0	
Aralashtirish vaqtining ta'siri (minut)		
5	82,5	harorat 90°C, Q:S=1:10
15	93,7	
30	96,0	
60	97,3	
120	98,4	

Sulfat kislota konsentratsiyasining misni ajralishiga ta'siri Q:S=1:5 dan Q:S=1:20 intervalda xona haroratida, 60 minut ta'sirlashuv vaqt davomida o'rganildi. Eritma konsentratsiyasi 7,7 dan 15 % gacha oshirilganda Q:S moddalar nisbatlarining kichik (Q:S=1:5,1:6) qiymatlarida misni eritmaga o'tishi sezilarli darajada ortadi, yuqori qiymatlarida esa (Q:S=1:8, 1:20) deyarli o'zgarmay qoladi (6.8-jadval, 6.8-rasm). Masalan, Q:S=1:5 va kislota konsentratsiyasi 7,7 % bo'lganda mikroelementni o'tish darajasi 67,3 % va kislota konsentratsiyasi 15 % bo'lganda 77,8 % ni tashkil etadi. Agar yuqoridagi sharoitlarda Q:S=1:20 bo'lsa, o'tish darajalari 82-83 % ga boradi.

### 6.8-jadval

#### PHK-4 katalizatordan misni sulfat kislota eritmasiga 20-22°C haroratda o'tishi


Omillar	Misni ajralishi	Tadqiqotni o'tkazish sharoiti
Sulfat kislota konsentratsiyasining ta'siri		
7,7	65,8	
12,0	70,6	
15,0	77,8	Q:S=1:5, vaqt 30 minut
Q:S nisbatlar ta'siri		
1:5	67,3	
1:6	74,8	
1:8	80,2	
1:10	82,8	
1:20	83,3	
Aralashtirish vaqtining ta'siri		
5	63,8	
15	64,3	
30	65,8	
60	67,3	
120	67,6	Q:S=1:5, 7,7 % li sulfat kislota



6.8-rasm. Sulfat kislota konsentratsiyasini PHK-4 dan misni ajralishiga ta'siri (vaqt 60 minut): 1 – Q:S=1:5; 2 – Q:S=1:6; 3 – Q:S=1:8;  
4 – Q:S=1:20


Xuddi shunday o'zgarish Q:S moddalar nisbatlari o'zgarganda ham sodir bo'ladi. Masalan, Q:S=1:5 dan Q:S=1:20 ga o'zgartirilganda (kislota konsentratsiyasi 12 %) misni o'tish darajasi ham o'zgaradi, ya'ni 82 dan 84 % ga o'tadi. Reaksiya davomiyligini PHK-4 dan o'tish darajasiga ta'sirini, Q:S=1:5 va 20°C haroratda o'rganilgan (6.9-ta'sirini, Q:S=1:5 va 20°C haroratda o'rganilgan (6.9-

sulfat kislota eritmalariga misni o'tishi darajasi 65,8; 70,6 va 77,0 % ni tashkil qiladi, aralashtirish vaqt 120 minut bo'lganda esa muvofiq ravishda 67,3, 72,2 va 78,8 % bo'ladi. Natijalardan ko'rindiki, misning asosiy miqdori 30 minutda eritmaga o'tadi. Keyingi aralashtirish vaqtini uzaytirilishi mikroelementni eritmaga o'tish darajasiga kam ta'sir qiladi.



**6.9-rasm.** Vaqt davomiyligining misni PHK-4 dan sulfat kislotaga ajralishiga ta'siri ( $20-22^{\circ}\text{C}$ , Q:S=1:5): 1 – 7,7 %  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasiga; 2 – 12 %  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasiga; 3 – 15 % li  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasiga.

Aralashtirish vaqt 30 minut  $20^{\circ}\text{C}$  haroratda  $\text{P}_2\text{O}_5$  19 va 32 % li bo'lgan fosfat kislotasiga mikroelementni o'tish darajasiga Q:S moddalar nisbatlarini ta'siri o'rganilgan (6.10-rasm). Natijalardan ko'rindiki, kislota miqdorini ortishi misni katalizatoridan eritmaga o'tishiga ham ta'sir qilishini kuzatish mumkin.



**6.10-rasm.** Q:S nisbatini PHK-4 dan misning ajralishiga ta'siri (vaqt 30 minut): 1 – TFKga (19 %  $\text{P}_2\text{O}_5$ ,  $20-22^{\circ}\text{C}$ ); 2 – EFKga (22,5 %  $\text{P}_2\text{O}_5$ ,  $90^{\circ}\text{C}$ ).

Q:S=1:10 bo'lganda  $\text{P}_2\text{O}_5$  19 va 32 % bo'lgan TFK ga 78,2 va 86,0 % mis mikroelementi o'tadi. Q:S moddalar nisbatlarini keyingi o'zgarishlari mikroelementni eritmaga o'tishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Misni PHK-4 katalizatoridan termik fosfat kislotasi eritmasiga o'tishini optimal sharoiti Q:S=1:10 va ta'sirlashuv vaqt 30 minut hisoblanadi.

Q:S moddalar nisbatlarini kichik qiymatlarida misni eritmaga o'tishiga kislota konsentratsiyasini o'zgarishi sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Q:S=1:10 da kislota konsentratsiyasi  $P_2O_5$  bo'yicha 19 da 32 % ga oshirilishi misni o'tish darajasini 82,6 dan 86,3 % ga ko'paytiradi.

$P_2O_5$  bo'yicha 19 va 32 % li texnik fosfat kislotalariga misni o'tishiga vaqt davomiyligi ta'siri Q:S=1:5 va xona haroratida o'rganildi. Vaqtin davomiyligi ko'paytirilganda misni eritmaga o'tishi deyarli o'zgarmaydi.

Katalizatordan misni eritmaga o'tkazilishi EFK uchun 90°C haroratda tekshirib ko'rilgan.

Q:S moddalar nisbatlari Q:S=1:3 dan Q:S=1:20 ga o'zgartirilganda PHK-4 katalizatorдан misni EFK ga o'tishi 81,6 dan 86,8 % ko'paytiradi (6.10-rasm). Ajralish darajasiga vaqtning ta'siri Q:S=1:5 va Q:S=1:10 nisbatlarda o'rganib chiqilgan. Bunda misning asosiy massasi birinchi 30 minutda eritmaga o'tadi. Shunday qilib, texnologik jarayonlarga yaqin sharoitlarda katalizatorlar (PHK-4) dan misni 86,8 % ini o'zlashtirish mumkin.

**Ruxni rux asetatli katalizatorlar tarkibidan sulfat, termik va ekstraksion fosfat kislotalar eritmalari tarkibiga o'tkazish.** Ta'sirlashuv vaqtin, Q:S moddalar nisbati, harorat va sulfat (7,7, 12, 15 %) termik ( $P_2O_5$  bo'yicha 10,0, 19, 32 %) va ekstraksion ( $P_2O_5$  bo'yicha 2,5 %) fosfat kislotalar konsentratsiyalarini rux asetatli katalizatordan ruxni eritmalarga o'tishiga bog'liqligi tadqiq qilingan.

Sulfat kislota konsentratsiyasini 7,7 dan 15 % ga o'zgartirish rux asetatni 20-22°C haroratda kislotada erishiga deyarli ta'sir qilmaydi (6.9-jadval).

Ruxni sulfat kislota yordamida ajratishga (rux asetatli) katalizatorдан vaqt davomiyligining ta'sirini Q:S=1:5 nisbatlarda va 20°C haroratda o'rganilgan.


Vaqtni davomiyligi 30 va 120 minut bo'lganda 15 % sulfat kislotaga ruxni o'tishi mos ravishda 70,4 va 73,1 % ni tashkil qiladi. Ruxning asosiy massasi sulfat kislotaga 30 minut davomida o'tadi. Haroratni 20 dan 90°C ga ko'tarilishi, Q:S=1:10 bo'lganda va ta'sirlashuv vaqtin 30 minutni tashkil qilganda 70,4-71,7 % dan 84-88 % ga ko'tariladi.

Qattiq va suyuq fazalar nisbatlarini, ruxning katalizatordan TFK ga o'tish darajasiga ta'sirini  $20^{\circ}\text{C}$  harorat va 30 minutli ta'sirlashuv vaqtida o'rganildi (6.11-rasm). Kislota miqdorini ko'paytirilish ruxni eritmaga o'tishiga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi. 6.12-rasmdan ko'rindaniki, ruxni katalizatordan TFKga ajralishiga Q:S=1:10 nisbat yetarli hisoblanadi. Fosfat kislota konsentratsiyasini  $\text{P}_2\text{O}_5$  bo'yicha 32 % ga ko'paytirilganda ruxni eritmaga o'tishi 64 dan 68 % ga ortadi.


### 6.9-jadval

#### Rux asetatli katalizatordan $20-22^{\circ}\text{C}$ haroratda ruxning sulfat kislota eritmasiga o'tishi

Omillar	Ruxning ajralishi, %			Tadqiqotni o'tkazish sharoitlari
	7,7 % $\text{H}_2\text{SO}_4$	12 % $\text{H}_2\text{SO}_4$	15 % $\text{H}_2\text{SO}_4$	
Q:S moddalar nisbati				
1:5	70,3	69,1	69,0	ta'sirlashuv vaqt 30 min
1:6	70,6	70,0	69,3	
1:8	70,2	69,7	69,7	
1:10	71,7	70,5	70,4	
1:20	72,2	71,9	71,7	
Ta'sirlashuv vaqtining ta'siri, minut				
5	66,7	67,7	67,9	Q:S=1:5
15	70,0	68,4	68,0	
30	70,4	69,7	69,2	
60	71,7	70,1	70,7	
120	73,1	71,4	71,7	




6.11-rasm. Vaqt davomiyligining ruxni rux asetatli katalizatordan TFKga ajralishiga ta'siri (harorat  $20^{\circ}\text{C}$ ): 1 – 10 %  $\text{P}_2\text{O}_5$  li TFKga; 2 – 19 %  $\text{P}_2\text{O}_5$  li TFKga; 3 – 32 %  $\text{P}_2\text{O}_5$  li TFKga.



**6.12-rasm.** Ruxning rux asetatli katalizatorдан TFKga ajralishini Q:S nisbatiga bog'liqligi ( $20^{\circ}\text{C}$ ): 1 – 10 %  $\text{P}_2\text{O}_5$ ; 2 – 19 %  $\text{P}_2\text{O}_5$ ; 3 – 32 %  $\text{P}_2\text{O}_5$ .

Ruxni katalizatorlardan EFKga ajralishiga ta'sir qiluvchi omillar ham o'rganib chiqilgan. Q:S modda nisbatlari ta'siri  $90^{\circ}\text{C}$  haroratda va ta'sirlashuv vaqtiga 15 minut bo'lganda tekshirildi. 6.13-rasmdan ko'rindiki, Q:S=1:3 dan Q:S=1:20 ga o'zgartirilganda ruxni suyuq fazaga o'tishi 82,1 dan 97,4 % ga ortadi.




**6.13-rasm.**  $90^{\circ}\text{C}$  haroratda ruxning rux asetatli katalizatorдан EFKga ajralishini Q: S moddalar nisbati (1) va ta'sirlashuv davomiyligiga (2) bog'liqligi.

Ta'sirlashuv vaqtining 30 minutga ko'tarilganda ruxni eritmaga o'tishi 94,7 dan 97,1 % ga ko'payadi. Q:S=1:5 dan Q:S=1:10 ga o'zgartirilsa, ajralish darajasi 96,3 dan 98,5 % ga ortadi. Shunday qilib, Q:S=1:10 va  $90^{\circ}\text{C}$  haroratda mikroelementning qariyib to'la ekstraksion fosfat kislotaga o'tkazishga erishish mumkin.

**KAP elektrofilrlari kukuni va PHK-4 katalizatorlari komponentlarini ammosos olishdagi holatlari.** Kislorod-alangali pechlar (KAP) elektrofilrlari kukuni va ishlatib bo'lingan

katalizatorlarning PHK-4 (mis oksidi va sulfatlari) ammofos olishdagি holatlari o'rganilgan. Bunda fosfat kislotasini ammiak gazi bilan neytrallash mis(II)-birikmalari tarkibiga ta'sir qilishi aniqlangan. Buning uchun reaksiya kolbasiga  $P_2O_5$  bo'yicha 32 % li fosfat kislotasining hisoblangan miqdori solindi, mis(II)-sulfat qo'shildi (yoki xomashyo) va 90°C haroratda qo'shimcha eriguncha aralashtiriladi. Modda erigach, aralashma pH ni kerakli miqdoriga qadar gaz holidagi ammiak bilan neytrallanadi. Neytrallash tugagach bo'tqani 1 soat davomida qo'shimcha aralashtiriladi. Olingan cho'kmani suv bilan bir necha marta yuviladi, havoda quritiladi va uning tarkibidagi azot, fosfor, mis elementlari miqdori tahlil qilinadi.

**Vodorod ko'rsatkichi pH ni tarkibida mis oksidi va sulfati bo'lgan fosfatli eritmalarни neytrallash mahsulotlariga ta'siri.** Mis oksidi va mis(II)-sulfatini termik fosfat kislotasi tarkibiga kiritilganda asosan mis digidrofosfatni hosil bo'lishi kuzatiladi:



#### 6.10-jadval


#### Ammofos bo'tqasida hosil bo'lgan qattiq moddani tahlil natijalari (fosfat kislotasiga mis oksidi kiritilgan)

Bo'tqa-ning pH	$HPO_4^{2-}$ , %	$Cu^{+2}$ , %	$NH_3$ , %	$HPO_4^{2-}:Cu^{+2}$ , $NH_3$ mol nisbatlari	Qattiq faza
1,6	54,3	35,9	—	1:1,00	$Cu(H_2O)HPO_4$
1,8	54,0	35,5	—	1:0,99	
2,0	54,5	36,2	—	1:0,99	
2,5	54,0	36,9	2,1	1:1,03:0,22	$Cu(H_2O)HPO_4$
4,3	52,2	35,7	3,4	1:1,03:0,37	
5,4	51,6	33,6	4,1	1:0,98:0,45	
6,0	50,2	33,2	6,2	1:1,00:0,70	$Cu(H_2O)(NH_3)HPO_4$
6,5	49,0	32,1	9,0	1:0,99:0,03	$Cu(H_2O)(NH_3)HPO_4$
6,8	49,5	32,0	8,8	1:0,98:1,00	
7,0	48,7	31,8	8,9	1:0,99:1,03	


Olingan eritmani gaz holidagi ammiak bilan pH ni 1,6 qiymatiga qadar neytrallanganda, aralashma fazaviy tarkibi o'zgarmay qoldi. Ammo pH 1,6-2,0 bo'lganda kuchsiz ko'k

rangli eritma hosil bo‘ladi. Bu aralashmani kimyoviy tahlil qilinganda uning tarkibida azot yo‘q ekanligi va 35,5-36,2 %  $\text{Cu}^{+2}$  va 54,0-54,5 %  $\text{HPO}_4^{2-}$  ionlari borligi aniqlangan, ya’ni nazariy jihatdan olinganda 35,8 %  $\text{Cu}^{+2}$  va 54,1 %  $\text{HPO}_4^{2-}$  tarkibli moddaga to‘g‘ri keladi. Tahlil natijalari 6.10- va 6.11-jadvallarda keltirilgan.

Vodorod ko‘rsatkichning pH=1,6-2,0 qiymatlarida gaz holidagi ammiak bilan mis fosfatli eritma neytrallanganda quyidagi reaksiya boradi:



pH ning 2,5-6,0 qiymatlarida  $\text{Cu}^{+2}$  va  $\text{HPO}_4^{2-}$  bilan bir qatorda eritmada 2,1-6,2 %  $\text{NH}_3$  bor ekanligi kimyoviy tahlil natijalari asosida aniqlangan, bu natija shuni tasdiqlaydiki, neytrallanish jarayonida ikkita mis(II)- monoakovagidrofosfat va mis(II)-monoakovvaamingidrofosfat tuzlarining birgalikda cho‘kmaga tushishi kuzatiladi:



### 6.11-jadval


#### Ammofos bo‘tqasida hosil bo‘lgan qattiq moddaning tahlil natijalari (fosfat kislotasiga mis(II)-sulfati kiritilgan)

Bo‘tqa-ning pH	$\text{HPO}_4^{2-}$ , %	$\text{Cu}^{+2}$ , %	$\text{NH}_3$ , %	$\text{HPO}_4^{2-}:\text{Cu}^{+2}:\text{NH}_3$ mol nisbatlari	Qattiq faza
1,7	54,5	35,4	—	1:0,98	$\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})\text{HPO}_4$
2,0	54,1	35,7	—	1:1,00	$\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})(\text{NH}_3)\text{HPO}_4$
2,7	53,8	35,5	2,8	1:1,00:0,29	
4,0	52,0	35,1	3,2	1:1,02:0,35	$\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})\text{HPO}_4$
4,5	51,2	34,7	3,9	1:0,99:0,67	$\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})(\text{NH}_3)\text{HPO}_4$
6,3	49,8	32,5	9,0	1:0,98:1,02	
6,7	49,3	32,5	8,7	1:1,00:1,00	$\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})(\text{NH}_3)\text{HPO}_4$
7,1	48,6	32,0	8,9	1:0,98:1,01	

Neytrallanish reaksiyasini davom ettirilishi natijasida mis fosfatli eritmadan to‘q ko‘k rangli cho‘kmaga hosil bo‘lishi kuzatiladi. Cho‘kmanning kimyoviy tahlili natijalari quyidagiga:

pH	$\text{HPO}_4^{2-}$ , %	$\text{Cu}^{+2}$ , %	$\text{NH}_3$ , %
6,5	49,0	32,1	9,0
6,8	49,5	32,0	8,8
7,0	48,7	31,8	8,9

Bu qiymatlar molyar nisbatlarda quyidagicha bo'ladi 1:1:1. Bunday natija neytrallanishning eng yuqori qiymatlarida mis(II)-monoakvaamin-gidrofosfatni hosil bo'lganligini tasdiqlaydi. Hisoblarining ko'rsatishicha, uning tarkibida  $\text{Cu}^{+2} = 32,7\%$ ,  $\text{NH}_3 = 8,7\%$ ,  $\text{HPO}_4^{2-} = 49,3\%$  bo'ladi. 6.14-rasmda suyuq fosfatli fazadagi mis konsentratsiyasining pH ko'rsatkichiga bog'liq ravishda o'zgarishi ko'rsatilgan. Rasmda keltirilgan natijalar shuni tasdiqlaydiki, pH=1,6-2,0 bo'lganda, mis(II)-monoakvagidrofosfat, pH ning 2,5-6,0 qiymatlarida  $\text{Cu}^{+2}$  va  $\text{HPO}_4^{2-}$  bilan bir qatorda eritmada 2,1-6,2 %  $\text{NH}_3$  bor ekanligi kimyoviy tahlil natijalari asosida aniqlandi, bu natija shuni tasdiqlaydiki, neytrallanish jarayonida ikkita mis(II)-monoakvagidrofosfat va mis(II)-monoakvaamin-gidrofosfat tuzlarining birgalikda cho'kmaga tushishi va pH 6,5-7,5 bo'lganda, mis(II)-monoakvaamingidrofosfat tuzining hosil bo'lishi kuzatiladi.



**6.14-rasm.** 90°C haroratda suyuq fazadagi mis konsentratsiyasining pH qiymatiga bog'liq ravishda o'zgarishi


Kimyoviy tahlil natijalari fizik-kimyoviy tahlil usullari yordamida identifikatsiya qilingan.

**Ammofos bo‘tqasida kristallananadigan mis fosfatni fizik-kimyoviy usullar yordamida tadqiq qilish.** Mis(II)-monoakva-gidrofosfat va mis(II)-monoakvaamingidrofosfat birikmalarini identifikasiya qilish uchun zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullaridan foydalanilgan.


Muhitning pH=1,8 qiymatida ajratib olingan birikmaning DTA egri chiziqlarida 140 va 400°C haroratlarda endoeffektlar kuzatiladi (6.15-rasm). 140°C haroratda kristallizatsiya suvining chiqib ketishi sodir bo‘ladi. Haroratning navbatdagi ko‘tarilib borishi natijasida suvsiz tuz tarkibidan konstitutsion suvning ajralishi va mis pirofosfatning hosil bo‘lishi kuzatiladi:



Muhitning pH=6,5 qiymatida ajratib olingan mis (II)-monoakvaamingidrofosfat birikmasining derivatogrammasida 170 va 340°C haroratlarda endotermik effektlar borligi ko‘rinadi (6.16-rasm). 170°C haroratdagi birikma massasining kamayishi suvning ajralib chiqishi hisobiga sodir bo‘ladi.




**6.15-rasm.** pH=1,8 da ammofos bo‘tqasida hosil bo‘ladigan birikmalar derivatogrammasi



**6.16-rasm.** pH=6,5 da ammofos bo‘tqasida hosil bo‘ladigan birikmalar derivatogrammasi

Suv va ammiakning to‘la chiqib ketishi 500°C haroratda sodir bo‘ladi. Bunda massaning yo‘qolishi 22,3 % ga teng bo‘lib qoladi, bu esa suv ammiakning hissasi to‘g’ri keladi. 500°C haroratda olingan moddaning kimyoviy tahlil natijalari, birikmada fosfor va mis elementlari mavjudligini, ammo azot

umuman bu tarkibda yo‘q ekanligini ko‘rsatdi. Olingan natijalar asosida  $\text{Cu}(\text{NH}_3)(\text{H}_2\text{O})\text{HPO}_4$  degidratatsiya jarayonini quyidagi sxema asosida tasavvur qilish mumkin:



Olingan natijalarni tasdiqlash maqsadida, namunalar izotermik sharoitlarda 60 minut davomida turli xil haroratlarda ushlab turildi va ularni massalari hamda kimyoviy tarkiblari tahlil qilindi. 6.12-jadvalda keltirilgan natijalar, derivatogramma natijalarini to‘la tasdiqlaydi.  $200-210^\circ\text{C}$  haroratda massa 10,2 % ga kamayadi.  $300-320^\circ\text{C}$  haroratda esa massaning kamayishi 2,3 % ni tashkil qiladi. Massaning kamayishi  $500^\circ\text{C}$  haroratda 22,3 % ga teng bo‘lib qoladi (derivatogramma bo‘yicha 23,0 %, hisoblar bo‘yicha 22,6 %).


*6.12-jadval*

**Fosfatli birikmalar eritmalarini neytrallash natijasida hosil bo‘lgan birikmalarni termik ishlov berilishi orqali paydo bo‘lgan moddalarini kimyoviy tahlili natijalari**

Harorat, $^\circ\text{C}$	Massaning kamayishi, %	Cu, %	N, %	$\text{P}_2\text{O}_5$ , %	$\text{H}_2\text{O}$ , %
Mis(II)-monoakvagidrofosfat					
20-25	—	35,4	—	40,3	9,8
80-100	0,21	35,6	—	40,5	9,6
150-160	9,2	39,3	—	44,3	—
300-320	10,1	39,7	—	44,5	—
400-420	15,3	42,5	—	47,0	—
500-520	15,6	42,6	—	47,3	—
Mis(II)-monoakvaamingidrofosfat					
20-25	—	32,0	7,4	36,6	9,5
100-110	0,03	32,1	7,4	36,8	9,3
200-210	10,2	36,0	5,5	40,2	3,2
300-320	14,2	40,1	2,3	42,6	—
500-520	22,3	42,2	—	41,3	—

$\text{CuNH}_4\text{PO}_4\cdot\text{H}_2\text{O}$ ,  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})\text{HPO}_4]$ ,  $[\text{Cu}(\text{NH}_3)(\text{H}_2\text{O})\text{HPO}_4]$  larni IQ- va elektron spektrlari o‘rganilgan (6.17-6.19-rasmlar). Shuni ta’kidlash lozimki, aralashmani  $\text{pH}=6,5-7,5$


qiymatlarga qadar neytrallanganda ammiak mis(II)-monoakvagidrofosfat  $[Cu(H_2O)HPO_4]$  tarkibiga kiradi hamda mis(II)-monoakvaamingidrofosfat  $[Cu(NH_3)(H_2O)HPO_4]$  birikmasini hosil qiladi (ilmiy adabiyotlarda bu modda formulasi  $CuNH_4PO_4 \cdot H_2O$  ko'rinishida yoziladi):




Agar reaksiya yuqorida keltirilgan sxema bo'yicha borsa,  $[Cu(H_2O)HPO_4]$  ning elektron spektridan  $[Cu(NH_3)(H_2O)HPO_4]$  ning elektron spektriga o'tilsa, Cu(II) ning yutilish yo'laklarida gipsoxrom siljish sodir bo'lishi kerak, bu esa (4F) asosiy holatdan (4P) komponent darajasiga o'tish bilan bog'liqdir. Bunday o'zgarishlarni sodir bo'lishi ammiakni spektrokimyoviy qatorda suv molekulasiqa qaraganda chaproqda joylashganligi va shuning uchun suvgaga nisbatan kuchliroq maydon kuchiga ega bo'lishligi bilan tushuntiriladi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan reaksiyalarni haqiqatan ham sodir bo'lishini tasdiqlash maqsadida namunalarni ko'rinish sohasidagi 400 va 750 nm to'lqin uzunligidagi aks spektrlari o'rganilgan. 6.19-rasmdan ko'rindaniki, spektrarning maksimumlari mis(II)-monoakvagidrofosfat  $[Cu(H_2O)HPO_4]$  uchun 698 nm da hamda mis(II)-monoakvaamin-gidrofosfat  $[Cu(NH_3)(H_2O)HPO_4]$  birikmasi uchun – 624 nm to'lqin uzunligida joylashgan. Shunday qilib, ikkinchi moddada maksimumni 74 nm ga gipsoxrom siljishi kuzatiladi, bu esa ammiak molekulasi monoakvagidrofosfat  $[Cu(H_2O)HPO_4]$  tarkibiga kirishini va N-Cu bog'ini paydo qilib, monoakvaamingidrofosfat  $[Cu(NH_3)(H_2O)HPO_4]$  birikmasini hosil qilishini tasdiqlaydi. Xuddi shunday xulosani moddaning IQ-spektrida ammoniy uchun tegishli  $3100\text{--}2900\text{ cm}^{-1}$  li keng to'lqin yo'lagining yo'qligi ham isbotlab beradi.


Shuni qayd etish lozimki,  $[Cu(NH_3)(H_2O)HPO_4]$  ning IQ-spektrida tarkibida P-OH guruhi bo'lgan birikmalar borligini tasdiqlovchi  $\nu_{R-0}$  bog'lanish uchun tegishli  $1280\text{ cm}^{-1}$  yo'laklar mavjud.



**6.17-rasm.**  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})\text{HPO}_4]$  (1) va uni qizdirish mahsulotlari IQ-spektrlari: 2 – 200°C; 3 – 300°C; 4 – 500°C; 6 – 750°C; 7 – 900°C.



**6.18-rasm.**  $[\text{Cu}(\text{NH}_3)(\text{H}_2\text{O})\text{HPO}_4]$  (1) va uni qizdirish mahsulotlari IQ-spektrlari: 2 – 200°C; 3 – 300°C; 4 – 500°C; 6 – 750°C; 7 – 900°C.



**6.19-rasm.** pH=1,8 (1) va 6,5 (2) dagi ammofos bo'tqasida hosil bo'ladigan birikmalar aks diffuziyali elektron spektrlari

Bunda N-H bog'ning valent tebranishlari uchun tegishli yutilish yo'laklariga alohida e'tiborni qaratish kerak bo'ladi. Ammiak molekulasining  $\nu_{NH}$  va kompleks birikmalari  $\nu_{NH}$  i, ammoniy kationi  $\nu_{NH}$  laridan tubdan farq qiladi. Bu tebranishlar o'rtacha intensivlikka  $3350\text{-}3220 \text{ cm}^{-1}$  ega bo'lgan va dublet holida namoyon bo'ladi. Ammoniy ionining qatiq holdagi namunalarida  $\nu_{NH}$  keng holdagi  $3100\text{-}2900 \text{ cm}^{-1}$  intensiv yo'laklarga ega bo'ladi.  $\text{Cu}[(\text{NH}_3)(\text{H}_2\text{O})\text{HPO}_4]$  birikmasining IQ-spektrlarida to'lqin uzunligining  $3350\text{-}3220 \text{ cm}^{-1}$  qiymatlarida o'rtacha intensivlikka ega bo'lgan dubletni kuzatish mumkin, bu esa mos ravishda  $\nu_{as(NH)}$  va  $\nu_s(NH)$  larga tegishlidir. Bu olingan faktlar ishonchli ravishda olingan mikroogit  $[\text{Cu}(\text{NH}_3)(\text{H}_2\text{O})\text{HPO}_4]$  tarkibga va tuzilishga egaligini tasidiqlaydi.

$[\text{Cu}(\text{NH}_3)(\text{H}_2\text{O})\text{HPO}_4]$  birikmasida mis(II) ga azot koordinatsiyasining ta'siri NH-bog' parametrlariga qanday bo'lishini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun koordinatsiyalashgan NH-bog' uchun quyidagi parametrlar hisoblab topilgan: kuch konstantasi va bog'ning hosil bo'lish burchagi, N-H bog'idagi atomlar orasidagi masofa ( $r$ ).



Bu kattaliklarni quyidagi formulalar yordamida hisoblab topiladi:

$$f_{dina/sm} = 2,769 \cdot 10^{-2} (\nu_{as}^2 + \nu_s^2)$$

$$\sin^2 \frac{\theta^0}{2} = 0,500 + 7,448 \frac{\left( \frac{\nu_{as}^2 - \nu_s^2}{\nu_{as}^2 + \nu_s^2} \right)}{\left( \frac{\nu_{as}^2 + \nu_s^2}{\nu_{as}^2 - \nu_s^2} \right)}$$

N-H bog'lanishidagi atomlar orasidagi masofa ( $r$ ) Bedjer va Duglas-Klark tenglamalari yordamida hisoblanadi:

$$f(r-0,34)^3 = 1,86; f \cdot r^{7,6} = 7,00$$

Kuch konstantasi, bog'lanish burchagi va atomlar orasidagi masofa qiymatlari 6.13-jadvalda keltirilgan.

6.13-jadvaldan ko'rindiki,  $[\text{Cu}(\text{NH}_3)(\text{H}_2\text{O})\text{HPO}_4]$  molekulasida ammiakni koordinatsiyasi oqibatida yuqoridagi kompleks birikmasidagi  $\text{NH}_3$  molekulasi N-H bog'ining kuch

konstantasi f ning qiymati,  $\text{NH}_3$  molekulasidagi N-N bog'ning kuch konstantasi f dan kichik bo'ladi, uning qiymati 6,31 dan 5,98 Mdn/sm gacha kichrayadi, atomlar orasidagi masofa esa mos ravishda 1,018 dan 1,021 E ga qadar ortadi. Bunday o'zgarishlar ayniqsa, kobalt(II)-monoakvaamingidrofosfatda juda yorqin namoyon bo'ladi.

### 6.13-jadval

#### N-H bog'ining ayrim parametrlari

Birikmalar	$v_{as(\text{NH}_3)}$ , $\text{sm}^{-1}$	$v_{s(\text{NH}_3^2)}$ , $\text{sm}^{-1}$	$f_{\text{NH}_3}$ , Mdn/sm		$r_{\text{N}-\text{H}}$ , E	
					Bedjer formulyasi bo'yicha	Duglas-Klark formulasi bo'yicha
$\text{NH}_3$	3414	3336	6,31	$110^\circ 6$	1,006	1,014
$[\text{Cu}(\text{NH}_3)(\text{H}_2\text{O})\text{HPO}_4]$	3350	3220	5,98	$120^\circ 1$	1,017	1,021
$[\text{Cu}(\text{NH}_3)(\text{H}_2\text{O})\text{HPO}_4]$	3400	3230	6,08	$138^\circ 48$	1,014	1,019

Shunday qilib,  $\text{NH}_3$  molekulasining yuqoridagi birikma tarkibiga kirishi koordinatsion birikma tarkibining keskin o'zgarishiga olib keladi va N-H bog' parametrlarini o'zgartiradi. Bu olingan natijalar  $\text{pH}=5,8$  qiymatida hosil bo'lgan koordinatsion birikma tarkibining  $[\text{Cu}(\text{NH}_3)(\text{H}_2\text{O})\text{HPO}_4]$  mos kelishini tasdiqlaydi.

Ammofoz bo'tqasidan  $\text{pH}=1,8$  da ajratib olingan mis(II)-monoakvagidrofosfat tuzini  $300^\circ\text{C}$  gacha qizdirilganda hosil bo'lgan IQ-spektrlarida  $\text{PO}_4$  va  $\text{POH}$  ionlarga to'g'ri keladigan  $1280 \text{ sm}^{-1}$  to'lqin yo'laklari hosil bo'ladi.  $500, 750$  va  $900^\circ\text{C}$  haroratlarga qadar qizdirilgan birikmalarda yuqoridagi birikmalar to'lqin yo'laklaridan farq qiladigan  $\text{P}_2\text{O}_7$  ga mos keladigan  $750 \text{ sm}^{-1}$  to'lqin uzunliklari paydo bo'ladi (6.17-rasm). Mis(II)-monoakvagidrofosfat tuzidagi suvgaga tegishli bo'lgan to'lqin uzunliklari, bu birikma  $300^\circ\text{C}$  ga qizdirilganda  $2600, 3400 \text{ sm}^{-1}$  va  $1600 \text{ sm}^{-1}$  qiymatlarda namoyon bo'ladi (6.18-rasm).

$300^\circ\text{C}$  gacha qizdirilgan namunada  $\text{P}_2\text{O}_7$  ga to'g'ri keladigan  $540 \text{ sm}^{-1}$  kuchsiz to'lqin yo'laklari paydo bo'ladi.  $500, 750$  va  $900^\circ\text{C}$  haroratlarda suv molekulasiga to'g'ri keladigan to'lqin uzunliklari yo'qolib, pirofosfat- ionlariga tegishli to'lqin uzunliklari hosil bo'ladi.

Yuqoridagi tahlil usullaridan tashqari,  $[Cu(H_2O)HPO_4]$  va  $[Cu(NH_3)(H_2O)HPO_4]$  birikmalari va ularning 200, 300, 750 va  $900^\circ C$  haroratlarda qizdirilgan namunalaring rentgenogrammalari ham olinib tahlil qilingan (6.20- va 6.21-rasmlar).

Ammofos bo'tqasidan ajratib olingan birikmalarning rentgenogrammalari 6.20- va 6.21-rasmlarda berilgan. Olingan natijalardan ko'rindiki, bu birikmalar uchun 7,06, 4,41, 3,02, 2,70, 1,92, 1,50 E difrakcion maksimumlar mos keladi (6.20-rasm).



**6.20-rasm.** pH=1,8 dagi ammofos bo'tqasidan ajratib olinadigan birikma (1) va uni qizdirish mahsulotlari rentgenogrammalari:  $200^\circ C$  (2);  $300^\circ C$  (3);  $500^\circ C$  (4);  $750^\circ C$  (5);  $900^\circ C$  (6).

**6.21-rasm.** pH=6,5 dagi ammofos bo'tqasidan ajratib olinadigan birikma (1) va uni qizdirish mahsulotlari rentgenogrammalari:  $200^\circ C$  (2);  $300^\circ C$  (3);  $500^\circ C$  (4);  $750^\circ C$  (5);  $900^\circ C$  (6).

Rentgenfazali tahlil natijalariga ko'ra, mis gidrofosfat  $300^\circ C$  haroratda yangi modda – mis pirofosfatga aylanadi. Qizdirilgan namunalarda ( $300^\circ C$ ) 2,99, ( $750^\circ C$ ) 3,29, ( $900^\circ C$ ) 3,17 intensiv maksimumlar paydo bo'lishi kuzatiladi (6.20-

rasm).  $[\text{Cu}(\text{NH}_3)(\text{H}_2\text{O})\text{HPO}_4]$  birikmasi uchun 4,21, 3,46, 3,22, 2,92, 2,62, 2,44, 2,08, 1,61, 1,43E difraksion maksimumlar mos keladi (6.21-rasm). Mis(II)-monoakvaaminingidrofosfatni  $300\text{-}900^\circ\text{C}$  gacha qizdirilganda yangi moddalar hosil bo'ladi, namunani  $750^\circ\text{C}$  gacha qizdirilgandagi 4,32, 3,10, 2,50, 2,03, 1,88, 1,53E difraksion maksimumlar yangi moddalar hosil bo'lganligini tasdiqlaydi (6.21-rasm). Shunday qilib, ammosos bo'tqasida hosil bo'ladigan moddalar tarkibiga muhitning pH qiymati keskin ta'sir ko'rsatadi. Muhitning  $\text{pH}=2,5\text{-}6$  qiymatlarida mis (II)-akovagidrofosfat  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})\text{HPO}_4]$  va mis (II)- monoakvaamingidrofosfat  $[\text{Cu}(\text{NH}_3)(\text{H}_2\text{O})\text{HPO}_4]$  birikmalari aralashmasi hamda  $\text{pH}=6,5\text{-}7,5$  qiymatlarda mis(II)-monoakvaamingidrofosfat  $[\text{Cu}(\text{NH}_3)(\text{H}_2\text{O})\text{HPO}_4]$  hosil bo'ladi.

**Ikkilamchi xomashyolar va ishlatib bo'lingan katalizatorlar ishtirokida misli va ruxli ammosos olinish texnologik sxemasi.** Mikroelementli xomashyolar va ishlatib bo'lingan katalizatorlar tarkibidan mikroelementlarni ammiak va kislotalar eritmalariga o'tkazish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari, mikroelementli xomashyolar va ishlatib bo'lingan katalizatorlardan foydalanimikroelementli ammosos olishning texnologik sxemasini yaratishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Mikroelementli o'g'itlar olishda quyidagi: mikroelementlarni boshlang'ich bosqichga (fosforitni parchalashga yoki olingen EFKga) va ammosos olishdagi oraliq (mikroelementlarning ammiakli eritmasi) jarayonga kiritish usullari qo'llaniladi. Misli va ruxli ammosos olishda mikroelementlarni EFKga qo'shish usuli maqsadga muvofiqdir.

*Ikkilamchi xomashyolar ishtirokida olingen ammososning kimyoviy tarkibi.* Elektrofiltrlar kukuni va rux bug'lanmasi dan foydalanimisli va ruxli ammososlar olish o'rganilgan. Qizdirilgan ( $90^\circ\text{C}$  haroratgacha) ekstraksion fosfat kislotasida ikkilamchi xomashyo (tayyor mahsulot tarkibida 0,5 % mis va 0,8 % rux bo'lishi hisobidan) eritiladi, olingen aralashma gaz holidagi ammiak bilan muhitning  $\text{pH}=3,5\text{-}6$  qiymatiga qadar neytrallanadi, hosil bo'lgan bo'tqani qoldiq namlikni 0,6-0,8 % miqdorigacha quritiladi. Olingen mahsulot tarkibidan asosiy komponentlar miqdoriy jihatdan tahlil qilingan. O'g'itlar

tarkibini aniqlash uchun o'tkazilgan kimyoviy tahlil natijalari 6.14- va 6.15-jadvallarda keltirilgan.

O'g'itni neytrallash jarayonida uning kimyoviy tarkibi va xususiyatlari ma'lum darajada o'zgaradi, ya'ni pH ko'tarilishi fosforining suvda eruvchan shakli miqdorini 37 % dan ( $pH=3,5$ ) 35,1 % gacha ( $pH=4,9$ ) pasaytiradi. Azotning miqdori esa 10,9 % gacha ortib bordi.

#### 6.14-jadval

#### **Elektrofiltrlar kukuni ishtirokida olingan o'g'itning kimyoviy tahlil natijalari**


pH	N, %	$P_2O_5$ o'zli, %	$P_2O_5$ suvli, %	$\frac{Cu_{suvli}}{Cu_{umum}} \cdot 100\%$
3,5	9,5	44,4	37,1	46,1
4,0	10,0	44,0	36,5	26,4
4,5	10,4	43,5	36,0	25,0
4,8	10,6	43,3	35,0	18,3
5,1	11,2	43,4	35,2	13,2
5,5	11,7	43,4	34,1	8,5
6,0	12,3	42,6	33,6	6,3

#### 6.15-jadval


#### **Rux bug'lanmasi ishtirokida olingan o'g'itning kimyoviy tahlil natijalari**

pH	N, %	$P_2O_5$ o'zli, %	$P_2O_5$ suvli, %	$\frac{Zn_{suvli}}{Zn_{umum}} \cdot 100\%$
3,6	9,7	44,1	36,8	37,8
4,0	9,9	43,8	36,2	25,5
4,5	10,3	43,5	35,8	16,8
4,9	10,9	43,7	35,1	9,6
5,4	11,5	43,4	34,4	7,5
6,2	12,4	42,1	33,1	5,3

Natijalardan ko'rindik, pH ortishi bilan mis va ruxning suvda eruvchan shakllari miqdori 37,3-46,1 % dan 5,2-6,3 % gacha kamayadi. Suvli eritmaga  $pH=4,0$  da 26,4 % mis va 25,5 % rux o'tadi, muhitning  $pH=4,5$  dan yuqori ko'rsatkichlarida mos ravishda 25,0 va 16,8 % gacha kamayadi (6.22- va 6.23-rasmlar).



**6.22-rasm.** O'g'itdagi suvda eriydigan mis miqdorining: 1 – pHga; 2 – saqlash vaqtiga ( $pH=4,0$ ); 3 – saqlash vaqtiga ( $pH=4,5$ ) bog'liqligi



**6.23-rasm.** O'g'itdagi suvda eriydigan rux miqdorining: 1 – pHga; 2 – saqlash vaqtiga ( $pH=4,0$ ); 3 – saqlash vaqtiga ( $pH=4,5$ ) bog'liqligi

Namunalarda 6 oy davomida o'z tarkibidagi mis va ruxning suvda eruvchan shakllarining qo'shimcha kamayishi kuzatiladi. Olingan o'g'itlardagi fosfor va mikroelementlarning o'zlashtiriladigan shakllarini aniqlash uchun 0,05n sulfat kislotasi, 2 % li limon kislotasi va 0,2M li trilon B eritmalaridan foydalanilgan. Quyida olingan namunalardan sulfat kislotasi va trilon B eritmalariga fosforning massa qismlari ( %  $P_2O_5$  ) o'tishi natijalari keltirilgan:

Namuna №	Sulfat kislotasi eritmasi	Trilon B eritmasi
1	43,5	42,8
2	42,7	43,0
3	44,1	44,3
4	43,6	43,2
5	42,5	42,9

Olingan natijalar asosida, o'zlashadigan fosfor shakllarini aniqlashda Peterman eritmasidan tashqari, 0,05n sulfat kislota va 0,2M li trilon B hamda 2 % li limon kislota eritmalaridan foydalanish mumkin. Mikroelementlarni o'zlashtiriladigan shakllarini ham aniqlashda shunday eritmalardan foydalanish mumkin.

0,05n sulfat kislota, 2 % li limon kislotasi eritmalariga mikroelementlarni ammofosdan o'tishi ham o'rganib chiqilgan:

Ekstragent	Q : S	Mikroelementlarni eritmaga o'tish darajasi, %
2 % li limon kislota eritmasi	1 : 50	97
	1 : 100	99
0,05n sulfat kislota eritmasi	1 : 50	98
	1 : 100	100

Ko'rinib turibdiki, bu eritmalarga mikroelementlarning deyarli hamma miqdori o'tadi. Bu esa mikroelementlarni to'laligicha o'simliklar tomonidan o'zlashtiriladigan shaklda bo'lishidan dalolat beradi.

*Ikkilamchi xomashyolar va ishlatib bo'lingan katalizatorlar ishtirokida olingan ammofosning gigroskopikligi.* O'g'itlarning asosiy fizik-kimyoviy xossalardan biri uning gigroskopikligi hisoblanadi. Mikroelement qo'shimchalari bo'lgan ammofosning gigroskopik nuqtalari eksikatorli usul yordamida 25°C haroratda aniqlangan.

#### 6.16-jadval

#### **Ikkilamchi xomashyolar va ishlatib bo'lingan katalizatorlar ishtirokida olingan ammofosning gigroskopikligi**

O'g'it	N, %	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> , %	Gigroskopiklik nuqtasi, %
Ammofos	10,2	44,0	59,5
Ammofos + 1 % misli pech kukuni	10,1	43,6	60,6
Ammofos + 2 % misli pech kukuni	10,0	43,1	61,9

Ammofos + 2 % li PHK-4	10,0	43,2	61,5
Ammofos + 1 % li rux bug'lanmasi	10,2	43,5	61,0
Ammofos + 2 % li rux bug'lanmasi	10,1	43,0	61,7
Ammofos + 2 % li rux asetatli katalizator	10,2	43,2	62,0


Ma'lumki, mahsulotning gigroskopik nuqtasi sistemadagi tuzlarning tavsifi va fazaviy holatlariga bog'liq bo'ladi. Ammofos gigroskopik nuqtasining o'zgarishi uning tarkibida bo'lgan pech kukuni va rux bug'lanmasi hamda ishlatib bo'lingan katalizatorlarni uning tarkibida mikro- va makroelementlarni o'zaro ta'sirlashuvi tufayli hosil bo'lgan kompleks birikmalar orqali tushuntiriladi.

Shunday qilib, ammofos olishda unga qo'shilgan rangli metallurgiya ikkilamchi xomashyolari va ishlatib bo'lingan katalizatorlar o'g'itning xossalalarini yaxshilaydi.

*Mikroelementli ammofos ishlab chiqarish texnologik sxemasi.* O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari, mikroelementli xomashyolar (pech elektrofiltrlari kukuni, rux bug'lanmasi) va ishlatib bo'lingan katalizatorlardan (rux asetatli va PHK-4) foydalanib mikroelementli ammofos olishning texnologik sxemasini yaratishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotlar natijasida Olmaliq tog' – kon metallurgiya kombinatining yuvindi (tashlandiq) sulfat kislotasini (8-10 %  $H_2SO_4$ ) mikroelementli xomashyolardan ajratib olish uchun ishlatish mumkinligi aniqlangan.

Mikroelementlarni sulfat kislota eritmasi yordamida ajratib olishning texnologik sxemasi 6.24-rasmda keltirilgan.




**6.24-rasm.** Mikroelementlarni sulfat kislota eritmasi yordamida ajratib olish texnologik sxemasi: 1-reaktor; 2-bunker; 3-dozator; 4-sulfat kislota eritmasi uchun sig'im; 5-tirqishli ta'minlagich; 6-lentali vakuum-filtr; 7-kislota yig'gich; 8-markazdan qochma nasos (haydagich).

Reaktor (1) ga bunker (2) dan tirqishli ta'minlagich (3) orqali mikroelementli xomashyo kelib tushadi va (4) sig'imdan Q:S=1:10 nisbatda sulfat kislota kiritiladi. 20-30 minut davomida aralashtirilgandan so'ng, lentali filtr (6) ga yetkaziladi, bu yerda erimay qolgan qismdan ajratiladi. Mikroelementli eritma o'z oqimi bilan kislota yig'gich (7) ga tushadi, bu yerdan konsentrangan sulfat kislotani suyultirish uchun jo'nataladi. Tarkibida mikroelementlar bo'lgan sulfat kislotasiga misli va ruxli mikroelementlarni kiritish orqali mikroelementli ammosos olish texnologiyasi taklif qilingan.


Misli va ruxli ammosos olishda katalizatorlardan foydalanish usulining mohiyati quyidagilardan bo'ladi (6.25-rasm): ekstraksion fosfat kislotasi ombor (1) dan nasos (2) orqali me'yorlashtiruvchi ta'minlagich (3) yordamida reaktor (4) ga yetkazib beriladi; ekstraksion fosfat kislotasiga ta'minlagich (5) yordamida lentali transportyor orqali PHK-4 yoki ruxasetatli katalizator yuboriladi (Q:S=1:10); olingen aralashma 10-15 minut davomida aralashtiriladi, so'ngra vakuum filtrga o'tkaziladi; tarkibida asosan aktivlangan ko'mir bo'lgan erimay qolgan qoldiq, yuvilgandan so'ng jihozdan tushiriladi va metallurgiya zavodga rux velsoksidi olish uchun jo'nataladi; erimay qolgan qoldiqni ajratilgandan so'ng tarkibi mikroelementlar (mis va rux mikroelementlari) bilan boyitilgan ekstraksion fosfat kislotasi botirma nasos (2) yordamida yig'gich (8) ga o'tkaziladi; shu yig'gichga ombor (1) dan me'yorlashtiruvchi ta'minlagich yordamida olingen ekstraksion fosfat kislotasi keltiriladi; zichligi 1281-1283 g/sm<sup>3</sup> bo'lgan aralashtirilgandan so'ng o'z tarkibida 0,20-0,25 % mis yoki 0,4-0,5 % rux bo'lgan ekstraksion fosfat kislotasi, botirma nasos (10) yordamida TAB (tezkor ammoniyashtiruvchi-bug'latgich) ga kiritiladi, so'ngra mikroelementli EFK ammosos olishning hamma bosqichlaridan (ammoniyash, quritish va donadorlash) o'tadi. Misli kukuni va rux bug'lanmalarini yuqori darajadagi eruvchanligini va bu mikroelementli xomashyolardagi kam miqdordagi erimay qolgan qoldiqni hisobga olib, ularni qo'shimcha texnologik jarayonlarni bajarmasdan boshlang'ich ekstraksion fosfat

kislotasi tarkibiga kiritish mumkin. Yuqorida taklif qilingan qo'shimchalardan foydalangan holda misli va ruxli ammosof olish texnologik sxemasi 6.26-rasmda keltirilgan. Harorati  $90^{\circ}\text{C}$  ekstraksion fosfat kislotasi ekstraksiya sexidan ombor (1) ga beriladi. Kislota o'z oqimi bilan (2) yig'gichga tushadi, undan (3) ta'minlagich orqali (4) transportyor yordamida mikroelementli qo'shimchaning hisoblangan miqdori uzatib beriladi. 20-30 minut davomida aralashdirilgandan keyin yig'gichdan (zichligi  $1280\text{-}1284 \text{ kg/m}^3$ ) eritma tirkishli ta'minlagich (5) yordamida transportyor orqali TAB johozi (6) ning sirkulyatsion konturiga keladi va u yerda gaz holidagi ammiak bilan neytrallanadi. Natijada tarkibida mis(II)akovgadrofostat  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})\text{HPO}_4]$  va mis(II) monoakovvaamingidrofostat  $[\text{Cu}(\text{NH}_3)(\text{H}_2\text{O})\text{HPO}_4]$  birikmalari aralashmasi yoki rux(II)akovgadrofostat  $[\text{Zn}(\text{H}_2\text{O})\text{HPO}_4]$  va rux (II) monoakovvaamingidrofostat  $[\text{Zn}(\text{NH}_3)(\text{H}_2\text{O})\text{HPO}_4]$  birikmalari aralashmalari bo'lgan murakkab ko'p komponentli sistema hosil bo'ladi.



**6.25-rasm.** Ishlatilgan katalizatorlardan mis va ruxni EFKga ajratib olish uchun qurilma sxemasi: 1-EFK ombori; 2,10-botirma nasoslar; 3,9-me'yorlashtiruvchi ta'minlagichlar; 4-reaktor; 5-katalizatorning me'yorlashtiruvchi ta'minlagichi; 6-transportyor; 7-tasmalni vakuum-filtr; 8-kislota yig'gich.

Ammofos bo'tqasi ( $\text{pH}=3,8-4,5$ ) TAB ning bug'latish doirasidan o'z oqimi bilan yig'gich (7) ga tushadi, undan markazdan qochma kuch bilan ishlaydigan nasos (8) yordamida tirkishli ta'minlagich (9) orqali bug'latish uchun yuboriladi. Ammofos suspenziyasini bug'latish, bug'latish qurilmasi (10) yordamida bajariladi. Bug'latilgan (namligi 30-35 %) bo'lgan suspenziya o'z oqimi bilan yig'gich (11) ga tushadi, undan botirma nasos (12) yordamida BDQ (13) ning pnevmatik forsunkasiga yuboriladi. Bu jihozda mahsulot quritiladi va donadorlanadi. 1 % namlikkacha quritilgan mikroelementli ammofos navlarga ajratish uchun yuboriladi.



**6.26-rasm.** Mikroelementli ammofos ishlab chiqarish sxemasi:  
 1-EFK ombori; 2-kislota yig'gichi; 3-mikroelementlar me'yorashtiruvchi ta'minlagichi; 4,19-transportyorlar; 5,9-tirkishli ta'minlagichlar; 7-ammofos bo'tqasi yig'gichi; 8-markazdan qochma nasoslar; 10-bug'latgich jihizi; 11-bug'latilgan bo'tqa yig'gichi; 12-botirma nasos; 13-BDQ jihizi; 14-siklon; 15-skrubber; 16-elak; 17-tegirmon; 18-donachalar sovutgichi.

BDQ jihozidan chiqadigan tarkibida ammofos changi, ammiak va fosfatli birikmalar bo'lgan aralashmalar siklon (14) da quruq tozalashdan so'ng, turbulentli skrubber (15) ga ho'l tozalashga yuboriladi. Olingan chang retur sifatida BDQ jihoziga beriladi.

Donadorlangan ammonfosni elash ikkita tebranma elak (16) larda bajariladi. Yirik fraksiyalar maydalash uchun tegirmon (17) ga beriladi va yana elash uchun yuboriladi.

Mahsulotga aylangan fraksiyalar (donacha o'lchamlari 1-4 mm) donachalarni sovutish johozi (18) ga yuboriladi. Mayda fraksiyalar BDQga retur sifatida qaytariladi. 45°C haroratga qadar sovutilgan misli va ruxli ammosos konveyer (19) ga beriladi, tayyor mahsulot omborga, so'ngra iste'molchiga yuboriladi.

Yuqorida taklif qilingan texnologiya yordamida amalda ishlab turgan jihozlar orqali Olmaliq tog'-kon metallurgiya zavodi mikroelementli xomashyolaridan foydalangan holda 7,2 ming tonna mis va ruxli ammosos ishlab chiqarilgan va uning xususiyatlari o'r ganilgan.

Olingan o'g'itning tavsiyi quyidagicha:

O'zlashtiriladagan P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> ning massa qismi, %	42 ± 1
Azotning massa qismi, %	35 ± 1
Suvning massa qismi, %	10 ± 1
Misning massa qismi, %	0,6 – 0,8
Ruxning massa qismi, %	0,3 – 0,5
Donachalarning massa qismi, o'lchamlari bo'yicha:	
1 mm dan kichik, %	4 – 5
1 mm dan 4 mm gacha, %	93 – 94
Donachalarning statik mustahkamligi, MPa	5 – 6
To'kiluvchanligi, %	100

O'tkazilgan tadqiqot natijalari mikroelementli ikkilamchi mahsulotlar va ishlatib bo'lingan katalizatorlardan foydalanib mikroelementli ammosos ishlab chiqarish prinsip jihatdan mumkin ekanligini ko'rsatadi va bunda amaldagi o'g'it ishlab chiqarish texnologiyasini o'zgartirmasdan mikroelementli xomashyoni jarayonning boshlang'ich qismi – ekstraksion fosfat kislotaga qo'shish mumkin.

#### 4 §. Mis kuperosi ishlab chiqarish texnologik hisoblari

Hisoblash uchun ma'lumotlar:

Mis kuperosi ishlab chiqarish sexining quvvati, kg/sutka	30000
Xomashyo bo'lakchalaridagi misning miqdori, %	95
Maydalangan oltingugurt (2-nav) tarkibi, %: oltingugurt	98,0

namlik	0,5
kul	1,0
Yuqori oltingugurtli mazut tarkibi, %:	
C	83,4
H	10,6
N + O	0,4
S	2,9
W	3,0
Al	0,3
$Q_H^p$ (kj/kg hisobida)	38390
Tushayotgan material va berilayotgan havo harorati, °C	20
Berilayotgan havoning nisbiy namligi φ, %	70
Tayyor mahsulot tarkibi (1-nav):	
$\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$ % da, kam emas	98,0
$\text{H}_2\text{SO}_4$ % da, ko'p emas	0,25
Suvda erimaydigan qoldiq, % da, ko'p emas	0,1
Mis kuperosi olishda misning yo'qotilishi, %:	
- tayyor mahsulotni quritish va qadoqlashda	0,1
- $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$ ning suyuq faza bilan chiqib ketishi	0,5
- eritishdan so'ng chiqindiga ketishi	0,5
- shlak bilan (shlak miqdori xomashyodan 12 %,	
shlakdagi mis konsentratsiyasi 44 %)	0,5
- misning pechda kuyishi	0,5

### Xomashyo mis bo'laklari (chiqindi) hisobi

1) Quritish va qadoqlashdagi yo'qotilishni hisobga olganda tayyor mahsulot miqdori:

$$\frac{30000}{1 - 0,001} = 30030 \text{ kg/sutka}$$

2) Tayyor mahsulotdagi mis kuperosi miqdori:

$$30030 \cdot 0,98 = 29429 \text{ kg/sutka}$$

3) Minoradagi yo'qotilishni hisobga olgan holda hosil bo'ladigan mis kuperosi miqdori:

$$\frac{29429}{1 - 0,005} = 29577 \text{ kg/sutka}$$

4) Mis kuperosidagi mis miqdori:

$$\frac{29577 \cdot 63,54}{249,7} = 7527 \text{ kg/sutka}$$

5) Donachalardagi mis miqdori:

$$\frac{7527}{1 - 0,005} = 7565 \text{ kg/sutka}$$

6) Pechga yuklangan mis xomashyosi donachalaridagi mis hissasi:

$$1 - 0,005 - 0,12 \cdot 0,44 = 0,9422$$

7) Yuklanayotgan xomashyodagi mis miqdori:

$$\frac{7565}{0,9422} = 8029 \text{ kg/sutka}$$

8) Pechga yuklanishi zarur bo'lgan misli xomashyo miqdori:

$$\frac{8029}{0,85} = 8452 \text{ kg/sutka}$$

Pechda mis xomashyosini suyuqlanishi mis kuporosi olish-dagi yagona uzlukli jarayon bo'lib, pech hisobini 6 soatlik su-yultirish jarayoniga hisoblaymiz; olingan natijani sutkalik ish-lab chiqarish hajmiga (miqdoriga) o'tkazish uchun 4 ga ko'paytiramiz. Bundan pechga bir marta yuklanadigan xomashyo miqdori:

$$\frac{8452 \cdot 6}{24} = 2113 \text{ kg bo'ladi.}$$

### **Jarayonning moddiy hisobi**

#### **Kirim:**

1) Mis xomashyosi: 2113 kg

2) Xomashyodagi qo'shimchalar:  $2113 \cdot 0,05 = 106 \text{ kg}$

3) Hosil bo'ladigan shlak:  $(2113 - 106) \cdot 0,12 = 241 \text{ kg}$

4) Shlakdagi oksidlangan qo'shimchalar:

$$241 \cdot (1 - 1,44) = 135 \text{ kg}$$

5) Qo'shimchalarni oksidlash uchun zaruriy kislород miqdori:

$$135 - 106 = 29 \text{ kg}$$

6) Pechdagagi xomashyoga qo'shiladigan oltingugurt miqdori (1 % xomashyo miqdoridan):

$$2113 \cdot 0,01 = 21 \text{ kg}$$

[oltingugurtdagi qo'shimchalarni (0,5 kg dan kam) hisobga olmaymiz]

7) Oltingugurti oksidlash uchun zarur kislorod miqdori:

$$21 \cdot \frac{32,0}{32,1} = 21 \text{ kg}$$

8) Mazut sarfini amaliy dalillarga asosan xomashyoga nisbatan 20 % olinadi:

$$2113 \cdot 0,2 = 423 \text{ kg}$$

9) Mazutni yondirish uchun zarur kislorod miqdori:

$$m_{O_2} = m_{mazut} \cdot \left[ C^p \cdot \frac{M_{O_2}}{M_C} + H^p \cdot \frac{\frac{1}{2} M_{O_2}}{M_{H_2}} + S^p \cdot \frac{M_{O_2}}{M_S} - \frac{1}{2} \cdot (N^p + O^p) \right]$$

$$m_{O_2} = 429 \left( 0,834 \cdot \frac{32}{12,011} + 0,100 \cdot \frac{16}{2,016} + 0,029 \cdot \frac{32,0}{32,066} - \frac{1}{2} \cdot 0,004 \right) = 1286 \text{ kg}$$

$$O^p = N^p = \frac{1}{2} \cdot 0,4\% \text{ deb qabul qilamiz.}$$

10) Ortiqcha havoni e'tiborga olganda zarur bo'lgan kislorod ( $\alpha = 1,5$ ) miqdori:

$$1,5 \cdot (21 + 1286 + 29) = 2004 \text{ kg}$$

11) Pechga beriladigan quruq havoning umumiyl miqdori:

$$\frac{2004}{0,232} = 8638 \text{ kg}$$

12) Pechga havo bilan birga kiradigan namlik miqdori:

$$8638 \cdot 0,01042 = 90 \text{ kg}$$

bunda:  $0,01042 = 20^\circ\text{C}$  haroratda havo namligi  $\varphi = 70\%$  bo'lganda 1 kg quruq havoga to'g'ri keladigan suv miqdori, kg.

13) Beriladigan havoning umumiyl miqdori:

$$8638 + 90 = 8728 \text{ kg}$$

### Sarf:

1) Gaz va changlar bilan chiqib ketishi hisobiga yo'qtiladigan massa:

$$(2113 - 106) \cdot 0,005 = 10 \text{ kg Cu},$$

$$423 \cdot 0,003 = 1 \text{ kg kul},$$

$$90,0 + 423 \cdot 0,03 + 423 \cdot 0,100 \cdot \frac{18,0}{2,0} = 102 + 378 = 480 \text{ kg H}_2\text{O},$$

$$423 \cdot 0,834 \cdot \frac{44,0}{12,0} = 1292 \text{ kg CO}_2,$$

$$21 + 21 + 423 \cdot 0,029 \cdot \frac{64,1}{32,1} = 67 \text{ kg SO}_2,$$

$$2004 - (21 + 1286 + 29) = 668 \text{ kg O}_2,$$

$$8638 - 2004 + 423 \cdot \frac{1}{2} \cdot 0,004 = 6635 \text{ kg N}_2$$

Pechdan chiqib ketayotgan gaz va bug'larning umumiy miqdori:

$$10,0 + 1 + 480 + 1292 + 67 + 668 + 6635 = 9153 \text{ kg}$$

2) Olingan donador mahsulot:

$$(2113 - 106) - (241 - 135) - 10 = 1891 \text{ kg}$$

Pechning bir marotaba va sutkalik ishlab chiqarish moddiy balansi jadvalini talabalar mustaqil tuzadilar.

### **Jarayonning issiqlik hisobi**

#### **Kirayotgan issiqlik:**

1) Mis xomashyosi bilan:

$$(2007 \cdot 0,381 + 106 \cdot 0,452) \cdot 20 = 16250 \text{ kj}$$

2) Oltingugurt bilan:

$$21 \cdot 0,775 \cdot 20 = 327 \text{ kj}$$

3) Havo bilan:

$$8638 \cdot 46,47 = 401400 \text{ kj}$$

4) Qo'shimchalar oksidlangandagi issiqlik. Qo'shimchalar asosan temirdan iborat deb hisoblash mumkin, ya'ni FeO hosil bo'lish issiqligi 263,7 kj/mol bo'lganligi uchun 1 kg qo'shimcha hisobidan:

$$\frac{263,7 \cdot 1000}{71,85} = 3670 \text{ kj issiqlik chiqadi, hammasi bo'lib esa:}$$

$$135 \cdot 3670 = 495000 \text{ kj ni tashkil etadi.}$$

5) Oltingugurtning yonish issiqligi 296,9 kJ/mol yoki  
 $\frac{296,9 \cdot 1000}{32,066} = 9259$  kJ/kg, bundan:  $21 \cdot 9259 = 194000$  kJ  
 issiqlik kelib chiqadi.

6) Mazutning yonish issiqligi:

$$423 \cdot 38390 = 16240000 \text{ kJ}$$

7) Kiradigan umumiy issiqlik:

$$16250 + 327 + 401400 + 495000 + 194000 + 16240000 = 17350000 \text{ kJ}$$

ni tashkil etadi.

### **Issiqlik sarfi:**

1) Misni isitish uchun. Misning issiqlik sig‘imi quyida-gicha ifodalanadi:

$$C = 0,3563 + 0,9821 \cdot 10^{-4} T \text{ kJ/kg·grad}$$

Bundan 1084°C dagi 2007 kg misning issiqlik tutishi:

$$Q = 2007 \int_{273}^{(1084 + 273)} (0,3563 + 0,9821 \cdot 10^{-4} \cdot T) dT = 949000 \text{ kJ}$$

2) Misni suyultirish uchun:

$$2007 \cdot 214 = 429500 \text{ kJ}$$

3) Suyuq misni qizdirish uchun:

$$2007 \cdot 0,493 \cdot (1200 - 1084) = 114800 \text{ kJ}$$

4) Shlakdagi oksidlangan qo‘s himchalar issiqligi:

$$135 \cdot 0,815 \cdot 1200 = 132000 \text{ kJ}$$

5) Mazut kuli bilan:

$$423 \cdot 0,003 \cdot 0,815 \cdot 1200 = 1241 \text{ kJ}$$

6) Pechdan chiqayotgan gazlar bilan:

$$(67 \cdot 0,800 + 668 \cdot 1,051 + 1292 \cdot 1,60 + 6635 \cdot 1,139 + 378 \cdot 2,194) \cdot 1200 + 102 \cdot 6138 = 1329300 \text{ kJ},$$

bunda mazut yongandagi suvning bug‘lanish issiqligi (378 · 2,194) ham hisobga olingan:  $2,194 - 1200^\circ\text{C}$  haroratdagi suvning massa issiqlik sig‘imi, kJ/kg·grad.

7) Suyuq mis issiqligi:

$$1047000 + 429500 + 114800 = 1591300 \text{ kJ}$$

8) Shlakdagi mis issiqligi:

$$\frac{1591300 \cdot 106}{2007} = 84000 \text{ kj}$$

9) Gazlarda mis issiqligi (suyuq faza bo'yicha):

$$\frac{1591300 \cdot 10}{2007} = 7900 \text{ kj}$$

10) Donadorlashga tushayotgan mis issiqligi:

$$\frac{1591300 \cdot 1891}{2007} = 1500000 \text{ kj}$$

11) Shlakning umumiy issiqligi:

$$132000 + 84000 = 216000 \text{ kj}$$

12) Gazlar, bug'lar va changlarning umumiy issiqligi:

$$1241 + 13293000 + 7900 \approx 13302000 \text{ kj}$$

13) Atrof-muhitiga yo'qotilishi e'tiborga olinmagan holdagi umumiy issiqlik sarfi:

$$1500000 + 216000 + 13302000 = 15018000 \text{ kj}$$


14) Atrof-muhitiga yo'qotiladigan issiqlik sarfi:

$$17350000 - 15018000 = 2332000 \text{ kj}$$

Pechning bir quyishdagi va sutkalik issiqlik balansi jadvalini talabalar mustaqil tarzda tuzadilar.

### **Misni eritish orqali mis kuperosi olish minorasi**

Minorada misni erishi, ya'ni sulfat kislota eritmasi bilan o'zaro ta'siri quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:



Hisoblash uchun ma'lumotlar:

Donador mis, kg/sutka	7564
Suv, % da	5
Donalardagi qo'shimchalar, kg/sutka	30

Aralashtirishga beriladigan qoldiq eritma tarkibi, kg/sutka:

CuSO <sub>4</sub> · 5H <sub>2</sub> O	12862
H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>	2365
H <sub>2</sub> O	38839
Jami	54066
Aralashtirishga beriladigan H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> konsentratsiyasi, %	92,5
Injektorga tushayotgan to'yingan suv bug'lari bosimi, n/m <sup>3</sup>	3 · 10 <sup>5</sup>

Misning chiqindi tarkibida yo'qotilishi, %	0,5
Minoradan chiqadigan eritma konsentratsiyasi, %:	
CuSO <sub>4</sub> ·5H <sub>2</sub> O	48
H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>	2,77
Havoning nisbiy namligi, %	70
Kirayotgan barcha moddalarning harorati, °C	20
Minoradan chiqayotgan eritma harorati, °C	85
Minoradan chiqayotgan gazlar harorati, °C	80

### **Jarayonning moddiy hisobi**

Minorada erimay qoladigan mis miqdori:

$$7564 \cdot 0,005 = 37 \text{ kg/sutka}$$

Minorada erigan mis miqdori:

$$7564 - 37 = 7527 \text{ kg/sutka}$$

Minorada 7527 kg misni eritish uchun (3) tenglama bo'yicha zarur komponentlar miqdori:

$$\frac{7527 \cdot 98,08}{63,54} = 11619 \text{ kg H}_2\text{SO}_4,$$

$$\frac{7527 \cdot 4 \cdot 18,06}{63,54} = 8537 \text{ kg H}_2\text{O va } 1895 \text{ kg O}_2$$

Buning natijasida 29578 kg CuSO<sub>4</sub>·5H<sub>2</sub>O hosil bo'ladi.

Minoraga qoldiq eritma tarkibida 12862 kg CuSO<sub>4</sub>·5H<sub>2</sub>O, 2365 kg H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> va 38839 kg H<sub>2</sub>O, jami 54066 kg komponentlar kiradi.

Suyuq fazadagi yo'qotishni hisobga olmaganda, minoradan chiqarilayotgan suyuqlikda: 29578 + 12862 = 42440 kg CuSO<sub>4</sub>·5H<sub>2</sub>O bo'ladi.

Bunda suyuqlik massasi:

$$\frac{42440}{0,48} = 88418 \text{ kg bo'ladi.}$$

Bu miqdor suyuqlikda:  $88418 \cdot 0,0277 = 2949 \text{ kg H}_2\text{SO}_4$ ,  
30 kg donalardagi qo'shimchalar va  
 $88418 - (42440 + 2449 + 30) = 43499 \text{ kg H}_2\text{O bo'ladi.}$

Minoradan 2449 kg H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> chiqariladi, qoldiq eritma bilan 2365 kg H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> kiritiladi, natijada qolgan eritma miqdori:  
 $2449 - 2365 = 84 \text{ kg H}_2\text{SO}_4$  qo'shimcha kiritiladi.

Jami kiritiladigan sulfat kislota miqdori:

$$11619 + 84 = 11703 \text{ kg ni tashkil etadi.}$$

Minorada hosil bo'ladigan  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  miqdori proportional ravishda suyuqlik yo'qoladi. Shart bo'yicha 0,5 % edi.

$$29578 \cdot 0,005 = 148 \text{ kg}$$

Bu miqdor  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  bilan:

$$\frac{88418 \cdot 148}{42440} = 308 \text{ kg suyuqlik yo'qoladi,}$$

bunda:  $308 \cdot 0,0277 = 9 \text{ kg H}_2\text{SO}_4$  va  $308 - (148 + 9) = 151 \text{ kg H}_2\text{O}$  bo'ladi.

Kristallanish jarayoniga yuboriladigan suyuqlik:

$$88418 - 308 = 88110 \text{ kg ni tashkil qiladi,}$$

bunda:  $42440 - 148 = 42292 \text{ kg CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  va  $2449 - 9 = 2440 \text{ kg H}_2\text{SO}_4$ ,  $30 \text{ kg qo'shimchalar}$  va  $43499 - 151 = 43348 \text{ kg suv bo'ladi.}$

Aralashtirish bakiga yuboriladigan suv miqdorini hisoblaymiz.

Sulfat kislota 92,5 % li eritma holatida beriladi. Demak, 11703 kg  $\text{H}_2\text{SO}_4$  kiritish uchun:

$$\frac{11703}{0,925} = 12652 \text{ kg 92,5 \% li H}_2\text{SO}_4 \text{ eritmasi zarur,}$$

$$\text{bunda } 12652 - 11703 = 949 \text{ kg H}_2\text{O bo'ladi.}$$

Minoraga beriladigan kislород havo tarkibida bo'ladi. Havoni quvvati  $250 \text{ m}^3/\text{soat}$  bo'lgan to'rtta bug' injektorlari ( $3 \cdot 10^5 \text{ n/m}^2$  bosimli bug' sarfi  $150 \text{ kg/s}$ ) yordamida yuboriladi. Bunda minoraga sutkasiga  $250 \cdot 24 \cdot 4 = 24000 \text{ m}^3$  havo beriladi.

Quruq havo massasi:  $\frac{24000}{0,861} = 27875 \text{ kg/sutka bo'lib,}$

bunda  $0,861 - 1 \text{ kg quruq havoga to'g'ri keladigan nam havo hajmi, m}^3/\text{kg.}$

Bunday miqdordagi havoda:  $27875 \cdot 0,01042 = 290 \text{ kg suv va 6467 kg kislород bo'ladi (0,01042 kattalik ma'lumotnomadagi jadvaldan olinadi).}$

Injektorlardan tushadigan bug' kondensatlari:

$$150 \cdot 24 \cdot 4 = 14400 \text{ kg/sutka ni tashkil qiladi.}$$

Minoraga donalarda  $\frac{7564 \cdot 5}{95} = 398$  kg suv tushadi, eritma holatida 43499 kg suv chiqib ketadi. Shuningdek, minoradan  $6467 - 1895 = 4572$  kg/sutka O<sub>2</sub> yoki  $27875 - 1895 = 25980$  kg/sutka quruq gazlar chiqib ketadi.

$80^{\circ}\text{C}$  haroratda 18,5 % li sulfat kislota yuzasidagi suv bug'ining bosimi 318 mm sim ust ga yoki  $0,424 \cdot 10^5$  n/m<sup>2</sup> ga, ya'ni nisbiy namlik  $\frac{0,424 \cdot 10^5 \cdot 100}{0,473 \cdot 10^5} = 90\%$  ga teng. Shu sharoitda namlik miqdori 1 kg quruq gaz hisobida 0,4716 kg ga tengdir. Demak, 25980 kg quruq gazda 12258 kg suv bug'lari bo'ladi (ma'lumotnomadagi jadvalda 0,4716).

Suv bo'yicha balans tuzish uchun quyidagilar ma'lum, kg/sutka hisobida:

Sarf:

CuSO <sub>4</sub> ·5H <sub>2</sub> O hosil qilishda	8537
Minoradan bug' holatida	12252
Suyuglik bilan	43499
Jami suv sarfi	64288


Kirish:

Donalarda	398
Qoldiq eritmada	38839
Havo bilan	290
Sulfat kislotada	949
Injektorlarda ishlangan bug'	14400
Jami kiradigan suv	54876

Suv qo'shimcha ravishda sepiluvchi (yuvuvchi) suyuqliklarga ham:

$$64288 - 54876 = 9412 \text{ kg/sutka miqdorida qo'shiladi:}$$

Yuvuvchi (sepiluvchi) eritma tarkibi:



$$38839 + 949 + 9412 = 49200 \text{ kg suv}$$

Yuvuvchi eritmaning umumiyl miqdori 76130 kg/sutka ni, H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> konsentratsiyasi esa 18,48 % ni tashkil etadi va qabul qilingan konsentratsiya (18,6 %) ga mos keladi.

### Mis erituvchi minora moddiy balansi

Kirish		Chiqish (sarfi)	
komponentlar	kg/sutka	komponentlar	kg/sutka
Donador mis	7564	Chiqindidagi mis	37
Suv	398	Kristallanish eritmasi:	
Yuvuvchi suyuqlik –		CuSO <sub>4</sub> ·5H <sub>2</sub> O	42292
Qaytuvchi (qoldiq) eritma:		H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>	2440
CuSO <sub>4</sub> ·5H <sub>2</sub> O	12862	H <sub>2</sub> O	43348
H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>	2365	Erimaydigan qoldiq	30
H <sub>2</sub> O	38839	Jami eritma	<b>88110</b>
Jami qoldiq eritma	<b>54066</b>	Suyuqlik yo'qolishi:	
Sulfat kislota:		CuSO <sub>4</sub> ·5H <sub>2</sub> O	148
H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>	11703	H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>	-
H <sub>2</sub> O	949	H <sub>2</sub> O	151
Jami	<b>12652</b>	Jami suyuqlik yo'qolishi	<b>308</b>
Suv	9412	Chiqib ketadigan gazlar:	
Jami yuvuvchi eritma	<b>76130</b>	O <sub>2</sub>	4572
Havo-bug' aralashmasi:		N <sub>2</sub>	21408
O <sub>2</sub>	6467	H <sub>2</sub> O	12252
N <sub>2</sub>	21408	Jami bug'-gaz aralashmasi	<b>38232</b>
H <sub>2</sub> O	14690	Hammasi	<b>126687</b>
Jami havo-bug' aralashmasi	<b>42565</b>		
Donachalardagi mexanik qo'shimchalar va b.	30		
Hammasi	<b>126687</b>		

### Jarayonning issiqlik hisobi

#### Issiqlik kirishi:

1) Donachalarda:

$$7564 \cdot 0,381 \cdot 20 = 67640 \text{ kj/sutka}$$

2) Donadagi suvda:

$$398 \cdot 83,9 = 33400 \text{ kj/sutka}$$

3) Yuvuvchi eritmada:

$$mct = 76130 \cdot 3,158 \cdot 20 = 4810000 \text{ kj/sutka}$$

(bu yerda  $c = 1,127 \cdot 0,1689 + 1,415 \cdot 0,1848 + 4,187 \cdot 0,6463 = 3,158 \text{ kj/kg·grad}$ )

4) Havo bilan:

$$27875 \cdot 46,47 = 1295000 \text{ kj/sutka}$$

5) Bug' bilan:

$$14400 \cdot 2725 = 39340000 \text{ kj/sutka}$$

6) Qo'shimchalar bilan:

$$30 \cdot 0,84 \cdot 20 = 504 \text{ kj/sutka}$$

7)  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  ning hosil bo'lish (3-reaksiyada) issiqligi:

$$q = 2278,0 - 811,30 - 4 \cdot 285,84 = 323,34 \text{ kj/sutka}$$

$$\text{yoki } \frac{323,34 \cdot 1000}{63,54} = 5088,8 \text{ kj 1 kg Cu uchun}$$

$$q = m_{\text{Cu}} \cdot q = 7527 \cdot 5088,8 = 38300000 \text{ kj/sutka}$$

8)  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  ning konsentrangan eritmalarda erish issiqligi jadvaldagi qiymatlarning taxminan 75 % ni tashkil etadi, ya'ni:

$$-11,72 \cdot 0,75 = -8,8 \text{ kj/mol yoki 1 kg Cu uchun } -138,3 \text{ kj.}$$

Issiqlikning umumiy kirimi:

$$57640 + 33400 + 4810000 + 1295000 + 39240000 + 504 + 38300000 = 83736544 \text{ kj/sutka}$$

**Issiqlik sarfi:**

1) Chiqindiga mis bilan

$$37 \cdot 0,381 \cdot 85 = 1224 \text{ kj/sutka}$$

2) Misni isitishga

$$7527 \cdot 0,381 \cdot (85 - 20) = 186400 \text{ kj/sutka}$$

3) Eritma bilan kristallantirishga

$$mct = 88080 \cdot 2,641 \cdot 85 = 19770000 \text{ kj/sutka}$$

$$(bu yerda c = 1,127 \cdot 0,4800 + 1,415 \cdot 0,0277 + 4,187 \cdot 0,4923 = 2,641 \text{ kj/kg.grad})$$

4) Qo'shimchalar bilan

$$30 \cdot 0,84 \cdot 85 = 2112 \text{ kj/sutka}$$

5) Eritish jarayonida suyuqlik bilan yo'qotiladigan

$$308 \cdot 2,641 \cdot 85 = 69100 \text{ kj/sutka}$$

6) Chiqindi gazlari bilan

$$25980 \cdot 1328 = 34500000 \text{ kj/sutka}$$

bu yerda  $1328 - 80^{\circ}\text{C}$  harorat va  $\varphi = 90\%$  dagi nam havoning entalpiyasi.

7)  $\text{CuSO}_4 \cdot 0,5\text{H}_2\text{O}$  ni eritishga 1041000 kj/sutka

Issiqlikning umumiy sarfi:

$1224 + 186400 + 19770000 + 2112 + 69100 + 34500000 + 1041000 = 555698$ .  
kj/sutka

8) Tevarak-atrof-muhitga yo‘qotiladigan issiqlik  
 $83736544 - 55569836 = 28166708$  kj/sutka yoki kiradigan is-siqlikning 34 % miqdori.

### **Pedagogik texnologiyalar interfaol strategiyalarining qo‘llanilishi**

Mavzularni o‘rganishda pedagogik texnologiyalarning quyidagi interfaol usullaridan foydalanish tavsiya etiladi: mikroelementlar va ularning turlari bo‘yicha **klasterlar tuzish**; mikroelementli oddiy va kompleks o‘g‘itlar ishlab chiqarish texnologiyalarini o‘rganishda **insert usulidan** foydalanish; o‘rganilgan materialni mustahkamlash uchun **sinkveynlar** yoki **Venn diagrammalari tuzish** va hokazo.

### **Nazorat uchun savollar**

1. O‘simliklar uchun zarur mikroelementlar va ularning ahamiyatini aytинг.
2. Borli o‘g‘itlar haqida tushuncha bering.
3. Misli o‘g‘itlar haqida tushuncha bering.
4. Ruxli o‘g‘itlar haqida tushuncha bering.
5. Marganesli o‘g‘itlar haqida tushuncha bering.
6. Molibdenli o‘g‘itlar haqida tushuncha bering.
7. Kobaltli o‘g‘itlar haqida tushuncha bering.
8. Kompleks mikroo‘g‘itlar haqida tushuncha bering.

## **QISQACHA IZOHLI LUG'AT (GLOSSARY)**

**O'g'itlar** – uglerod, kislorod va vodoroddan keyin qishloq xo'jaligida o'simliklarning hayotiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan azot, fosfor va kaliy elementlar tutgan ozuqa mahsulotlari.

**Mineral o'g'itlar (yoki sun'iy o'g'itlar)** – sanoat ishlab chiqarish sharoitida noorganik xomashyolarni (masalan, agrokimyoviy rudalar – fosforitlar, kaliyli tuzlar, dolomitlar va hokazolarni maydalash) kimyoviy yoki mexanik qayta ishlash orqali tayyorlanadigan noorganik mahsulotlar.

**Organogen elementlar** – uglerod, kislorod, vodorod, azot.

**Kulli elementlar** – fosfor, kaliy, kalsiy, magniy va oltingugurt elementlari.

**Makroelementlar** – o'simliklarning hayot faoliyati davomida muhim ahamiyatga ega bo'lgan azot, fosfor, kaliy, kalsiy, magniy, oltingugurt va temir tutgan mahsulotlar bo'lib, ulardagi bu elementlar miqdori yuzdan bir ulush foizdan bir necha foizgacha bo'ladi.

**Makroo'g'itlar** – O'simlikning me'yorida o'sishi va rivojlanishi uchun uni yetarli miqdordagi ozuqa moddalari bilan ta'minlanishi uchun kerak bo'ladigan azot, fosfor, kaliy, kalsiy, magniy, oltingugurt va temir tutgan mahsulotlar bo'lib, ulardagi bu elementlar miqdori yuzdan bir ulush foizdan bir necha foizgacha bo'ladi.

**Mikroelementlar** – o'simliklarning hayot faoliyati davomida muhim ahamiyatga ega bo'lgan bor, molibden, mis, rux, kobalt, marganes va temir elementlari.

**Mikroo'g'itlar** – o'simliklarning hayot faoliyati davomida muhim ahamiyatga ega bo'lgan hamda o'simlik va tuproqda mingdan bir ulush foizda bo'ladigan bor, molibden, mis, rux, kobalt, marganes va temir elementlari tutgan ozuqa moddalari.

**Organik o'g'itlar** – ulardagi elementlar o'simlik va hayvonlardan olinadigan chiqindi moddalar tarkibida bo'ladi hamda bunday o'g'itlarga birinchi navbatda go'ng, shuningdek o'simlik va hayvonlardan kelib chiqadigan chiqindilar (torf, kunjara, baliq va parranda chiqindisi, suyak uni, aholi chiqindisi va turli oziq-ovqat mahsulotlari chiqindilari) ni qayta ishlash natijasida olinadigan mahsulotlar ham kiradi.

**Organo-mineral o'g'itlar** – ular tarkibida organik va mineral moddalar bo'ladi, bunday o'g'itlar torf, ko'mir va boshqalar kabi organik moddalarni ammiak yoki fosfat kislota bilan qayta ishlash orqali olinadi, shuningdek go'ng yoki torfnii fosforli o'g'itlar bilan aralashtirish yo'li bilan ham olinadi.

**Bakterial o'g'itlar** – tuproqdagi va o'g'itlardagi havo azoti yoki minerallashgan organik moddalar bilan oziqlanuvchi mikroorganizmlar tutgan preparatlar bo'lib, bunday o'g'itlar qatoriga azotobakterin, tuproq nitragini kiradi.

**To'g'ridan to'g'ri ishlatiladigan o'g'itlar** – o'simliklarning bevosita oziqlanishiga mo'ljallangan bo'lib, ular tarkibida o'simliklar hayoti uchun muhim bo'lgan elementlar: azot, fosfor, kaliy, magniy, oltingugurt, temir, shuningdek mikroelementlar (bor, molibden, mis, rux, kobalt) tutadi, to'g'ridan to'g'ri ishlatiladigan o'g'itlar, o'z navbatida, oddiy (bir yoqlama) va kompleks (ko'p yoqlama) o'g'itlarga bo'linadi.

**Ozuqa elementlari** – o'g'itlardagi ozuqa moddalari miqdorini ifodalaydigan kattalik:

N – o'g'itlardagi azot ozuqa moddasi miqdorini ko'rsatadi;

$P_2O_5$  – o'g'itlardagi fosfor ozuqa moddasi miqdorini ko'rsatadi;

$K_2O$  – o'g'itlardagi kaliy ozuqa moddasi miqdorini ko'rsatadi;

$P_2O_{5\text{umum}}$  – mahsulotdagi  $P_2O_5$  ning umumiyligi miqdorini ifodalaydi;

**P<sub>2</sub>O<sub>5o·z.</sub>** – mahsulotdagi P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> ning o'simlikka o'zlasha oladigan miqdorini ifodalaydi;

**P<sub>2</sub>O<sub>5s.e.</sub>** – mahsulotdagi P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> ning suvda eriydigan miqdorini ifodalaydi;

**P<sub>2</sub>O<sub>5serkin</sub>** – mahsulotdagi erkin kislotalilik miqdorini ifodalaydi.

**Oddiy o'g'itlar** – tarkibida o'simliklar oziqlanuvchi elementlar: azot, fosfor, kaliy, magniy, bor va boshqalardan bittasi bo'lgan noorganik mahsulotlar bo'lib, ular ham o'z navbatida azotli, fosforli, kaliyli, mikroelementli o'g'itlar turlariga bo'linadi.

**Azotli o'g'itlar** – tarkibida faqat azot ozuqa elementi tutgan suvda yaxshi eriygan azotning (ammiakli, ammoniyli, amidli, ammiak-nitratli, ammiak-amidli va boshqa shakllardagi) noorganik mahsulotlar.

**Fosforli o'g'itlar** – tarkibida faqat fosfor ozuqa elementi tutgan hamda eruvchanligi va o'simliklarga o'zlashishi jihatdan uchta guruhga bo'linadigan noorganik mahsulotlar:

1) suvda eruvchan, ulardag'i fosforli birikmalarning asosiy qismi suvda eriydi, shu sababli o'simliklarga oson o'zlashadi; bunday o'g'itlar tarkibiga: superfosfat, qo'shaloq superfosfatlar, shuningdek, murakkab fosforli o'g'itlar – ammofos, nitroammofos, nitroammofoska, nitrofoska, karboammofoska va boshqalar kiradi;

2) sitratli eruvchan, ularga tarkibida limon kislota ammoniyli tuzining ammiakli eritmasi (ammoniy sitrat) da eriydigan fosfor birikmalari tutgan o'g'itlar kiradi; ammoniy sitrat eritmasining muhitni tuproq eritmasi muhitiga yaqin bo'lganligi uchun bunday o'g'itlarni o'simliklar tomonidan yaxshi o'zlashtiriladi; sitratli eruvchan o'g'itlarga: presipitat (dikalsiyfosfat) kabi o'g'itlar kiradi;

3) limonli eruvchan, bunday o'g'itlar suvda va ammoniy sitrat eritmasida erimaydi, ammo limon kislotasining 2 % li eritmasida eriydi; ularga: ftorsizlangan fosfatlar, tomasshlak, qisman fosforit uni (mayda fraksiyasi) kiradi; kam eruvchanligiga qaramay, bunday o'g'itlar kislotali tuproqlarda yaxshi samara beradi; bunday o'g'itlardagi fosfor birikmalari sekinlik bilan (xattoki yillab) tuproq eritmasiga o'tadi va o'simliklarga o'zlashadi, shuning uchun ularni sekin ta'sir etuvchi o'g'itlar deb ham ataladi.

**Kaliyli o'g'itlar** – konsentrangan (kaliy xlorid, kaliy sulfat, kalimagneziya va boshqa) va yetilmagan tuzlar (silvinit, kainit) turlariga bo'linadigan hamda tarkibida faqat kaliy ozuqa elementi tutgan noorganik mahsulotlar.

**Kompleks o'g'itlar** – tarkibida kamida ikkita ozuqa elementi tutgan o'g'itlar bo'lib, ular ikkilamchi komplekslar o'g'itlar (masalan, azot-fosforli, azot-kaliyli, fosfor-kaliyli) va uchlasmchi kompleks o'g'itlar (masalan, azot-fosfor-kaliyli) turlarga bo'linadi (uchlamchi o'g'itlar to'la tarkibli o'g'itlar deyiladi, kompleks o'g'itlar tarkibida shuningdek mikroelementlar, pestitsid va o'stiruvchi moddalar qo'shimchalari bo'lishi mumkin).

**Aralash o'g'itlar** – turli kukunsimon yoki donadorlangan tayyor o'g'itlarni mexanik usulda aralashtirish yo'li bilan olinadigan mahsulotlar.

**Murakkab-aralash donadorlangan o'g'itlar** – aralashtirish jarayonida kukunsimon tayyor o'g'itlarni suyuq reagentlar (ammiakli suv, fosfat yoki sulfat kislota va boshqalar) qo'shish bilan aralashtirilish orqali olinadigan mahsulotlar.

**Murakkab o'g'itlar** – yagona texnologik jarayonda xom ashyni qayta ishlash orqali olinadigan va tarkibida ikki va undan ortiq ozuqa elementlari tutgan mahsulotlar.

**Bilvosita foydalaniladigan o'g'itlar** – o'g'itlardan foydalanish sharoitini yaxshilash maqsadida tuproqqa kimyoviy, fizik va mikrobiologik ta'sir etish uchun qo'llaniladi, masalan, tuproq kislotaliligini neytrallash uchun maydalangan ohaktosh, dolomit yoki so'ndirilgan ohak qo'llaniladi; sho'rxok tuproqlar melioratsiyasi uchun gips ishlatiladi, shu bilan bir vaqtida u kalsiy manbai hisoblanadi; tuproq kislotaliligini (fosforli o'g'it bilan solinadigan fosfor birikmalarining eruvchanligini oshirish maqsadida) oshirish uchun nitriy bisulfit ishlatiladi.

**Fiziologik kislotali o'g'itlar** – ularga o'simliklar asosan kationlarni o'zlashtiradigan o'g'itlar kiradi, anionlar esa tuproq eritmasini kislotaliligini oshiradi, masalan, ammoniy sulfat, ammoniy nitrat, kaliy xlorid, kaliy sulfat va boshqalar. Fiziologik kislotali o'g'itlarga ammoniyli azotli o'g'itlar, shuningdek karbamid ham kirishi mumkin. Nitrifikatsiyalovchi bakteriyalar ta'sirida ammiak nitrat kislotagacha oksidlanishi natijasida tuproq kislotaliligi ortadi.

**Fiziologik ishqoriy o'g'itlar** – ularga anioni o'simliklarga assimilyatsiyalanadigan o'g'itlar kiradi, ulardagi kation esa tuproq muhitini ishqorlashtirgan holda to'planadi. Masalan, bunday o'g'itlarga natriy, kaliy va kalsiy nitratlari kiradi.

**Gigroskopiklik** – moddaning havodan namlikni yutish xususiyati

**Gigroskopiklik nuqtasi (h)** – tuzning to'yingan eritmasi ustidagi suv bug'ining parsial bosimini xuddi shu haroratdagi bug' bilan to'yintirilgan havodagi suvning bug' bosimiga nisbati.

**Yopishqoqlik** – ma'lum tashqi sharoitda dispers materialning turli darajadagi kattalik va mustahkamlikka ega bo'lgan aglomeratlarni hosil qilish xossasi.

**Elanish** – bu o‘g‘itni solishda tuproqda bir tekisda taqsimlanishi uchun mashinalarning ta‘minlovchi va tashlovchi qurilmalaridan o‘g‘itning tushishni belgilaydigan xususiyati.

**Donachalarning mustahkamligi** – o‘g‘itlarni tashish, saqlash va tuproqqa solishdagi donadorlik darajasining saqlanishi.

**Tabiiy og‘ish burchagi** – sepiluvchi materialning to‘kilishi natijasida to‘plamning gorizontal yuza bilan hosil qiladigan burchagi.

**Namlik sig‘imi** – o‘g‘itning ekish agregatlaridan bir tekisda tushishini ta‘minlannishdagi maksimal namlik bilan tavsiflanishi.

**To‘kma (uyma) zichlik** – sochiluvchan moddaning hajm birligidagi massasi bo‘lib, u – modda zichligi, zarrachalar o‘lchami, fraksiyali tarkibi, namligi va yotqizilgan qatlamlar bosimining funksiyasi hisoblanadi.

**Ammiak NH<sub>3</sub>** – rangsiz, o‘tkir hidli gaz, suyuqlanish temperaturasi  $-33^{\circ}\text{C}$ , suvda erib, ammoniy gidroksid ( $\text{NH}_4\text{OH}$ ) hosil qiladi, ammiak  $900^{\circ}\text{C}$  dan yuqori temperaturada qizdirilganda havo kislороди ta’sirida oksidlanib suv bug‘i bilan elementar azotga parchalanadi, katalizatorlar ishtirokida  $800^{\circ}\text{C}$  temperaturada oksidlanib, suv bug‘i bilan azot (I)-oksid ( $\text{N}_2\text{O}$ ) hosil qiladi.

**Nitrat kislota HNO<sub>3</sub>** – zichligi  $1,53 \text{ g/sm}^3$ , qaynash temperaturasi  $+86^{\circ}\text{C}$  ga teng rangsiz suyuqlik, u suv bilan har qanday nisbatda aralashadi, odatda tarkibida 68 % HNO<sub>3</sub> bo‘lgan, zichligi  $1,4 \text{ g/sm}^3$  ga teng konsentrangan nitrat kislota ishlataladi, azot oksidlarining HNO<sub>3</sub> dagi eritmasi nitrooleum deyiladi. Nitrat kislota kuchli kislotalar jumlasiga kiradi. U oksidlash xossalari nihoyatda kuchliligi bilan ajralib turadi. Konsentrangan nitrat kislota metallar bilan o‘zaro

ta'sir ettilganda qaytarilib  $\text{NO}_2$  ga aylanadi, suyultirilgan nitrat kislota qaytarilib NO ga, juda suyultirilgan nitrat kislota esa Zn yoki Mg kabi aktiv metallar ta'sirida qaytarilib  $\text{N}_2$  ga aylanadi.

**Ammiakli selitra  $\text{NH}_4\text{NO}_3$**  – qishloq xo'jaligida azotli oddiy o'g'it sifatida ishlataladigan hamda sanoatda ishlab chiqariladigan ammoniy nitratning texnik tuzi. Suvda yaxshi eruvchanligi, eruvchanlik koefitsenti yuqoriligi, gigroskopikligi va polimorf o'zgaruvchanligi sababli ammoniy nitrat kristallari o'zaro yopishib, qattiqlashib qoladi.

**Karbamid  $(\text{NH}_2)_2\text{CO}$**  – karbonat kislotaning diamid tuzi bo'lib, qishloq xo'jaligida azotli oddiy o'g'it sifatida ishlataladi hamda mochevina deb ham ataladi. U rangsiz, hidsiz kristall modda bulib,  $25^\circ\text{C}$  dagi zichligi  $1330 \text{ kg/m}^3$  ga teng,  $132,7^\circ\text{C}$  da suyuqlanadi. Texnik mahsulot esa oq yoki sarg'ish rangli ignasimon rombik prizmatik shakldagi kristallardan iboratdir. Suyuqlanish haroratigacha atmosfera bosimida kizdirilganda ammiak gazi ajralib chiqishi bilan parchalanadi.

**Ammoniy sulfat  $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$**  – rangsiz kristall modda (zichligi  $1769 \text{ kg/m}^3$ ) bo'lib, uning tarkibida 21,21 % azot bo'ladi hamda qishloq xo'jaligida azotli oddiy o'g'it sifatida ishlataladi.  $3500^\circ\text{C}$  dan yuqori xaroratda qizlirliganda ammiak va sulfat kislotaga parchalanadi.  $100^\circ\text{C}$  da nordon tuz hosil qilish bilan dissotsiyalanish boshlanadi;  $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$  ustidagi  $\text{NH}_3$  ning bosimi  $205^\circ\text{C}$  xaroratda  $0,067 \text{ kPa}$  ni,  $300^\circ\text{C}$  da  $6,772 \text{ kPa}$  ni tashkil etadi. Ammoniy sulfat suvda yaxshi eriydi. U kristallogidratlar hosil qilmaydi va uning eruvchanligi xarorat ortishi bilan sezilarli o'zgarmaydi. Ammoniy sulfat gigroskopikligi va yopishqoqligi kam bo'lgan o'g'it hisoblanib, uni ishlatishda qiyinchilik tug'dirmaydi.

**Termik fosfat kislota (TFK)  $\text{H}_3\text{PO}_4$**  – elementar fosforning oksidlanishi (yondirilishi) va hosil qilingan mahsulotlarni hidratlanishi natijasida olinadigan mahsulot.

**Ekstraksion fosfat kislota (EFK)** – tabiiy fosfatlarni fosfat kislota hosil qilish stexiometrik me'yordagi sulfat kislotali parchalash, suspenziyadan fosfogipsni filrlash yo'l bilan ajratish orqali hosil qilingan mahsulot.

**Superfosfat yoki oddiy superfosfat** – tabiiy fosfatlarni monokalsiyfosfat  $\text{Ca}(\text{H}_2\text{PO}_4)_2$  va dikalsiyfosfat  $\text{CaHPO}_4$  hosil bo'lishiga muvofiq keladigan stexiometrik me'yordagi sulfat kislotali parchalash, massani yetiltirish, donadorlash va quritish yo'li bilan hosil qilinadigan aqsulot bo'lib, uning tarkibida ballast sifatida gips  $\text{CaSO}_4 \cdot 0,5\text{H}_2\text{O}$  qatnashadi.

**Qo'shaloq superfosfat** – tabiiy fosfatlarni fosfat kislotasi bilan parchalash natijasida oddiy superfosfatdan asosan fosfatli birikmalar (monokalsiyfosfat va ma'lum miqdordagi erkin fosfat kislotasi) bo'lishi bilan farqlanadigan mahsulot. Qo'shaloq superfosfatdagagi kalsiy sulfat qo'shimchasi – fosfatning, tarkibida sulfat-ion bo'lgan ekstraksion fosfat kislota bilan parchalanishi yoki ruda tarkibida sulfatlarni bo'lishi hisobidan ishtirok etishi mumkin, chunki qo'shaloq superfosfat ishlab chiqarish uchun odatda ekstraksion fosfat kislotasi ishlatiladi, lekin tabiiy fosfatning bir qismi fosfat kislota olish uchun sulfat kislota bilan, qolgan qismi esa tayyor mahsulot olish uchun fosfat kislota bilan parchalanadi. Qo'shaloq superfosfat (uni chet ellarda, ba'zan, uchlik superfosfat nomi bilan yuritiladi) tarkibidagi  $\text{P}_2\text{O}_5$  ning miqdori oddiy supersfosfatdagiga nisbatan 2-3 marta ko'p va uning tarkibida:  $\text{P}_2\text{O}_{50\text{o.zl.}} = 40\text{-}50\%$  (xom ashyo sifatiga bog'liq holda);  $\text{P}_2\text{O}_{5\text{sumum.}} = 42\text{-}50\%$ ;  $\text{P}_2\text{O}_{5\text{s.e.}} = 36\text{-}40\%$  va  $\text{P}_2\text{O}_{5\text{serkin}} = 1,5\text{-}5\%$  bo'ladi.

**Superfos** – uzoq muddatda o'simliklarga o'zlashadigan o'g'it bo'lib, u kimyoviy boyitilgan va kislotalar bilan aktivlangan tarkibida qiyin o'zlashadigan shakldagi  $\text{P}_2\text{O}_5$  tutgan (Qoratog', Qizilqum, Pribaltika, Chilisoy va bir qancha) fosforitlardan olingan fosforit kukunidir. Kimyoviy boyitilgan va bunda aktivlangan fosforit unidan superfos olish uchun uni fosfat kislota bilan namlash orqali qo'shimcha

aktivlanadi, donadorlanadi va quritiladi. Superfos tarkibida 38-40 %  $P_2O_5$ , undan 19-20 % suvda eruvchan shaklda bo'ladi va samaradorligi jihatdan qo'shaloq superfosfatga tenglashtiriladi.

**Ozuqali fosfatlar** – chorvachilikda hayvon hamda parranda ozuqalariga qo'shib beriladigan kalsiy, natriy, ammoniy va boshqalarning fosfatli texnik tuzlari. Tabiiy ozuqalar tarkibida fosfor miqdori kam bo'lganda, bunday fosfatli ozuqa qo'shimchasi hayvonlarning mahsuldorligini oshiradi – qoramollar yaxshi o'sadi va semiradi, go'shtning sifati yaxshilanadi, sutdag'i yog' miqdori ortadi.

**Ftorsizlangan fosfatlar** – ftorning  $HF + SiF_4$  tarzidagi (tarkibida  $HF$  ko'p bo'lgan) aralashmasini gazli fazaga yo'qotilishi bilan birgalikda olib boriladigan tabiiy fosfatlarni termik qayta ishslash yo'li bilan olinadigan mahsulotlar.

**Presipitat** – sitratli eruvchan dikalsiyfosfat  $CaHPO_4 \cdot 2H_2O$  dan iborat fosforli oddiy o'g'it. Presipitat ohak (ohaktosh)ning fosfat kislotasi bilan ta'sirlashish mahsulotidir. Texnik presipitatdagi  $P_2O_5$ (sit.) miqdori 40 % gacha yetadi. Ozuqali presipitat (dikalsiyfosfat) da 0,4 % li  $HCl$  da eruvchi  $P_2O_5$  43-47 % gacha yetadi. U amalda gigroskopik emas, yaxshi fizik xossalarga egadir.

**Termik fosfatlar** – maydalangan tabiiy fosfat, soda va returlar donadorlangan aralashmasini  $1100-1200^{\circ}C$  da aylanuvchi pechlarda kuydirilib, sovutilib va maydalaniib hosil qilinadigan mahsulot. Termofosfat va fosfatli qotishma tarkibida boshlang'ich xom ashyo tarkibiga muvofiq holda o'simliklar o'zlashtiradigan 20 dan 42 % gacha  $P_2O_5$  bo'ladi. Bunda umumiy  $P_2O_5$  ning 90-98 %i o'zlashadigan  $P_2O_5$  hissasiga to'g'ri keladi va uni, asosan, tuprog'i kislotali (sho'rxok) yerkarda solinadi.

**Kaliy nitrat (kaliyli selitra)**  $KNO_3$  – tarkibida kaliy va azot ozuqa elementlari tutgan murakkab o'g'it bo'lib, rangsiz kukun,  $337^{\circ}C$  da suyuqlanadi. Texnik mahsulot sarg'ish

rangga ega. Suyuqlanish xaroratidan yuqorida  $\text{KNO}_2$  va  $\text{O}_2$  ga parchalanadi.  $20^\circ\text{C}$  xaroratda 100 g suvda 31,5 g,  $114^\circ\text{C}$  da esa – 312 g  $\text{KNO}_3$  eriydi.

**Ammofos** – tarkibida fosfor va azot ozuqa elementlari tutgan murakkab o'g'it bo'lib, ekstraksiyon fosfat kislotani ammiak bilan neytrallash, suspenziyani suvsizlantirish, donadorlash va quritish yo'li bilan hosil qilinadigan mahsulot. Ammofos tarkibida, ishlatiladigan xom ashyolar va ishlab chiqarish usullariga muvofiq ravishda: 52 va 44 %  $\text{P}_2\text{O}_{5\text{umum}}$ , 51 va 43 %  $\text{P}_2\text{O}_{5\text{o'zl}}$ , 50 va 38 %  $\text{P}_2\text{O}_{5\text{s.e.}}$ , 12 va 11 % N, 1 %  $\text{H}_2\text{O}$ , 0 va 4 %  $\text{MgO}$ , 3,5 va 3 % F bo'ladi.

**Segregatsiya** – bu turli xil o'lcham va zichlikdagi donachalardan iborat aralashmaning mexanik ta'sir natijasida alohida-alohida qatlamlarga ajralib qolishi. Tashqi kuch ta'sirida (masalan, tashishda) – mayda o'lchamdagisi yoki katta zichlikdagi zarrachalar yirik zarrachalar orasidagi bo'shliqlar orqali kuch yo'nalishi ta'sirida suzilib qoladi. Har xil o'lcham va zichlikdagi zarrachalarni aralashdirilishidan deyarli bir jinsli bo'lgan aralashma hosil qilib bo'lmaydi.

**O'g'itlar antagonizmi** – aralash kompleks o'g'itlar olishda nomaqbul kimyoviy jarayonlarning sodir bo'lishi (uchuvchan mahsulotlarning hosil bo'lishi yoki o'zlashmaydigan shaklga retrogradatsiyalanishi) sababli ozuqa moddalarning yo'qotilishini hamda o'g'itlarning fizik xossalarining yomonlashishi.

**O'g'itlar sinergizmi** – O'g'itlar alohida-alohida bo'lgan holatdagiga nisbatan ular birgalikda solinganda ularning agrokimyoviy ta'siri yuqori samarali bo'lishi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари, тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 326 б.
2. G‘afurov Q., Shamshidinov I. Mineral o‘g‘itlar va tuzlar texnologiyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2007. – 352 b.
3. Kattayev N. Kimyoviy texnologiya. – T.: «Yangiyo‘l polygraph service» MCHJ, 2008. – 432 b.
4. G‘afurov Q., Shamshidinov I. Mineral o‘g‘it ishlab chiqarish nazariyasi va texnologik hisoblari. – T.: Fan va texnologiya, 2010. – 360 b.
5. Технология фосфорных и комплексных удобрений / Под ред. С.Д. Эвенчика и А.А. Бродского. – М.: Химия, 1987. – 464 с.
6. Позин М.Е. Технология минеральных удобрений: Учебник для вузов. – Л., Химия. 1989. – 352 с.
7. Кочетков В.Н. Фосфорсодержащие удобрения: Справочник / Под ред. проф. А.А. Соколовского. – М.: Химия, 1982. – 400 с.
8. Соколовский А.А., Унанянц Т.П. Краткий справочник по минеральным удобрениям. – М.: Химия, 1977. – 376 с.
9. Беглов Б.М., Намазов Ш.С., Мирзакулов Х.Ч., Умаров Т.Ж. Активация природного фосфатного сырья. – Т.: Издательство «Хоразм», 1999. – 112 с.
10. Кононов А.А., Стрелин В.Н., Евдокимова Л.И. Основы технологий комплексных удобрений. – М.: Химия, 1988. – 320 с.
11. Кувшинников И.М. Минеральные удобрения и соли: Свойства и способы их улучшения. – М.: Химия, 1987. – 256 с.

12. Шамшидинов И. Получение удобрений типа двойного суперфосфата из фосфоритов Карагату: Автореф. дис. ... канд. техн. наук, – Ташкент, 1994. – 25 с.
13. Гафуров К. Обесфторенные удобрения из фосфоритов Карагату. – Ташкент: ФАН, 1992. – 200 с.
14. Мирзакулов Х.Ч. Разработка ресурсосберегающей технологии переработки фосфоритов Центральных Кызылкумов на фосфорсодержащие удобрения: Дис. ... докт. техн. наук, – Ташкент, 2009. – 338 с.
15. Садыков Б.Б. Технология получения комплексных азотно-фосфорных серу- и кальцийсодержащих удобрений на основе фосфоритов Центральных Кызылкумов: Дис. ... канд. техн. наук, – Ташкент, 2008. – 161 с.
16. Волынкова Н.В. Разработка и внедрение технологии производства экстракционной фосфорной кислоты из фосфоритов Центральных Кызылкумов: Дис. ... канд. техн. наук, – Ташкент, 2010. – 172 с.
17. Стрелин В.Н. Производство жидких комплексных удобрений: Учебное пособие для рабочих профессий. – М.: НИИТЭХИМ, 1987. – 50 с.
18. Жданов Ю.Ф. Химия и технология полифосфатов. – М.: Химия, 1979.
19. Позин М.Е. Технология минеральных удобрений. – Л.: Химия, Ленингр. отд-ние, 1983. – 335 с.
20. Анспок П.И. Микроудобрения: Справочник. – Л.: Агропромиздат, 1990. – 272 с.
21. Каталымов М.В. Микроэлементы и микроудобрения. – М.-Л.: Химия, 1965. – 330 с.
22. Копейкина А.Н., Тихонова Р.А. Использование микроудобрений в сельском хозяйстве США. – Хим. промышленность за рубежом, 1982, № 10, с. 21.
23. Хакимов Х.Х., Татарская А.З. Периодическая система и биологическая роль элементов. – Ташкент: Медицина, 1985. – 185с.

24. Исаев Б.М. Физиологические и агрохимические основы питания хлопчатника микроэлементами. – Ташкент: Фан, 1979. - 259с.
25. Becking J.H. Molybdenum and Symbiotic nitrogen fixation by alder, – Nature, 1981 v 192 . p. 4808.
26. Аскарова С.А., Иоффе Р.Я., Мамадалиев А.Х. Микроэлементы и устойчивость хлопчатника к вильту. – Ташкент: Фан, 1973. – 72с.
27. Ташкузиев М.М., Джаббаров А., Зиямухамедов И.А. Влияние микроэлементов на повышение эффективности минеральных удобрений.-В кн.: «Биологическая роль микроэлементов и их применение в сельском хозяйстве и медицине». Докл. VIII Всесоюзной конференции. – Ивано-Франковск, 1978, т. 2, с. 228.
28. Тураев З. Получение медь- и цинксодержащего аммофоса с использованием некоторых видов вторичного сырья цветной металлургии и отработанных катализаторов: Дис. на ... канд. техн. наук, – Ташкент, 1987. – 123 с.

## MUNDARIJA

<b>So‘zboshi .....</b>	<b>3</b>
<b>Kirish .....</b>	<b>5</b>
<b>I bob. MURAKKAB O‘G‘ITLARNING XALQ XO‘JALIGIDAGI AHAMIYATI .....</b>	<b>8</b>
1-§. Murakkab o‘g‘itlarning klassifikatsiyasi .....	8
2-§. Murakkab o‘g‘itlar texnologiyasining fizik-kimyoviy asoslari .....	17
3-§. Murakkab o‘g‘itlar xomashyo bazasining rivojlanishi .....	20
<b>II bob. AZOT-KALIYLI VA FOSFOR-KALIYLI MURAKKAB O‘G‘ITLAR ISHLAB CHIQARISH NAZARIYASI VA TEXNOLOGIK HISOBLARI .....</b>	<b>35</b>
1-§. Kaliyli selitra ishlab chiqarish nazariyasi .....	35
2-§. Kaliyli selitra ishlab chiqarish texnologik hisoblari .....	43
3-§. Kaliy orto- va metafosfatlari ishlab chiqarish usullari .....	56
<b>III bob. AZOT-FOSFORLI MURAKKAB O‘G‘ITLAR ISHLAB CHIQARISH NAZARIYASI VA TEXNOLOGIK HISOBLARI .....</b>	<b>59</b>
1-§. Ammofos ishlab chiqarish nazariyasi va texnologik hisoblari .....	59
2-§. Ammofosfat ishlab chiqarish nazariyasi va texnologiyasi .....	78
3-§. Ammoniy polifosatlari ishlab chiqarish usullari va asosiy uskunalari .....	82
4-§. Ammoniy sulfatfosfat o‘g‘iti ishlab chiqarish .....	86
5-§. Suprefos ishlab chiqarish .....	90
6-§. Nitrokalsiyfosfat ishlab chiqarish .....	96
<b>IV bob. AZOT-FOSFOR-KALIYLI MURAKKAB O‘G‘ITLAR ISHLAB CHIQARISH NAZARIYASI VA TEXNOLOGIK HISOBLARI .....</b>	<b>102</b>
1-§. Nitroammofoska va karboammofoska ishlab chiqarish nazariyasi va texnologik hisoblari .....	102

2-§. Nitrofoska ishlab chiqarish nazariyasi va texnologiyasi .....	122
3-§. Nitrofoska ishlab chiqarish texnologik hisoblari .....	134
4-§. Azofoska ishlab chiqarish texnologiyasi .....	145
<b>V bob. SUYUQ KOMPLEKS O‘G‘ITLAR ISHLAB CHIQARISH NAZARIYASI VA TEXNOLOGIK HISOBLARI .....</b>	<b>151</b>
1-§. Suyuq kompleks o‘g‘itlar tarkibi va fizik-kimyoviy xossalari .....	151
2-§. Suyuq kompleks o‘g‘itlar ishlab chiqarish xomashyolari .....	156
3-§. Suyuq kompleks o‘g‘itlar olish jarayonining fizik-kimyoviy asoslari .....	161
4-§. Suyuq kompleks o‘g‘itlar ishlab chiqarish texnologik sxemasi .....	166
5-§. Suyuq kompleks o‘g‘itlar olish moddiy va energetik hisoblari .....	178
6-§. Suyuq kompleks o‘g‘itlar ishlab chiqarish asosiy texnologik jihozlari .....	181
7-§. Suyuq kompleks o‘g‘itlar ishlab chiqarish texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari .....	187
<b>VI bob. KOMPLEKS MIKROO‘G‘ITLAR ISHLAB CHIQARISH NAZARIYASI VA TEXNOLOGIK HISOBLARI .....</b>	<b>190</b>
1-§. Mikroo‘g‘itlar. O‘simliklar rivojlanishida mikroelementlarning roli .....	190
2-§. Mikroo‘g‘itlar va ularni ishlab chiqarish .....	194
3-§. Tarkibida mikroelementlar bo‘lgan azot-fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarish .....	205
4-§. Mis kuporosi ishlab chiqarish texnologik hisoblari .....	256
<b>Qisqacha izohli lug‘at (Glossariy).....</b>	<b>269</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar .....</b>	<b>279</b>

Mirzakulov Xoltura Choriyevich,  
Shamshidinov Israiljon Turgunovich,  
Zokirjon To'rayev

## **MURAKKAB O'G'ITLAR ISHLAB CHIQARISH NAZARIYASI VA TEXNOLOGIK HISOBLARI**

*Muharrir N. Rustamova*  
*Badiiy muharrir M. Adilov*  
*Kompyuterda sahifalovchi U. Raxmatov*

Nashr.lits. AI № 174. Bosishga ruxsat etildi 20.08.2013.  
Qog'oz bichimi 60x84 1/16. Hisob-nashr tabog'i 17,75 b.t.  
Adadi 200 dona. 36-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.  
100084, Toshkent, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 7-uy.

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO'JIZASI»  
bosmaxonasida chop etildi.  
100003. Toshkent. Olmazor, 171-uy